


85, 11  
4-96

M.MUXAMEDOVA

# ME'MORCHILIK ASOSLARI



TOSHKENT

85.11  
11.96

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

M.MUXAMEDOVA

# ME'MORCHILIK ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2018

**UO'K: 72.01(075.8)**

**KBK 85.11**

**M 96**

**M 96            M.Muxamedova. Me'morchilik asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2018, 296 bet.**

**ISBN 978-9943-11-927-7**

Mazkur o'quv qo'llanma me'morchilikning estetik talablari, texnik mukammalligi, binolar klassifikatsiyasi, asosiy soha va turlari, binolar konstruksiyasi, me'morchilikning rivojlanish an'analari, yangi tipdagi binolarning funksionalligi va konstruktiv mustahkamligi bilimlarini o'zlashtirishga yo'naltiriladi.

"Me'morchilik asoslari" o'quv qo'llanmasi inazmuniga yetakchi xorijiy oliv o'quv yurtlarida ishlab chiqilgan ilmiy qo'llanmalar asosida me'morchilikka oid ilmiy yangiliklar kiritilgan. Ushbu o'quv qo'llanma doirasida Qadimgi Misr, Old Osiyo, Uzoq Sharq me'morchiligi, Qadimgi Gretsya ibodatxonalarida qurilish konstruksiyalari va order sistemalari (doriy, ion, korinf), qadimgi Rim ustun-to'sin sistemasiga yangi konstruksiyalar kiritilishi (kompozit va toskan orderlari) akveduk, amfiteatr, forum, insulalar qurilishi, Vizantiya va ilk xristianlar davri arxitekturasi, roman va gotika uslubi me'morchilik asoslari, Uyg'onish va barokko davri shaharsozligining rivojlanish an'analari, klassitsizm va ampir uslubi asoslari, eklektizm, modern, konstruktivizm, funksionalizm uslublarining zamonaviy uslublar rivojidagi o'rni, yangi tipdagi binolarning funksionalligi va konstruktiv mustahkamligini o'rganish kabi mavzular mujassamlashtirilgan.

O'quv qo'llanmaning asosiy dolzarbliji talabalarga Sharq va G'arb, umuman olganda jahon me'morchiligining tarixi va nazariyasini o'rgatish, me'morchilik tarixining tadriji, rivojlanish qonuniyatlarini o'zlashtirish, turli uslublarning yuzaga kelishi va shu uslublar ta'sirida bunyod etilgan obidalar me'morchilagini yoritib berishdir.

**UO'K: 72.01(075.8)**

**KBK 85.11**

#### **Taqrizchilar:**

**J.X.Ismailova – t.f.d., professor, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori;**

**T.B.Ahmedov – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti «Tasviriy san'at tarixi va nazariyasi» kafedrasи dotsenti.**

**ISBN 978-9943-11-927-7**

# **“ME’MORCHILIK ASOSLARI” FANIGA KIRISH. ME’MORCHILIK SOHA, TURLARI VA USLUBLARI.**

## **Reja**

1. Arxitektura atamasiga ta’rif
2. Me’morchilikda binolar qurilishida qonuniyatlar
3. Binolar klassifikatsiyasi
4. Me’morchilikda uyg‘unlashuv asoslari
5. Me’morchilik uslublari

Jahon me’morchiligi tarixini o‘rganish uning taraqqiyot qonunlarini tekshirish, nodir yodgorliklar bilan odamlarininig his-tuyg‘u, huyotiy tajribalarini o‘rganish, g‘oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Bu so‘zsiz insonga hayotiy tajribalarni boyitishga, hayotga yanada keng va atroficha yondashishga yordam beradi. Me’morchilik tarixi odamzodning go‘zallik yaratishidagi muvaffaqiyatining dalilidir. Hashamatli inshoot qurish, uning barqarorligi, kuchi, foydasini muhokama qilish asli muhandislik ishi. Keyinchalik bu urxitekturaning asosiy ishiga aylandi. Hozirda bu eng foydali san’at va foydali san’atning eng oliysidir. Arxitektura tarixi turli yerlar va davrlardagi me’morchilik uslublari, yutuqlarini, rivojlanishning yirik harakatlarini o‘zida aks ettirgan<sup>1</sup>.

Bo‘lg‘usi me’morlar uchun me’morchilik tarixini o‘rganish, bilish juda muhim omillardan biridir. «Arxitektura tarixi» fanini aniqlashda, me’morchilik o‘z oldiga qo‘yan maqsadidan kelib chiqib, insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlaridan boshlab o‘rganiladi.

Arxitektura grekcha so‘z bo‘lib – "bosh quruvchi" degan manoni anglatadi. Binoni qurish san’ati, hamda majmualarni jamiyat talablariga nafsiyat amaliy xizmat, balki, badiiy-g‘oyaviy jihatdan uyg‘unligini hal qilishi kerak.

<sup>1</sup>History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, CALIFORNIA UNIVERSITY, 1998 SEVENTH EDITION.p.6. Introduction. (A history of architecture is record of man’s efforts to build beautifully. Only when the idea of beauty is added to that of use does a structure take its place among works of architecture. Architecture is the most useful of the fine arts and the noblest of the useful arts.)  
THE CHIEF E. PRIMITIVE AND PREHISTORIC ARCHITECTURE.(EARLY BEGINNINGS. It is impossible to trace the early stages of the process by which true architecture grew out of the first rude attempts of man at building. The rude and elementary structures built by savage and barbarous peoples, like the Hottentots or the tribes of Central Africa, are not in themselves works of architecture, nor is any instance known of the evolution of a civilized art from such beginnings. So far as the monuments testify, no savage people ever raised itself to civilization, and no primitive method of building was ever developed into genuine architecture, except by contact with some existing civilization of which it appropriated the spirit, the processes, and the forms).

Bino va inshootlarni qurilishida ruxsat berilgan amaliy, eng sodda maqsadlarni bevosita badiiy ijodiy uyg'unlik bilan birga hal qilinishi kerak. Arxitektura inshootlari jamiyat madaniyatining bir bo'lagi bo'lishi bilan birga, u san'at asari hamdir.

Shunday qilib, arxitektura insoniyat taraqqiyotining bir turi bo'lib, uni oddiy qurilish ishi bilan chegaralab bo'lmaydi, lekin, uni faqat badiiy ijod turi deb ham bo'lmaydi.

"Har bir davrda arxitektura tushunchasi turlicha talqin etilgan. Rim me'mori Vitruviy klassik formula bo'yicha me'morchilik inshootining asosiy sifatini quyidagicha belgilagan: *mustahkamlik, foyda va chiroylilik*".

Vitruviy bu ta'limotida shuni talab qilganki, binoning forma va kompozitsiyasi insoniyatning eng kerakli talablariga, halq an'analariga, o'sha joy iqlimiga, xalq urf-odatlariga, moslashtirishdan iborat".

Feodalizmning erta davrlarida arxitektura tushunchasi bir oz toraydi. Uning vazifalari asosan qa'la, ibodatxona, qo'rg'onlar qurilishi bilan chegaralandi. Me'morchilik inshootlari insoniyatning tafakkuri hamda qarashlariga asosiy ta'sirini o'tkazadi.

Inson binoga qarab, uning yengilligi yoki og'irligini, bejirimligi yoki qo'polligini, past va balandligini, yaxlitligini va kompozitsiyasining aniqligi, uning formalarining bo'laklarini his eta oladi va o'z ta'sirini o'tkazadi.

Inson binoga kirib, uning ichki fazoviy kengligi, mahobatli ravvoqlar, baland gumbaz, yuksak badiy ishlov berilgan stalaktitalar, o'z o'mida bino xarakteriga mos ravishda ishlatilganligiga hayratlanadi.

Asrlardan asrlarga o'tgan sayin me'morlarga bo'lgan talab kuchayadi. Arxitekturaviy yo'nalishni o'rganish ko'pgina davrlardanoq saroy va maqbarani, xalq turar joylarini o'rganishdan boshlanadi. Saroy va maqbaralar formalaridan ularning oddiy asosdan rivojlanishi topiladi. Xalq san'atining kuchi uning o'ziga xos yorqin xarakterli topilmalarini tarixiy monumental asarlarda yetkazib beradi.

Qadimgi Misrning piramida va Gretsianing maqbaralarida "abadiylik" g'oyalari aniq namoyon bo'lib, Qadimgi Misr arxitekturasida monumental g'oyalari farqlanadi. Misr maqbara, piramidalari firavnlar hokimiyatining abadiyligi bilan birga, ularning quzdorlikni

<sup>2</sup>A World History of architecture.Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London. 2003. P.1. Introduction.(The roman architect and engineer Vitruvius, active around 40 BCE, considered the essentials of architecture to be *firmaitas, utilitas, and venustas*, commonly translated as *firmness, commodity, and delight*).

<sup>3</sup>A World History of architecture Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London. 2003. P.1. Introduction. (Here firmness is structural stability, commodity is the meeting of functional requirements, and delight is beauty).

boshqarish demokratiyasi maqbara kompozitsiyalarida va ularning shaklida, antagonistik ravishda talqin etiladi. Yuqorida ko'rsatilgan urxitektura inshootlarining struktura va obrazlarini, inson tomonidan tabiat qonunlarini tan olingenini o'z inshootlariga yondashtirganlar. Shuning uchun arxitekturaning rivojlanish davri, inson tomonidan tinchlikni o'zlashtirish pog'onasi, bizga qimmatli bo'lgan ashylar arxitektonik muhitda yaratilib tugallanadi. Shuni ko'zda tutish lozimki, urxitekturanining har bir davri mustahkam xarakterli bo'lishiga qaramasdan, uyg'onish davri usullarini shakllarda qo'llab, oz bo'lsa ham yangi vazifalarga yangi mazmun bilan javob beradi. Asrlar davomidagi arxitektura rivojlanishining shakl rivojlanishida, bir necha qonuniyatlar ishlab chiqildi.

Arxitektura tarixida ham mustahkam qonunchilik yuzaga keldi. Qonunchilikning ko'p qismi arxitekturaviy formalarni o'zgartirdi, ammo ularning davomiyligi uzoqqa cho'zilmasligi xarakterli edi. Aniqlangan tarixiy davr mobaynida yangi iqtisodiy, badiiy yangiliklarga qamrulgan davr eski davrni cheklantiradi. Bu yerdan ko'rindaniki, arxitektura ilmining vazifasi arxitekturaning hayotiy progressiv qudriyatlарини о'злаштириб, hozirgi davrga, halqqa moslanadi<sup>4</sup>.

Tarixiy materializm qadimiyligi yodgorliklarni qunt bilan arxitekturani o'rganishga, sluningdek, har bir vaqt ni mutonosibligini to'g'ri tanlash arxitektura tarixi darsligida turli davrlar hajmini to'g'ri o'zlashtirish lozim. Antik arxitekturani biz o'rganamiz va bizning mahalliy mierosimiz bunda ko'proq halq yaratgan qismiga e'tibor qaratiladi.

Arxitektura tarixi bir tomonlama rivojlanishi bilan chegaralannasligi lozim. Funksional qurilish texnik g'oyaviy badiiy va boshqular. Arxitektura tarixi inson faoliyatining ko'p qirralari rivojlanishi jamiyatning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda jamoa rivojlanishi formalari arxitekturasida o'z samarasini topadi<sup>5</sup>.

<sup>4</sup>History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.p.6(All architecture is based on one or more of three fundamental structural principles). It is useful to have a standard way of defining principles. In addition to a definition statement, each principle should have associated rationale and implications statements, both to promote understanding and acceptance of the principles themselves, and to support the use of the principles in explaining and justifying why specific decisions are made. How the adoption of one or another of the principles affected the forms and even the decoration of the various styles.)

<sup>5</sup>A World History of architecture,Marian Moffet, Michael W Faro, Lawrence Wodehouse.London . 2003. P 7. (Architecture has to do with planning and designing form, space and ambience to reflect functional, technical, social, environmental and aesthetic considerations. It requires the creative manipulation and coordination of materials and technology, and of light and shadow. Often, conflicting requirements must be resolved. The practice of Architecture also encompasses the pragmatic aspects of realizing buildings and structures, including scheduling, cost estimation and construction administration. Documentation produced by architects, typically drawings, plans and technical specifications, defines the project and/or behavior of a building or other kind of system that is to be or has been constructed).

Arxitektura tarixi fanning shunday xususiyati borki, unda uyg‘o-nish davri o‘rganiladi, turli tarixiy davrlarni yuzaga kelishi va rivoj-lanishi arxitekturaning faqat ma’lum bir tomonlarini emas, balki murakkab, ko‘p qirrali, ya’niy dialektik birligini arxitekturada namoyon etadi.

Arxitekturaviy jarayonning rivojlanishi - eski uslublarning yangi-lari bilan qamrab olinishi, real formalarga aylantirilib utilitar g‘oyalar ilgari suriladi. Shuning uchun arxitektura tarixi arxitekturaviy ijodiyot-da progressiv uslublarni va tarixiy shakllarni o‘rganadigan fan hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati uchun zarur bo‘lgan makonning loyihasini yaratish va uni qurish me’morlik san’atining mazmunini tashkil etadi. Turar joylar, yo‘llar, hiyobonu maydonlar, yirik suv inshoot va madaniy xordiq uchun mo‘ljallangan me’moriy majmualar hammasi shu san’atning turli ko‘rinishlaridir. Bular uning bosh quruvchisi – arxitek-tori (me’mori) tomonidan loyihalashtiriladi va rahbarligida amalga oshiriladi. Bino va inshootlarning nima maqsadga xizmat qilishi, ya’ni ularning bajaradigan vazifasi aniqlanadi, uning to‘g‘ri hal qilish esa me’morlik asarini yaratishdagi asosiy omillardan hisoblanadi. Shular asosida me’morlik quyidagi soha va turlarga bo‘linadi:

### **1. Turar-joy binolari va ma’muriy madaniy inshoatlar sohasi**

Turar-joy binolari qayerda va qanday qurilishiga qarab, past qavatli (4-5 qavatgacha) va ko‘p qavatli (5 qavatlidan yuqorisiga) kabi turlarga bo‘linadi. Bu binolar asosan mahalliy iqlim sharoitlari, milliy an’analari va oila a’zolari soni kabilarga moslashgan bo‘lishi kerak.

Jamoat va ma’muriyat binolari sohasi hozirgi davrdagi eng katta soha hisoblanib, o‘z ichiga juda ko‘p va xilma-xil turlarni oladi. Bu turlar bir-biridan bajaradigan xizmati va funksiyasi, xarakteri va individualligi asosida farqlanadi. Masalan: umumiy ta’lim-tarbiya binolari (yasli, bog‘cha, maktab, internat va h.k.); o‘rta va oliy ta’lim-tarbiya binolari (kollej, institut, universitet va h.k.); sog‘liqni saqlash va dam olish binolari (poliklinika, kasalxonha, dispanser, sanatoriya, kurort, dam olish uylari va h.k.); madaniy oqartuv binolari (teatr, kinoteatr, sirk, konsert zallari, Muzey, kutubxona, ko‘rgazma pavilyonlari va h.k.); savdo-sotiq binolari (magazin, univermag, savdo markazlari, bozor va h.k.); umumiy ovqatlanish binolari (oshxona, choyxona,

qaxvaxona, restoran, va h.k.); sport bino va inshootlari (stadion, manej, basseyn, yaxt klub va h.k.); maishiy xizmat ko'rsatish binolari (hammom, atelye, maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari va h.k.); aloqa va transport bino va inshootlari (pochta, telegraf, aeroport, vokzal, avtovokzal, metropoliten va h.k.); ma'muriy xizmat binolari (har xil vazirlik, davlat muassasalari va h.k.).

## 2. Sanoat korxona va suv inshootlari me'morligi

Sanoat korxona va suv inshootlari sohasi asosan XIX asrda zavod va fabrikalarning rivojlanishi va qishloq xo'jaligining texnikaviy taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan. Bu binolar arxitekturasida ularning bajaradigan funksiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ya'ni binoning past-balandligi va katta kichikligi, ichki va tashqi qiyofasi shular jumlasidandir.

3. Landshaft me'morligi yoki bog'-park san'ati Landshaft me'morligi yoki bog'-park san'ati shahar hiyobonlari, kichik me'moriy hajmli qurilmalari bo'lgan, favvoralar, ko'priq va yo'lakchalar bo'lgan dan olish hududi me'morligida o'z aksini topadi.

4. Shaharsozlik. Shaharsozlik, me'morlikning katta va alohida sohasi hisoblanadi. Turar joylar, mavze (kvartal), kichik noxiya (mikrorayon), (mahallalar)lar, maydonlar va bog'lar, ko'cha va hiyobonlar, sanoat va ijtimoiy binolar va ular bilan birga transport magistrallari, turli kommunikatsiya ishlari hisobga olinib, keljakda rivojlantirilishi ko'zda tutilgan shahar loyihasi yaratiladi. Mana shu loyiha asosida shaharlar barpo etiladi yoki qayta tiklanadi, ta'mirlanadi.

Me'morlik ham sanatning boshqa turlari singari davlat tarixi, madaniy ma'naviy mavqeni o'zida aks ettiradi, halqning tur mush tarzi, estetik qarashlarini namoyon etadi. Shuning uchun bu san'at haqiqiy ravishda tarixiy voqealar salnamosi, davr oynasi sifatida e'tirof etiladi.

Inson paydo bo'lqandan boshlab o'zi uchun yashay digan, yog'in-bochinlardan,sovuj va issiqlikdan muhofaza etadigan joylar qurishgan. Ular dastlab oddiy ko'rinishda toshlardan, yog'och va loylardan ishlangan. Davr o'tishi bilan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida me'morlik san'ati ham rivojlandi va texnika viy tomondan o'tdi: uylar, saroylar, ibodatxona lar, harbiy istehkomlar, shaharlar, zavod va fabrikalar, ko'priq va suv inshootlari barpo etila boshlandi.

Xukmron sinf g'oyasi, qurilish texnikasi rivojinining saviyasi me'morlikdn o'z aksini topadi, shu tufayli har xil davrda qurilgan binolar bir-biridan farq qiladi. Biror me'morlik inshootini barpo etish

uchun jamoat mehnati, vaqt, qurilish materiallari va konstruksiyalari sarflanadi. Me'morlikda qulaylik, go'zallik va boshqa estetik talablar bilan birga uning maqsadga muvofiqligi va tejamkorlik talablari ham ko'zda tutiladi. Qulay, arzon, mustahkam va go'zal shiori qadim zamonlardan mavjud bo'lgan. Shu shior me'morlikdagi moddiy va badiiy asosiy qonunni o'zida mustahkam birlashtirgan. Ularning mazmuni quyidagi qoida ko'rinishida uchraydi: Qulaylik – binoning qanday vazifani bajarish uchun muvofiqlashgan me'morlik inshootlariga qo'yiladigan asosiy talablaridan biri bo'lib, aniq funksional jarayonni o'zidan aks ettiradi. Biror me'morlik inshootini qurishdan avval binoning me'moriy loyihasi ishlangan va unda fazoviy hajm tuzilishi to'g'ri hal qilingan bo'lishi kerak. Masalan, turar joylarda asosan mahalliy iqlim sharoitlari, ya'ni yozda issiq quyosh nuridan, qishda sovuq va yog'in-sochindan saqlanish masalalari ko'zda tutiladi. Xonalar soni va o'lchami unda yashaydigan oila a'zolari soniga qarab belgilanadi va hokazo. Teatr, kino - teatr va klublarda bo'lsa, sahnadagi yoki ekrandagi hodisalar zalning hamma joyidan yaxshi ko'rinishi va ovozning bir xil eshitilishi, odamlarning tez zalga kirish va undan chiqish kabi masalalar asosiy o'rinda turadi. Oshxonalarda asosiy funksiya ovqatlanish, maktablarda o'qish, sport zallarda har xil mashqlar o'tkazish kabilalar bo'ladi va hokazo. Me'morlikda texnika mukammalligi katta o'ringa ega. U o'z ichiga qurilish texnikasi (qurilish materiali, konstruksiyasi, mashinasi, texnologiyasi va asbob-anjomlari) va fani (konstruksiya, texnologiyasi, materiallar xususiyati kabilarni hisoblash va h.k.)ni oladi. Qurilish texnikasining qanday rivojlanganligi arxitektura rivojini belgilab beradi. Shu qatorda arxitekturaning o'zi texnikaga har xil talablar qo'yib uni rivojlantiradi. Umuman olganda arxitektura va qurilish texnikasi o'zaro moslashgan holda rivojlanadi. Ammo, ba'zan mana shu moslashish buziladi, ana shu davrda arxitektura inqirozga yuz tutadi.

Me'morlikda biror bino yoki majmuani barpo etishda uning iqtisodiy tomonlari ham katta ahamiyatga ega. Ya'ni arzon qurilish usullarini qo'llash natijasida binoga minimal xarajat sarflash ko'zda tutiladi. Shu bilan birga binoga bo'lgan talablar (chiroy, qulay va mustahkam) qondirilib, uning saviyasi kamaymasligi kerak. Me'morlikdagi go'zallik va nafosat tasviriy va amaliy san'atdag'i shu tushunchadan ancha murakkab. Chunki me'morlik bir vaqt ni o'zida ham moddiy, ham ma'naviy tomoni bilan mavjuddir. Ba'zi me'moriy

qurilmalarida, masalan, memorial muzey, maqbara, ko'rgazma zallari kabilarda binoning g'oya va mazmuni bиринчи о'rinda bo'ladi. Ya'ni g'oya va mazmun bino arxitekturasida shakllanib badiiy obrazga aylanadi. Arxitekturadagi bu obraz davlatning siyosiy va iqtisodiy kuch-quvvatini, jamiyat xarakterini, mafkurasini o'zida aks ettiradi.

Me'morlikning asosiy maqsadi insonlarning yashashi va ishlashi uchun kerak bo'lgan muhit, joy yaratishdir. Ammo bu masalani yechishda to'rt tomondan o'ralgan bino tushunilmaydi. Aksincha, qanday qilib mana shu muhit yoki joyni tashkil etilishi uning moddiy va ma'naviy tomonini to'g'ri hal qilish ko'zda tutiladi. Shu tufayli me'morlik mazmuni uning ko'p qirrali xarakterining jamiyat talabi bilan aniqlanishidadir. Bu mazmun ijtimoiy tartib jarayonlariga javob beruvchi, jamiyatning moddiy-texnika sharoiti va estetik ideallari bilan moslashgan holda me'morlik shakllarini tashkil etadi. Bu shakllarni yaratishda me'morlik san'atida kompozitsiya tushunchasi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Me'morlik kompozitsiyasi shundan iboratki, aniq qonun-qoida asosida joylashilgan yoki tashkil topgan, tashqi va ichki elementlari o'zaro mutanosib va hamoxang bo'lib, bir butunlikni, yaxlitlikni mujassamlashtirgan bo'ladi. Buni biror bino, inshoot, binolar ansambli (majmuasi), umumiy shahar arxitektura qurilishi kabilarda yaqqol ko'rish mukin. Kompozitsyaning uslub va usulari juda ko'p, shulardan ba'zilari: tektonika, o'lcham, mutanosiblik, muvofiqlik, nisbat (proporsiya) va biroxanglik (ritm), simmetriya va assimetriya, keskinlik, yorug'lik va rang, qurilish materiallarining xususiyati va h.k. Mana shu kompozitsyaning usul va usulblari har tomonlama yaxshi o'zlashtirilgan va qo'llanilgan taqdirdagina nafosat va foydalik, estetik va amaliy talablariga javob beradigan me'morlik usuri yaratilishi mumkin. Shu asarlar bir-biridan, me'morning ijodiy uslubi va usuli bilan ham farqlanadi. Me'morlikda badiiy obraz yaratish o'zining vositalariga ega. Shulardan asosiysi fazoviylikni tashkil etish va tektonikadir. Bu ikki tushuncha me'morlik san'atida muhim himmiyyatga ega: mana shular yordamida bino yoki inshootni shakli, qiyofasi, past-balansligi, konstruksiyasi, ya'ni, bino obrazi xosil qilinadi. Oddiy qilib aytganda, tektonika bino o'zagi, suyagidir. Bu tizimni plastik hal etish, uyg'unlashtirish, hamda me'morlik shakllarini

keltirib chiqarish tektonik tizim deyiladi<sup>6</sup>. Jumladan, tektonika konstruksiya va badiiylikni birlashtiradi. Mana shu birlik yordamida me'mor bino yoki inshoot arxitekturasiga aniqlik, nafosatlilik va hamoxanglik bera oladi. Masalan, buni, Qadimgi Misr ehromlarida, Italiya me'morligida, gotika davri ibodatxonalarida ko'rish mumkin. Kompozitsiya kategoriyalardan yana biri simmetriya va assimmetriyadir. Bu kategoriya kompozitsiyaning oddiy va aniq usulidir. Bu usul bino arxitekturasining tuzilishini, fazoviy hajmini, bino bo'laklarining o'zaro joylashishini aniqlaydi. Yana bu usul asosida me'morlik majmualari va majmua loyihalari yaratiladi. Masalan, O'rta Osiyo shaharlaridagi me'morlik yodgorliklari: madrasa va masjidlar, karvonsaroy va xonaqohlar simmetriya, nisbat va mutanosiblik yordamida me'morlikning yorqin badiiy obrazini yaratishgan. Natijada tantanavor va salobatli yoki oddiy va sodda ko'rinishdagi me'morlik inshootiga ega bo'lingan: demak, bu usullar orqali loyihalash jarayonidagi hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar aniqlanadi, hamda yaxlit, me'morlik asari yaratiladi. Me'morlik inson hayoti va faoliyati bilan birga bo'lganligi tufayli xilma-xil me'morlik yodgorliklari o'z davrining hayotini, tarixini va madaniyatini o'zlarida aks ettirgan. Chunki har bir tarixiy, ijtimoiy davrdagi me'morlik asari o'zinining iqtisodiy, texnikaviy g'oyaviy xarakteriga, badiiy siyoshi va uslubiga ega bo'lgan uslub muhim estetik kategoriya bo'lib, me'morlik tarixini, rivojini o'rganishda, hamda uni har tomonlama va to'la tushunishda alohida rol o'ynaydi. Bu tushuncha me'morlik rivojidagi davr va pog'onalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

**Me'morlik uslublari.** Uslub tushunchasi keng va turlicha ishlatalishi mumkin. Masalan, "davr uslubi", "hayot uslubi", "milliy uslub", "adabiyot uslubi", "san'at uslubi", tasviriy san'at va me'morlikda "uyg'onish davri me'morligi va tasviriy san'at uslubi", "impressionizm uslubi", "gotika uslubi", "klassitsizm uslubi", "modernizm uslubi" va h.k. Uslub bilan mashhur san'at asarlarini yaratgan buyuk va malakali usta, individ shaxsnинг ish uslubi ham ifodalanadi va aniqlanadi: yozuvchining, kompozitorning, me'morning, rassomning, kino

<sup>6</sup>A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June. P7. (building first evolved out of the dynamics between needs (shelter, security, worship, etc.) and means (available building materials and attendant skills). As human cultures developed and knowledge began to be formalized through oral traditions and practices, building became a craft and "architecture" is the name given to the most highly formalized and respected versions of that craft. It is widely assumed that architectural success was the product of a process of trial and error, with progressively less trial and more replication as the results of the process proved increasingly satisfactory. What is termed vernacular architecture continues to be produced in many parts of the world. Indeed, vernacular buildings make up most of the built world that people experience every day.

rejissyorning uslubi va h.k. Ammo har vaqt va har bir hodisada "Uslub-stil" tushunchasi umumiy xarakterga ega bo'ladi. Uslub ma'no va shaklni o'zida ma'lum bir davrgacha mujassamlashtirgan, estetik obrazni uyg'unlashtirgan va yaxlitlashtirgan tizimdir. Me'morlikdagi uslub – tasviriy san'atdagi uslubdan o'zining ba'zi bir xususiyatlari bilan farqlanadi: - me'morlikda uslubning iqtisodiy va ma'naviy, g'oyaviy estetik tomonlari bino va yoki inshootning funksiyasi va konstruksiyasi bilan birlashib, qo'shilib ketadi. Shu tufayli uslub bir necha o'n yillar, hatto bir necha asrlar davomida barpo bo'ladi<sup>7</sup>. Har bir davr me'morlik rivojida bir yoki bir necha xil inshootlar tipini yaratadi. Mana shu inshoot tipida o'z davrining uslubi aniq, to'la va har tomonlama yoritilgan bo'ladi. Masalan, Qadimgi Misrning exromlari, Yunonistonning amfiteatrлари, O'rta Osiyo va musulmon Sharqining – masjid, maqbara va madrasalari, Rimning ibodatxonalari, Yevropaning – gotika soborlari; renessans qasrlari; barokko cherkovlari; klassitsizm saroylari va h.k. Mana shu har bir me'moriy yodgorliklari o'z davrini va uni ijodkorlarini u yoki bu uslub yordami bilan bizning ko'z oldimizda namoyon etadi. Me'morlik uslubi na faqat tashqi tomondan, balki ichki interyerida ham o'z ifodasini topadi. Bu xususda zamонавиј me'morlik interyerlari yaqqol misol bo'la oladi<sup>8</sup>.

Har bir binoni qurishda unga katta bo'lmasa ham sezilarli darajada mablag' ajratilishi lozim. Shuning uchun odamzod hech qachon kerakmas, foydasiz bino qurilishiga yo'l qo'yмаган. Binoni foydasi haqida gapira turib, biz uni birinchi va asosiy funksional – me'morchilikning tarafini nazarda tutamiz.

Yuqorida aytib o'rganganimizdek, binolar funksiyalari xilma - xil bo'ladi. Shuni aytib o'tish joizki, me'morchilik insoniyat evolyutsiyasi bilan birga rivojlanib kelmoqda. Har bir davr va har bir millat faqat

History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.(Style is character expressive of definite conceptions, as grandeur, gravity, or solemnity. The history of architecture appears as a connected chain of causes and effects succeeding each other without break, each style growing out of that which preceded it, or springing out of the surrounding contact of a higher with a lower civilization.)

A World History of architecture Marian Moffet, Micheil W Fario,Lawrence Wodehouse.London 2003.P.16-19.(An architectural style is characterized by the features that make a building or other structure notable or historically identifiable. A style may include such elements as form, method of construction, building materials, and regional character. Most architecture can be classified within a chronology of styles which changes over time reflecting changing fashion, beliefs and religion, or the emergence of new ideas, technology, or materials which make new styles possible. Styles therefore often emerge from the history of a society. They are documented in the subject of architectural history. At any time several styles may be fashionable, and when a style changes it usually does so gradually, as architects learn and adapt to new ideas. The new style is sometimes only a rebellion against an existing style, such as postmodernism (meaning "after modernism"), which has in recent years found its own language and split into a number of styles which have acquired other names. An architectural style, sometimes called an architectural pattern, is a set of principles – a coarse grained pattern that provides an abstract framework for a family of systems. An architectural style supports partitioning and promotes design reuse by providing solutions to frequently recurring problems).

o‘ziga xos qurilishdagi binolarni yaratishgan, ular ijtimoiy tuzum, obi-havo, din, davlat hokimiyati va boshqa omillar asos bo‘lgan. Davrlar almashuvi jarayonida yangi tipdagi binolar ham paydo bo‘lavergan; eskilarni o‘rniga yangisi, yangi kelgan. Qadimgi Rimda boshqaruv va savdo binolari qurilgan - bazilikalar, ulkan hammomlar, teatrlar, sirklar, forum - maydonlar yaratilgan: o‘rta asrlarda asosiy me’morchilik binolari feodal qasrlar, cherkovlar, buyuk shahar; XIX asrda esa kapitalistik rivojlanishni sharoitiga xos har xil binolar qurilgan va boshqalar. Tarixiy jarayon mobaynida binolar rejalari ham o‘zgargan, ular bir qator davrga o‘xshash bo‘lgan bo‘lsa, masalan, turar joylar, jamoat binolari-ratusha, teatr va boshqalar. XVII-XVIII asrlar turar joylari, o‘rta asr turar joylaridan sezilarli farqlanib turadi. Zamonaviy teatrlar, antik teatrlarga o‘xshamaydi.

Binoning rejasи, shu rejaning chiziqlari, binoga kuruvchi xonalar va ular o‘rtasidagi aloqani sinchkovlik bilan o‘rganish mabaynida teatrlarga yorqin tasavvur uyg‘otishi lozimki o‘sha hayot haqida qanchalik u oldin qurilgan bo‘lmasin, bino rejasи va uning o‘ziga xos jihatlari olimlar va me’morchilik tarixchilar uchun ko‘proq yoki kamroq darajada uni qurilish paytini aniqlashga yordam beradi.

Qadimgi Yunoniston me’morlari monumental qurilishda asosiy qurilish material sifatida tabiiy toshdan foydalanishgan, xususan marmardan, to‘sinlar esa xodali bo‘lgan Rim arxitekturasida g‘isht va rim betoni keng qo‘llanilgan, to‘sinlar uchun esa turli peshtoqlar ishlatilgan. Tayanch qurilmalar va gotik peshtoqlar ham toshdan qurilgan. XV – XVI asrlarda, Uyg‘onish davrida asosiy o‘rinni g‘isht qurilish texnikasi egallab, XIX asrga qadar saqlanib qoldi. XIX asr birinchi yarmidan boshlab, qurishda quruvchilarining texnik imkoniyatlarini kengaytiruvchi metallar tabora keng qo‘llanila boshladi. XIX asr oxiridan buyon hozirgi vaqtning asosiy qurilish materiallari bo‘lmish asosiy qurilish materialari bo‘lmish beton va temirbetondan foydalanila boshlandi. Zamonaviy qurilish texnikasi arxitektura rivojida batamom yangi bosqichni boshlab beradi.

Arxitekturaning badiiy tomoni. Yuqorida chiroy va maftunkorlik har binoning shartli xususiyati bo‘lishi kerakligi aytilgan edi. Harqanday inshootni ichidan va tashqarisidan minglab odamlar tomosha qiladi. Shu sababli har zamon quruvchilar o‘z imoratlariga ko‘rkam tus berishga intiladi. Arxitekturaning badiiy tomonlari uni o‘rganuvchilar uchun katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu avval bayonini yengilashtirish

uchun ikki qo'shni tushuncha. "umumiyl" va "xususiy" me'moriy shakllarni kiritamiz.

Umumiyl me'moriy (ya'ni bino kompozitsiyasi) deganda binoning asosiy hajmiy-fazoviy tuzilishi, uni tashkil etuvchi asosiy elementlarning bog'lanishi tushuniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, umumiyl me'moriy shakl tushunchasiga binoning nafaqat tashqi, balki ichki hajmlari ham kiradi.

Xususiy me'moriy shakl deganda esa bino kompozitsiyasiga nisbatan xususiy xarakterga ega bo'lgan me'moriy va dekorativ elementlar tushuniladi. Ularga ustunlar, karnizlar, frontonlar, oyna va eshiklar haykaltaroshlik detallari va boshqalari kiradi.

U yoki bu binoni loyihalashtirgan payt arxitektor umumiyl va xususiy shakllar bilan aloqa va to'la mutanosiblik bo'lishi kerak. Har ikkalovi ham arxitekturada muhim rol o'ynaydi, biroq me'morning asosiy vositasi umumiyl shakllardir. Hech bir detal, u qanchalik plastik ishonarli bo'lmasin, bino kompozitsiyasidagi kamchiliklarni muvozanatlay olmaydi. Inshooat masalalarining umumiyl chuqurlanishi, uning asosiy proporsiyalari va silueti yakuniy badiiy natija – bino ko'rini-shining ifodaliligini aniqlab beradi.

Turli zamonlarda turlar halqlarda go'zallik va badiiy garmoniya haqida turli o'ziga xos tasavvurlar bo'lgan. Arxitektura sohasidagi badiiy meyorlar ham o'zgargan. Bino turlari va loyihalari rivojlangan, qurylish materiallari almashgan. Bularning barchasi arxitekturaning badity tomonini aniqlab, me'moriy shakllarning odamlar tomonidan idrok etilishiga ta'sir ko'rsatgan. Kompozitson tamoyillar ham binolarning interyeri ham o'zgargan. Qadimgi yunon va rimliklarga chiroyli va ifodali tuyilgan narsalarni o'rta asr me'morlari tushunmagan, o'z navbatida uyg'onish davri quruvchilar o'rta asr "Gotika"sinu rad etishgan. Arxetekturnadagi go'zalik haqidagi zamonaviy tasavvurlar avvalgilardan ko'p tomonidan farq qiladi.

Shunday qilib, arxitekturaning badiiy tomoni, xuddi uning funksional va konstruktiv qirralari kabi, tarix davomida o'zgarib keladi.

Arxitekturaning uchala elementi – foyda, mustahkamlik va chiroy – bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir birini to'ldirib turadi. A.Palladio o'zininig "Arxitektura haqidagi" risolasida yozishicha, "foydalni, biroq mustahkam bo'Imagan, yoki mustahkam bo'lib, noqulay bo'lgan, yoki ham foydalni, ham mustahkam bo'lib, chiroydan matrur

bo‘lgan binoni komil deb bo‘lmaydi”<sup>9</sup>. Biz arxitekturaning uch qirrasini - funksional, ya’ni bino vazifasi bilan bog‘liq tomoni, konstruktiv, ya’ni mustahkamlikni ta’minlovchi, va badiiy qirralari o‘zgarib kelishini, ya’ni ular tarixiy kategoriya ekanligini aniqladik. Unda zamonlar osha butun arxitektura o‘zgaradi deb xulosa qilish mumkin.

## Nazorat savollari

1. Arxitektura nima? Uning uch ajralmas jihatlari nimalardan iborat?
2. Me’morchilikda binolar qurilishida qanday qonuniyatlar mavjud?
3. Binolar klassifikatsiyasi nima?
4. Me’morchilikda uyg‘unlashuv asoslari nimalardan iborat?
5. Me’morchilikdagi uslublar ko‘rinishi nimalardan iborat?

## Glossariy

**Arxitektura** (me’morchilik) – bu grekcha so‘z bo‘lib, "bosh quruvchi" - binoni qurish san’ati, hamda majmualarni jamiyat talablariga nafaqat amaliy xizmat, balki, badiiy-g‘oyaviy jihatdan uyg‘unligini hal qilishi kerak<sup>10</sup>.

**Funksional qurilish** – texnik g‘oyaviy badiiy jarayonlarning me’morchilikdagi uyg‘unlashuvi<sup>11</sup>.

**Arxitektonika** – me’moriy asarda inshootning konstruktiv tuzilishini badiiy ifoda etilish jihat<sup>12</sup>.

**Bezak** – binoni ziynatlab turuvchi kiritma, pardoz; asosan tasviriy va ifodaviy turga bo‘linadi<sup>13</sup>.

<sup>9</sup> “Andrea Palladio (Italian architect) – Britannica Online Encyclopedia”. Britannica.com. Retrieved 25 March 2013. Although his buildings are all in a relatively small part of Italy, Palladio’s influence was far-reaching. One factor in the spread of his influence was the publication in 1570 of his architectural treatise, *I Quattro Libri dell’Architettura* (The Four Books of Architecture), which set out rules others could follow. The first book includes studies of decorative styles, classical orders, and materials. The second book included Palladio’s town and country house designs and classical reconstructions. The third book has bridge and basilica designs, city planning designs, and classical halls. The fourth book included information on the reconstruction of ancient Roman temples. Before this landmark publication, architectural drawings by Palladio had appeared in print as illustrations to *Daniele Barbaro’s* “Commentary” on *Vitruvius*.

<sup>10</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.29

<sup>11</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.238

<sup>12</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.28

<sup>13</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.362.

**Gumbaz** – sirti egri chiziqning vertikal o‘q atrofida aylantirish natijasida hosil bo‘ladigan tom yopma<sup>14</sup>.

**Yodgorlik** – qadimda paydo bo‘lib, bizgacha yetib kelgan bino va inshoot yoki ularning bo‘laklari, majmualar hamda tarixiy bog‘lar; yodgorlikka nafaqat alohida bino, balki uning badiiy sifatini ochib beruvchi chakana qurilmalar ham kiradi<sup>15</sup>.

### **Foydalilanadigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Curil M. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004y. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me’morilik asoslari. Darslik. – T.: «O‘qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me’mor olami. Lug‘at. – T.: «O‘qituvchi»,1998.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalash-tirish tipologik asoslari. T.: «O‘qituvchi», 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В. Очерки истории архитектурных стилей. М., 2001.
4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Кильде Т.Л Основы архитектуры.- М.; Высшая школа, 1999.
6. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.; Высшая школа, 1998.
7. Сербинович П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.; Высшая школа, 2000.

<sup>14</sup>M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.561

<sup>15</sup>M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.358

## ME'MORCHILIKDA BINO KONSTRUKSİYALARI

Reja:

1. Me'mochilikning tayanch konstruksiyalari.
2. Bino qismlari.
3. Bino mustahkamligini ta'minlash.
4. Asosiy va ikkinchi darajali qurilmalar.

Binoning mustahkamlik masalasi ikkita elementni o'z ichiga oladi quritilishi o'z ichiga oladi. Qurilish ashyolari va ulardan yasaladigan konstruksiyalardir.

Tabiyki, qurilish ashyolari o'ziga xos jihatlari binoning konstruksiyasiga ham ko'p jihatdan ta'sir qiladi. Yog'ochdan onsonlikcha yasaladigan narsani g'ishdan qurilmalarni yog'och yoki metalga "o'tkazib" bo'lmaydi. Barcha davrlarning hamma binolari shakllari ikki asosiy katta guruhli konstruksiyalar: tayanch (ko'taruvchi) va yopuvchilardan iborat.


**Tayanch konstruksiyalar:** Tayanch konstruksiyalar yopuvchi konstruksiyalarini ushlab turadi: qurilmaning fundamentlari, devorlar va turuvchi tayanchlardan iborat<sup>16</sup>.


**Asoslar.** Asoslar qurilmaning asosiy konstruksiyasi hisoblanadi. U to'lig'icha yerda joylasha turib, ular yerning ustki qismi tuproqning zinch qatlamiga bosim beradi, odatda chuqurlikda 2 m atrofida chuqurlikda yotadi. Binoning pastki asos qismi, pastki qismi yuqoriga nisbatan kengroq bo'ladi. Bu binoga turg'unlik berish uchun va katta maydon tuprog'iga iloji boricha unga bosimni teng taqsimlanishi imkonini berish uchun zarur. Odatda eski qurilmalar asoslari trapetsiya shaklli ohaktosh tutashmani hosil qilgan va ular mustahkam dag'al ohaktoshlardan terilgan. Hozirda ko'p holatlarda temir betonli qilinadi

<sup>16</sup> A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June. P 5. (**Construction** is the process of constructing a building or infrastructure. Construction differs from manufacturing in that manufacturing typically involves mass production of similar items without a designated purchaser, while construction typically takes place on location for a known client. Construction as an industry comprises six to nine percent of the gross domestic product of developed countries. Construction starts with planning, design, and financing and continues until the project is built and ready for use. Large-scale construction requires collaboration across multiple disciplines. An architect normally manages the job, and a construction manager, design engineer, construction engineer or project manager supervises it. For the successful execution of a project, effective planning is essential. Those involved with the design and execution of the infrastructure in question must consider zoning requirements, the environmental impact of the job, the successful scheduling, budgeting, construction-site safety, availability and transportation of building materials, logistics, inconvenience to the public caused by construction delays and bidding, etc. The largest construction projects are referred to as megaprojects.

va ular yuqoriga aylantirilgan “T” ko‘rinishida tavrli konfiguratsiyaga ega. Eng pastki qismi yanada keng, u bevosita tuproqqa tayanadi va ular bashmak deb nomlanadi. Asosga tayanuvchi devorlar, o‘zining ko‘rinishiga, rejasiga ko‘ra tasmali deb nomlanadi, ular alohida ostida turuvchi tayanchlar bilan turadi hamda bir-biridan himoyalangan holda qo‘yiladi va shu tufayli orolchali deb nomlanadi. Asosni qo‘yishning oddiyina balandligi – 2 metr atrofida bo‘ladil<sup>17</sup>.

Nihoyatda katta og‘ir qurilmalarda tuproqqa yuk odatdagি o‘lchamlardan ortsa, u holda maxsus, yanada kuchli asoslar qilinadi:





**Kapital devorlar.** Kapital devorlar deb, asosiy tarkibiy qismga kiruvchi, binoni konstruksiyasini ushlab turuvchi (to'siqdan farqli, alohida xonani chugaralanishidan hosil qiladi). Kapital devorlar tashqi va ichki bo'ladi. Binoning tashqi devorlari binoni o'rab turadi va uning yo'nalishi bo'yicha joylanadi. Ular o'z navbatida ko'ndalang va uzunasiga qilinadi (oxirgilarini shuningdek, shipsali yoki torsoviy deyiladi). Hammadan ko'p hollarda kapital devorlar, hozirda ham g'ishtdan tiklaydilar. G'isht ilk bor qadimgi dunyoda qo'llanilgan, avval pishirilmagan ko'rinishda, keyinchalik yanada mustahkam pishirilgan g'isht keng tarqalgan. XV asr Uyg'onish davridan boshlab g'isht asosiy qurilish ashyosi sifatida kiritildi.


**G'ishtli terilish.** G'ishtli yoki hohlagan toshli terishning asosiy sharti, choklarni bog'lab terish hisoblanadi. Chok deb ikki g'ishtni bir-biri bilan tekis tutashdirishiga aytildi. Choklar gorizontal va vertikal bo'ladi. Choklarni bog'lanishning qoidasi doim turli xil davrlar quruvchilari tomonidan amal qilingan, u shu bilan ahamiyatlikli yanitik qatorli g'ishtlar pastki qatorda yotgan choklardan yuqorisida tik joylashmagan holdagina bog'lanishga amal qilinadi va barcha devorning monolitligi taminlanadi. Aks holda qachonki choklarning turli hil qatorlari bir-birining ustida joylashsa, umumiy chokning chizig'i bo'yicha terilganlarning alohida qismlariga bo'linishi mumkin.

G'ishtli devorlarning qalinligi unga ko'ndalang qo'yilgan g'ishtlar soni belgilaydilar – 2; 2½; 3½ va h.k (yagona o'lchamni g'ishtning uzunligi – 25km<sup>1</sup>) deb qabul qilingan. Masalan, 1½ qalinlikdagi

devorlar g‘ishti tichkama qatorli g‘ishtlar va uni qoshiqli qatorlar bilan tutashadi. Shunday qilib, devorlarning qalinligi g‘ishtlarning qalinligi va soni bilan uning o‘lchamlari haqida aniq tasavvur beradi.

G‘ishtlarni (yoki toshlarni) choklarini mahkamlash uchun ohakli aralashma bilan to‘ldiriladi, u ohakli-sementli yoki sementli bo‘ladi. Aralashma o‘zida bog‘lovchi moddasi (ohakli, sementli) qum bilan va suvdan tashkil topadi. Bog‘lovchi moddalarga suvning ta’siri natijasida kimyoviy reaksiya sodir bo‘lib, aralashma qotadi va g‘ishtni tutashtiradi “yelimlaydi”.

Odatda XIX asr binolarining devorlari oddiy qalinligi  $3\frac{1}{2}$  dan  $2\frac{1}{2}$  g‘ishtlar tashkil qiladi. Hozirgi vaqtida devorlar ozg‘in -  $2\frac{1}{2}$ dan  $1\frac{1}{2}$  gacha qilinadi<sup>18</sup>.




**Sokal.** Qurilma devorining pastki qismi yerning tekisligidan asos ustida joylashuvchi va bir muncha oldinga chiqib turuvchi qismi sokol deb nomlanadi (5;1 ill.). Sokolning balandligi 0.5 dan 1.5 va undan ko‘proq bo‘ladi. Tashqaridan u odatda tosh bilan ba’zan granit bilan pardozlanadi. Sokol devordan fundamentga o‘tuvchi element hisoblanadi. Bo‘lg‘usi bir qancha massivli devorni, sokol binoni soddalashishiga imkon beradi. Bundan tashqari, u ma’lum darajada u binoni yerli namlikni singib kirishdan saqlaydi. Ko‘pqavatli qurilmalardagi devor qalinligi pastdan yuqoriga kamaytiradi. Bu shunisi bilan ma’lumki, ya’ni devorga og‘irlik qavatdan qavatga kamayadi. Devorlarning qalinligining kamayishi ularning ichki tomonidan qirqimlar bilan erishiladi (5;10 ill.). U qavatlar aro yopishlar darajasida, shuning uchun ular ko‘rinmaydi<sup>19</sup>.

**Karniz.** Uy devorlarining ko‘cha tomonlari odatda karniz bilan tugallanadi. Uning vazifasi – tomdan oqib tushuvchi suvlardan devorni himoyalaydi. Karnizlar uncha katta ko‘p chiqishga ega bo‘lsa, u

<sup>18</sup> A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June. P 8.

<sup>19</sup> A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June. P8.

g'ishtning oddiy qo'yilish yo'li bo'lishi mumkin. Shuningdek, karniz estetik rol o'ynaydi va u binoning tugallanish fasadi hisoblanadi. Karnizning shakli o'sha davr antik me'morchiligidagi ishlab chiqilgan. O'rnatilgan aylanalar bilan mos tarzda karniz 3 qismga ega. Undan oldingi chiqib turgan plita asosiysi – "tomchi". Bu shunisi bilan ma'lumki, antik qurilmalarda yomg'ir suvi, tarnovdan tushayotgan suv, chambarli qismiga tushadi, yoki tomchining quyi sirti gorizontal emas, devorning yo'naliishi bo'yicha qilingan. Shuning uchun suv chekkasiga yig'ilgan va bu yerdan tomchi ko'rinishida oqqan. Tomchidan so'ng uning ostida (b) karnizning ikkinchi qismi – turuvchi (d) joylashgan, a yuqorisida esa uchinchi – o'rab turuvchi chambari (a) joylashgan. Ushlab turuvchi qismi tomchini og'irligini kamaytiradi, konstruk munosabatlarda qiyin bajariluvchi qismini kamaytiradi:




**Parapet.** Karnizning yuqorida uncha baland bo'limagan yoki tekis panjaralar toshli devor ko'rinishida o'rnatiladi. Parapet tomonini to'sadi va bundan tashqari unda joylashgan odamlarni yiqilishdan asraydi. Ba'zan juda baland va bosimli parapet asosiy fasad markaziy qismida o'rnatiluvchisi attika deb nomланади. Attika ilk bor qadimgi yunon antik me'morchiligidagi tantanavor arklarni ulug'verligini oshirish uchun qo'llanila boshlaydi.

**Proyemlar (o'yqlar).** Binoning devorlarida – derazali va eshikli o'yqlar qilinadi. Ular to'g'ri yoki egri ravoqli to'sinlar bilan tugallanadi. Xuddi shunday shaklda darvoza ustti yopiladi.

**Tokchalar.** Qadimgi binolar qalin devorga ega bo'lgan hollarda og'ir devorlarda tokchalar qilinadi. U reja bo'yicha to'g'ri burchakli va egri yarim aylana qilingan ular asosan ravoqli yoki to'g'ri to'sinli qilin-gan. Qadimgi rum me'morchilikdagi tokchaga haykallar o'rnatilgan<sup>20</sup>.


**Qotirmalar.** Ba'zan devorni tashqaridan qurilmaning ichkarisidan devor uning hamma balandligi bo'yicha, karniz bilan birmuncha oldingi yoki orqaga qaytadi. Devordagi shunday chiqishlar yoki kirishlarni qotirmalar deb ataladi. Qoida bo'yicha binoning ichki loyihasi bilan aniqlanadi. Qotirmalarni binoning ichki (interyerida) kuzatish mumkin.

Qotirmalar me'morchilikda juda kam hollarda qo'llanilgan. Ulardan hozirgi davrgacha foydalaniлади. Plastik effektni kuchaytirish maqsadida, birinchi qotirmadan so'ng, ikkinchisi, keyin uchinchisi, va ko'p hollarda turli hil interval bilan qo'llaganlar. Qotirmalarning ritmik turli hilligi bilan me'morlar ma'lum bir kompozitsiyali natijalarga erishilgan. Me'morchilik yanada jonli va plastikli bo'lgan. Ko'p hollarda asosan qotirmalar borokko me'morchiligida foydalangan (XVII-XVIII asrning birinchi yarmi).



<sup>20</sup>A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June. P7-8.

**Rizalitlar.** Devorning (keng) katta qismi oldinga chiqqan yoki fasadning rizalitasi markazi rizalitlar deb nomlanadi, binonig yon tomonida joylashgan chiqishlar – yon rizalitlar. Klassitsizmning me'morchiligidagi rizalitlar ustunlar jihozlangan<sup>21</sup>.



**Balkonlar, erkerlar, lodjiyalar.** Balkonlar o'zlarining ko'rinishiga ko'ra devorning tekisligiga taqqoslaganda devor maydonchalar bilan kopsolli to'sinlar bilan o'zini namoyon etadilar. Ana shu to'sinlarga balkonni to'suvchi panjaralar mahkamlanadi. Erkerlar o'zida fonlar tipidagi yopiq balkonlarni namoyon etgan va u derazalar bilan yoritilgan. Lodjiyalar o'zining mo'ljallangan joyi bo'yicha balkonga o'xshaydi, fasadning tekisligi bilan taqqoslash bo'yicha oldinga chiqdi, aksincha, binoning chuqurligi hosil qiladi. Shunday qilib, ular faqat oldingi tomonidan, shuningdek, ikki yon va orqa tomonidan devorlar bilan chegaralangan.

**Devorni pardozlash.** Turli hil qizil g'isht deb nomlangan oddiy material bilan devor terilgan va sirti suv bilan pardozlanadi, turli hil plitkalar bilan, yoki ba'zida tabiiy tosh bo'laklari bilan pardozlanadi. Ba'zan fasadlar qisman suvoq (plitkalar bilan) va qisman pastki qavatlarda toshlar bilan qoplanadi. Pardozlashda asosiy terishlar mustahkam sementli aralashma bilan, og'ir tosh bloklari bilan – maxsus metall qotirmalar bilan yoki bevosita g'ishtli terishni bog'lash bilan tutashtiriladi.

**Turuvchi tayanchlarni himoyalangan.** Tayanch konstruksiylarga, bizga ma'lumki, devor bilan birga himoyalangan, turuvchi tayanch ustunlardir. Tayanchlar ikki xil bo'ladi: kvadrat yoki to'g'ri. Ustunlar turli ashyolardan tayyorlanadi: yog'och, g'isht, tosh, metall (cho'yan, po'lat), temir-beton.

<sup>21</sup> A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June. P 7-8.

darvozasidan boshlangan keng uy va tor ko'chalar ana shu maydon bilan bog'langan. S. Qal'a qurg'onining me'moriy tarhi protoshahar tarkibini eslatadi, uni maxsus o'ylab topilgan mudofaa rejasi esa amaliy tajribadan kelib chiqib qal'a bosh rejasi g'oyasiga qat'iy bo'ysundirilgan. Har bir mahallada urug' jamoalarning xilxonalar bo'lib, marhumlar mudofaa devorlari ostiga, uylarning poli ostiga ko'milgan. Urug' boshliqlarning qabrlari esa, odatda, oila o'chog'i ro'parasida uchratilgan. S.da o'tkazilgan qazish jarayonida 150 dan ortiq turar joy majmualari ochildi. Ularni mahalla bo'yicha taqsimlaganda har bir mahalla maydoniga 15-20 tagacha oilaviy turar joy majmualari tug'ri keladi, lekin ular bir vaqtida bunyod etilmagan. S.da odamlar qancha vaqt yashaganligini o'rganish maqsadida uning har xil joylariga shurflar solindi. Shurf kesmalariga ko'ra, mudofaa inshoatlari va uy-joy majmualari poydevorsiz qurilgan. Oilaviy uy-joy majmualari ko'p xonali bo'lib, har bir oilaga qarashli ko'p xonali uyning biri devorining ostida mo'rili o'choq, ikkinchisida sandal o'rni yoki toza kulli joy, uchinchisidan esa omborxona sifatida foydalanishgan. S.uylari va mudofaa inshoatlari somon qushilgan xom g'ishtlardan qurilgan. Uy devorlari andavalar yordamida silliq qilib suvalgan (topilmalar orasida sopol andava ham bor), suvoq ustidan havorang ohak bilan oqlangan. S.da 158 ta qabr ochilgan. Ularning deyarli barcha ashyoviy dalilari butunligicha bizgacha yetib kelgan. Qabrlar hozirgi zamon qabrlaridan farq qilmaydi: ayvoncha ayvonchalarning g'arbiy chetida, undan pastroqda lahad – jasadxona, uning og'zi yarim engashtirilib terilgan g'ishtlar bilan berkitilgan. Ayvoncha lahaddan chiqqan toza tuproq bilan to'lg'izilib usti suvab qo'yilgan. Birgina farqi S. lahadlari kengroq, qabr og'ziga yaqin bo'sh maydonga turli idish tovoklar, mehnat va harbiy qurollar, taqinchoq, bezak buyumlar quyilgan. Lahadda erkaklar g'ujanak holda o'ng tomoni bilan, ayollar esa chap tomoni bilan yotibdi, har bir jins kafanda emas, balki hayotlik vaqtidagi bayramona kiyimda ko'milgan. Erkaklar qabrida harbiy kiyim va qurollar, ayollar qabrida turli xil taqinchoq va bezaklar uchraydi. Ba'zida ayollarni emizikli bolasi bilan ko'mish hollari ham uchraydi. S.da o'rganilgan just qabrlarda erkak va ayo birga ko'milgan bo'lib, ularning birontasi suyagida majburiy o'lim izlari uchramaydi.

Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarish natijasida yuzaga kelgan megalitik qurilmalarda yaqqol sezildi. Odamlarning diniy tushunchalari

ota-bobo ruxi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu qurilma katta toshdan ko'pchilik kuchi bilan barpo etilgan. Bu qurilmalar uch tipda – menger, dolmen, kromplex katta toshlardan barpo bo'lgan.

**MENGERLAR.** O'z xarakteri jihatidan tik o'rnatilgan katta tosh bo'lib, uni balandligi 20 m gacha yetgan. Ba'zi mengerlar balik, odam shaklida, ko'p hollarda menger yuzasi burtma tasvir bilan qoplangan. Bunday yodgorliklar Armaniston, Qozog'iston, Sibirda ko'plab uchraydi<sup>42</sup>.

**DOLMENLAR.** Tik o'rnatilgan ikki yoki to'rt tosh ustundan tashkil topgan bo'lib, ustki qismi ham shunday yaxlit tosh bilan berkitilgan. Tosh ustun yuzasi pardozlangan, ba'zilarida ramziy belgi chizilgan. Bu yodgorlik kabr tosh vazifasini bajargan bo'lishi mumkin. Qisman turar joy vazifasini ham o'tagan; Dolmen o'z turishi va g'urlishi, prinsipi jihatidan dastlabki monumental me'morchilik namunasi hisoblanadi<sup>43</sup>.

<sup>42</sup> History of architecture by A.D.F. Yamlin. New York 2003.P 12. (A menhir (French, from Middle Breton: *maen*, "stone" and *hir*, "tong"), standing stone, orthostat, lith or *masseba/matseva* is a large upright standing stone. Menhirs may be found singly as monoliths, or as part of a group of similar stones. Their size can vary considerably, but their shape is generally uneven and squared, often tapering towards the top. Menhirs are widely distributed across Europe, Africa and Asia, but are most numerous in Western Europe; in particular in Ireland, Great Britain and Brittany. There are about 50,000 megaliths in these areas, while there are 1,200 menhirs in northwest France alone. Standing stones are usually difficult to date, but pottery found underneath some in Atlantic Europe connects them with the Beaker people. They were constructed during many different periods across pre-history as part of a larger megalithic culture that flourished in Europe and beyond.

Some menhirs have been erected next to buildings that often have an early or current religious significance. One example is the South Zeal Menhir in Devon, which formed the basis for a 12th-century monastery built by lay monks. The monastery later became the Oxenham Arms hotel, at South Zeal, and the standing stone remains in place in the ancient snug bar at the hotel.

Where menhirs appear in groups, often in a circular, oval, henge or horseshoe formation, they are sometimes called megalithic monuments. These are sites of ancient religious ceremonies, sometimes containing burial chambers.<sup>44</sup> The exact function of menhirs has provoked more debate than practically any other issue in European pre-history. Over the centuries, they have variously been thought to have been used by Druuids for human sacrifice, used as territorial markers, or elements of a complex ideological system, or functioned as early calendars. Until the nineteenth century, antiquarians did not have substantial knowledge of prehistory, and their only reference points were provided by classical literature. The developments of radiocarbon dating and dendrochronology have done much to further knowledge in this area.

The word *menhir* was adopted from French by 19th century archaeologists. It is a combination of two words of the Breton language: *maen* and *hir*. In modern Welsh, they are described as *maen hir*, or "long stone". In modern Breton, the word *peulvan* is used, with *peul* meaning stake or post and *van* which is a soft mutation of the word *maen* which means stone.

<sup>43</sup> History of Architecture by A.D.F Hamlin. COLUMBIA COLLEGE, NEW YORK 2001.P 8. (A dolmen is a type of single-chamber megalithic tomb, usually consisting of two or more megaliths supporting a large flat horizontal capstone ("table"), although there are also more complex variants. Most date from the early Neolithic (4000–3000 BC). Dolmens were typically covered with earth or smaller stones to form a tumulus. In many instances, that covering has weathered away, leaving only the stone "skeleton" of the burial mound intact.

It remains unclear when, why, and by whom the earliest dolmens were made. The oldest known dolmens are in Western Europe, where they were set in place around 7,000 years ago. Archaeologists still do not know who erected them dolmens, which makes it difficult to know why they did it. They are generally all regarded as tombs or burial chambers, despite the absence of clear evidence for this. Human remains, sometimes accompanied by artifacts, have been found in or close to the dolmens which could be scientifically dated using Radiocarbon dating. However, it has been impossible to prove that these remains date from the time when the stones were originally set in place.)

**“MEGALITIK”** – (grekcha “meg” katta, “lit” – tosh so‘zidan olingan).

**KROMLEX** – aylana bo‘ylab tik o‘rnatilgan toshdan qurilgan bo‘lib, u tosh to‘sin bilan birlashtirilgan. Angliyadagi Stounxendj yaqinidagi kromplex, shu tipdagisi qurilmaning klassik namunasidir. Bir qancha urinishlarga qaramasdan Stonxendjning vazifasi hozirgacha sirligicha qolgan. Ba’zilarning aytishicha, ushbu toshlar ibodat qilish uchun muhim deb ma’lumot berishgan. Toshlarni bir qatorga gorizontal tarzda joylashtirish juda ehtiyyotkorlik bilan olib borilgan<sup>44</sup>.

Dolmen va Kromplex yodgorliklari G‘arbiy Yevropa, shimoliy Afrika, Kavkaz, Sibir va Qozog‘istonda ko‘plab uchraydi. Bu yodgorliklardan yana biri, ko‘rinishi kabr ustiga ishlangan tuproq qo‘rg‘on bo‘lib, bu qo‘rg‘on diametri 12 metrga yetgan, atrofi esa tosh plita bilan aylantirib chiqilgan. Tripolidagi (Kiiev yaqinidagi kishloq nomi) topilgan devor qoldig‘i, bu yerdagi uy ko‘proq daryo yoqasiga yaqin yerda qurilganligi haqida ma’lumot beradi. Bu uy loy va yog‘ochdan ishlangan bo‘lib, devori esa rangli naqsh bilan bezatilgan<sup>45</sup>.

Bronza asri yodgorliklaridan yana bir ko‘rinishi qabr ustiga ishlangan tuproq qo‘rg‘onlar bo‘lib, bu qo‘rg‘onlarning diametri o‘n metrga yetgan, atrofi esa tosh plntalar bilan aylantirilib chiqilgan, Tripolyedan (Kiiev yaqinidagi qishloq nomi) topilgan devor qoldiqlari bu yerlarda uylar ko‘proq daryo yoqalariga yaqin yerlarda qurilganligi haqida ma’lumot beradi. Qora dengiz va Azov dengizi sohillari, Kavkaz etaklari, Kaspiy yoqalari, janubiy Sibirda bir biriga yaqin bo‘lgan, bir

<sup>44</sup> Christopher Young, Amanda Chadburn, Isabelle Bedu (July 2008). "Stonehenge World Heritage Site Management Plan". UNESCO: 18. Morgan, James (21 September 2008). "Dig pinpoints Stonehenge origins". BBC. Retrieved 22 September 2008.; (Stonehenge is a prehistoric monument in Wiltshire, England. 2 miles (3 km) west of Amesbury and 8 miles (13 km) north of Salisbury. Stonehenge's ring of standing stones are set within earthworks in the middle of the most dense complex of Neolithic and Bronze Age monuments in England, including several hundred burial mounds. Archaeologists believe it was constructed from 3000 BC to 2000 BC. The surrounding circular earth bank and ditch, which constitute the earliest phase of the monument, have been dated to about 3100 BC. Radiocarbon dating suggests that the first bluestones were raised between 2400 and 2200 BC, although they may have been at the site as early as 3000 BC. The site and its surroundings were added to UNESCO's list of World Heritage Sites in 1986 and it is a legally protected Scheduled Ancient Monument. Stonehenge is owned by the Crown and managed by English Heritage; the surrounding land is owned by the National Trust. Stonehenge could have been a burial ground from its earliest beginnings. Deposits containing human bone date from as early as 3000 BC, when the ditch and bank were first dug, and continued for at least another five hundred years.)

<sup>45</sup> History of Architecture by A.D.F Hamlin. COLUMBIA COLLEGE, NEW YORK 2001.P 9.(Cromlech (from Welsh *crom*, feminine form of *crym* "bent, curved" and *llech* "slab, flagstone" is a term used to describe prehistoric megalithic structures. The term is now virtually obsolete in archaeology, but remains in use as a colloquial term for two different types of megalithic monument.

In English it usually refers to dolmens, the remains of prehistoric stone chamber tombs. However, it is widely used in French, Portuguese, and Spanish to describe stone circles. Confusingly, some English-speaking archaeologists, such as Aubrey Burl, use this second meaning for cromlech in English too.

In addition, the term is occasionally used to describe more complex examples of megalithic architecture, such as the Almendres Cromlech in Portugal.)

qancha qabilalar yashagan bo‘lib, uni ichida Skif qabilalari yetakchilik rolini o‘ynagan. Shuning uchun bu yer san’atini ko‘p holda Skif san’ati va davri deb yuritiladi. Skif mustahkam qo‘rg‘on, o‘z boshliqini vafotidan keyin unga atab, katta tuproq qo‘rg‘on-qabri ko‘rgan. Bino devorlarini naqsh va devoriy suratlar bilan bezaganlar<sup>46</sup>. Bugungi kunda jahonning mashhur muzeyi Ermitajda saqlanayotgan 40 mingdan ortiq skif madaniyati yodgorliklari ibtidoiy jamoa tuzumining so‘nggi bosqichi-temir asrini ta‘riflashga qo‘l keladigan bebaho manbadir.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat taraqqiyotining uzoq davom etgan bosqichidir. Shu davr ichida inson taffakuri kamol topdi, his tuyg‘usi rivojlandi: Inson dastlab tabiat yaratgan in’omlar iste’molidan o‘zi mahsulot yaratishga o‘ta bordi. U mehnat jarayonida me’morchilikni yaratdi. Me’morchilik, san’at voqeliklarni obrazli berishga yordam berish bilan birga, o‘z kuchiga ishonch hosil qilish tevarak-atrof qoidalarini o‘zlashtirib, uni go‘zallik qonunlari asosida qayta qurishga imkon beradi. Shunday jamoa davri san’ati qadimgi sharq, antik dunyo va o‘rta asr Yevropa san’ati hamda ilk sinfiy jamiyat san’atining asosini tashkil etadi.

### Savol va topshiriqlar

1. Ibtidoiy jamoa davridagi ilk tabiiy turar joylar shakllanishining asosiy jihatlari
2. Neolit davri qurilmalarining asosiy xarakteri jihatlari.
3. Megalitik qurilmalar. Mengerlar, Dolmenlar, Kromlex me’morchiligi .
4. Bronza davri me’morchiligi.

<sup>46</sup> Jordana, Xavier (2009). "The warriors of the steppes: osteological evidence of warfare and violence from Pazyryk tumuli in the Mongolian Altai". *Journal of Archaeological Science* 36 (7): 1319–1327. doi:10.1016/j.jas.2009.01.008 The Pazyryk culture is a Scythian Iron Age archaeological culture (c. 6th to 3rd centuries BC) identified by excavated artifacts and mummified humans found in the Siberian permafrost, in the Altay Mountains, Kazakhstan and nearby Mongolia. The mummies are buried in long barrows (or kurgans) similar to the tomb mounds of western Scythian culture in modern Ukraine. The type site are the Pazyryk burials of the Ukok Plateau (NOVA 2007) Many artifacts and human remains have been found at this location, including the Siberian Ice Princess, indicating a flourishing culture at this location that benefited from the many trade routes and caravans of merchants passing through the area (State Hermitage Museum 2007) The Pazyryk are considered to have had a war-like life. (Jordana 2009) Other kurgan cemeteries associated with the culture include those of Bashadar, Tuektia, Ulandryk, Polosukh and Berek. There are so far no known sites of settlements associated with the burials, suggesting a purely nomadic lifestyle)

## Glossary

**Kromlex** – Ulkan toshlar aylana qilib o’rnatilgan monument<sup>47</sup>.

**Dolmen** – Oyoqli tosh. Qadimgi davrda qabr atrofiga tik toshlarni qo’yib ustiga katta toshni o’rnatishgan. U toshning faqat osti tekislangan<sup>48</sup>.

**Megalitik** – Ulkan tosh. Katta toshlardan qurilgan<sup>49</sup>.

**Mengir** – Qadimiy davrlarda vafot etgan inson uchun o’rnatilgan yaxlit ulkan tosh. Ba’zan sodda tarzda o’yib shakllar yasashgan<sup>50</sup>.

**Monolit** – Yakkatosh. Bitta toshdan iborat me’moriy qism<sup>51</sup>.

**Ortostat** – Devorda bo’yiga terilgan toshlarning biri. Anatoliya, Shimoliy Suriya va Ossuriyada shunday usul mavjud bo’lgan<sup>52</sup>.

**Peristalit** – Toshlar qatori. Masalan, qabr atrofiga o’rnatilgan toshlar<sup>53</sup>.

**Ibtidoiy turar joy** – Amerikaning mahalliy aholisi tomonidan tosh yoki xom g’ishtdan qurilgan. Uylarining osti chuqur ichida joylashgan. Unga narvon orqali tushishgan. Shu kabi yarmi chuqurlikda joylashkan uylar ko’pgina ibtidoiy qabilalarda mavjud bo’lgan<sup>54</sup>.

**Stounxenj** – Ulkan toshlardan aylana qilib qurilgan inshoot. Angliyaning eng qadimiy va eng mashhur yodgorligi. Miloddan avvalgi 1800-1400-yillarda qurilgan bo’lib, diniy yoki astronomik maqsadda foydalanilgan<sup>55</sup>.

### Foydalaniqidigan asosiy darsliklar va o’quv qo’llanmalar

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario,Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.

<sup>47</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.148

<sup>48</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.166

<sup>49</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.351

<sup>50</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.352

<sup>51</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.359

<sup>52</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.391

<sup>53</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.410

<sup>54</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.439

<sup>55</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.508

4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi.  
2005 June.

5. Dostmetova Z. Me'morchilik asoslari. Darslik. – T.:  
«O'qituvchi», 2007.

6. Zohidov P.SH. Me'mor olami. O'quv qo'llanma. – T.: «O'qi-  
tuvchi», 1998.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

7. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O'qituvchi», 2009.
8. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
9. Бартенев И.А., Батажкова В.Очерки истории архитектурных стилей. М, 2001.
10. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
11. Кильде Т.Л. Основы архитектуры. - М.: Высшая школа, 1999.
12. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.: Высшая школа, 1998.
13. Сербинович П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.: Высшая школа, 2000.

## QADIMGI MISR ME'MORCHILIGI

**Reja:**

1. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining spetsifik asoslari .
2. Qadimgi podsholik me'morchiligi.
3. O'rta podsholik me'morchiligi.
4. So'nggi podsholik me'morchiligi.

Misr davlati o'zining qadim madaniyati, boy tarixi bilan boshqa rivojlangan davlatlar orasida yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Misri ko'p asrlik tarixi va madaniyati toshlarda, sarkofaglarda, rassomlarning asarlarida, usta-hunarmandalarning ijodlarida, me'mor-chilik inshootlarida muhrlanib qolgan. Eramizdan 3000-yil burun rivojlana boshlagan, bu madaniyat rimlik istilochilar misri egallab olgunga qadar, ya'ni eramizning 30-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Misr madaniyatining shakllanishida Nil daryosi salmoqli o'rinni egallaydi. Eramizdan avvalgi 3200-yilga kelib, Misrda ikkita podsholik vujudga keldi. Janubda, Nuybiylar chegarasidan hozirgi Koxira yaqinidagi deltagacha bo'lgan yerlar «yuqori Misr» ni tashkil etdi va u Xiyera Konpolis shahrini poytaxt qilib oldi. Quyi Misr Shimolda, ya'ni pastroqda, uncha katta bo'lмаган lekin serhosil o'rda joylashgan bo'lib, poytaxtni Butoda tashkil etdi.

Bu davrda Janubiy Misr podshosi Narmer o'zining kuchli qo'shinlari bilan Shimolni bosib oldi va Misrda ikkita podsholikni birlashtirib, yagona davlatga asos soldi. Poytaxtni esa delta yaqinidagi strategik jihatdan juda ham qulay bo'lgan Memfis shahriga ko'chirdi. Demak, Narmerni arxaika davri birinchi sulolasining dastlabki fir'avni deyish mumkin. Tarixchilar qadimgi Misr madaniyati va me'morchilik san'ati tarixi haqida fikr yuritganlarida davrlarning xilma-xilligini sulolalar orqali ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb bilganlar. Hatto Misr payg'ambari Manetxo eramizdan avvalgi 300-yil burun birinchi bo'lib ana shu usulni qo'llashni talab etgan.

Umuman, sulola oralig'idagi vaqt bo'lib, shu vaqt ichida oilaning podsholik qilgan davri aks ettirildi. Masalan, Fransiyada Burbonlar, Angliyada Tyudorlar, O'rta Osiyoda Temuriylar, Russiyada Romanovlar sulolalari mavjud bo'lgan.

Odatda sulolalar juda ko‘p vaqtini o‘z ichiga oladi. Buni yaxshiroq tushunish uchun qo‘yida biz boshlanish vaqtini eramizdan avvalgi 3200-yil ekanligini unutmagan holda, qadimgi Misrdagi davrlar va sulolalar sonini ma’lum bir tartibda bayon etamiz.

## I. Arxiaika davri.

1-va 2-sulolalar 3200-2700-yillar (eramizdan avval).

## **II. Qadimgi podsholik davri.**

3-suloladan to 10-sulolagacha 2700-2100-yillar (eramizdan avval).

### **III. O'rta podsholik davri.**

11-suloladan 13-sulolagacha 2100-1700-yillar (eramizdan avval).

#### **IV. Giksoslar hukumdarligi davri.**

14-suloladan 17-sulolagacha 1700-1555-villar (eramizdan avval).

## V. Yangi podsholik davri.

18-suloladan 24 sulolagacha 1555-712-yillar (eramizdan avval).

## VI. Misriklarning so‘nggi davri.

25 va 26 sulolalar 712-525-yillar (eramizdan avval).

## VII. Eronliklar hukumronluğu davri.

27-suloladan 30 sulolagacha 525-332-yillar (eramizdan avval).

### VIII. Yunon - Rim dayri.


332 (eramizdan avval) 638-yillar.

Yunon va Rim hukumronligi davri makedoniyalik Iskandar, Rim va Vizantiya yurishlarini o'z ichiga oladi.

*Konstruksiya*

Biz Misr me'morchiligi tarixini va, imkon darajasida, boshqa halqlarning me'morchiligini uch nuqtai nazaridan ko'rib chiqmoqdamiz: konstruksiya usullari, dekoratsiya va yodgorliklar elementlari (unsurlari).

Dastlab gil (tuproq) inshootlaridan boshlab konstruksiyalar usul-larini ko'rib chiqamiz<sup>56</sup>.



<sup>10</sup> Andrew Chotry, The History of Architecture, London, 2009, P-10. (Отикт Шуази. Всеобщая история архитектуры. URL: [http://www.1000knig.com/JRCMU/2009\\_kitobning\\_zus\\_tilqinidan\\_foydalananligan](http://www.1000knig.com/JRCMU/2009_kitobning_zus_tilqinidan_foydalananligan))

## Gil materiallardan konstruksiyalar

### Materiallar

Gil Misrda 14-38-11 sm o‘lchamdagи g‘ishtlar ko‘rinishida ishlatalilgan. “Intiho” kitobidan ma’lum, shuningdek, inshootlar harobalaridan xulosa chiqarish mumkinki, yaxshilab qoliplash uchun gilga maydalangan pohol ishlatalilgan. Misr g‘ishtlarida dastlabki kuydirish alomatlar sezilmaydi, biroq tamg‘a qalash oldidan g‘ishtlar quritilganligini ko‘rsatadi. Mesopotamiya harobalarida biz shunday xom g‘isht ishlataliganligini ko‘ramiz, ammo misrikkarnikidan farqli ravishda, bu yerda unda qalash vaqtida yumshoq holida, dastlabki quritishsiz foydalanilgan. Quritilgan g‘ishtlardan foydalanish ular qatorlari orasiga bizning ohakli qorishmamiz o‘rnini bosadigan qandaydir bog‘lovchi material qo‘llashni taqozo etadi. Bu maqsad uchun Misrda suyuq gil ishlatalilgan. Ayrim piramidalarda u qalangan g‘isht chocklarini yaxshi to‘ldiradigan va, ehtimol, bosimni yaxshiroq taqsimlaydigan qum qatlami bilan almashtirilgan<sup>57</sup>.

### Devorlar

Devorlar xom g‘ishtdan tiklanganida imoratbop taxta-yog‘ochlarga ega bo‘lmagan misrlik quruvchilar taxtalarsiz ishlashga majbur bo‘lishgan. Priss D‘Avenn devor tiklanishi manzarasi rasmini qayta tikiadi. Qurilish jarayonida devorning yon tomoni pog‘onalari materiallarni tashish uchun xizmat qiladigan pillapoyani eslatadi. Saqlanib qolgan devorlardagi g‘ishtlar qalanishi xarakteriga qarab ish jarayonining o‘zi haqida xulosa chiqarish mumkin. Devordagi o‘yiq tokchalar bilan bo‘linib turadigan qatlamlar materiallarni ko‘tarish uchun pillapoyalarni hosil etadi. Materiallarni yetkazib beruvchilar ko‘tarilgan qatorlar qirrasi bilan o‘rnatilgan va orasiga qum solingan (S chocklar) g‘ishtlardan tarkib topgan. Bu usul – taxta-yog‘ochlarning yo‘qligi qo‘sishma inshootlarda iqtisod qilishga majburlaydigan mamlakatlarga xosdir. G‘ishtdan terilgan devorlardagi qatorlarning tarashlangan toshlarda ham uchraydigan to‘lqinsimon yo‘nalishi e’tiborni tortadi. G‘isht qatorlari, Rasmda ta’kidlab ko‘rsatilganidek, kamdan-kam hollarda gorizontal chiziq bo‘ylab ketadi, ular quyiga

<sup>57</sup> Auguste Choisy. The History of Architecture. London. 2009. P-14. (Ориоц Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobning rus tilidagi talqinidan foydalanilgan)

tushadi, ko'tariladi va yana quyiga tushadi. Qatorlarning bunday to'lqinsimon yo'nalishi reyka o'rniga chilvir qo'llanilganligini bilan izohlanadi. Misr rassomchiligi sangtaroshlar yassilikni tarashlaganlarida chilvirdan foydalanganliklarini ko'rsatadi; aftidan, g'isht devorlarni tiklaganlarida ham g'isht teruvchi ustalar shunday yo'l tutishgan<sup>58</sup>.

Ish birdaniga bir nechta obyektda olib borilgan katta qurilishlarda xatoga yo'l qo'yishdan qochish uchun, tabiiyki, chilvirlardan foydalanishgan. Bu oddiy usul yerning past-baladligini biror nuqtaga nisbatan o'lchaydigan maxsus niveler jihozlariga ehtiyoj tug'dirmagan, bu usuldan hozirgacha ko'priklarni yopishda foydalaniladi. Biroq chilvir markazda osilib turadi, terilayotgan qatorlar esa uning yo'nalishi bo'yicha to'lqinsimon chiziq hosil qiladi (El-Kob qo'rg'oni devorlari).

### Tosh konstruksiyaning umumiyligi usullari

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Misrda toshdan bunyod etilgan inshootlar tosh plitalardan naqshdor shipli zallar qatorini tashkil etadi. Oddiy hollarda shift plitalari oraliq tayanchlarsiz bevosita bino devorlaridan joy oladi. Biroq bu sodda usulni qo'llash amalda 4-5 metrdan oshmaydigan plita uzunligi chegaralanganligi sabab qiyinchilik tug'diradi. Oraliqlar o'lchami katta bo'lganida esa uni V ustunlar bilan bo'laklarga bo'lib chiqishgan-da, ularga bog'lovchi tosh to'sinlarni joyleshtirishgan, ular ustiga esa – ko'hna dunyoning bizga ma'lum jins ibodatxonasiidagi kabi shift plitalarini joyleshtirishgan<sup>59</sup>.

*Materiallar.* – Oddiy misrliklar ohaktosh va qumtoshdan foydalanishgan. Bu tosh jinslari birgalikda ishlatilganida, odatda qumtoshdan to'sin yosishgan. Granit juda kam ishlatilgan, ganch esa faqat istisno holatlarda.

*Toshlarni tarashlash va taxlash.* Karnak ibodatxonasining ayrim qoqlanib qolgan ustunlariga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, misrliklar toshni taxlashdan oldin faqat vertikal yoriqlar va o'rin tomonini qo'shilishgan; toshning yuza tomoni esa inshoot bitganidan keyin xomaki qo'shilishgan. Keyinchalik yunonlar bu usuldan foydalanishgan<sup>60</sup>.

<sup>58</sup> Auguste Choisy. The History of Architecture. London. 2009. P-35. (Ориост Шуази. Всеобщая история архитектуры. ОГИЦ Издательство ДКМО 2009 kitobining rus tilidagi talqinidan foydalanilgan).

<sup>59</sup> Auguste Choisy. The History of Architecture. London. 2009. P-11 (Ориост Шуази. Всеобщая история архитектуры. ОГИЦ Издательство ДКМО 2009 kitobining rus tilidagi talqinidan foydalanilgan).


<sup>60</sup> Auguste Choisy. The History of Architecture. London. 2009. P-15(Ориост Шуази. Всеобщая история архитектуры. ОГИЦ Издательство ДКМО 2009 kitobining rus tilidagi talqinidan foydalanilgan).

*Toshlarni biriktirish usullari.* – Odatda toshlar toshlar qorishmasiz va boshqa sun‘iy biriktiruvchilarsiz taxlangan. Aftidan, Fivan davrida metall qisqichlar umuman ishlatilmagan, faqat ahyon-ahyonda toshlarni o‘zaro biriktirish (Madinat-Abu, Abidos)yoki yorilgan monolitlarni jipslashtirish uchun qaldirg‘och qanoti shaklidagi yog‘och tutqichlardan foydalanilgan (Luksor yodgorligi)<sup>61</sup>.

Tosh taxlamlarida uchraydigan qorishma gil massasi ko‘rinishida bo‘lib, yomon kuydirilgan gips va ba‘zida sopol uchraydi. Bunday qorishma faqat qalin devorlarning ichini to‘ldirishda (Karnakning katta ustunlari) yoki piramidalar massivlarida ishlatilgan. Ohak qorishmadan faqat suvoq yoki yomon yo‘nilgan toshlarning nuqsonini yashirishda foydalanilgan.

*Devorlarni va binolar massivlarini qalash detallari.* – Devorlar va kolonnalarini tiklash ulkan va murakkab ish sanalmagan; tosh konidan olingan toshlar shu holida ishlatib yuborilgan. Shu sababli nafaqat qalangan qatorlar turlicha balandlikka ega, balki hattoki bir qatorning o‘zida ham toshlar balandligi tez-tez o‘zgarib turgan; misrliklar materiallarning sezilarli darajada ko‘proq sarflanishiga olib keladigan toshlarni to‘g‘rilash, o‘lchamlarini bir-biriga mutanosib qilish o‘rniga bunday nomutanosiblikka e’tiroz bildirmaslini ma’qul ko‘rishgan.

Katta massivlarda, asosan piramidalarda, ko‘rsatilgan tiklashning uch usuli farqlanadi.



To‘g‘ri qatorlar bilan tiklash – A. O‘rinni bog‘ichsiz tiklash – B. Qoplamlarning davomli qatorlari bilan tiklash – E.

<sup>61</sup> Auguste Choisy. The History of Architecture. London. 2009. P-16(Огюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobining rus tilidagi talqinidan foydalanilgan).

Tiklashning bunady usullari ish jarayonining o‘zidan kelib chiqqan. Piramidalarni tiklash yadro vazifasini o‘taydigan, unchalik katta bo‘limgan markaziy piramidani tayyorlab, so‘ng uning o‘lchamlarini doimiy ravishda kattartirib borishdan boshlangan<sup>62</sup>.

## Misr ustunlari

Misr ustunlari qator vertikal tayanchlardan, tosh to‘sinalar va plitalardan ishlangan naqshdor yuqori qismdan iborat bo‘ladi. Misrlilar mazkur konstruktiv manbalardan yaratgan kompozitsiyaga murojaat etamiz<sup>63</sup>. Ustun va kolonnalar yog‘och konstruksiya shakllariga taqlid qiladi<sup>64</sup>.

Sfinks ibodatxonasi dagi (bizni birinchi sulolalarga olib o‘tadigan) ustunlar baza va kapitelsiz, to‘g‘ri burchakli to‘sin ko‘rinishidagi arxitravli tosh kvadrat prizmadir (1). XII sulola davrida Beni-Gassanning g‘or sag‘analarida kolonnalar ko‘p qirrali to‘g‘ri burchakli kapitellali va undagi kapitellali ustunlardan iborat (2). Portik, ya‘ni kolonnali peshayvon yumaloq yog‘och materialdan yaxlit to‘shama sifatida tayyorlangan<sup>65</sup>. Greklarning dorik orderini eslatadigan bunday arxaik shakllar, aftidan, Misrda amalda unchalik rivojlanmagan qadim me’morsozlik bilan bog‘liq. Biroq, Darselning ko‘rsatib o‘tishiga qaraganda, ko‘hna konstruksiyani o‘zida jo etgan bu konstruksiya, ilk bor uning shaklini izohlab beradigan sharoitlarda uchraydi. Gap shundaki, bu konstruksiya ochiq maydonda, lekin qoyalar g‘orlarida qo‘llanilgan. Bu – shaxtalarda uchraydigan blindirli galereyalar tiplaridir. Bu nuqtai nazardan kolonna yog‘och ustundan, kapitel – ponan vazifasini o‘taydigan yog‘och bolishdan, arxitrav bilan to‘shama esa – blindaj tizimidagi to‘sin va yog‘och to‘shamadan iborat. Misr orderining barcha shakllari ko‘rsatilgan konstruksiyadan kelib chiqadi, ularning grek orderlari bilan o‘xshashligi esa ehtimol shunchaki tasodifdir. Prizmatik kolonnalar shakllari XVIII suloлада va hattoki

<sup>62</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-15 (Оғюст Шуази. Всебийлашган архитектура. ООО Издательство ЭКМО 2009 kitobining rus tilidagi talqinidan foydalanilgan)

<sup>63</sup> History of Architecture A.D.F. Hanlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, OXFORD UNIVERSITY, 1998 SEVENTH EDITION. P.30.(The five chief types of capital were: a, the plain lotus bud, as at Umm el-Qaab Great Hall; b, the clustered lotus bud (Beni-Hassan, Karnak, Luxor, etc.); c, the campaniform or inverted bell-shaped nodes at Karnak, Luxor, the Ramesseum); d, the palm-capital, frequent in the later temples, and the Indian head, in which heads of Hathor adorn the four faces of acubical mass surmounted by a model of a shrine.)

<sup>64</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P.20-21 (Оғюст Шуази. Всебийлашган история архитектура. ООО Издательство ЭКМО 2009 kitobining rus tilidagi talqinidan foydalananilgan)

<sup>65</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-22-25

keyinroq ham uchraydi; biz ularni Dayr-al-Bahrida, malika Xatshepsut yodgorligida va Karvakning Tutmos III qurilishiga oid qismlarida uchratamiz; ammo qadimiylar konstruksiyalarni o‘zida aks ettirgan karniz XVIII sulolasidan keyin uchramaydi<sup>66</sup> (1). “Propileylar” (granit ustunlar) yanglish tarzda Sfinks ibodatxonasi deb atalgan Xafrenning marosim ibodatxonasiga tegishli bo‘lib, IV sulola (eramizga qadar III ming yillik boshlari) davri me’morchilik uslubiga mutlaqo mos keladi. Bunda me’moriy mutanosibliklarning o‘zgarishi quyidagi larda namoyon bo‘ladi: bu ustunlarda balandlikning kenglikka nisbati 4:1 ga, keyinroq – 5:1 ga teng, V sulola oxirida ustunlarni umuman kolonnalar siqib chiqargan. Tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, aynan mana shunda monumentallik, me’moriy lo‘ndalik yo‘qolganligi o‘z aksini topdi. Ayrim shohidliklar (ustunning saqlanishi) O‘rtal shohlik davrida uchraydi (Dayr-al-Bahrida Mentuxoteplarning marosim ibodatxonasi, eramizga qadar III ming yillik oxiri). Yangi shohlik (Karnakda Tutmos III ning granit ustunlari, eramizga qadar XV asr)<sup>67</sup>.

O‘rtal shohlik davrida Beni-Gassan dahmasi tashqi ravoqidagi kartellashgan kolonna nazarda tutilmoxda. Odatda, O‘rtal shohlik davrining bunday kolonnalarini (eramizga qadar III asrning oxiri – II asrning boshi) 8 va 16 qirrali bo‘lishgan (XI sulolaning Mentuxoteplar ibodatxonasi, Yangi shohlik davrida esa – 18 va 20 qirrali (Dayr-al-Bahridagi Xamtshepsut ibodatxonasi).

### Nilufar shaklidagi gatorik kolonnalar

*Kolonnalarning umumiy shakli.* Misrda qadim zamonlardan kvadrat shaklidagi va ko‘p qirrali ustunlar bilan bir qatorda yumaloq kolonnalardan ham foydalanilgan. Ti dahmasining (V sulola) devorlaridagi rasmlarida biz kolonnalar tasvirlarini ko‘ramiz. Kolonnalar tiplari bu yerda shakllanib bo‘lingan. Biroq, ajablanarli tomoni, uning shakli konstruksiyada ko‘zda tutilgan vazifalarni bajarmaydi, balki dekorativlik bilan bog‘langan. Qadimiylar kolonnalarning shakli nilufarni eslatadi – Yevropa oq nilfiyasiga juda o‘xshab ketadigan o‘simlik. Kolonna stvoliga nilufar poyasi shakli berilgan, kapitellariga esa – gul shakli. Hatto konstruksiya mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan

<sup>66</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-26. (Огюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobning rus tilidagi talqinidan foydalilanilgan)

<sup>67</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-21(Огюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobning rus tilidagi talqinidan foydalilanilgan)

darajada, asosini kengaytirishni talab qiladigan o'zak yaqinida nozik ishlov berilgan poya uchraydi. Kolonnani esa ba'zan bir poya, ba'zan poyalar bog'lanmasi tashkil etgan<sup>68</sup>.

O'z-o'zidan savol tug'iladi, misrliklar qanday qilib o'simlik shakllariga taqlid qilishga yetib keldilar? Ehtimol, kulbalar ustunlaridagi suv o'simliklarining dekorativ shakllari prototip bo'lib xizmat qilgandir. Fivadagi saqlab qolning ustuniarning birida nilufarning relyef shaklini ko'ramiz. Nilufar mavzusi bir necha taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Qadimiylar hali ochilmagan g'uncha tasvirlangan bo'lsa, keyinroq to'la ochilgan nilufar gul ifodalangan.

Grek kolonnalariga qarama-qarshi ravishda qadim misr kolonnalari favqulorra yengil. Beni-Gassan g'or dahmasining ingichka o'zaklari faqat XVIII sulolaga kelibgina paydo bo'lgan vazni katta massivlar nisbatiga ega bo'lмаган<sup>69</sup>.

### Ta'sirlar

Misr qanday ta'sirlarga duchor bo'lgan? Uning ta'siri qaysi mamlakatlarga yoyilgan? Misr me'morchiligi shakilanishining dastlabki bosqichi bizga ma'lum emas. Bir narsa shubhasiz: piramidalar san'ati rivojlanishi uzoq davom etgan, bizga noayon davrlarga borib taqaladi. Sharqdagi uzlaksiz janglar Misrning Osiyo bilan muntazam munosabatlarga kirishishiga olib keldi. Biz XVIII sulolada Mesopotamiya bilan munosabatlarga kirishilishi haqida eslatib o'tgandik. Assiriya va Eronga qarshi doimiy kurash olib borgan keyingi sulolalar ular bilan madaniy aloqalar qilib turishgan. Ehtimol, Misr Mesopotamiyadan gil konstruksiyalar tizimini o'zlashtirgandir, biroq, shubhalar, u tosh yo'q mamlakatdan toshni terish usullarini o'zlashtirib olishi mumkin emas edi. Balki Misrning gil me'morchiligi o'zlashtirilgan, ammto tosh me'morchiligi, aftidan, mahalliy ildizlarga ega.

Yevropa halqlari yarim yovvoyi holda turmush kechirayotgan bir shuroitda Misrda san'at va sanoat ancha taraqqiy etib ulgurgan edi. Misr yurub hulqlaridan biron nimani o'zlashtirishga ehtiyojmand emas edi; alincha, ular Misrdan ko'p narsani o'rganib, o'zlashtirishardi. Alinuning tashkil etilishi ham misrlik badarg'a qilinganlarga tegishli

<sup>68</sup> Auguste Choisy, The World History of Architecture. London. 2009. P-22

<sup>69</sup> Auguste Choisy, The World History of Architecture. London. 2009. P-25-26. (Ориост Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobning rus tilidagi talqinidan foydalanilgan)

degan farazlar bor. Nil quyilishidagi gavanlar ko‘p vaqtlar finikiylirga tegishli edi. Misr boshqa halqlarga xuddi Xitoy kabi uning portlari ochilgunga qadar, faqat o‘zining olib chiqib ketadigan predmetlari bilan ma’lum edi. Lekin hattoki mana shu mayda badiiy mahsulotlar ham keyingi davrlar sna’atini ilhomlantrish uchun yetarli bo‘ldi. G‘arbning barcha me’morchiligi asosida biz aynan misr me’morchiligi uslub va imzosini ko‘ramiz<sup>70</sup>.

Eramizning 638-yildan boshlab Misr tarixida mutloq yangi davrmusulmonlar davri boshlandi. Lekin biz qadimgi Misr madaniyati haqida so‘zlar ekanmiz, biz uning asosan buyuk davlat darajasiga ko‘tarilgan davridagi me’morchiligi va san’ati haqida ko‘proq fikr yuritamiz.

Mamlakat Narmer davrida yagona davlatga aylantirilgan vaqtanoq Misrliklar metaldan foydalanish yo‘llarini bilib olganlar. Avvaliga misdan, keyin esa bronzadan har xil asboblar, quroq yaroqlar ishlaganlar. Ammo bu kashfiyotlarga qaramasdan. Toshni ishlash va durodgorchilik san’ati muhim o‘rin tutgan. Chunki bu hunarni misrliklar mukammal darajada bilganlar. Masalan, shoxlar qabrlaridan topilgan toshdan ishlangan ajoyib ko‘zalar va guldonlar eramizdan avvalgi 2800-yillarga, ya’ni birinchi sulola davriga to‘g‘ri keladi.

Nil atrofida joylashgan dastlabki ko‘chmanchilarni o‘ziga jalb etgan bu daryo inson uchun eng zarur bo‘lgan hayotiy bir ma’nba edi.

Nil daryosi faqat hayot va madaniyat ma’nbai emas, balki tashqi dunyo bilan aloqa qilish yo‘li ham bo‘lgan. Unda turli xildagi kemalar, ayniqsa, savdo kemalari doimo ko‘p bo‘lgan. Kemalardan ba’zilari hatto O‘rta dengizga chiqishga ham jur’at etganlar. Misrda yozuv majburiy ravishda arxivlarni saqlash, ayniqsa, halqdan soliq solish jarayonida vujudga keldi. Qizig‘i shundaki, misrliklar undosh tovushlarnigina ishlatganlar. Misrliklar Nil qirg‘oqlarida o‘sadigan «papirus» o‘simligidan yozuv qog‘ozni kashf qilganlar.

Qadimgi Misrda ma’muriyat Nil yoqalab joylashgan «nom» lar asosida vujudga keldi. Mahalliy hukmdor doirasida bo‘lgan ma’muriyat «nomark» deb yuritilgan. Har bir nomark o‘zining xususiy adliyasiga va xuddi hozirgi zamon hizmatchilari kabi o‘zining mirzalariga ega.

<sup>70</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P.52-53. (Огюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobning rus tilidagi talqinidan foydalaniylgan)

1-va 2-sulolalar fir'avnlari «mastaba» deb ataluvchi qabrlarga dafn etilganlar<sup>71</sup>. Ko'pincha atrofi toshlar bilan to'silgan mastabalar xom g'ishtlardan to'g'ri burchak shaklida tiklangan bo'lib, juda ko'p xonalardan tashkil topgan<sup>72</sup>.

Mo'miyolangan tanani oltin plastinka bilan qoplangan yog'och tobutga solganlar. Mashhur Tutanhamon maqbarasi bo'yicha fikr yuritadigan bo'lsak (bizga ma'lum bo'lgan fir'avnlarning dafnlari ichida o'g'irlanmay topilgan yagona maqbaradir), undagi tobut juda chuqur (uchtasi ustma - ust qo'yilgan) va toza oltindan ishlangan. Bunday mo'miyolash odati podsholik uchungina bo'lib, ayniqsa, u yangi podsholik davrida Nubiy mamlakatidan ko'plab oltin olib kelish vaqtida avj olgan.

Misr ehromlari. Z-sulolaning birinchi fir'avni Joser bo'lgan. Joser ehromi (piramidasi) ning qurilishi katta toshlardan ukан binolar ixtiro qilgan va yozuv san'atida yuksak yutuqlarga erishgan me'mor Imxotep nomi bilan bog'liq. Joser qabri Qoxiradan taxminan 6 km. narida joylashgan. Toshdan ishlangan bu ulkan maqbara dunyodagi eng qadimgi yodgorlikdir. Uning qurilish vaqtি eramizdan avvalgi 2780 yilga to'g'ri keladi.

Bu inshoot bir qator zinapoyalardan tashkil topgan ehrom bo'lib, ustma-ust qo'yilgan va yuqoriga ko'tarilgan sari kichrayib boruvchi bir qancha mastabalar yig'indisidan iborat. Piramidaning assosi kvadrat bo'lib, u qoyaning 25 m ichkarisiga joylashgan. Yana pastroqda esa fir'avnning dafn qilish xonasi bo'lgan. Piramida va uning atrofi ohak toshlardan terilgan devor bilan o'rabi olingan.

Ana shu devorning ayrim qismlari hozirgacha saqlangan yoki ular qayta tiklangan. Ichki devorning qarama - qarshi tomondan qator yodgorliklar qad ko'targan. Ehtimol, ular bir xil xudolarga bag'ishlangan ibodatxonalar bo'lsa kerak. Imxotepning qiyofasi binoning ichkarisida xuykal ko'rinishida paydo bo'ladi. Bu bilan misrliklar vazirning obro'si va qadrati naqadar yuksak ekanligini ko'rsatganlar. 3-sulola uning oxirgi fir'avni Snofrunning vafoti bilan tamom bo'lgan. U tiriklik vaqtida o'zi uchun tomonlari tekis bo'lgan ikkita ulkan piramida qurdirgan. 4-sulola kelib piramidalar qurish katta davri boshlangan.

<sup>71</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003. P30( Mastabas, the earliest tombs, were built as eternal houses for the departed and were in all likelihood based on design of the dwellings of the living. The basic mastaba was blocklike structure above ground containing a small room for offerings and another chamber for the body and statue of the deceased.)

<sup>72</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-25 (Оғоғист Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobning rus tilidagi talqinidan foydalilanligan)

Misrda 70 dan ortiq piramida bor. Ular Sakqarax va Dashurdan to qarbdagi Xauvaragacha cho‘zilgan. Har bir piramida faqat fir’avnning qabridan iborat bo‘lgan. Joser podsholik qilgan davrdan so‘ng malikalar ham o‘zlarining shaxsiy piramidalari ega bo‘la boshlaganlar. Asosiy piramidalarning atrofida esa oliyjanob va yuqori mansabli kishilar uchun mastabalar joylashgan<sup>73</sup>.

Misrdagi mashhur piramida 4-sulolaning birinchi fir’avni Xufu tomonidan qurilgan. Uni yunonliklar Xeops deb ataganlar. Bu piramida qoxira yaqinida Nilning qarb tomonidagi toshloq yerda qad ko‘tarib turadi. Undan uncha uzoq bo‘limgan masofada Xeops merosho‘rlari Xafr va Mikerinoslarning piramidalari joylashgan. Ana shu uchala piramida birgalikda ta’sirchan arxitektura uyg‘unligini vujudga keltiradi.

Xeopsning ulkan piramidasi yagona saqlangan piramida bo‘lib, yunonliklar uni Yetti iqlim mo‘jizasi deb ataganlar. Darhaqiqat, u yaxlit va yetarli darajada mustahkam inshoot bo‘lib, 2. 300. 000 ta oxaktosh bloklaridan ishlangan. Jumladan, har bir blok o‘rta hisobda 2,5 tonna og‘irlikda bo‘lgan. Piramidaning ichida bir nechta bir-biri bilan chalkash yo‘llar bor bo‘lib, ulardan biri shoxning jasadi qo‘ylgan xonaga olib boradi lekin bu yerdagi jasad o‘sha Joserning go‘rxonasidan farq qilgani holda, piramidaning o‘rtasida joylashgan. Xona granit bloklar bilan qoplangan. Har biri taxminan 60 tonna keladigan bloklar 900 km masofadan Assuandan keltirilgan. Sarkofag hamda tosh tobutning sirtqi tomoni mustahkam granitdan ishlangan.

Eramizdan 4500-yil avval qad ko‘targan bu bino bizni hanuz taajublantiradi, chunki misrliklar bu davrda g‘ildirak bilan hali tanish emas edilar. Qurilishda ular ixtiyorida faqat silindrishimon jismlardan dastag bor edi holos. Piramida o‘lchovlarining juda katta bo‘lishiga qaramasdan asosning har bir tomoni 137 m, balandligi 147 m, uning yo‘nalishi absalyut aniqlik bilan bajarilgan.

Bugungi kunda Xeops piramidasining tashqi qiyofasi zinapoyali shotini eslatasada, aslida chiroyli oppoq toshlardan

<sup>73</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003. P-30.(As the religious ritual prescribed by the priesthood changed to enhance the significance of the pharaoh, the mastabas, the first primitive pyramids, were likewise enlarge to form a pyramid. Each pyramid which were mostly found from Sakkara and Dashur to Hauvara, had only pharao's tomb inside.)

qoplangan bo‘lib, yaxlit va silliq yuzadan iborat bo‘lgan<sup>74</sup>.

### O‘rta podsholik davri

Eramizdan avvalgi 2400-yilning boshlariga kelib, o‘rta podsholik davrida Misr davlati inqirozga yuz tutadi. Qadimgi fir‘avnlar tashabbusi bilan olib borilgan ulkan qurilishlar, mamlakatni moddiy boyliklari manbaini holdan toydirgan. Mahalliy zodogonlar borgan sari obro‘ga ega bo‘la boshlaganlar, nomarklarning hokimiyati kuchaya boshlagan.

Ular o‘zlarini poytaxt amaldorlariga, hatto fir‘avnning o‘ziga ham qarama - qarshi qo‘ya boshlaganlar. Oqibatda bu mamlakat bir qancha yarim mustaqil viloyatlarga bo‘lib yuborilgan. 6 sulolaning oxirgi va kuchli fir‘avni Peni II bo‘lgan. Undan keyin mamlakatni 7-sulola boshqargan. Bu vaqt ichida fuqorolar va o‘zboshimchalik avj olgan edi. Qadimgi yunon tarixchisi Manefonning aytishicha, 70 kun ichida 70 ta shox almashgan. 8-sulola uzoqqa cho‘zilmagan. 9-va 10-sulolalar fir‘avnleri mamlakatni yana birlashtirishga ko‘p urindilar lekin natija bo‘lmadi. Shuning uchun ham tarixchilar 7-dan 10-sulolagacha bo‘lgan vaqtini birinchi oraliq davr deb ataganlar.

11-sulola yuzaga kelishi bilan o‘rta podsholik davri boshlangan. Bu davr eramizdan avvalgi 1700-yilgacha davom etgan. O‘z navbatida misriklar ham qo‘shti davlatlarga yurish qila boshladilar. Birinchi bo‘lib, Suriya mamlakati zabit etildi. Ekspansiya janubga Nubiylar xududiga qarab avj oldi. U yerdan esa oltin, fil suyagi va qullar ko‘plab keltirildi. Qimmatbaho tosh va oltinlar ko‘mish marosimlarini bezash uchun ishlataldi.

Monumental me’morhilikda esa piramidalar qurilishi O‘rta podsholik davrida ham davom ettirildi. Ammo shakl jihatidan ular bir-biriga o‘xhasalarda, masshtabi jihatdan qadimgi podsholik

<sup>74</sup> Auguste Choisy The World History of Architecture. London. 2009. P-35 (Огюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 китобининг рус тилидаги тақсизидан фойдаланолган) (*The Great Pyramid of Giza* (also known as the *Pyramid of Khufu* or the *Pyramid of Cheops*) is the oldest and largest of the three pyramids in the *Giza pyramid complex* bordering what is now *El Giza*, Egypt. It is the oldest of the Seven Wonders of the Ancient World, and the only one to remain largely intact. Based on a mark in an interior chamber naming the work gang and a reference to *fourth dynasty* Egyptian Pharaoh *Khufu*, Egyptologists believe that the pyramid was built as a tomb over a 10 to 20-year period concluding around 2560 BC. Initially at 146.5 metres (481 feet), the Great Pyramid was the tallest man-made structure in the world for more than 3,800 years. Originally, the Great Pyramid was covered by casing stones that formed a smooth outer surface; what is seen today is the underlying core structure. Some of the casing stones that once covered the structure can still be seen around the base. There have been varying scientific and alternative theories about the Great Pyramid’s construction techniques. Most accepted construction hypotheses are based on the idea that it was built by moving huge stones from a *quarry* and dragging and lifting them into place. There are three known chambers inside the Great Pyramid. The lowest chamber is cut into the bedrock upon which the pyramid was built and was unfinished. The so-called Queen’s Chamber and King’s Chamber are higher up within the pyramid structure. The main part of the Giza complex is a setting of buildings that included two mortuary temples in honour of Khufu (one close to the pyramid and one near the Nile), three smaller pyramids for Khufu’s wives, an even smaller “satellite” pyramid, a raised causeway connecting the two temples, and small *mastaba* tombs surrounding the pyramid for nobles).

piramidalaridan ancha kichik va kam dabdabali bo‘lgan. Piramidaning balandligi 65 metrdan oshmagan. Ularning o‘lchamlari haddan tashqari kichik bo‘lsada ichki bo‘shliqlari ancha keng bo‘lib, odatda gurxon va ziyorotxona kabi qavatlarga bo‘lingan<sup>75</sup>.

O‘rta podsholik davrida katta piramidalar qurilishiga zaruriyat ham yo‘q edi, chunki Misrda huddi shu vaqtida yagona markaziy hokimiyat bo‘lmasagan. Yana katta hajmdagi inshootlar qurish g‘oyasi yangi birlashgan Misrning markazi Fivada, Mentuxotep III va Mentuxotep IV larning maqbarasida jonlangan.

Bu yerda ehrom peshayvonlarning murakkab sistemasi bilan uyg‘unlashtiligani, ya’ni u peshayvonlar ustiga qo‘yilgan. O‘zining doriy orderiga o‘xhash ustunlari bilan mashhur bo‘lgan Beni-Xasandagi maqbaralar juda xarakterlidir. Darhaqiqat, «protodoriy» ustuni Misr me’morhiligida tektonik shakl bo‘lib, uni yaratuvchilari bu jihatdan qadimgi yunon me’morhiligiga yaqinlashganlar. Ammo, qadimgi Yunonisistondagidek klassik order Misrda yaratilmadi.

Umuman olganda, O‘rta podsholik davrida Misr me’morligi bir necha shakllar kashf etgani bilan u qadimgi podsholik davriga nisbatan yuqori bosqichga ko‘tara olmadidi. Biroq, bundan keyin keladigan yangi podsholik davri uchun yangi poydevor yaratildi deyish mumkin.

O‘rta podsholik eramizdan avvalgi 1700-yilga kelib tamom bo‘ldi. Bu Misr hududi Osiyolik giksoslardan tomonidan bosib olingan vaqtida yuz berdi. Giksoslarning hukumronligi uzoqqa cho‘zilmadi. Ularning sultanati 15-16 va 17-sulolalar davrini o‘z ichiga oldi. 17-suloladan boshlab fir‘avnlar rahbarligi ostida dushmanqa qarshi matonatli kurashi boshlandi. Eramizdan avvalgi XVI asrning birinchi yarmiga kelib Misr fir‘avni 18-sulola asoschisi Axmos giksoslarni Misr hududidan butkul quvib chiqargan va yangi podsholik davri boshlanishiga asos soldi, bu esa misrda buyuk imperiya davri deb baholanadi.

### *Yangi podsholik davri arxitekturasi*

Giksolslarga qarshi birinchi bo‘lib kurash boshlagan va yangi podsholikning buyuk boshqaruvchilari sulolasiga asos solgan fivalik hokimlar o‘z poytaxtlarini fivada tashkil etdilar. 500-yil mobaynida bu shahar dunyoning eng ulug‘ va muqaddas markaziga aylangandi. Fivading xudosi Amon endi muhim rol o‘ynay boshladidi. Unga alohida e’ti-

<sup>75</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003. P.39 (More typical of Middle-Kingdom tombs are those at Beni-Hassan, which are cut into cliffs and provided with sheltering porticoes. Most of architectural character was created by excavation and the builders replicated spaces and details associated with ordinary dwellings, that is, wooden plastered reed structures with slightly arched roofs composed of mats laid on the frame.)

bor berildi. U quyosh xudosi RAga singdirildi. Tez orada ulkan qurilishlar boshlandi. XVII suloła fir'avnlarning dabdabali saroylari, oqsuyaklarning serxasham villalari Misr xudolarining qasrlari qad ko'tardi. Fir'avn o'z qabrini podsholik taxtiga o'tirgan kundan boshlagan. U bunga yillar, ba'zan, esa butun umrini bag'ishlagan. Qirolicha, Xatshepsut, 18 va 19-sulolalar yangi podsholik davrida misrni buyuk harbiy davlatga aylantirgan salobatli, jangovor fir'avnlari bilan mashhurdir.

Ular o'z g'alabalarini uzoq Osiyogacha kengaytirdilar. Suriya shaharlarini bosib oldilar va katta soliqlar talab etdilar. Dastlabki uch jangchi: Axmos, Amenofis I, Tutmos I lar podsholik gashtini surdilar. So'nggi oxirgi fir'avn Tutmos I ning o'g'li Tutmos II kasalligi tufayli yosh vafot etdi, uning merosxuri Tutmos III davlatni boshqarishga hali go'daklik qilardi.

Shuning uchun hokimiyat ayol qo'liga - qirolicha Xatshepsutga o'tdi. Bu ayol kuchli is'tedod egasi bo'lgan. U mamlakatni osoiyshta mohirlik bilan boshqargan.

Dayr-El-Baxradagi ajoyib qasrning muallifi ham Senmutdir. Bu oddiy Dayr-El-Baxrining shimoliy qismida, Mpentuxoteb yodgorligi bilan yonma-yon qurilgan bo'lib, unda ko'p shakllar takrorlangan. Xatshepsut obidasi Misr me'morchiliginin muhim bosqichlaridan biderdi<sup>76</sup>. Bu bino me'morchiligining O'rta podsholik inshoatlaridan asosiy farqi loyihalash va bezatish jihatdan ikki davr obidalarini o'zarolish-tirganda yorqin namoyon bo'ladi. Metuxoteb ibodatxonasi kabi Xet-pepsi ibodatxonasi ham uch terrasaga joylashgan<sup>77</sup>.

Amenofis III ning 36 yillik hukumronligi davrida san'at kuchsizlamadi va birmuncha noziklashadi. Saroy me'morligini o'rganishda

<sup>76</sup> THE VISUAL ARTS: A HISTORY Hugh Honour, John Fleming. In memory of John Calmann Copyright ©1982, 1991, 1995, 2000 Fleming – Honour Ltd. Prentice Hall Inc. A Division of Pearson Education Upper Saddle River, New Jersey 07458 p.199-200 F.98 (The Hatshepsut's temple is rich with its sculptured decoration. The dramatic design of Queen Hatshepsut's temple wasn't repeated. But it was under the eighteenth dynasty that the ancient Egyptian temple was given its definitive form- inward-looking and enclosed within tall forbidding perimeter walls, with a processional sequence of colonnaded courts and many-columned halls, creating an architecture of inhuman, impersonal and still daunting monumentality.)

<sup>77</sup> Choux, Choux. The World History of Architecture. London. 2009. P-40 (Оюст Шуази. Всеобщая история архитектуры ОЮО Издательство ЭКСМО 2009 китобининг рус тилидаги талқинидан фойдаланинглар). (The queen's chancellor, royal architect Senenmut oversaw construction. Although the adjacent, earlier mortuary temple of Mentuhotep was used as a model, the two structures are nevertheless significantly different in many ways. The leopard's temple employs a lengthy, colonnaded terrace that deviates from the centralised structure of Isetasetep's model – an anomaly that may be caused by the decentralized location of her burial chamber. There are three layered terraces reaching 97 feet tall. Each story is articulated by a double colonnade of square piers, with the exception of the northwest corner of the central terrace, which employs Proto Doric columns to house the chapel. These terraces are connected by long ramps which were once surrounded by gardens with foreign plants including mimosa and myrrh trees. The layering of Hatshepsut's temple corresponds with the classical Theban form, employing pylons, courts, hypostyle hall, sun court, chapel and sanctuary.)

Amarna alohida ahamiyatga egadir. Bu yerda fir'avnga va uning oila a'zolariga tegishli bo'lgan uchta saroy saqlangan. Asosiy saroy Nil qirg'og'i bo'ylab qurilgan. Fasadning uzunligi 700 metrga teng. Keng ko'cha saroyni ikkiga-sharqiy va g'arbiy qismlarga bo'lib turadi. Tel-El-Amarna shahri hammasi bo'lib, chorak asrdan kamroq yashadi. Misr imperiyasi Axnaton hukumronligi ostida yemirila boshladi.

### *So'nggi podsholik davri me'morchiligi*

20-sulolaga kelib, Misr tarixida tushkunlik davri boshlandi. Ammo 19-sulola fir'avnlari, uning asoschisi Xoroyemxeb hammasidan eng ulug'i sathi I va uning o'g'li ramzes II lar Misr hukmronligini qisman bo'lsada saqlab turdilar. Oxirgisi xettetlarga qarshi ishonchsiz urush qildi. O'z g'alabalariga atalgan yodgorliklarni ko'plab qurdirdi. Xoremxboshlagan va sathi I davom ettirgan Karnakdag'i ibodatxonalarini Ramzes II kengaytirib, u yerda o'ziga bag'ishlab ulkan barelyef yaratdi. U o'z kasrini an'anaviy yerda, Nilning Karnakka qarama-qarshi qirg'og'ida qurdirgan. Garchi bu ishlarning hammasi Ramzes II ning joniga tekkan bo'lsa ham, Karnakdag'i Amon xudosiga baqishlangan m. dan iborat bo'lib, uning umumiy maydoni 5. 000 kv. m. ni tashkil etgan. Xona tomining har bir qatorida 10 tadan 16 qator ustun, hammasi bo'lib 134 ta ustun ushlab turadi.

Gipostil xonaning markaziy qismi qatorida 6 tadan 2 qator ustunlar bilan alohida ajratilgan. Bu ustunlarning diametrлари 3, 4 metrga teng, balandligi esa - 20,4 metr. Ibodatxona simmetriya asosida qurilgan. Ibodatxona qurilishida yorug'lik katta rol o'ynagan. 19-sulola fir'avnlari vaqtida ibodatxona buyuk ahamiyat kashf etgan. Misr fir'avnlari Karnakdag'i Amon ibodatxonasi ruhoniylarni o'zlarining tayanchlari deb bilib, ularni har tomonlama qo'llab - quvvatlaganlar.

19-sulola davrida katta qurilishlar Luksorda ham olib borildi. Amenhotib III boshlagan ibodatxona qurilishi o'z davrida bitkazilmay qolgan edi. Ramzes II o'z davrida katta qurilishlarni amalga oshirdi. Me'morchilikda bir xillik uning joniga tegdi. Xonusi ibodatxonasi Yangi podsholik davriga xos bo'lib, unda shu vaqtdagi barcha asosiy estetik aqidalarini aniq va ravshan ko'rindi. Xonusi ibodatxonasi uncha katta emas, lekin uning arxitekturasi yangi podsholik davrida yaratilgan Misr ibodatxonasining klassik tipiga yaqindir.

U cho'zik to'g'ri to'rtburchak shaklga ega. Barcha ibodatxonalarda bo'lgani kabi bu yerda ham bir nechta xonalarni o'z ichiga olgan siqinish

uyi gipostil zalining kompozitsiyali o‘qiga tutashgan. Umuman yangi podsholikdagi diniy inshootlar arxitekturasi uni tashqaridan tomoshabin bo‘lib kuzatishgagina emas, balki har tomonlama kishiga ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallab qurilgan.

Yangi podsholikning so‘nggida qurilish ishlari faqat Misrdagina emas, balki uning tashqarisida misrga tobe bo‘lgan Nubiyada ham olib borildi.

Abu Simbeldagi qoyaga o‘yib ishlangan Ramzes II ibodatxonasi yangi podsholikning so‘nggi davridagi eng yirik qurilishlaridandir<sup>78</sup>. Uning kiraverish tomoniga qoyali katta trapetsiyasimon pilon ko‘rinishi yo‘nib ishlangan. Pilon oldida o‘tirgan holda tasvirlangan to‘rtta 20 metrli Ramzes III ning xaykallari ham qoya toshini yo‘nish hisobiga yaratilgan. Sharqqa qaratilgan pilonning balandligi 33 metr, eni esa 38 metr dan iborat bo‘lib, uning tepasi xaykallar bilan bezatilgan<sup>79</sup>.

Ibodatxonaning ichki qismi yangi podsholik davri me’morchiligi prinsiplari asosida bajarilgan.

Qurilishlar asosan 22-sulola vaqtida rivoj topdi. Sulolaning asoschisi Sheshonka Fivaning uchlik xudosi Amon, Mut va Xonsularga baqishlab Tanis shahrida ibodatxona tikladi. 25 sulola fir’avnlar musofir Nubiyadan bo‘lganlar. Yangi podsholikning so‘nggida Nubiya Misrdan ajralib chiqdi va mustaqillika erishdi. Lekin ulug‘vor inshootlar Karnakda qurildi. 25-sulola eramizdan avvalgi 671-yilda Misrni Suriyaliklar tomonidan bosib olinishi bilan tamom bo‘ldi.

Misrning ijtimoiy hayotida birmuncha jonlanish paydo bo‘ldi, lekin bu uzoqqa cho‘zilmadi, chunki Misr ham iqtisodiy va ham siyosiy jihatdan ancha kuchsizlanib qolgan edi. Bu esa eramizdan avvalgi IV asrda eronliklar, so‘nggi eramizdan avvalgi IV asrda Iskandar Maqduniy (makedoniyalik Aleksandr) tomonidan yerlarni bosib olinishiga, uning o‘ziga xos san’atda asta-sekin so‘nggi va ellin dunyosi san’ati bilan qo‘shilib ketishiga sabab bo‘ldi.

<sup>78</sup> THE VISUAL ARTS: A HISTORY Hugh Honour, John Fleming. In memory of John Calmann Copyright ©1982, 1991, 1998, 2000 Fleming – Honour Ltd.Prentice Hall Inc.ADivision of Person EducationUpper Saddle River, New Jersey 07458je 199–200 P.103 (Abu Simbel, Ramesses II had a vast temple hacked out of the living rock, dedicated to Amun the god of Thebes, Re-Horakhty the sun god of Heliopolis, Ptah the creator god of Memphis – and himself. It was given the traditional temple plan, tunneled 55m into the cliff. The façade was treated as a vast pylon, the central door being flanked by four seated statues of Ramesses some 20 m high with smaller, though still well over life-size, figures of his family standing between his gigantic legs.)

<sup>79</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-40 (Оғюст Шуази. Всесообщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobning rus tilidagi tatlqinidan foydalananigan).

### *Misr ellinizm.*

Eramizdan avvalgi 332-yilda Makedoniyalik Iskandar armiyasi Misrga kirib keldi. Eron hukmdorligidan azob chekkan misrliklar Iskandar qo'shinlariga hech qanday qarshilik ko'rsatmadilar. Aksincha, Misr koxinlari Iskandarni qo'llab-quvvatladilar va uni Amonning mex-ribon farzandi Re deb e'lon kildilar. Iskandar Misrning Nil deltasida yangi shahar barpo etdi. Uning nomi Aleksandriya deb atalgan. Bu shahar muntazam rejaga ega bo'lgan. IV asrning oxirida Aleksandriya yunon sharq dunyosining eng yirik savdo va madaniyat markazlaridan biriga aylandi.

Katta qurilish Misrda Iskandar vafotidan so'ng uning vorislari makedoniyaliklar sulolalarining shoxlari-Ptomeylar vaqtida olib borildi. Istilo etilgan yerlarda o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida Ptomeylar Misr xudolarini hurmatlaganlar va ular sharafi uchun ibodatxonalar qurdirganlar.

Ibodatxonalar arxitekturasida esa qadimgi san'at an'analarini qayta tiklaganlar.

Misr ellinizmi davri arxitekturasining eng yorqin namunasi—bu Edfudagi Gora ibodatxonasıdir. Uning barcha xonalari-pilon, ochiq hovli, kirish va gipostil zallari, muqaddas va sig'inish xonalari xuddi yangi podsholik ibodatxonalaridagi kabi simmetrik ravishda bir o'qqa joylashgan. Eramizdan avvalgi 122-yilda Ptolemy IX Gipostil zal oldiga katta 18 ustunli, devorlari relyeeflar bilan bezatilgan kirish zali qurdirgan. O'z navbatida, uning vorislari: Ptolemy X, XI va XII lar ibodatxona atrofini tashqi devor bilan o'rab, kirish zali oldida ochiq hovli va pilon yaratganlar. Natijada ochiq hovli devorlari bilan ibodatxona devorlari orasida bemalol harakat qilish mumkin bo'lgan yo'lak vujudga kelgan. Boshqacha qilib aytganda, Gora ibodatxonasi go'yo atrofi devor bilan o'ralgan ochiq hovli ichida shakllangandek tuyuladi. Shubhasiz, bunday erkin va aniq kompozitsion yechim misr ellinizmining o'ziga xos xususiyatlardan biridir. Darhaqiqat hovlining oldidagi pilon juda salmoqlidir. Uning balandligi 35 metr, eni esa 76 metrga teng. Ma'lumki, yangi podsholik vaqtidanoq pilonlarning sirtlarini relyeefli kompozitsiyalar bilan to'ldirish odat edi.

Ellinizm davrida bu relyeeflar yanada kattaroq ma'no kashf etadi. Ellinizmdagi barcha relyeeflar o'zlarining ana shu xususiyatlari bilan ajralib turadi. Edfudagi Gora ibodatxonasi kompozitsiyalaridagi mav-

jud bo‘lgan bu nafislik bizni zavqlantiradi. Edfudagi Gora ibodatxonasining Misr ellinizmida mashhurligi bejiz emas, albatta. U ko‘proq to‘sinq devorning ichki sirtiga bitilgan muhimyozuvi bilan tanilgan.

Misr ellinizmi san’atda haqiqatan ham eski shakllarni yangicha talqin eta olgan mohir arxitektorlari bilan xarakterlanadi. Buni Denderdag'i Gator ibodatxonasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ibodatxonaning devorlariga o‘yilgan yozuvlarga qaraganda, Gatorga asos qilib, Xufu ehromi olingan.

Ibodatxonaning qurilish vaqtiga uzoq olib borilgan bo‘lsa ham unda hovli bilan pilon qurilmay qolgan. Kirish zalida 24 ta ustun bor. Ustunlarning muqarnaslari xudo-sigirning boshi - Gator shaklida tasvirlangan. Gator boshli kapitellar Yangi podsholik davrida ham Deyr-El-Baxrida malika Xatshepsutning ibodatxonasidagi ustunlarda mavjud bo‘lgan. Unda Gator boshi kapitelning ikki qarama - qarshi tomoniga o‘yib ishlangan edi. Denderdag'i Gator ibodatxonasida esa kapitellarning to‘rtala tomoni ham Gator boshi bilan bezatilgan. Shuning uchun ustunlar yaxlit ko‘rinishga ega.

Denderdag'i Gator ibodatxonasi haqiqatan ham Misr ellinizmining eng mashhur binolaridan biri bo‘lgan. Misr ellinizmi dunyosida ma’lum bo‘lgan yodgorliklardan yana biri Kom-Ombo ibodatxonasıdır. Undagi asosiy xususiyatlardan biri shuki, bitta binoning ichiga ikkita mustaqil ibodatxona joylashgan. Shunga ko‘ra, bino ikkita parallel qismlarga bo‘lingan: o‘ng tomonagi janubiy qismi, muqaddas hayvon hisoblangan timsox ko‘rinishidagi xudo Sobekka, shimoliy chap qismi esa Gora xudosiga bag‘ishlangan. Har bir qism uchun siqinish joyi va ularga pilon darvozalaridan boshlab alohida yo‘l olib boradi.

Misr ellinizmining eng mashxur yodgorliklardan yana biri Fili orolidagi Isida ibodatxonasıdır. Bu Misrning janubiy chegarasida, ulug‘ daryo suvlari bilan o‘ralgan chakalakzorda bir-biriga aniq moslangan toshlardan qurilgan va xushbichim ustunlaru, chiroyli relyeflar bilan jihozlangan ajoyib binodir.

Ibodatxona pilonlaridagi relyeflar ayniqsa, piloning ichki hovli tomonga qaragan devorlariga o‘yib ishlangan ma’buda Isidaning suratlari, o‘zining qoyat go‘zalligi bilan ajralib turadi. Bu qunt bilan izlangan va jilvalarga cho‘mgan shakllar san’atining keyingi davri rivojlanishidan darak beradi.

Xulosa qilib aytganda, Misr me’morchiligidagi Karnak qanday rol o‘ynagan bo‘lsa, Fili oroli me’morchiligi ham Rim-Misr ellinizmi

davrda xuddi shunday rol o'ynagan. Deyarlik har bir hukmdor orolda nimadir qurban va eramiz boshlarida ular arxitektura muzeylariga aylangan. Nihoyat, eramizning 30-yillariga kelib, Misr Rim imperiyasi viloyatlaridan biriga aylandi. Chunki Rim imperatori Oktavian Ptolemeylarning so'nggi qirolichasi Kleopatra ustidan g'alaba qozonib, hukmdorlikni uzil - kesil o'z foydasiga hal qilgandi. So'ngra xristian dini vujudga keldi. Shu tufayli Misrdagi qadimgi til va din unutildi.

Eramizning VII asriga kelib, arab muslimmonlari mamlakatni zabt etdilar va u yerda o'rashib oldilar. Ana shu vaqt dan boshlab Misr tarixi, madaniyati san'ati va me'morchiligidagi yangi burilishlar boshlandi. Bu qariyib 13 asrlik davrni o'z ichiga oladi.

## Glossary

**Osiris** – Qadimgi Misr ma'budlaridan biri<sup>80</sup>.

**Sirdob** – 1.Qadimgi Misr me'morchiligidagi xaykalli yopiq joy. 2.Mesopotamiya uylarida yerto'la qismi. Yozning issiq kunlarida shu yerda ko'proq vaqt o'tkazishgan<sup>81</sup>.

**Speos** – Qadimgi misrliklar ibodatxonasi. Maqbara ma'nosida ham qo'llanilgan. Uni qoya ichida o'yib hosil qilishgan<sup>82</sup>.

**Sfinks** – 1. Grek afsonalarida aytilgan ayol maxluq. U sher yoki it tanali, qanotli, odam boshli qilib tasvirlangan. 2. Qadimgi Misrda qanotsiz sher tanali va odam boshli qilib tasvirlangan afsonaviy maxluqot. U yerkak boshi ko'rinishida bo'lgan<sup>83</sup>.

**Sirink** – Qadimgi Misrda chuqur va tor qazilgan qoya tunneli bo'lib, maqbaraning bir qismi bo'lgan<sup>84</sup>.

**Lotiform** – Nilufar shakli. Misr ustunlarida tasvirlangan nilufar guli<sup>85</sup>.

**Mastaba** – Misr maqbaralariga kirish yo'li. Bu joy qalin devor bilan qralib, yuzalari biroz qiya bo'ladi. Ichkariga kirilgandan so'ng uzun yo'lak daxmaga olib boradi<sup>86</sup>.

<sup>80</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P. 531

<sup>81</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.487

<sup>82</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.499

<sup>83</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.499

<sup>84</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.499

<sup>85</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.531

<sup>86</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.349

**Obelisk** – 1. To‘rt tomonli monumental tosh ustun. Piramida ko‘rinishida lekin tik bo‘ladi. 2. Misrda iyerogiflar yozilgan shunday tosh<sup>87</sup>.

**Palma ustun** – Yuqorisi palma ustunlari shaklida bo‘lgan. Misr me’morchiligi namunasi<sup>88</sup>.

**Papirus shaklli** – Papirus gullari shakli bilan bezatilgan Misr ustunlari<sup>89</sup>.

**Pastopxoriya** – Misr ruxoniylari xonasi. U yerga ma’budlar xaykallarini olib kirishgan<sup>90</sup>.

**Misr darvozasi** – G‘alaba arki kabi Misrning ulkan tosh darvozasi. Darvozaning ikki yoni ikki minoraga o‘xshaydi<sup>91</sup>.

**Kashamdar darvoza** – Misr ibodatxonasi darvozasi. Yonlarida ikki baland minora qurilgan. Devorlari tik yemas, biroz nishabli qilib qurilgan<sup>92</sup>.

**Piramida** – To‘rt qiya tomonli ulkan inshoot. Nishabli tomonlar yuqorida bir nuqtada uchrashadi. Bir yuzasining o‘zi uchburchak ko‘rinishiga ega. Piramidalar Misrda sag‘ana, Amerikaning qadimiy qabilalari uchun ibodatxona maqomida bo‘lgan. Ular astronomik kuzatuvlar va vaqt ni aniqlash vazifasini ham bajargan. Misr piramidalari burchaklari ba’zi yulduzlar bilan bir vaqtida bir chiziqdagi joylashadi. Piramida ichiga bir yilda bir marttagina quyosh nuri kirib boradi. Bu orqali yil kunlarini sanab chiqishgan<sup>93</sup>.

**Fiva** – Nil daryosi yaqinida joylashgan Mirning qadimiy poytaxt shahri. Faqat Karnak va Luksor xarobalari saqlanib qolgan. Bu shaxar Yangi podsholik davri firavniari qoya ichida maqbaralar bunyod yettirishgan. Ramzes II va Ramzes III sag‘analar qurdirishgan. Nilning sharqiy soxilida ibodatxona qoldiqlari, g‘arbiy sohilida yesa qabriston joylashgan. Kanak shaxridagi Buyuk ibodatxona Misr xudosi Amonga baqishlab qurilgan. 18-19 sulola vakillari bo‘lgan fir‘avnlar ibodatxona da qo‘srimcha bunyodkorlik ishlarini olib borishgan<sup>94</sup>.

**Anubis** – Boshi it tanasi odam qiyofasidagi Misr ma’budi. Yunonlar va Rimlik Xermes bilan Merkuriyni shunga o‘xshatib tasvirlashgan<sup>95</sup>.

<sup>87</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.383

<sup>88</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.395

<sup>89</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.400

<sup>90</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.404

<sup>91</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.437

<sup>92</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.437

<sup>93</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.440

<sup>94</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.532

<sup>95</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.23

**Misr me'morligi** – Mesopotamiya bilan birga eng qadimgi me'morchilik. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda taraqqiy topib to Rim imperiyasi davrigacha yetib kelgan. Fir'avnlar daxmalari yeng mashhur Misr obidalari hisoblanadi. Nozik qurilmalardan ko'ra mustahkamlikka ko'proq e'tibor berishgani tufayli, binolari ulkan toshlardan buniyod yetilgan. Gumbazlari arksiz ishlangan. Misr piramidalari dunyo mo'jizalaridan hisoblanadi<sup>96</sup>.

**Gipostil zal** – Oliy koshona . 1.Ustunlar katori va shifti bulgan katta tekis xona. Misr va Ahamoniylar binokorligida bulgan. 2. Tomini ustunlari suyab turadigan bino<sup>97</sup>.

### Foydalilaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario,Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me'morchilik asoslari. Darslik. – T.: «O'qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me'mor olami. Lug'at. – T.: «O'qituvchi», 1998.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O'qituvchi», 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В.Очерки истории архитектурных стилей. М, 2001.
4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Килде Т.Л Основы архитектуры.- М.:Высшая школа, 1999.

<sup>96</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.187

<sup>97</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.293

6. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.: Высшая школа, 1998.
7. Сербинович П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.: Высшая школа, 2000.

## **OLD OSIYO ME'MORCHILIGI. IKKI DARYO ORALIG'I VA MESSOPOTAMIY. MIDIYA VA ERON AXMONIYLARI DAVRI ME'MORCHILIGI**

**Reja:**

1. Old Osiyo me'morchiligining rivojlanish xususiyatlari.
2. Qurilish texnikasi va diniy inshootlar.
3. Shahar va saroylar qurilishidagi me'moriy uslublar.
4. Midiya va Eron Axmoniyleri davri arxitekturasi.

Fors ko'rfazidan Tigr daryosining boshigacha shunday me'morichilik xukm surar ediki, u har bir alohida joyda mahalliy sharoitlarga bog'liq holda faqat arzimas variantlarini namoyon qilar edi. Ossuriyada uncha ko'p miqdorda bo'lmasa ham yog'och resurslariga va uncha katta bo'lman tosh resurslariga ega bo'lsa ham, janubda yog'och ham, tosh ham yo'q edi. Bobilliklar uchun loy eng qimmatli qurilish materiali bo'lib, ehtiyoj zaruriyat pishirish yo'li bilan tosh xususiyatiga ega materialning yaratilishiga olib. Yoqilg'ining yetishmasligi tufayli uni tayyorlashdagi qiyinchiliklarga qaramay pishgan g'isht Bobil me'morchiligidagi katta o'rinni egallagan edi. Mil.av. VII asrda bunday g'isht Navuxodonosorning qurilishlarida asosiy qurilish materiali bo'lib hisoblanar edi.

Geradotning dalolat berishicha, qirg'oqdagi va qal'a devorlari qisman bo'lsa ham, ana shu sun'iy materialdan barpo etilar edi. Injilda Bobil shahrini ma'lum bo'lgan minoralardan eng qadimgisi hisoblab, u yerdagiligi qurilish materiali pishiq g'isht ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, Mesopotamiya me'morchiligini asosiy jihatlarini quyidagilar hisoblanadi: pishiq g'ishtni qo'llanishiga asoslangan konstruksiylar tizimining hukmronligi. Janubda – pishgan g'ishtning

oftobda quritilgan xom g‘isht bilan birikmasi, Ossuriyada- xom g‘ishtning tosh bilan birikmasi<sup>98</sup>.

### *Loydan konstruksiya*

*Pishirilmagan loyning qo‘llanilish usullari.* Ossuriyada loydan iborat qurilishlarning mavjud bo‘lganini isbotlash qiyin: loy bo‘laklari xom g‘isht bo‘laklari bilan osongina birikib ketgan. Loydan qurilishlar juda keng tarqalganligi ravshan—oqibatda o‘ziga xos sinchlar ishlatilagan bo‘lib, ular qimmatga tushar edi, chunki yog‘och qimmatbaho material bo‘lgan. Yog‘ochni ishlatmaslik uchun g‘isht yasalar edi.

G‘ishtning odatdagи o‘lchamlari har bir tomoni 0.3 dan 0.4 m gacha bo‘lar edi, qalinligi esa 0.053 dan 0.11 m. Bu Misrliklarnikiga o‘xshash g‘ishtlar loy bilan birgalikda qurilar edi, g‘isht xomligicha terib chiqilar edi. Buni quyidagilarga asosan xulosa chiqarish mumkin.

Diniy odatga ko‘ra, qurilishning birinchi qatoriga tumor tashlanar edi, va bu mayda buyumlar g‘isht qatlamida iz qoldirmas edi. Bino-barin, tumorlar qo‘ylganda pastki qatlamdagи g‘ishtlar quruq bo‘lib, yuqori qatlamdagilar xom bo‘lgan. Bu holat Ossuriyaga xos tizimning usullariga quyidagi tarzada xulosa chiqarishga va uning misrliklarnikidan farq qilishini ko‘rsatishga imkon beradi.

Misrda g‘isht quruq holda suyuq loy qatlamiga terib chiqilgan: Ossuriyada esa aksincha, g‘isht butunlay xomligida terib chiqilgan. Terilgan g‘isht qatlami quyosh nuri ostida tez quriydi va uning ustiga xom va bog‘lanishsiz terilgan g‘ishtlar ularda bor bo‘lgan namlik tufayli umumiyoq massa bo‘lib yopishib ketadi.


Ba‘zida massivni quritish drenajlar yoki tosh suv o‘tkazgichlari orqali eritiladi. Tuproqli massivlarda topilgan o‘rtacha o‘lchamli kesimida 0.2 m balandlikdagi va eni 0.12 m bo‘lgan gorizontal ariqlar odatda drenaj (zovur) tarzida ko‘rib chiqilgan. Aslida esa bu kanallar (ariqlar) – bu bir paytlar massivlarga bog‘lanish uchun qo‘ylgan va

<sup>98</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-54-55(The architecture of Mesopotamia is ancient architecture of the region of the Tigris-Euphrates river system (also known as Mesopotamia), encompassing several distinct cultures and spanning a period from the 10th millennium BC, when the first permanent structures were built, to the 6th century BC. Among the Mesopotamian architectural accomplishments are the development of urban planning, the courtyard house, and ziggurats. No architectural profession existed in Mesopotamia; however, scribes drafted and managed construction for the government, nobility, or royalty. The favoured design was rounded bricks, which are somewhat unstable, so Mesopotamian bricklayers would lay a row of bricks perpendicular to the rest every few rows. The advantages to plano-convex bricks were the speed of manufacture as well as the irregular surface which held the finishing plaster coat better than a smooth surface from other brick types. Bricks were sun baked to harden them. These types of bricks are much less durable than oven-baked ones so buildings eventually deteriorated)

Misrdagi Semnax qal'asi ko'rganlarimizga o'xshash bo'lgan endilikda chirib ketgan yog'och to'sin bilan band bo'lgan joy bo'lgan.

Pishgan g'isht va qorishmaning qo'llanilishi-Ossuriyaliklar pishiq g'ishtdan namlik xavf tug'diradigan joylardagina foydalanishar edi. Yomg'ir tushib turadigan ochiq hovlilar terrakotli plitkalar bilan asfalt qatlami ustiga qoplanar edi. Yer osti galereyalar ham pishiq g'isht bilan qoplanar edi.

Mazkur holda xom g'isht konstruksiyalaridan farqli ravishda pishiq g'ishtning o'lchamlarini aniq belgilash mumkin: u 0.315 dan 0.63 m oralig'ida o'zgaruvchan bo'lib, Mause ko'rsatishicha, Mesopotamiyadagi mavjud o'lchov tizimlariga bog'liq bo'lgan. Deyarli barcha g'ishtlarda o'sha davrda xukmron bo'lgan xukmronning nomi yozilgan. Novuxodonosorning nomi yozilgan son-sanoqsiz g'ishtlar mavjud.



Navuxodonosor davridagi qurilishda ishlatilgan  
g'ishtga tushirilgan muchrlar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, pishagn g'isht faqat Bobilda ishlatilgan. Pishgan g'isht bilan birga bog'lovchi sifatida ohak ham qo'llanilagan.

Mamlakatning janubida juda ko'p miqdorda mavjud bo'lgan asfal't suv o'tmaydigan qorishmadan iborat bo'lgan va shu sababli keng qo'llanilagan. Nisbatan toshli devorlarni qalin asfal't qatlami singdirilgan yo'li bilan tekislanganligini aytadi. Tello shahrida bog'lovchi vazifasini bajaruvchi asfalt singdirilgan tolali materiladan to'qimalar topilgan. Birs Nimrud va Kars xarobalarida ohakli qorishmaning mavjudligi, Moxayrada esa oxak va ko'ldan iborat bog'lovchining mavjudligi aniqlangan.

## *Tuproqli inshoatlarning asosiy turlari*

**Poydevor** – biz binolarimizni qurishda uning poydevoriga qattiq xom ashyo tanlashga o‘rganib qolganmiz. Misrliklar ham huddi shunday yo‘l tutishgan. Ammo Bobil va Nineviya quruvchilari hech qachon poydevor qurishmagan. Negaki ular tekisligining nanos tuprog‘ida qit‘a juda chuqur joylashgan, ular unga yetish yo‘lidan voz kechishdi. Ular tuproqqa tayanishadi, biroq uni va binoning orasida bir qator yaratishadi, katta rostverk, sun’iy tepaliklar singari, platforma, u binoga asos va uni vaznini ko‘tarishga xizmat qiladi. Xorsabodda bir qator, qasr asos vazifasini bajaruvchi, 14 metr balandlikka ega (bizning 5 qavatli bino balanligi), oddiy balandlik emas, bir o‘lchamli g‘ishtlardan terilgandir, hali qotmagan holda ishlatilgan<sup>99</sup>.

**Devorlar** – devorlar ham xom ashyodan ko‘tarilardi, ammo bu yerda fatqatgina ushbu xom ashyo ishlatilmasdi. Alovida ahamiyatli joylarda esa quyoshda quritilgan g‘isht suyuq loyda terilgan. Odatda suvoq loydan yoki alebastrdan, loy va ohak aralashmasidan bo‘lib devorlarni yomg‘irdan himoya qilardi.

**Yerto‘lalar** – yegipetliklar singari, ossuriyalik quruvchilar g‘isht-danerto‘la qurishardi, ulardek, Strabrnning “daraxt tanqisligi oqibati” izohi bo‘yicha shu uslubni qo‘lashardi. Yegipetlilardek, o‘sha sabab, ular yerto‘lalarni krujalsiz kurishardi. Bu sharoitga gumbazsimon yertula yaxshiroq to‘g‘ri keladi. Kuyundjik tekisliklarida shahar tasvirlangan, undagi hamma uylar gumbazli – yarimsferik, salobatli turda, cho‘zilgan shaklda; ma‘lum bo‘lishicha, oxirgisini qurish osonroq, oddiysiga qaraganda. Gumbazlar silindrik barabanlarga ega bo‘lganmi yoki parusli kvadrat asosda joylashganni? Ko‘rinishicha, ular ostidagi yashash xonalari sirkul shaklda bo‘lmagan, parus borligi haqidagi tahminlar haqiqatga yaqin, ammo tasvirlar shuqadar tushunarsizki, ularga qarab tahminlarni tasdiqlab bo‘lmaydi. Bizgacha yetib kelgan yagona Osuriyaliklar yerto‘lalar – ular galereyani yopib turgan. Moxeyrada xilxonalar yolg‘on yerto‘lalar bilan yopilgan desa bo‘ladi, ya’ni qatorlar gorizontal terilgan, asta ichkariga osilgan – inshoat, krujal ishlatishni talab qilmaydig an va yonidan uqalanishni

<sup>99</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009 P55-56(Of the fortifications we know much more. In the north wall of Nimroud fifty-eight towers have been traced, and at Kouyunjiik there are large remains of three walls, the lower part being of stone, and the upper of sun-dried bricks. At Khorsabad there are the remains of a wall.)

nivojlantirmaydigan, faqat kichik oraliqlarda imkoni bor edi<sup>100</sup>. Xorsabodda qazilmalar davrida yangi shaklda qurilgan galereyalar korobali yerto'lalar bilan yopilgan. Bu yerto'lalar kesmalar uslubida bajarilgan.

Xom ashyo sifatida kuydirilgan g'isht xizmat qilgan, unga, yo'nalishi bo'yicha unga kerakli shakl berilgan. Ko'pincha o'qsimon shakl, uning ko'tarilgan profili krujalsiz terishni osonlashtiradi. G'ishtlar bog'lanmagan va ular o'zaro ishqalanish hisobiga turadi. Fors va Vizantiya arxitekturasida ham kuzatiladigan ehtiyyot shart yerto'laning alohida qismlarining kuchli bukilishini ko'rish mumkin.

Osuriyaliklar qiyin yerto'la ishoatlari bilan zavqlanishgandek, tasavvur paydo bo'ladi, turli joylardagi galereya turli tus beradi. Shakliga izoh berish bilan hozir biz chekladigan galereya, Pleysning tusvirlashicha, tashkilida keyingi g'alatiliklarga ega. Bir nuqtadan ikkinchisiga bo'limni va bukilishni o'zgarishi, u A normal profildan V ga to torayib to kengayib o'tadi. Krujalsiz terish ushbu g'alati kompozitsiyaning barcha beqarorliklariga bo'ysinardi. Ko'ndalang kesmalardan iborat yerto'lalar shu holatda bo'lishi mumkin, qachonki galereya faqat asosiy devor bilan cheklansa, uning boshi sifatida xizmat qiluvchi.

Arkalarga qisib terish usulini qo'llash zarur. Xuddi shu usul bilan Xorsabod darvozalari arkalari terilgan – quyoshda quritilgan g'isht suyuq loy qorishmasida terilgan.

Shunday qilib, Ossuriya yodgorliklari bizga bir vaqtida arka va ko'ndalang kesmali korobali yerto'ladan namuna beradi. Shubhasiz, katta zallar yerto'lalari ko'ndalang kesma tizimida terilgan.

### *Shahar va istehkom*

*Shahar* – Ossuriyaning shaharlarida ko'chalariga plitalar yotqizilagn to'g'ri ko'chalar mavjud edi. Odatda uylarning burchaklari quyosh yorug'ligi eng maqsadga muvofiq ravishda uyning to'rt tomoni bo'yicha taqsimlash, shuningdek, jaziramadan qochish maqsadida

<sup>100</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P.56 (the two channels and their position one above the other. The pavement of the terrace, which consists of a double bed of large bricks, rests upon the extrados of the upper channel. This vault is semicircular; it has three voussoirs on each side, which, with the key, make seven in each vertical course. But in consequence either of an error in measurement or of a mistake in calculating the shrinking of the bricks, there was a gap between the third voussoir on the right and the key. This gap was filled in by the insertion of a stone cut into the shape of a wedge. But for this fault—which, however, had no appreciable effect upon its solidity—the vault would be perfect. The narrow triangular opening of the lower channel may be seen below it.)

dunyo tomonlari yo‘nalishi bo‘ylab joylashtirilgan<sup>101</sup>. Shaharlar atrofi mustahkam istehkom devorlari bilan o‘ralgan edi; Mesopotamiya - qadimgi qal’alar mamlakati. Bobil shahri himoya qiluvchi devorlar bilan o‘rab olingan butun bir munkha katta bo‘lmanan hudud bo‘ylab, uning ichkarisida aholini boquvchi ekin maydonlaridan iborat edi.

*Xorsobod* – faqat mustahkamlangan devor bilan o‘ralgan uylar majmuasidan iborat shahar; daryo uni kesib o‘tmaydi, chunki u orqali dushman shaharga kirib olishidan qo‘rqishgan. Bunday bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavfga shu darajada katta e’tibor berilar ediki, agar shahar o‘rtasidan daryo o‘tgan bo‘lsa uning ikkala qirg‘og‘ini ham qal‘a chizig‘i bilan mustahkamlashga harakat qilinari edi. O‘zlarini faqat tashqi dushmanidan himoya qilibgina emas, balki mamlakat ichidagi qo‘zg‘olonlar to‘g‘risida ham hech qachon yodlaridan chiqarishmas edi. Ko‘priq Bobilning ikki qismini birlashtirib turar edi, ammo bu ko‘priq suriluvchi edi, uning oraliqlari har kecha surilib turuvchi yo‘g‘on eman daraxtidan yasalgan edi. Xuddi shunday hozirgi vaqtida Damashqning ko‘chalari ham bir birdan darvozalar bilan ajratilgan, kechasi ular yopiq bo‘lib shaharni bir biri bilan aloqa qila olmaydigan qismlarga ajratadi. Xorsabod saroyi yaxlit to‘siq bilan o‘ralmagan; u daryoning qirg‘oqlaridan birida joylashgan bo‘lib, u vohadan panoh topishga yoki Tigr daryosiga yetishga imkon berar edi. Istehkom devorlaridagi ikki darvoza hech qachon bir biriga qarama-qarshi qilib qurilmagan, ko‘rinishini ochib qo‘yish mumkin bo‘lishini to‘sib qo‘yish uchun, andiladalar (birdan ikkinchisiga o‘tiladigan uylar) qurmaslikka harakat qilishar edi<sup>102</sup>.

*Istehkomlar* – Bobilning istehkomlari uch qavatlari edi. Xorsobodda ikkinchi darajali bo‘lgan joyda faqat bitta devor bo‘lgan, uning

<sup>101</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-69 (Оюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 китобининг рус тилидаги талқинидан фойдаланилган) (The construction of cities was the end product of trends which began in the Neolithic Revolution. The growth of the city was partly planned and partly organic. Planning is evident in the walls, high temple district, main canal with harbor, and main street. The finer structure of residential and commercial spaces is the reaction of economic forces to the spatial limits imposed by the planned areas resulting in an irregular design with regular features. Because the Sumerians recorded real estate transactions it is possible to reconstruct much of the urban growth pattern, density, property value, and other metrics from cuneiform text sources. The typical city divided space into residential, mixed use, commercial, and civic spaces.)

<sup>102</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-69-70. (Оюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobining rus tilidagi talqinidan foydalaniłgan) (The town was of rectangular layout and measured 1758.6 by 1635 metres. The enclosed area comprised 3 square kilometres, or 288 hectares. The length of the walls was 16280 Assyrian units, which corresponded to the numerical value of Saigon’s name. The city walls were massive and 157 towers protected its sides. Seven gates entered the city from all directions. A walled terrace contained temples and the royal palace)

poydevori toshli, usti loyli bo'lib, rejada kvadrat shaklidagi minoralar bilan tugallangan.


Devor atrofida xandaq izlari topilmagan. Devor bilan xandaq orasida Mesopatamianing tuprog'ida to'la risberma bo'lgan xandaqqa tushib ketishi xavfidan saqlovchi keng (yo'l) mavjud bo'lgani aniqlangan. Xorsobodda biz devorlarni tik shaklda ekanligini ko'ramiz. Barcha qal'alarning devorlari releflarida tishli qilib ko'rsatilagan; Misrdagi istehkomlarda biz tavsiflagandek xuddi shunday tishli tuyrukler ko'rindi.

Ba'zida devorlarning tishlari tashqi tomondan maskirovka qurilmalari bilan himoyalanan edi, ular qamal paytida qo'yilar va dumaloq qalqondan iborat edi. O'z shakli va mustahkamlanish usuliga ko'ra bu maskirovka qurilmasi harakatlanuvchi (ko'chma) bo'lar edi, uni o'rnatish qulayligiga ko'ra u oldindan himoya qilar edi (ekran vazifasini bajar edi), goh yuqorida himoya qilar edi. Qamal qiluvchilarning o'qi uni teshib o'tish o'rniغا, kuchini yo'qotar va uni harakatga keltirib, u bo'yicha sirpanar edi.

*Kiruvchi eshiklar* – kirish joylari shunday qurilgan ediki, u har qanday tasodifning oldini oson baratarf etishi mumkin edi. Xorsobodda har bir kirish minorasimon do'nglik bilan himoyalangan va u qo'riqchilar uchun xonalar joylashtirilgan uzun yo'lak ko'rinishida<sup>103</sup>.

Fortifikatsion inshoatlarga biz yuqorida tavsiflab o'tgan g'alati tuzilishdagi yer osti yo'lini ham kiritish kerak. Tuproqli istehkomlarni qamal qilganda ko'pincha yer ostidan kovlashlardan tez-tez foydalishgan. Gerodot shunday hikoya qiladiki, tinch mahal saroyning zallaridan birida uning tuproqli poydevori orqali kovlab chiqib o'g'rilik qilishgan. Bunday nohush tasodiflarni bartaraf qilish uchun harakat qilish kerak, buni yerni kovlash vaqtidagi shovqinni eshitibgina erishish mumkin edi.

<sup>103</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-70 (Огюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО 2009 kitobning rus tilidagi talminidan foydalananligi) (Doorways seem to have been generally crowned with a brick archivolt; round-headed doors occur oftener than any others on the bas-relief, but rectangular examples are not wanting. In the latter case the lintel must have been of wood, metal, or stone. Naturally the bronze and timber lintels have disappeared, while in but a single instance have the explorers found one of stone at the entrance to a hall in the palace of Sennacherib. It consists of a block of richly carved limestone. Its sculptures are now much worn, but their motives and firm execution may still be admired. Two winged dragons, with long necks folded like that of a swan, face each other, the narrow space between them being occupied by a large two-handled vase. Above those there is a band of carved foliage, the details of which are lost in the shadow cast by a projecting cornice along the top of the lintel. The necklace round the throat of the right-hand dragon should be noticed).



Bu galereya Xarsobodda topilgan boshqa galereyalar kabi yon tomonidan 0.1 m kenglikdagi o'tish yo'liga ega va qurilishning yer osti qismida oqava yoki quritish uchun mo'ljallangan ikkita teshik bilan tugallanadi. Uning chiqish joyi yo'q, demak, suv oqib ketish uchun mo'ljallangan.

Endi Ossuriya davrini ko'rib chiqamiz mil.av. 9 asrdan 7 asrlar gacha bo'lgan davr. Bottning kashfiyotlari va Leyard hamda Raulinsoning qazilma ishlari tufayli shu davrga tegishli bo'lgan juda ko'p miqdordagi yodgorliklar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lingan. Ulardan asosiyлари quyidagilar:

Mil.av. taxminan 870-yil—Ashurnazirpal saroyi (Nimruddagi shimoliy-sharqiylar)

Mil.av. taxminan 715-yil—Xorsaboddagi Sargon saroyi

Mil.av. taxminan 690-yil—Kuyundjikdagi Sinaxerba saroyi

Mil.av. taxminan 670-yil — Assargodon saroyi (Nimruddagi janubiy-sharqiylar)

Mil.av. taxminan 660-yil — Ashurbanipal saroyi (Nimruddagi shimoliy saroy).

Ashurnazirpal va Sargonidlar davri – bu taxminan Misr uchun Sizostris vaqtiga kabi diniy sig'inish shakllarning noyobligi va detallarning mukammaligi hisobiga rivojlangan davr. Bu Ossuriyaning harbiy muvaffaqiyatlari davri, bu davrda davlat markazida ulkan inshoatlarni barpo etish uchun butun bir ko'chmanchi qabilalardan (yaxudiyalar bilan bo'lgani kabi) foydalanish mumkin bo'lgan davr. Konstruktiv uslublar bunday imkoniyatlarga javob berar edi. Saroy qurish uchun faqat loy

qilishni va g‘isht quyishni hamda terishni biladigan odamlar bo‘lishi kifoya edi<sup>104</sup>.

Ashurnazirpal saroyidan Assargodon saroyigacha konstruksiya sanati doimiy ravishda taraqqiy etib bordi; zallarning o‘lchamlari orta bordi. Bu qurilish texnikasi takomillashib borganidan dalolat berar edi. O‘sha vaqtarda Nimruddagi eski saroyning keng zallari oralig‘i 7 m, Xorsaboda esa 10 m ga yetadi; Nimruddagi janubiy - sharqiy saroyda Assargodonning me’morlari zalning enini 19 m qilishga jazm qilishgan edi, lekin zallarni qurish tugallanayotganda bundan voz kechishga to‘g‘ri kelib, zalni devor bilan ikki qismga ajratishgan edi. Mil.av.625 yilda yangi Bobil davlatining tashkil etilishi qurilish sanatini yangicha ko‘tarilishiga olib keldi. Bu haraktning timsoli Navuxodonosor bo‘ldi. Uning davrida shunday inshoatlar barpo etildiki, Bobilning devorlari, saroylari, ko‘p qavatlari zikkuratlar Geradotni qoyil qoldirgan edi. Bular ko‘pchilik holatlarda, xarobalari shaklsiz holda bo‘lgan qurilmalarning uslubi to‘g‘risida mufassal hukm yuritishi qiyin bo‘lsa ham, ammo ularning konstruktiv jihatlari Ossuriya me’morchiligiga noma’lum bo‘lgan mukammallik va hashamatni sezishga majbur etadi. Xususan, ularda ko‘p miqdorda pishiq g‘isht qo‘llanilgan va sirlangan dekoratsiya keng tarqalgan. Kirning iste’-losidan so‘ng (mil.av.530 yil) Bobil sanati mahalliy sulolalar bilan birga halok bo‘ldi. Fors sanati uning go‘yoki davomchisi bo‘lib hisoblanadi.

Old Osiyoning badiiy-tarixiy yodgorliklari Misr arxitekturasi singari keng va rang-barang. Bu yerda ham hashamatli saroy va ibodatxonalar qurildi. Lekin bu yodgorliklar bizgacha yetib kelmadı. Bunga sabab Old Osiyoning asosiy qismini tashkil etgan. Ikki daryo oralig‘i (Mesopotamiya) da bir-birini almashtirib turgan yangi-yangi

<sup>104</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P-71 (Отъезд Шуази Всебашая история архитектуры. ООО Издательство ЭКМО 2009 избрания рус тилдаги талқиндан фойдаланылган) (The palace came into existence during the Early Dynastic I period. From a rather modest beginning the palace grows in size and complexity as power is increasingly centralized. The palace is called a 'Big House' (Cuneiform: Ez.GAL Sumerian e₂-gal Akkadian: ekalli) where the legal orensi lived and worked. The palaces of the early Mesopotamian elites were large-scale complexes, and were often lavishly decorated. Earliest known examples are from the Divala River valley sites such as Khafajah and Tell Asmar. These third millennium BC palaces functioned as large-scale socio-economic institutions, and therefore, along with residential and private functions, they housed craftsmen workshops, food storerooms, ceremonial courtyards, and are often associated with shrines. For instance, the so-called "giparu" (or Gig-Pai-Ku in Sumerian) at Ur where the Moon god Nanna's priestesses resided was a major complex with multiple courtyards, a number of sanctuaries, burial chambers for dead priestesses, and a ceremonial banquet hall. A similarly complex example of a Mesopotamian palace was excavated at Mari in Syria, dating from the Old Babylonian period. Assyrian palaces of the Iron Age, especially at Kalhu/Nimrud, Dur Sharrukin/Khorsabad and Nineveh, have become famous due to the pictorial and textual narrative programs on their walls, all carved on stone slabs known as orthostats. These pictorial programs either incorporated cultic scenes or the narrative accounts of the kings' military and civic accomplishments. Gates and important passageways were flanked with massive stone sculptures of apotropaic mythological figures. The architectural arrangement of these Iron Age palaces were also organized around large and small courtyards. Usually the king's throne room opened to a massive ceremonial courtyard where important state councils met and state ceremonies were performed. Massive amounts of ivory furniture pieces were found in many Assyrian palaces pointing to an intense trade relationship with North Syrian Neo-Hittite states at the time. Bronze repousse bands decorated the wooden gates).

davlatlar o'rtasida mamlakatga hukmronlik qilish uchun doimiy kurash borgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, me'morlik va tasviriy san'atning turlarini rivojlantirish uchun tosh, yog'och va metallarning yetarli bo'lmanidan, deyish mumkin. Saqlanib qolgan yodgorliklar, ularning qoldiqlari Old Osiyoda eramizdan avvalgi 4000-3000-yillardayoq bu yerda o'ziga xos arxitektura paydo bo'lganligi va rivojlanganligidan dalolat beradi. Old Osiyo san'atida ham monumental me'morlik yetakchi o'rinni egallagan. Mesopotamiya me'morligining o'ziga xos xarakterli tomonlari eramizdan avvalgi 4 ming yillikda Shumer madaniyati shakllangan paytlarda yuzaga keldi. Bu davrga kelib odamlar yashaydigan yirik manzillar markazi baland su'niy yoki tabiiy tepaliklar ustiga qurilgan monumental saroylar markaz vazifasini o'tay boshlagan.

Ular asosan, xom g'ishtdan ishlangan, devor yuzasi pishiq g'isht parchin va qisman toshlar bilan qoplab chiqilgan. Binoning tashqi devori tokchalar va yarim ustunsimon vertikal chiziqlar bilan ajratilgan. Bu hajmlar binoda yorug' - soya mosligini kuchaytirib, uning tantanavor ko'rinishini oshirgan. Bu xususda El-Obeydag'i saroy (er. av. 3000-yillar) xarakterlidir. Saroy su'niy tepalik ustiga qurilgan bo'lib, unga zinalar bilan chiqilgan. Devorning ichki va tashqi tomonidagi yarim ustunsimon, hajmlar uning pishiqligini oshirishga xizmat qilgan. Old Osiyo me'morchiligining yana bir o'ziga xos xususiyati, ibodatxonalar oldiga qurilgan, tepaga tomon kichrayib boruvchi supachalar-dan tashkil topgan zikkurat hisoblanadi. Bu supachalar zinalar bilan bog'langan. Zikkuratning eng yuqori qismi xona bo'lib, u yerda oltindan yasalgan stol bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, xudo o'z koxinlari bilan shu stol atrofida gaplashgan. Old Osiyoning qadimgi davrga xos bo'lган tasviriy san'at xususiyatlari Shumer va Aqqad davlatlarida ko'rindi. Aqqad podsholigi (er. av. XXIV-XXII asrlar) davrida Old Osiyo yerlari yagona davlatga birlashtirildi. Er. av. 1 ming yillikda Ossuriya yirik quldarlik davlatiga aylandi. Er. av. VII asrga kelib, u butun Old Osiyoni o'ziga bo'yendirib oldi va yagona davlat tashkil etdi.

Shu davrda xashamatli saroy, ibodatxonalar vujudga keldi.

Dur-Sharruken (hozirgi Xorsobod) dagi Sargon II saroyi xarobalari (er. av. VIII asrning ikkinchi yarmi) shu davr monumental me'mor-chiligining xarakterli tomonini ko'rsatishda muhim o'rincini tutadi. Bu saroy balandligi 14 m. bo'lgan su'niy tepalikka qurilgan bo'lib, u qalil devor bilan o'ralgan. Saroy mehmonxona, yotoqxona va diniy marosimlarga mo'ljallangan xonalardan iborat bo'lib, ular alohida

ochiq hovli atrofida joylashtirilgan<sup>105</sup>. Saroyga kiraverish darvozalarining ikki yon tomoniga esa kantoli, odam boshli buka-shedu o'rnatilgan. Bu xaykal tabiiy kuchlar ramzi bo'lib, podshoni «yomon ko'zdan» saqlashda xizmat qilgan.

Kalxudagi Ashshurnasirpal II (er. av. 883-859-yillar). Nanevidagi Ashshurbanapal (er. av. 669-635-yillar) saroylari burtma tasvirlari ham mashhurdir. Er. av. 612-yili Ossuriya Bobil va Midya podsholigi yurishlari tufayli o'z umirini tugatdi. Lekin uning arxitekturasi qadimgi dunyo xalqlari arxitekturasi rivojiga katta ta'sir qildi. Er. av. VII asr oxiriga kelib, Bobil yangi rivojlanish davrini boshidan kechira boshladи. Navuxodonosor II (er. av. 605-562-yillar) podsholik qilgan yillar Bobilda shahar qurilishi ishlari avj oldirib yuborildi, shahar qurilishi plan asosida tiklanib, yangi binolar qurildi, atrofi kalin devor bilan o'rab chiqildi. Shaharning sakkiz darvozasi bo'lib, ular ichida Ishtar darvozasi o'zining ko'rkan va serxashamligi bilan ajralib turar edi.

**Emplekton** – Greklar va Rimliklar qo‘llagan tosh terish usuli. Bu qurilma himoya devori bo‘lib tashqi ko‘rinadigan yuzalar tekis toshlardan qurilgan, ichki qismi esa mayda toshlar bilan to‘lg‘izilgan.<sup>168</sup>

**Enplekton** – Grek va Rim tosh terish usuli. Ko‘zga tashlanadigan tomoni tekis g‘ishtli, ichki qismi esa mayda tosh parchalari bilan to‘lg‘izilgan bo‘ladi<sup>169</sup>.

**Episken** – Rim va Gretsiya teatr sahnalarining yuqori qavati<sup>170</sup>.

**Erekta** – Afina Akropolisidagi ibodatxona. Miloddan avvalgi 421-405-yillarda Iona usulida qurilgan.

**Eksedra** – Yarim aylana o‘rindiq. 1. Yarim aylana shaklli, usti tompli, o‘rindiklarga ega joy. 2. Cherkovning yarim aylanali qismi. 3. Grek gimnaziyalarida dars o‘tilgan yarim aylana o‘rindiqli joy. 4. Kadimgi grek uylarida devor atrofi o‘rindiqli suhbatlashish xonasi. 5. Ochiq xiyobonlardagi yarim aylana o‘rindiq<sup>171</sup>.

<sup>161</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.164

<sup>162</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.165

<sup>163</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.173

<sup>164</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.180

<sup>165</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.191

<sup>166</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.191

<sup>167</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.191

<sup>168</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.196

<sup>169</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.197

<sup>170</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.199

<sup>171</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.206

**Uchburchak deraza** – 1. Grek uylarida past tomonga, ichkariga ochiladigan deraza. 2. Chordoq darchasidagi deraza<sup>172</sup>.

**Golosniki** – Ovoz quvurlari. Gretsiya Ortodoks cherkovi, Skandinaviya va Rossiya cherkovlarida, shuningdek, Buxorodagi Kalon masjidida o'rnatilgan tovush kuchaytirgichlar. Ular voiz ovozini uzoqroqdagagi o'tirganlarga yetkazib beradi.<sup>173</sup>

**Grekostas** – Rim Forumida elchilar xizmat yuzasidan chiqadigan supa<sup>174</sup>.

**Yunon uyi** – Bu uy ikki qismga bo'lingan: erkaklar xonasi (Andron), ayollar xonasi (Gynayeceum, gynayekonitis). Uyga kirish cshigi daxliz tomonga ochilgan. Daxlizdan ochiq hovliga o'tilgan. Uning qolgan uch tomoni ustunlar bilan o'ralgan. Kattaroq uylarning ikkinchi hovlisi ham mavjud bo'lган. Ularning atrofida ovqatlanish xonasi, yotoqxona, ombor va boshqa xonalari joylashgan. Qullar uchun ham alohida joy bo'lган. Ba'zi uylar ikki qavatlari bo'lган. Biroq ikkinchi qavat birinchi qavatdan kichikroq qilib qurilgan. Yunon uylarining tomi odatda tekis bo'lган. Xonalarga yorug'lik eshikdan tushgan. Shunga o'xhash uylar egasining boyligiga qarab hamda zamonga qarab turlicha kurilgan. Ko'pchilik ustalar o'z uylarining bir xonasini ishxonaga aylantirishgan<sup>175</sup>.

**Grek teatri** – Qadimgi yunonlar tomonidan qurilgan usti ochik tomoshagoh. U ko'pincha tepalikda buniyod etilib, tashqi dizayniga e'tibor berilmagan. Aktyor va ko'shikchilar saxnasi orkestr deb atalgan. (Orchestra). Uning oldida aktyorlar tayyorgarchiliqi uchun vaqtincha yo doimiy qurilgan skene deb ataluvchi joy bo'lган. U vaqtida tomoshabinlar joyi butun aylanani egallamagan. Beshdan uch qismida o'riudiqli joy qurilgan va ular yuqoriga qarab balandlab borgan<sup>176</sup>.

**Gimnaziya** – Grek va Rim me'morchiligidagi katta ochiq mashg'ulot maydoni. Atrofi ustunlar va uqalash xonalari, hamda darsxonalar bilan o'ralgan<sup>177</sup>. **Ellin** – Mumtoz yunon madaniyati davriga taalluqli. Miloddan avvalgi 480-yildan 323-yilgacha davom etgan. Iskandar orqali O'rta Osiyo me'morchiligiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan<sup>178</sup>.

<sup>172</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.207

<sup>173</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.253

<sup>174</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.263

<sup>175</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.266

<sup>176</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.266

<sup>177</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.271

<sup>178</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.280

**Gekatomedon** – Uzunligi va kengligi 100 fut bo‘lgan grek binosi. Parfenon va Afina ibodatxonalarining ichki qismi<sup>179</sup>.

**Ellistik** – Iskandar vafotidan keyingi davr. Yunon me’morchiligidagi tegishli<sup>180</sup>.

**Gekatomedon** – Uzunligi va kengligi 100 fut bo‘lgan grek binosi. Parfenon va Afina ibodatxonalarining ichki qismi<sup>181</sup>.

**Iyeroglif** – Harf yoki so‘zni bildirgan tasvirli belgi. Misrda bir belgi asosan bir harfini ifodalagan. Ilk bor Fransuz arxeologi Shampolyon tomonidan Rozetta bitiktoshida o‘qilgan. U toshda grek yozuvni va iyeroglifda bir xil ma’lumot takrorlab yozilgani uchun barcha belgilarni kashf etish muvaffaqiyatlari o‘tib tarix tilga kirgan<sup>182</sup>.

**Iona uslubi** – Ionik yoki Ioniya deb ham atalgan. Me’morchilikning mumtoz uslubi. Ionaliklar usulidan kelib chiqqan (Yunoniston).<sup>183</sup>

**Katabazis** – Grek Ortodoks cherkovida mehrob ostida bo‘lgan joy<sup>184</sup>.

**Orkestr** – Qadimiy yunon teatri<sup>185</sup>.

**Leche** – Grek choyxonasi. Choy ichish uchun emas, gaplashish va yangiliklardan xabardor bo‘lish uchun odamlar yig‘ilib o‘tiradigan kichik bino<sup>186</sup>.

**Mozaikali yo‘lka** – Rim va Gretsiyada terib ishlangan mozaikali to‘sham, poygak.<sup>187</sup>

**Ludion** – Parchin. Gretsiyada g‘isht sifatida ishlatilgan sopol parchin<sup>188</sup>.

**Megaron** – 1. Miken saroyining asosiy zali. O‘rtasida o‘chog‘i, atrofida ustunlari bo‘lgan. 2. Ko‘pgina grek ibodatxonalarida faqat roxibning o‘zi kirishi mumkin bo‘lgan joy. 3. Gomer davri uylarining katta markaziy zali<sup>189</sup>.

**Mezala** – Qadimgi grek uylarida: 1. Erkaklar va ayollar xonalari o‘rtasidagi yo‘lak. 2. Mana shu yo‘lak eshigi. 3. Ayol xizmatkorlar xonasi eshigi.

<sup>179</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.280

<sup>180</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.280

<sup>181</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.280

<sup>182</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.285

<sup>183</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.303

<sup>184</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.315

<sup>185</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.320

<sup>186</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.331

<sup>187</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.333

<sup>188</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.343

<sup>189</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.351

**Odeon** – Kichik Rim yoki grek teatri. U yerda musiqa san’ati namoyish etilgan. Sozandalar joyining tepasi soyabonli yoki tomli bo’lgan<sup>190</sup>.

**Monoteron** – Yakkaqator. Yunon ibodatxonalarida bo’lgan bir qator ustunlar<sup>191</sup>.

**Miken** – Gretsyaning eng qadimiy shaharlaridan biri. Gretsya janubida joylashgan. U yerda dastlab kal’a bunyod etilgan. Ichkariga Sher darvozasidan kirilgan. Hozirda ham ba’zi xarobalari saqlanib qolgan<sup>192</sup>.

**Ompalos** – Apolon ibodatxonasidagi muqaddas tosh. Greklar buni yer markazida joylashgan deb o’ylagkan.<sup>193</sup>

**Order** – Tartibot. 1. Ustunlar oralig’ini belgilovchi tartib. 2. Mumtoz me’morchilikda bino bezashning tartiblari. Gretsiyada Doriy, Iona va Korinf uslublari, Rimda esa Tuskan va Kompozit uslublari shular jumlasidandir<sup>194</sup>.

**Palestra** – 1. Yunoniston va Rimda mashq qilishga mo’ljallangan bino. U gimnaziyadan kichikroq bo’lib, uqalash uchun xonalar va hammomlari bo’lgan. Bino o’rtasida xovli joylashgan<sup>195</sup>.

**Pandekion** – Mehmonxona. Gretsiyada sayoxatchilar uchun qurilgan xususiy mehmonxona.<sup>196</sup>

**Parabema** – Grek cherkovlari binosi yonidagi xona<sup>197</sup>.

**Parapedazma** – Grek ibodatxonalarida panjara bilan o’ralgan haykal turgan joy<sup>198</sup>.

**Peristl** – Ustunli. 1. Binoning ichini yoki tashqarisini o’ragan ustunlar. 2. Shunday ustunli joy<sup>199</sup>.

**Penikum** – Tekis tom. Qadimdan grek va rimliklar binolarida bo’lgan<sup>200</sup>.

**Pinaks** – Rim va Gretsya teatr sahnalarida ustunlar orasini yopuvchi bezakli koplam<sup>201</sup>.

<sup>190</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.353

<sup>191</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.359

<sup>192</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.369

<sup>193</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.386

<sup>194</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.390

<sup>195</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.394

<sup>196</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.396

<sup>197</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.400

<sup>198</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.401

<sup>199</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.410

<sup>200</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.421

<sup>201</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.422

**Plefron** - Qadimgi greklar uzunlik o'lchov birligi. 30.86 metr. 2. Shu uzunlik bo'yicha maydon birligi<sup>202</sup>.

**Pniks** - Afinada, Akropolis yaqinida joylashgan jamaot maydoni. Yarim aylanali joy bo'lib, devor bilan o'raladi. Gapiruvchilar minbarga chiqishadi<sup>203</sup>.

**Poykil** - Afina bozorida devorlari suratlari ishlangan tim<sup>204</sup>.

**Proyekton** - Birlamchi xona. Rim va Gretsiyada turar joylarning birinchi xonasasi<sup>205</sup>.

**Propiley** - 1. Muqaddas joyning viqorli kirish yo'g'li. 2. Afina Akropolisining kirish darvozasi<sup>206</sup>. Dahliz. 1. Grek binolari dahlizi<sup>207</sup>.

**Protezis** - Grek cherkovlarida altarli qismning shimal tomonida joylashgan bino qismi<sup>208</sup>.

**Pritaney** - 1. Qadimgi Yunonistonda bo'lgan jamaot zali. Jamaot arboblari obro'li odamlarni mehmon qilishgan. 2. Ma'bud Xestiya uchun muqaddaslashtirilgan jamaot binosi<sup>209</sup>.

**Sekos** - 1. Qadimgi greklar ibodatxonasi. 2. Ibodatxonaning ichki qismi. 3. Faqat imtiyozli odamlar kira oladigan joy. 4. Oddiy fuqarolarning jamaot zali, yig'ilish joyi<sup>210</sup>.

**Salama** -- Ilk yunon me'morchiligidagi ichkari xona. U ayollar xonasasi yoki boshqa biror kishining yotoqxonasi bo'lgan<sup>211</sup>.

**Tesarus** - G'azna. Gretsiyada xazina saqlangan joy.<sup>212</sup>

**Solos** - 1. Greklarning dumaloq binosi. 2. Miken me'morchiligidagi qurilgan gumbazli maqbara. 3. Gumbazli dumaloq joy<sup>213</sup>.

**Sizey** - 1. Afinada miloddan avvalgi 460-yili qurilgan ibodatxona bo'lib, u yerda qahramon Sizius dafn etilgan. 2. Olti ustunli ibodatxona. Miloddan avvalgi V asrda marmar toshdan bunyod etilgan. Akropolisning quyi qismida joylashgan mazkur obida eng yaxshi saqlangan yodgorliklardan hisoblanadi.<sup>214</sup>

<sup>202</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 200y. P.425

<sup>203</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.426

<sup>204</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.426

<sup>205</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.435

<sup>206</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.436

<sup>207</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.437

<sup>208</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.437

<sup>209</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.438

<sup>210</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.486

<sup>211</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.531

<sup>212</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.532

<sup>213</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.532

<sup>214</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.532

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar**

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario,Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA. UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me’morchilik asoslari. Darslik. – T.: «O‘qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me’mor olami. Lug‘at. – T.: «O‘qituvchi», 1998.

## **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O‘qituvchi», 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В.Очерки истории архитектурных стилей. М, 2001.
4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Кипре Т.Л Основы архитектуры.- М.. Высшая школа, 1999.
6. Госунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.. Высшая школа, 1998.
7. Сербинонич П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.. Высшая школа, 2000.

## QADIMGI RIM ME'MORCHILIGI

### Reja:

1. Qadimgi Rim me'morchiligidagi Imperiya va Respublika davri tarixi
2. Toskan orderi va beton xom ashyosining qo'llanilishi
3. Qurilish konstruksiyalari va diniy inshootlar
4. Akveduk, amfiteatr, forum, term va boshqa jamoat binolarining qurilishi

Qadimgi Rim me'morchiligi Apenin yarimorollaridagi ko'pgina xalqlar, jumladan, etrusklar, keyinroq Rim bosib olgan yerlardagi boshqa xalqlar arxitekturasi ta'sirida rivoj topdi. Uning ravnaqiga, ayniqsa, grek arxitekturasi kuchli ta'sir o'tkazdi. Lekin rimliklar o'zga xalqlar arxitekturasini o'zlashtirib, o'rganib, uni ijodiy boytdilar, shu arxitektura an'analarini rivojlantirib, uning yangi tipi va ko'rinishlarini ham vujudga keltirdilar. Rimdag'i tarixiy sharoit, ijtimoiy tuzum xarakteri arxitekturaning g'oyaviy yunalishini belgilashda muhim rol o'ynadi. Rimda me'morlik yetakchi o'rinni egalladi. Me'morlikda davlatning kuch - qudratini tarannum etildi. Rimliklar ko'pchilikka mo'ljallangan muhtasham binolar qurdilar. Bunday xarakterdagi binolar bu davr uchun yangilik bo'ldi. Me'morlikda rimliklarning akl-zakovati yaqqol namoyon bo'ldi. **Rim** – dunyoning eng qadimgi shaharlaridan biri. U ayni kunda Italiya davlatining poytaxti hisoblanadi. O'zining ming yilliklar bilan bog'liq tarixida bu shahar qanchadan – qancha urushlar ko'rди. Rimga miloddan avvalgi 753-yil 21-aprelda asos solingan. Platina tepaligida Romul va Remni emizgan ona bo'ri shaharning ramzi hisoblanadi. Keyinchalik shu yerda abadiy shahar qad ko'targan. Afsonaviy rivoyatlarga ko'ra Rim shahriga aka – uka Romul va Rem tomonidan asos solingan. Platina tepaligida Romul va Remni emizgan ona bo'ri shaharning ramzi hisoblanadi. Keyinchalik shu yerda abadiy shahar qad ko'targan. Manbalarda VI – VIII asarlarda hukmronlik qilgan 7 podshoh qayd etilgan. Miloddan avvalgi 510 – 509-yillarda Respublika tuzumi o'rnatilgan. Miloddan avvalgi III asr o'rtalariga kelib butun Italiya hududini tobe etgan Rim yirik davlatga aylandi. Qadimgi Rim tarixi bo'yicha moddiy manbalar xilma-xil bo'lib, Italiyaning paleolit va neolit davridan dalolat beradigan tosh

qurollar, sopol idishdar, qoyatosh tasvirlari mavjud. Rim shahrining o'zida palatin, eskvilin va boshqa tepaliklarda hamda forumda ko'p sonli qabrlar, ibodatxona poydevorlari, ona bo'shining jez haykali, Serviy tilliy davridagi shahar devori qoldiqlari qazib olingan. Italiyaning boshqa shaharlarida ko'p sonli arxeologik yodgorliklar mavjud. Jumladan, eramizning 79 – yilida vulqon otilishi natijasida kul ostida qolib ketgan Pompeya va Gerkulanum shaharlari arxeologlar tomonidan to'la qazib olingan. Bu shaharlardagi ko'chalar, uylar, ibodatxonalar to'laligicha saqlanib qolgan va eramizdan avvalgi birinchi ming yillikdan eramizning II asrigacha mavjud bshlgan shahar me'morchiligi to'g'risida boy ma'lumotlar beradi.

Shahar Rim provinsiyasi va Latsio viloyatining ma'muriy markazi. Rimning g'arbiy qismida Vatikan shahar davlati joylashgan. Bu dun-yodagi eng qadimiy va tarixiy hamda madaniy yodgorliklarga boy go'shalardan biri bo'lib, "**mangu shahar**" nomini olgan. Rim vulqonlar kelib chiqqan sertepa tekislikda, Tibr daryosining ikki sohilida, uning Tirren dnegiziga quyilish yerida joylashgan. Rimda garchi boshqa yirik shaharlar kabi aholi ko'p yashamasa ham, u Italiyaning aholi zinch joylashgan shaharlaridan biri hisoblanadi. Aholisining soni 2,1 mln. kishi. XIX asrgacha aholining ko'payish sur'ati juda sekin bo'lgan. 1871-yillarda Rim Italiya qirolligining poytaxti deb e'lon qilingach, bu yerga yashash istagidagi kishilar oqib kela boshlagan.

Qadimgi Rim yirik shahar bo'lib, o'zining juda ko'p ibodatxona, saroy, yo'llari va boshqa binolari bilan mashhur bo'lgan. Konstantin 1 tomonidan poytaxtning Konstantinopol shahriga ko'chirilishi bilan (330-y.) Rim o'zining avvalgi siyosiy mavqeini yo'qotadi. Shahar Vizantiya bilan osgotlar o'rtaidagi urushda ayniqsa, vayron bo'ladi. 552-yildan VIII asr o'talarigacha shaharni Rim yepiskoplari – paşalar boshqardilar. Bu davrda G'arbiy Yevropaning siyosiy diniy markaziga, Rim papalarining qarorgohiga aylandi. O'rta asrlar davomida Rim uchun Papa hokimiyyati va "Muqaddas Rim imperiyasi" imperatorlari o'rtaida kurash davom etgan. XI – XII asrlarda Rimda vayron etilgan antik binolar o'rniда qasrlar, cherkov qurilishlari boshlab yuborilgan.

Me'moriy yodgorliklar shaharning 3 ming yillik tarixini, uning murakkab va takrorlanmas shahar ekanligini aks ettirib turadi. Ko'plab rimliklarning ijodkorlik salohiyati me'morchilikda to'liq aks etgan. Shaharsozlik dizaynida va shaharsozlik qurilish ishlarining yirik masshtabiga: kuchalar, ko'priklar, quvurlar tizimi, akveduklar, ko'p

qavatli turar joylar va boshqa turli xil jamoat binolari qurilishiga imkon bergen yangi tizimlashtirilgan qurilish uslublarida yetakchi bo‘ldi<sup>215</sup>.

Qadimgi Rim me’moriy yodgorliklari, Forum, Kolizey, Panteon, Uyg‘onish davri va Barokko usulubiga mansub inshootlar (Kanchelleriya, Franeziya, Barberini palatssolari, Pyatssa, Navon, villa va boshqalar) Rimni bezab turadi. IV – V asrlarda Rimda cherkov bazilikalari, keyinchalik esa roman uslubiga xos binolar qurildi. Ularda ko‘proq roman uslubi bilan antik me’morlik tamoyillar uyg‘unlashib, italyan roman me’morchiligining o‘ziga xos xususiyatlari shakllandi.

Bu me’morlik etrusk va yunon me’morlik san’ati an’analriga, qisman qadimgi Sharq me’morligi san’ati an’analriga tayangan holda rivojlangan. Uni yangi uslublar bilan boyitdilar. Ayniqsa, betonni ixtiro etilishi va ustun-to’sin sistemasiga yangi konstruksiyalar kiritilishi, ark, qubba va egri ravoqning erkin va keng qo’llanilishi faqat Rim me’morligida emas, balki jahon me’morlik san’atida ham haqiqiy revolyutsiya bo‘ldi.

Bu sistema katta fazoviy kenglikni yopa oladigan, xona ichida katta fazoviy kenglikni yaratish imkoniyatini beradigan me’morlik kompozitsiyalarini vujudga keltirdi. Qadimgi Rim tarixi eramizdan avvalgi VI asrdan boshlanib, yangi eraning V asrigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi VI asrga kelib, Rim aristokratlari qulدورлик respublikasiga aylandi.

U Apenin yarim orolini zabit etib, O‘rtta yer xavzasida o‘z hukmronligini o‘rnatgach, eramizdan avvalgi II asr o‘rtalariga kelib, shu yerdagi yirik davlatga aylandi. Bosib olingan yerlardan boyliklarni Rimga olib kelinishi uning ravnaqida muhim rol o‘ynadi, shu bilan birga, inqirozni ham tezlashtirdi. Mulkiy tengsizlik oshdi, ekspluatatsiyaning kuchayishi esa omma norozilagini keltirib chiqardi. Ayniqsa, qullar qo‘zg‘oloni (bo‘lar ichida Spartak qo‘zg‘oloni mashxur) respublika davrining inqiroziga yuz tuta boshlaganini bildirdi. Uning o‘rniga Rim imperatorlik davri egalladi. Bu davr eramizdan avvalgi I asr oxiridan yangi eraning 476-yilgacha davom etdi.

Bu 540-yil er. av. bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. An’anaviy Etruslar tipidagi ibodatxonalar qurildi, injenerlik inshootlari, yo‘llar,

<sup>215</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin, A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P.53 (The Romans covered the antique world with arches and amphitheatres, with villas, baths, basilicas, and temples, all bearing the unmistakable impress of Rome, though wrought by artists and artisans of divers races. Only an extraordinary genius for organization could have accomplished such results.)

ko'priklar, akveduklar dastlab ular primetiv formaga ega bo'lgan. Er. av. II asr Rim respublikasi qurilishlari texnikasida katta o'zgarishlar yuz berdi. Betondan ishlangan inshoatlar bunyod bo'ldi. Arkali svodli konstruksiyalar jadal rivojlanishi boshlandi. Arkali akveduklar, ko'priklar qurila boshlandi. Uning proletlari ancha-muncha keng edi<sup>216</sup>.

Jumladan, ikki proletli Fabritsiya ko'prigi Tibr daryosiga qurilgan Rimdag'i ko'pri er. av. 62-yili bu bizgacha saqlanib kelgan. Arkasining proleti 24, 5 m ga teng. Fuqoro qurilishi sohasida bu davrga kelib, qadimgi Rimda turar uylarni qurilishi boshlandi. Er. av. II asr o'rtalarida boy turar uylari vujudga keldi.

Bunga misol bo'lib, bu davr uchun saqlanib qolgan Pompeydag'i uyni ko'rish mumkin, unda na faqat uncha katta bo'l'magan hovli atrium. Uning atrofida asosiy turar xonalar joylashgan. Hamda atrium orqasida joylashgan peristik uncha katta bo'l'magan boq usutunlar bilan o'ralgan. Bu davrda turar uylar kompozitsiyasi ayvonli qilib tashkil qilingan. Bu ayvonlar tabiat bilan bog'langan. Boylar uchun xashamatli villalar qurildi. Yirik quidorlar uchun bunday uylar bilan bir qatorda bir butun kambag'allar turar uylari rayonlar, trushobalar qurildi. Bu trushobalarda eng elementar gigiyena uchun sharoit yo'q edi. Shahar maydonlari keng oldin savdo markazi bo'lgan maydonlar forumlarga o'zgartirilgan<sup>217</sup>.

Rim san'atida me'morlik yetakchi o'rinni egalladi. Unda davlatning kuch-qudrati tarannum etildi. Rimliklar ko'pchilikka mo'ljallangan muhtasham binolar qurdilar. Bunday harakterdagi binolar bu davr uchun yangilik bo'ldi. Me'morlikda rimliklarning aql-zakovati yaqqol namoyon bo'ldi. Bu me'morlik etrusk va yunon me'morlik san'ati traditsiyalariga, qisman qadimgi Sharq me'morligi san'ati an'analariga tayangan holda rivojlangan. Uni yangi uslublar bilan boyitdilar. Ayniqsa, rimliklar tomonidan betonni ixtiro etilishi va ustun-to'sin sistemasiga yangi konstruksiyalar kiritilishi, arka, qubba va egri ravvoqning erkin va keng qo'llanilishi faqat Rim

<sup>216</sup> The World History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009. P276 (The Romans constructed numerous aqueducts in order to bring water from distant sources into cities and towns, supplying public baths, latrines, fountains and private households. Waste was removed by complex sewage systems and released into nearby bodies of water, keeping the towns clean and free from effluent. Aqueducts also provided water for mining operations, milling, farms and gardens.)

<sup>217</sup> The World History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009. P279-284 (A Roman villa was living space during the Roman Republic and the Roman Empire. A villa was originally a Roman country house built for the upper class. According to Pliny the Elder, there were two kinds of villas: the villa urbana, which was a country seat that could easily be reached from Rome (or another city) for a night or two, and the Villa rustica, the farm-house estate permanently occupied by the servants who had charge generally of the estate. The villa rustica centered on the villa itself, perhaps only seasonally occupied.)

me'morligidagina emas, balki jahon me'morlik san'atida ham haqiqiy inqilob bo'ldi. Bu sistema katta fazoviy kenglikni yopa oladigan, xona ichida esa katta fazoviy kenglikni yaratish imkoniyatini beradigan me'morlik kompozitsiyalarini vujudga keltirdi. Rim san'atidagi o'ziga xoslik tasviriy san'atda, ayniqsa, uning portret janrida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu yerda juda erta dastgoh san'ati rivoj topdi. Hikoyanavis bo'rtma tasvir san'ati ham rimliklar san'atining o'ziga xos tomonini belgilaydi. Qadimgi Rim tarixi eramizdan avvalgi VI asrdan boshlanib, yangi eraning V asrigacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi VI asrga kelib, Rim aristokratik quldarlik respublikasiga aylandi. U Apenin yarimorolini zabit etib, O'rta yer xavzasida o'z hukmdorligini o'rnatgach, eramizdan avvalgi II asr o'rtalariga kelib, shu yerdagi yirik davlatga aylandi. Bosib olingan yerlardan boyliklarning Rimga olib kelinishi uning ravnaqida muhim rol o'ynadi, shu bilan birga, inqirozini ham tezlashtirdi. Mulkiy tengsizlik oshdi, ekspluatatsiyaning kuchayishi esa omma orasida norozilikni keltirib chiqardi. Ayniqsa, qullar qo'zqoloni (bular ichida Spartak qo'zqoloni mashhur) respublika davrining inqirozga yuz tuta boshlaganini bildirdi. Uning o'mini Rim imperatorlik davri egalladi. Bu davr eramizdan avvalgi 1 asr oxiridan yangi eraning 476-yilgacha davom etdi.

Rim memorligining o'ziga xos tomonlari, uning asosiy tiplari Rim respublikasi davridayoq namoyon bo'ldi. Doimiy urush va qirqinlik, grajdan urushlari mantiqan aniq topilgan monumental me'morlik kompozitsiyalarida o'z ifodasini topdi. Eramizdan avvalgi VIII asrda ishlangan mudofaa devorlari, mamlakatning turli qismlarini tutashtiruvchi tosh to'shalgan keng yo'llarning sodda va jiddiy ko'rinishlarida davr ruxi va qurish sanati harakteri ko'rindi. Mashhur Appiy yo'li eramizdan avvalgi 312-yili qurilgan. Bu yo'ldan Rim legionlari jangga borishgan. Shu davrda mustahkam ko'prik va osma suv quvurlari (akveduklar) qurilgan. Ular shaharga o'ziga xos siluet baxsh etgan. Rimliklar qadimgi Gretsiyaga va boshqa ellnnistik davlatlar ustidan hukmron bo'la borgan sari serhasham binolar ko'paya bordi. Eramizdan avvalgi III - 1 asrlarda qurilgan ibodatxona, villa, saroy, qasr va boshqa binolar o'zining bezakka boyligi, jimjimadorligi va nafisligi bilan xarakterlidir. Rimliklar grek me'morligining order tizimiga qiziqib qaradilar, uni o'z faoliyatlarida keng qo'llay boshlaydilar. Lekin rim me'mori uchun ustun va to'sin tizimi ko'proq dekorativ funksiyani bajaradngan elementga aylandi. Ular binoga

serhashamlik va jimgimadorlik kiritish uchun foydalanildi. Korinf orderi esa sevimli orderga aylanib qoldi. Bundan tashqari, rimliklar etrusklardan toskan orderini oldilar. Bu order o‘z ko‘rinishi jihatidan doriy orderiga o‘xshasa ham, lekin uning tagkursisi borligi va metop bo‘lgan friz va kannelyurlarinnng yo‘qligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, korinf va ion orderi chatishmasi bo‘lgan yangi orderlar Rim me’morligida keng ishlatildi<sup>218</sup>. Rim imperiyasining birinchi imperatori Oktavian Avgust hukmronlik qilgan yillar (er. av. 27 yil - yangi eraning 14-yillari) sanat va madaniyatning haqiqiy rivojlangan bosqichi bo‘ldi. Rim davlatining «oltin asri» hisoblangan bu davrda nazariyotchn memor Vitruviy, tarixchi Tit Livii, shoirlardan Vergiliy va Goratsiolar yashab ijod etdilar. Rim me’morchiligi nazariy jihatdan yaxshi asoslangan bo‘lib, Vitruviyning “Me’morchilik haqida 10 kitob” asari unga misol bo‘la oladi. Vitruviy me’morlik nazariyasi haqida o‘z fikrlarini bayon qilib, me’morlik asosan uch qirrali faoliyatni, ya’ni mustahkamlik, foydalilik va go‘zallik kabi hislatlarni o‘z ichiga qamrab olishini yozgan. Rim me’morchiligidan asosan pishiq g‘isht va tabiiy tosh bloklari ishlatilgan. Betondan ham foydalanish arxitektor va quruvchilar imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Memorlik rivojlandi, shahar qurilishi avj oldi. Ijtimoiy va mamuriy binolar ko‘plab qurildi. Ayniqsa, Rimda qurilish jiddiy bo‘ldi. Tarixchilar bu davrning qurilishini ta’riflab, «Avgust Rimni g‘ishtdan qurilgan holda olib, uni marmarda qoldirdi», deb yozgan edilar. Haqiqatdan ham bu davr hashamatli binolari, nafis kolonnalar, arkali va gumbazli binolari, favvora va xovuzlar yashil tabiat qo‘ynida alohida tovlanib, uni yanada ko‘rkam va fayzli ko‘rsatar edi. Bizgacha vayronalarda yetib kelgan binolarning qoldiqlari xanuzgacha o‘zining salobati va ulug‘vorligi bilan xayratlantiradi. Rim me’morligida I asrning oxiri va II asr boshlarida eng katta memorlik komplekslari yaratildi, ko‘p qavatli binolar vujudga keldi va shahar qiyofasini belgiladi. Shu davrida qurilgan g‘oyatda katta saroylar, zafar ustun va darvoza(arka)lari ijtimoiy tuzumning ideologiyasini badiiy ifodalovchi yodgorlik sifatida xarakterlidir. Shunday me’morlik kompozitsiyalaridan biri 81-yilda qurilgan Tit memorial zafar arkasidir. Tit memorial zafar arkasi.

**Damashqli Apollodor. Panteon. Tashqi ko‘rinishi Panteon.**  
Damashqli memor Apollodor tomonidan 118-125-yillarda qurilgan bu

<sup>218</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P.55. (The most radical innovation was the general use of engaged columns as wall-decorations or buttresses. The engaged column projected from the wall by more than half its diameter, and was built up with the wall as a part of its substances.)

bino antik dunyoning eng katta gumbazli binosi bo'lib, unda Rim memorligining novatorlik xususiyati ko'zga tashlanadi. Binoning tashqi ko'rinishi sodda, uning old tomonini qizil granitdan ishlangan korinf ustunli peshtoq bezab turadn. Bu ustunlar yaxlit monolit qizil toshdan yo'nib ishlangan. Aksincha, interyer bezatilishiga alohida e'tibor berilgan, poliga marmar yotqizilgan. **Damashqli Apollodor.** **Panteon. Ichki ko'rniishi.** Devori esa ikki yarusli bo'lib, birinchi yarusidagi chuqur tokchalarga xudolar haykali qo'yilgan, ikkinchi yarus esa rangli marmardan ishlangan pilyastralar bilan bo'lib chiqilgan. Binoning tepe qismi badiiy yechimi ham diqqatga sazovor<sup>219</sup>. Gumbaz osti yuzasidan to'rburchak shaklidagi chuqurchalar - **kessonlar** yuqoriga qarab kichrayib boradi. Bu, o'z navbatida, fazoviy kenglik taassurotini oshirishga xizmat qiladi. Tomoshabin nazarida gumbaz osti kengligi katta va cheksiz bo'lib tuyuladi. Kessonlar ichiga o'rnatilgan bronzadan ishlanib oltin suvi yuritilgan rozetkalar esa bu serhashamlikni yanada oshirib xonaga afsonaviy fayz kiritadi. Gumbazning yuqori qismida qoldirilgan diametri 9 m bo'lgan «pantheon ko'zi» deb nom olgan darcha xonani yoritish bilan birga, kenglik taassurotini yanada oshirib, xona ichiga tantanavorlilik va xashamatlilikni yanada bo'rttiradi<sup>220</sup>. Rim memorligida paydo bo'lgan yangi tiplardan biri **termlar** (suv saroylari)dir. Iliq va sovuq suvli xovuzlar, gimnastika zallari, oromgohlar, kutubxona bo'lgan. 2-3 ming kishiga mo'ljallangan bunday suv saroylari bezagiga alohida e'tibor berilgan. Mozaika va devoriy suratlar, xaykal va amaliy sanat buyumlari saroy go'zalligiga go'zallik qo'shgan. Rim me'morligining so'nggi muhim yodgorligi

<sup>219</sup> The World History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009. P259(The Pantheon is a building in Rome, Italy, on the site of an earlier building commissioned by Marcus Agrippa during the reign of Augustus (27 BC – 14 AD). The present building was completed by the emperor Hadrian and probably dedicated about 126 AD. He retained Agrippa's original inscription, which has confused its date of construction. The building is circular with a portico of large granite Corinthian columns (eight in the first rank and two groups of four behind) under a pediment. A rectangular vestibule links the porch to the rotunda, which is under a coffered concrete dome, with a central opening (oculus) to the sky. Almost two thousand years after it was built, the Pantheon's dome is still the world's largest unreinforced concrete dome. The height to the oculus and the diameter of the interior circle are the same, 43.3 metres).

<sup>220</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIYI, 1998 SEVENTH EDITION. P62. The noblest of all circular temples of Rome and of the world was the Pantheon. The dome appears to have been composed of numerous arches and ribs, filled in and finally coated with concrete.

<sup>221</sup> Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009. P245. The bridge's engineer, Apollodorus of Damascus, used wooden arches, each spanning 38 m (125 ft), set on twenty masonry pillars made of bricks, mortar, and pozzolana cement. It was built unusually quickly (between 103 and 105), employing the construction of a wooden caisson for each pier.)

Rim forumidagi Maksensiya bazilikasidir<sup>221</sup>. Rim me'morligining o'ziga xos tomonlari, uning asosiy tiplari Rim respublikasi davridayog namoyon bo'ldi. Doimiy urush va qirg'inlik, grajdan urushlari mantiqan aniq topilgan monumental me'morlik kompozitsiyalarida o'z ifodasini topdi. Eramizdan avvalgi VIII asrda ishlangan mudofaa devorlari, mamlakatning turli qismlarini tutashtiruvchi tosh to'shalgan keng yo'llarning sodda va jiddiy ko'rinishlarida davr ruhi va qurishi san'ati xarakteri ko'rindi. Jumladan, mashxur Appiy yo'li miloddan avvalgi 312-yilda qurilgan. Bu yilda Rim qo'shinlari janglarga borishdi. Mustahkam ko'priklar va osma suv quvirlari (akveduklar) qurilgan. Rimliklar qadimgi Gretsiyaga va boshqa ellistik davlatlar ustidan hukmron bo'la borgan sari ular ko'rgan binolar ko'paya bordi va hashami kuchaydi. Miloddan avvalgi III-I asrlarda qurilgan ibodatxona shahar va dala saroylari va boshqa binolar o'zlarining serhashamligi bilan ajralib turadi. Rimliklar Yunon me'morligining order tizimini qabul qildilar va o'z faoliyatlarida keng qo'lladilar. Rimliklar uchun eng bezakli korinf ordeni sevimli orderga aylandi. Yangi kompozitsiya yanada xashamliroq murakkab kompozit orderini yaratdilar. Bundan tashqari Rimliklar etruslardan toskan orderini oldilar, bu order o'z ko'rinishi jihatidan dor orderiga o'xshasa ham lekin boshqa rim orderlarida bo'Igani kabi uning ham tag kursisi (pedistali) borligi, frizida metopa kiritilganligi va ustun uzagida konyulyularining yo'qligi bilan ajralib turadi<sup>222</sup>.

**RIM IMPERIYA ARXITEKTURASI.** Rim imperiyasining birinchi imperatori Oktavian Avgust hukumronlik qilgan yillar (miloddan avvalgi 27 yil melodyi 14 yillar) san'at va madaniyatning haqiqiy rivojlangan bosqichi bo'ldi. Rim davlatining oltin asri hisoblangan. Bu davrida nazariyorchi me'mor Vitruvii, tarixchi, Liviy tarixchi shoirlar Vergiliy va

<sup>221</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin, A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P63. (The Basilica of Maxentius and Constantine (sometimes known as the Basilica Nova - meaning "new basilica" - or Basilica of Maxentius) is an ancient building in the Roman Forum, Rome, Italy. It was the largest building in the Forum. Construction began on the northern side of the forum under the emperor Maxentius in 308, and was completed in 312 by Constantine I after his defeat of Maxentius at the Battle of the Milvian Bridge.<sup>222</sup> The building rose close to the Temple of Peace, at that time probably neglected, and the Temple of Venus and Rome, whose reconstruction was part of Maxentius' interventions.)

<sup>222</sup> The World History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009. P253-260. (The Romans adapted all the Greek orders and also developed two orders of their own, basically modifications of Greek orders. However, it was not until the Renaissance that these were named and formalized as the Tuscan and Composite, respectively the plainest and most ornate of the orders. The Romans also invented the superposed order. A superposed order is when successive stories of a building have different orders. The heaviest orders were at the bottom, whilst the lightest came at the top. This means that the Doric order was the order of the ground floor, the Ionic order was used for the middle story, while the Corinthian or the Composite order was used for the top story. The Composite order is a mixed order, combining the volutes of the Ionic with the leaves of the Corinthian order. Until the Renaissance it was not ranked as a separate order. Instead it was considered as a late Roman form of the Corinthian order. The column of the Composite order is typically ten diameters high.)

Goratsiyalar ijod etdilar. Jamoat va ma'muriy binolar ko'plab qurildi. Ayniqsa, Rimda qurilish jiddiy tus oldi. Tarixchilar bu davrda imperatorning xizmatini tarif lab «Avgust Rimni g'ishtdan qurilgan holda olib, uni marmarga qoldirdi», - deb yozgan edilar. Haqiqatdan ham bu davr xashamatli binolari nafis ustunlari, qolonnalari toq-ravoqli va gumbazli binolari favvoralar suv xavzalari, yashil tabiat qo'yinida alohida tovlanib, uni yanada ko'rkan va xashamtli ko'rsatar edi. Bizgacha vayronalarda yetib kelgan binolarning qoldiqlari xanuzgacha o'zining salobati va ulug'vorligi bilan xayratlanadiradi. Rim me'morligida I asrning oxiri va II asr boshlarida me'morlik majmualari ko'p qavatli binolar vujudga keldi. Yuliy, Yuliylar, Flaviylar va Sever kabi imperatorlar davrida qurilgan qoyatda katta saroylar zafar ustunlari, shu davr qoyasini badiyan ifodalovchi yodgorliklar sifatida xarakterlidir. Me'morlik inshoatlaridan 81-yilda qurilgan Tit zafar darvozasidir. Keyinroq Septimiy Sever va Konstantinlarga ham atab shunday zafar darvozalar qurilgan. Markaziy maydonlar arxitekturasi boyishi bilan birgalar yirik inshoatlar kurilishi forumlarga davlat ahamiyati berildi. Rim arxitekturasining keyingi respublika davri imperiya davri arxitekturasiga o'tish davri bo'lib hisoblanali. Eng yirik jamoa inshoatlari tantanaviy xarakterga ega bo'lgan. Sezar forumi ham diktatorni madx etishga bag'ishlangan. Shu maqsadda jumladan, tantanali simmetriya o'qiga esa kompozitsi Y. Yuqorida joylashgan forum ichkarisidagi ibodatxonadan iborat. Respublika arxitekturasi yutuqlarini baholashda shuni aytish kerakka, u realistik xarakterga ega. Inshoatlarni yangi formalari yangi texnikasi, Rimdan imperiya davriga meros bo'lib qolgan. Shaharning markaziy maydonlari forumlari ayniqsa xashamkor bo'lgan. Rimning asosiy yullari shu forumlardan boshlangan uning markazida xaykallar monumental ustunlar o'rnatilgan. Forumlar ichida imperator Troyan forumi alohida ajralib turadi. Uni me'mor Appalador 107-113-yillarda qurdirgan<sup>223</sup>. Bu forumlarning maydoni 116x95 metrlik to'rtburchakni tashkil etgan. O'rtasida 27 metrli ustun joylashgan. Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri Kolizey amfiteatridir. Uni rimliklar-kolossey, ya'ni katta, ulug' deb atashgan.

**Kolizey amfiteatri.** Gladiatorlar jangi uchun mo'ljallangan bu qurilmaga bir vaqtning o'zida 55 ming tomoshabin kira olgan. Qadimgi Rimdagi me'moriy yodgorlik mil. 75 – 80-yillar) imperator Tit qurdirgan. Keyinchalik Flaviy amfitatri nomi bilan mashhur bo'lgan.

<sup>223</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003. P-106 (Trajan's Forum (Latin: *Forum Traiani*) was the last of the Imperial fora to be constructed in ancient Rome. The architect Appollodorus of Damascus oversaw its construction.)

Kolizey balandligi 57 m., tarhi ellipsis shaklida (524m). 4 qatlamlili o'rindiqqa 50 ming tomoshabin joylashgan. Sahna tagida hayvonlar qafasi, omborxona bo'lgan. Imperator o'rindig'i sahna bilan teng (bal. 3,5 m) bo'lgan. 1 qatlamda imperatorning yaqinlari, ikkinchi qatlamda yuqori tabaqali kishilar, 3-4 qatlamda oddiy halq o'tirgan. O'rindiqlar toshdan ishlangan, galereyalarning konstruksiyalari beton va g'isht bilan mustahkamlangan. Kolizeyning ulug'vor old tomon 4 qavatli, har biri 80 ta ravoqlar qatori bilan jozibador ishlangan, pastki qismidan tomoshabinlar kirish va chiqishda foydalanganlar. Kolizey markazidagi sahnada bayram maroschimlari, qurbanliklar, gladiatorlar jangi, teatr tomoshalari o'tkazilgan<sup>224</sup>. Rim me'morligida paydo bo'lgan yangi tipdag'i binolardan biri termlardir. Imperator Karakalla davridagi term (2211-216-yillarda qurilgan aynilsa, katta xashamatli bo'lgan. 11 gektr yerni egallagan bu saroy dam olish va ko'ngil ochish uchun mo'ljallangan. Rim me'morligining so'nggi me'morligi rim forumidagi Maksensi bazilikasidir. 306-312-yillarda qurilgan bu bino antik davrning eng katta fuqorolik me'morligi namunasidir. Turli siyosiy yig'ilishlar o'tkazish savdo-sotiq ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan bu bino ichkaridan uch nefga (qismlarga) bo'linadi.

### Seminar savollari

1. Qadimgi Rim me'morchilik tarixi necha bosqichni o'ziga oladi?
2. Qanday qurilish ashyolari va konstruksiyalari tarqalgan edi?
3. Qadimgi rimliklarning qanday turar uylari bo'lgan?
4. Muhandislik inshootlar haqida nima bilasiz?
5. Qadimgi rimliklarda qanday o'ziga xos inshoot tiplar bo'lgan?
6. Rim imperiya davri arxitekturasi nimalar bilan xarakterlanadi?

### Glossariy

**Abaka.** ToqY. 1. Ustunning eng yuqori qismi. Asosan tekis to'rtburchak shaklda bo'ladi. Ba'zan unga yanada go'zallashtirib ishlov berilgan. 2. Qadimda binoni salobatliroq qilib ko'rsatish uchun yog'och ustunlarning tepasiga to'rtburchak qatlam o'rnatishgan va u xarini

<sup>224</sup> History of Architecture A.D.F.Hamilin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P64 (The amphitheatre was still more distinctively Roman edifice. The commonly know Flavian amphitheatre known as Colesseum, begun by Vespasian. Engaged columns of the Tuscan, Ionic, and Corinthian orders decorated three stories of the exterior)

ko'tarib turgan. 3. Rim me'morchiligidə tom devorining yakunlovchi qismi sifatida ishlatilgan marmar. Ba'zan marmar rangi sun'iy ravishda o'zgartirilgan<sup>225</sup>.

**Additus Maksimus** – Katta yo'lak. Qadimiy Rim amfiteatrлarda asosiy kirish qism<sup>226</sup>.

**Ager** – Qadimiy Rimda yer ishlari. Sun'iy tepalik yoki qo'rg'on<sup>227</sup>. Toshto'sham. Rim ko'chasing markaziy qismi. Bu ko'cha qatlamlardan iborat bo'lib, mayda toshlar ustidan qum to'shalib tekislangan va ustidan tekis tosh sement bilan terib chiqilgan<sup>228</sup>.

**Aksenum** – Qadimgi Rim hammomlarida issiq suv bilan ta'minlaydigan isitish tizimi. Bunda uchta xumdon issiq o'choq ustiga zinopayadagidek joylanadi. Pastdag'i xumda isigan suv ulangan quvur orqali tepadagi sovuq suv bilan almashadi<sup>229</sup>.

**Album** – Peshtaxta. Qadimgi Rim me'morchiligidə e'lolnlar va yozuvlar bitiladigan oq rangda suvalgan devor yuzasi<sup>230</sup>.

**Ambitus** – Tuynuk. 1. Rim va Gretsiyada qabr joylashgan yer ostidagi kichik tuynuk 2. O'rta asrlarda tobutni kirgizish uchun ochilgan teshik. 3. O'rta asrlarda cherkov atrofidagi muqaddaslashtirilgan joylar<sup>231</sup>.

**Ambivium** – Yo'l. Qadimgi Rim ko'chasi. Biror maydonning ichidagi emas atrofidagi yo'l<sup>232</sup>.

**Amfilatomus** – Ayvon. Qadimgi Rim xonardonlarida yotoqxonadan yo'lak bilan ajratilgan ayvon<sup>233</sup>.

**Amfiteatr** – 1. Aylana, yarim aylana, tuxumsimon ko'rinishdagi tomoshagoh; o'rtasi sahna va atrofidagi tomoshabinlar o'rindiqlari yuqorilab ketaveradi. 2. Qadimgi Rimda shu ko'rinishdagi gladiatorlar va yirtqich hayvonlar o'rtasidagi jang tomoshasi binosi. 3. Grek uslubidagi teatrlar<sup>234</sup>.

**Analemma** – Qanon. Burj. 1. Rim va Grek teatrlari binolarining yoniga cho'zilgan qo'shimcha devori. 2. Har qanday binoga tirab qurilgan qo'shimcha devor, tirkak, yoki poydevor<sup>235</sup>.

<sup>225</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.1

<sup>226</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.6

<sup>227</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.7

<sup>228</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.7

<sup>229</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.8

<sup>230</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.9

<sup>231</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.13

<sup>232</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.13

<sup>233</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.14

<sup>234</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.14

<sup>235</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.15

**Andron** – 1. Grek banket zali, erkaklar uchun. 2. Rim uylaridagi yo‘lak<sup>236</sup>.

**Angiportus** – Toshko‘cha. Rimda uylar orasidagi tor ko‘cha<sup>237</sup>.

**Antipagment** – 1. Eshik va derazalar atrofini bezatishda ishlatiladigan tosh yoki qotishma. 2. Qadimgi Rimda eshik kesakisi<sup>238</sup>.

**Antikvariya** – Rim dalahovlilarida antikvar buyumlar saqlanadigan xona<sup>239</sup>.

**Ara.** – 1. Rim altari. 2. Xudoga atalgan narsalarni qo‘yish uchun mo‘ljallangan har qanday joy<sup>240</sup>.

**Ark tartibi** – Rim me’morchiligidan biriktirilgan ustunlardan hosil bo‘lgan arklar qatori<sup>241</sup>.

**Ark qovurg‘asi** – Rim me’morchiligidan arklarning qovurg‘asi-ajratis ko‘rsatilgan yo‘li<sup>242</sup>.

**Arkli.** Qadimgi Rimda arklar vositasida tashkil etilgan qurilmalar. Masalan akveduklar<sup>243</sup>.

**Temir ravoq.** Qadimgi Rimda temir panjara ustiga keramikalarni yopishtirish usuli<sup>244</sup>.

**Maydon.** Hudud. 1. Qadimgi Rim shaharlarida katta ochiq joy. 2. Rim uylari, ibodatxonalari va idoralari oldidagi ochiq yer. 3. Qabristondagi mayyit yoqiladigan yoki ko‘miladigan bo‘sh joy<sup>245</sup>.

**Arena** – Maydon. Tomoshaghoh. 1. Atrofi o‘rindiqlardan, markazi esa sport maydonidan iborat joy. 2. Oddiy ochiq teatr maydonchasi. 3. Rimda qadimgi o‘rindiqlari mavjud bo‘lgan qumli sirk yoki teatr maydoni<sup>246</sup>.

**Arenariya** – Qadimgi Rimda amfiteatr, qabriston, yerto‘la-qabriston, qabr, qabrtosh, qumli joy<sup>247</sup>.

**Argel** – Rim shahrining maxsus joylari. U yerlarda diniy qissalar o‘qilgan<sup>248</sup>.

**Angora** – Rimda yo‘lak ustiga mozaika terishdan oldin chizildigan xomaki chizmasi<sup>249</sup>.

<sup>236</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.16

<sup>237</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.16

<sup>238</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.21

<sup>239</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.22

<sup>240</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.24

<sup>241</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.30

<sup>242</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.30

<sup>243</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.30

<sup>244</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.30

<sup>245</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.30

<sup>246</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.31

<sup>247</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.31

<sup>248</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.31

<sup>249</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.32

**Baltes** – 1. Iona ustunlari tepasidagi aylana bezak; tasmali bezak. 2. Iona ustuni burama bezaklarini birlashtiruvchi qoplama. 3. Rim teatr va amfiteatrlaridagi yuqori va pastki auditoriya qismlarini ajratib turuvchi yo'lka<sup>250</sup>.

**Bafla** – Rimda kiyim quritish joyi<sup>251</sup>.

**Bazilika** – 1. Rim oliv sudi zali. Odatda yuqorida joylashkan markaziy qism, atrofida pastroq joylashkan yo'lak va o'rindiqlar, sudyalar o'rindig'i bo'ladi. 2. Dastlabki xristian cherkovi shakli, markazida baland supa, atrofida yo'laklar, oxirida yarim doira shaklida joy bo'ladi. Ko'pincha dahlizdan kirilgan. Atrium ham bo'lgan<sup>252</sup>.

**Kaliduk** – Qadimgi Rimda g'isht parchalaridan yoki terrakotadan qurilgan isitish tizimi<sup>253</sup>.

**Sella** – 1. Ibodatxonaning ichki maydoni. Unda iloh haykali bo'ladi. 2. Yonma yon tushkan xonalarning birortasi; masalan xizmatkorlar xonasi, sayohatchilarning mehmonxonadagi uxmlash xonasi, foxishalar xonasi va boshqalar. 3. Qadimgi Rim hammomlaridagi yuvinish sharoitiga ega xona<sup>254</sup>.

**Selarina** – Rim yoki Renessans davrida bo'lgan Tuskan va Doriy uslubida ustunning kallak qismi ostidagi ingichka tumorli chiziq<sup>255</sup>.

**Sellula** – 1. Qadimgi Rimda ibodatxona ichida zalning kichik muqaddas qismi. 2. Kichik xona yoki ombor<sup>256</sup>.

**Senatsio** – Qadimgi Rimda uydagi ovqatlanish xonasi<sup>257</sup>.

**Seroma** – 1. Suvoq, asalari mumi aralashmasi bilan. 2. Yog', mum va tuproq aralashmasidan tayyorlangan Rim kurashchilari malhami. 3. Kurashchilar shunday krem suradigan joy<sup>258</sup>.

**Kloka** – Rimda suv shimilib yerni quritish uchun o'rnatilgan yer ostidagi kanalizatsiya<sup>259</sup>.

**Koyenakulum** – Ayvon. 1. Qadimgi Rim uylarida ovqatlanilgan joy. 2. Tepa qavatda joylashgan xona<sup>260</sup>.

<sup>250</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.42

<sup>251</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.44

<sup>252</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.50

<sup>253</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.84

<sup>254</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.102

<sup>255</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.102

<sup>256</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.102

<sup>257</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.102

<sup>258</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.103

<sup>259</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.122

<sup>260</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.124

**Colosseum, coliseum** 1. Kolizey, Rimdagı Flavian amfiteatri. 2. Har qanday ulkan Rim amfiteatri. 3. Bugungi kunda katta sport arenalari<sup>261</sup>.

**Kolumna Mayena** – Rim Forumida qullar, o‘g‘rilar va boshqa jinoyatchilar bog‘lab qo‘yilgan ustun<sup>262</sup>.

**Konsistoriya** – 1. Rimda kardinallar kolleji zali. 2. Qirol, imperator yoki abbatlarning xufyona majlis joyi<sup>263</sup>.

**Konsistoriya** – 1. Rim imperatorining maxfiy uchrashuv xonasi. 2. Rim kardinallari kollejining yig‘ilish joyi. 3. Konsulning uchrashuv xonasi<sup>264</sup>.

**Kartinal** – Qadimgi Rimning vino saqlangan yerto‘lasi<sup>265</sup>.

**Krepido** – 1. Yerdan balandroq bo‘lgan toshli supa. Ustiga binolar qurilgan. 2. Rimda piyodalarning ko‘chadan balandroq bo‘lgan qatnov yo‘li. 3. Bino bezagining bir bo‘rtma qismi<sup>266</sup>.

**Krusta** – Qadimgi Rim me’morchiligidagi devoriy qoplama. U yupqa marmar toshdan yoki yog‘ochdan bo‘ladi<sup>267</sup>.

**Kruputa** – 1. Qadimgi Rim me’morchiligidagi har qanday uzun va tor gumbaz. U yer qatlamidan qisman yo butunlay pastda bo‘lishi mumkin. Fermaning shunday joylarida don saqlangan. 2. Uzun tor galeriY. U yer ustida bo‘lgan. Bunday joylar teatr, dalahovli va sirklarda bo‘lgan; hayvonlar saqlangan<sup>268</sup>.

**Kubikulum** – 1. Qadimgi Rimda yotoqxona. 2. Cherkov yonidagi vaqtincha jasad saqlanadigan joy; zarurat bo‘lsa tekshirish uchun. 3. Dañlı etish joyi. 4. (*Suggestus* 2)<sup>269</sup>

**Kubit** – 1. Uzunlik o‘lchov birligi; Misrda 52.4 sm, Rimda 44.4 sm, Gretsiyada 46.2 sm.<sup>270</sup>

**Kuria** – Rim shahrida konsullik binosi<sup>271</sup>.

**Delibrum** – Ibodatxona. 1. Qadimgi Rim me’morchiligidagi ibodatxona. 2. Ibodatxonaning altar joylashkan eng muqaddas qismi. 3. Cho‘qintirish hovuzi mavjud ibodatxona. 4. Cho‘qintirish hovuzi<sup>272</sup>.

<sup>261</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.126

<sup>262</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.128

<sup>263</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.133

<sup>264</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.133

<sup>265</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.143

<sup>266</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.147

<sup>267</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.151

<sup>268</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.151

<sup>269</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.152

<sup>270</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.152

<sup>271</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.153

<sup>272</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.161

**Etrusklar madaniyati** – Italiyaning g‘arbiy qismida paydo bo‘lgan madaniyat. U miloddan avvalgi 281-yilgacha, ya’ni Rimliklar istilosigacha davom etgan. Etrusklar buniyod etkan ko‘pgina obidalar bizgacha yetib kelmagan. Asosiylari toshdan qurilgan yer osti maqbaralari va shahar devorlari edi<sup>273</sup>.

1. Qadimgi Rimda diniy tashkilot uchun ajratib berilgan yer.  
2. Shunday vaqf yerida qurilgan ibodatxona<sup>274</sup>.

**Gimnaziya** – Grek va Rim me’morchiligidagi katta ochiq mashg‘ulot maydoni. Atrofi ustunlar va uqalash xonalari, hamda darsxonalar bilan o‘ralgan<sup>275</sup>.

**Adrian villasi** – 124-yili Rim yaqinida Adrian tomonidan qurdirilgan dalahovli. Bu bino Rim Imperiyasi uslubiga xos<sup>276</sup>.

**Hastar** – Qadimgi Rimda kim oshdi savdosi o’tkazilgan joy, xona<sup>277</sup>.

**Manyaniy** – 1. Qadimgi Rimda tomoshabinlar uchun mo‘ljallangan balkonli joy. 2. Rim Forumida joylashkan balkon. 3. Rim teatrlarida, amfiteatr yoki sirklarida o‘rindiqlarning butun tizimi. Har bir zina pog‘onasida bir qator o‘rindiqlar joylashkan. 4. Qadimgi Rim binolarining ikkinchi qavati<sup>278</sup>.

**Malta** – 1. Mayda tosh va qora qatron aralash qotishma. Rimliklar tomlarini va quvurlarni yamashda ishlatishkan. 2. Qatronli qotishma<sup>279</sup>.

**Malus** – Rim amfiteatrlarida soyabonli chodirni tortib turuvchi kaltak. U devorga qotirilgan bo‘ladi<sup>280</sup>.

**Oppodium** – Shaharcha. 1. Qadimgi Rim shaharchasi. 2. Rim sirk oldida joylashkan binolar. U joylarda otlar hamda aravalalar turgan. Yon tomonlarida minoralari ham bo‘lgan. Qishloqda shunday yaxlit joy quriladigan bo‘lsa, u shaharcha maqomini olgan<sup>281</sup>.

**Panteon** – 1. Barcha ma’budlar ibodatxonasi. 2. Rim shahrining Rotunda binosi – xudolar ibodatxonasi, hozirda oddiy cherkov. 3. Parij shahrining Panteon binosi. Hozirda milliy qahramonlar uchun maqbara<sup>282</sup>.

<sup>273</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.204

<sup>274</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.210

<sup>275</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.271

<sup>276</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.272

<sup>277</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.278

<sup>278</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.344

<sup>279</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.345

<sup>280</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.345

<sup>281</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.387

<sup>282</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.396

**Rimliklar turar joyi** – Qadimgi rimliklar uyi to‘g‘ri to‘rtburchakli bo‘lib, atrium deb atalgan. Ko‘cha eshididan kirgandagi bиринчи xона oila a’zolari uchrashadigan joy bo‘lgan. Tom o‘rtasida **compluvium** deb atalgan to‘rtburchak joy ochiq qoldirilib, nishablari hovli o‘rtasiga yo‘nalgani uchun suv hovliga tushkan. Lekin hovli tuproqli emas, hovuzli bo‘lib, u **impluvium** deb yuritilgan. Yomg‘ir suvi yig‘ilgan. Ba’zi hovlilarning yon tomonida bog‘lari ham bo‘lgan. Bino ichi atrofida ustunlar qad rostlagan. Bog‘ yoki bino ortidagi joyga **fauces** – yo‘laklardan o‘tishkan. Kattaroq uylarda **Vestibulum** nomli dahlizi bo‘lgan. Dastlab bir qavatli qurilgan bo‘lsa, keyinroq ikki qavatlari uylar, respublika davri oxirlarida uch qavatlari uylari ham qurilgan. Yuqori qavat turar joylari **coenaculum** deyilgan. Biroq hammaning ham uyi bunday bo‘lavermagan<sup>283</sup>.

### Foydalanimadigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me’morilik asoslari. Darslik. – T.: «O‘qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me’mor olami. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi»,1998.

### Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O‘qituvchi», 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В.Очерки истории архитектурных стилей. М, 2001.

<sup>283</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.465

4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Килпе Т.Л. Основы архитектуры.- М.; Высшая школа, 1999.
6. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.; Высшая школа, 1998.
7. Сербинович П.П., Орловский Б.Й. Архитектура.- М.; Высшая школа, 2000.

## JANUBIY-SHARQIY OSIYO VA UZOQ SHARQ ME'MORCHILIGI

Reja:

1. Buddizm dini va uning me'morchilik san'atiga ta'siri
2. Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziya me'morchiligi
3. Yaponiya, Xitoy, Koreya me'morchiligi
4. Shu hududlarga xos asosiy me'moriy inshootlar tahlili

O'rta asr me'morligining o'ziga xos ko'rinishi Buddizm dini bilan bog'liq me'morlik san'atida ham o'z ifodasini topdi. Dastlab Hindistonda paydo bo'lgan, keyin Shrilanka, Indoneziya, Tibet, Xitoy, Koreya, Yaponiya va boshka Sharq davlatlariga tarqalgan bu din ta'sirida Buddizm me'morligi shakllandi. Bu me'morlik uslubi buddizm dinini targ'ib qiluvchi san'at sifatida mashhur. Bu binolar me'morligi avvallari yaxlit toshlardan g'or shaklida o'yilib ishlangan. Bunday binolarda odamlar va hayvonlarning xaykallari bo'rttirib yasalgan va bino qiyofasi budda g'oyasiga moslashgan bo'lib, uni iloxiy lash-tirgan<sup>284</sup>. VII asr hind me'morligi, asosan, Madoras yaqinidagi Mamal-lapurama shaharchasida to'plangan. Bu yodgorliklar kompleksi katta qoyalarni yo'nish asosida yaratilgan hamda g'orga ishlangan ibodatxonalaridan, qoya sathida ishlangan Gangning pastga tu-shishi"

<sup>284</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003.P 78(Buddhist religious architecture developed in the Indian Subcontinent in the 3rd century BCE. Three types of structures are associated with the religious architecture of early Buddhism: monasteries (viharas), places to venerate relics (stupas), and shrines or prayer halls (chaityas also called chaitya grihas), which later came to be called temples in some places. Viharas initially were only temporary shelters used by wandering monks during the rainy season, but later were developed to accommodate the growing and increasingly formalised Buddhist monasticism. An existing example is at Nalanda (Bihar). A distinctive type of fortress architecture found in the former and present Buddhist kingdoms of the Himalayas are dzongs. The initial function of a stupa was the veneration and safe-guarding of the relics of the Buddha. The earliest surviving example of a stupa is in Sanchi (Madhya Pradesh). In accordance with changes in religious practice, stupas were gradually incorporated into chaitya-grihas (prayer halls). These reached their high point in the 1st century BC, exemplified by the cave complexes of Ajanta and Ellora(Maharashtra). The Mahabodhi Temple at Bodh Gaya in Bihar is another well known example.)

bo'rtma tasviridan tashkil topgan. Qoyaga yo'nib ishlangan ibodatxona intxlар balandligi 14 m dan, gor ichiga ishlangan ibodatxonalarining eni va uzunligi esa 8 m dan oshmaydi. Ko'p hollarda qoyaga yo'nib ishlangan ibodatxonalarining ichki xonasi yo'q..Ularning tashqi shakllarida o'sha davrda mavjud bo'lган ibodatxonalar shakli qaytariladi.VII-VIII asr memorligida haykaltaroshlik san'ati muhim o'rinni egallaydi. Bu xususiyat Elurdagi Kalaysa Natxa ibodatxonasida yaqqol seziladi. Yaxlit qoyani yo'nib yaratilgan bu ibodatxonanining uzunligi 60 m, balandligi 70 m bo'lib, ramziy xarakterga ega, go'yo u Shiva yashagan muqaddas TOG ramziy ko'rinnshini bildiradi.

Ibodatxona devorlari bo'rtma tasvirlar (barelyef va gorelyef) bilan qoplangan. Unda Shiva va uning yo'ldoshi Parvati hayotiga bag'ishlangan voqealar, braxmanizm bilan bog'liq epizodlar tasvirlangan. Ibodatxonanining ichki xonalari hajm jihatdan uncha katta bo'lmay, ularni bezashda ham haykaltaroshlik sanati yetakchi o'rinni egallaydi. Devoriy rassomlik sanati ikkinchi darajali rol o'ynagan.

VIII asrga kelib, ibodatxonalarining, asosan, ikki tipi odat tusiga kirdi. Bularidan birinchisi, shimoliy Hindiston yerlarida qurilgan bo'lib, bu tipdagи ibodatxonalarining tepe tomoni uchi bir oz qayrilgan baland minorali, ikkinchisi esa, zinali, piramidal shakldagi ibodatxonalar bo'lib, ular ko'proq janubiy Hindiston yerlarida keng tarqaldi. Bxubanesvaredagi Lingardja ibodatxonasi hamda Kadjuraxodagi Kandareya Maxedva ibodatxonasi shu davr hind memorligining birinchi tipiga misoldir Bxubanesvaredagi ibodatxona minorasi mayin egilgan vertikal chiziqlar bilan bo'lib chiqilgan, shakli nilufar mevasini eslatadi. Ibodatxonanining qolgan qurilmalari shu asosiy minora shaklini kichik hajmlarda qaytaradi va butun kompozitsiya dinamikasini oshiradi. Ibodatxona kompleksi 140x160 m maydon o'rtasida joylashgan bo'lib, uning atrofi devor bilan ajratilib chiqilgan. Ibodatxona to'rt bo'limdan iborat bo'lib, ular asosiy o'q bo'yicha sharqdan g'arbg'a qarab joylashadi. Ibodatxona minorasining balandligi 40 m dan ortiq bo'lib, kompozitsiyaning badiiy tugallanadi.

Tanjordagi Shivaning katta ibodatxonasi janubiy) Hindiston o'rta asr memorchiligining nodir yodgorligi hisoblanadi. Katta maydon o'rtasiga o'rnatilgan me'morlik ansambli kompozitsiyasining markaziy qismi 63 metrli minora bilan tugallanadi. Minora uchta katta hajmdan tashkil topgan bo'lib, pastdagи hajm kvadrat, undan keyin kesik piramida va dumaloq gumbaz uning kompozitsiyasini tashkil etadi. Bu

hajmlar dekorativ bezakka boy, lekin ular minoraning yaxlit va ulug' vor bo'lib ko'rinishiga halaqit bermaydi.

XIII asrdan boshlab, Hindistonga islom dini kirib kelishi va uning davlat diniga aylanishi tasirida memorlik va tasviriy san'atda o'zgarishlar sodir bo'ldi. Me'morlikning shu din bilan bog'liq qurilmalari kirib keldi. Shimoliy Hindistonda O'rta Sharq memorligi an'analari asosida yaratilgan masjid, minora, maqbaralar yuzaga kela boshladi. Me'morlikda keng ishlatilgan haykaltaroshlik san'ati o'rnini o'yma va chizma naqshlar egalladi, jonli narsalar tasvirini ishslash kamaydi. Shunga qaramay, hind san'ati an'analari o'z umrini yangi davrda ham davom ettirdi. XIII asrda Dexlida qurilgan Quvvatul islom masjidi minorasi bunga misoldir. Hind ustalari yangi davr memorligi kompozitsiyasini qadimgi hind san'ati an'analari bilan boyitdilar. Bu xususiyat minoraning ochiq ayvonchalar bilan bir necha qavatga ajratilishida, minora yuzasining burma qilib bezatilishida va nur-soya o'yinining boyligida seziladi. Bu minora o'z prototiplaridan keskin ajralib turadi. Hind ibodatxonalar tipi o'rniiga musulmon masjidlari qurildi. Islom dini bilan bog'liq bo'lgan hind masjidlari ham plan hamda tuzilish jihatidan sodda va ratsionaldir. Uch tomoni ustunli ayvonchalar, to'rinchi tomoni ustunli nomozgox bo'lib uning garb tomonida mehrob joylashgan. Hindistonda qurilgan dastlabki masjidlar badiiy jihatdan sodda bo'lgan. Bobur va uning vorislari hukmronlik qilgan davrda Hindiston o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Markazlashgan boburiylar davlatida yangi shaharlar (Agra, Fatexnur-Sikri) vujudga keldi. Mustahkam devorlar bilan o'ralgan masjid, maqbara, saroy va bog'lari bo'lgan katta qal'alar yaratildi. Bu davrda bog' park san'atining ajoib namunasi yaratildi.

Boburning nabirasi Akbar hukmronlik qilgan yillarda (1556-1605) qurilish yanada rivojlandi. U Agra shahri qurilishiga, ayniqsa katta e'tibor berdi. Zamondoshlarining fikriga ko'ra, bu shahar o'sha davrda dunyodagi eng go'zal shaharlardan biri bo'lgan. XVII asr memorligida serhashamlilikka intilish kuchaydi, oq marmar quruvchilarning sevimli materiali bo'lib qoldi. Shoh jahonning buyrug'i bilan uning marhuma rafiqasi xotirasiga bag'ishlab oq marmardan qurilgan Agradagi Tojmahal masjid - maqbarasi (1632-1650) muhim yodgorlik, hind san'atining nodir durdonasi hisoblanadi. Bu binoni qurishda Hindiston, Turkiya, Eron, O'rta Osiyo va Afg'oniston ustalari qatnashgan. Keng va ko'rkan gumbaz uning atrofiga qurilgan to'rt minora Tojmahalga tugallik va

ko'rkamlik baxsh etadi; uni yengil, go'yo yuqoriga falakka intilayotgan-dek qilib ko'rsatishga xizmat qiladi. Binodagi arka va ustunlar bu yengilikni yanada oshiradi. Tojmahalning qarshisidagi hovuz suvida uning aksi tovlanib, butun ansambl jozibasini yanada kuchaytiradi. Dehlida shoh Juhon davrida qurilgan **Jome masjidi** ham oq marmardan ishlangan, minoralari esa qizil marmar bilan pardozlangan. Grajdan memorligi ichida Dehlidagi **Qizil Fort** qo'rg'oni mashhurdir<sup>285</sup>.

Konfusiy haramidagi Dachendian qarorgohi saroyi syufu Xitoydag'i Shandun provinsiyasiga qarashli (er. avv.V asr).

Xitoydag'i xilma-xil madaniy yodgorliklar, ya'ni qadimgi Xitoy me'morchiligi juda ham muhim o'r'in tutadi. Qadimgi Xitoy me'morchiligineng mashhur namunalaridan "Gugun" saroyi, "Neva harami", "Ixeynan parki", Pekindagi "Yunnan pravinsiyasidagi", "Litszian" qadimiy shahri, Anxuey provinsiyasining janubiy qismida joylashgan qadimgi uy-joylar va boshqalar "Dunyo madaniy yodgorliklari katalogiga kirgan". Qadimgi Xitoy qurilishlari juda ham xilma-xil. Saroylar, machitlar, bog'xiyobonlari, qabristonlar va uy-joylar shular jumlasiga kiradi.

Tashqi ko'rimishlari jihatidan bu qurilishlar tantanavor, ulug'vor, chiroqli, ko'rkam va dinamik bo'lib, shu bilan birga ular bir-biri bilan yaqinligi jihatdan xarakterli xususiyatlarga ega, ya'ni Xitoy millatiga mansub bo'lgan qurilish g'oyalari estetik jihatdan bir-biriga yaqin.

Qadimgi Xitoya uylar qurilishidagi tipik uslublardan biri — yog'ochlardan foydalananib, karkas ustunlarining ishlatilishi hisoblanadi. Bunda yotiq qo'yilgan sinchlarning ustiga yog'och ustunlar qo'yiladi va ularning tomi cherepitsalar bilan yopiladi. Bizda aytishadiki, agarda devorlar yuvilib ketsa ham vayron bo'lmaydi. Bu shuni belgilab beradiki, uyni ustunlar mustahkam ushlab turadi. Ishning mohiyati ham shunda. Shu kabi Karkasli uslublar uy devorlarini nafaqat yengil proyektlash va shu bilan birligida uylarni yer qimirlashidan saqlashda ham Xitoy me'morchiligidida asosiy o'r'in tutgan. Unga Xitoydag'i Shimoliy Shansi provinsiyasida joylashgan yog'och karkasli, balandligi 60 m bo'lgan

<sup>285</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P.202-203 ( Mughal architecture is an architectural style developed by the Mughals in the 16th, 17th and 18th centuries throughout the ever changing extent of their empire in Medieval India. It was an amalgam of Islamic, Persian, andIndian architecture. Mughal buildings have a uniform pattern of structure and character, including large bulbous domes, slender minarets at the corners, massive halls, large vaulted gateways and delicate ornamentation. Examples of the style can be found in India, Afghanistan, Bangladesh and Pakistan. The Mughal dynasty was established after the victory of Babur at Panipat in 1526. During his five-year reign, Babur took considerable interest in erecting buildings, though few have survived. His grandson Akbar built widely, and the style developed vigorously during his reign. Among his accomplishments were Humayun's Tomb(for his father), Agra Fort, the fort-city of Fatehpur Sikri, and the Buland Darwaza. Akbar's son Jahangircommissioned the Shalimar Gardens in Kashmir.)

Budda machitini misol keltirishimiz mumkin. TTTu ko'rinishida 900 yildan ortiq vaqt mobaynida hozirgacha yaxshi saqlanib kelmoqda. To'la kompozitsiyaga ega bo'lgan qadimgi Xitoy me'morchiligi ko'pchilik uylar ansamblida ko'rindi. Xitoyda yakka tartibdag'i uylarni qurishga ruxsat berilmagan. Bu singari qurilishlar saroy va alohida qurilishlar bo'lib, ular doimo qo'shimcha qurilishni talab etadi. Asosiy bosh binolar ularni simmetrik holda yoki alohida ajratib turadigan hovli qurilishlari bilan o'rabi olinadi. TTTu bilan birga me'morchilik ansambllarida qurilishlarni simmetrik holda joylashishi mumkin emas. Misol uchun Xitoydagi tog'li tumanlardagi qurilish va shu bilan birga bog'-xiyobonlarda ba'zan xilma-xil qurilish komponentlarini yaratish maqsadida simmetrik formalarda xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Qadimgi Xitoy me'morchiligi uslublarini yaratishda, shu singari xilma-xil uy qurilishlarini yaratish jarayonida turli xil formalar musobaqasini keltirib chiqadi. Lekin bir vaqtning o'zida ular o'zini xilma-xilligini namoyish qila olgan. Qadimgi Xitoy me'morchiligi qurilishlari yana bir xarakterli tomoniga ega: ular o'zida muhim dekorativlik namunasini namoyish etuvchi badiiy ishlannmalarga ega. Misol: uylarning tomlari bir tekis bo'lмаган, past yoki baland bo'lgan. Qurilishda binolarni muhim tomonlarini ko'rsatish uchun quruvchilar odatda ustunlarga, karnizlarga xilma-xil o'simliklar va hayvonlar rasmlarini o'yib chizganlar. Bu singari ko'rinishlar yog'ochdan ishlangan bo'lib, asosan eshik va ustunlarda ko'ringan. Bundan tashqari, Qadimgi Xitoy me'morchiligidagi ranglarning o'zgarib turishi ham xarakterlidir. Odatda uy tomlari yorqin sariq rangdagi cherepitsalar bilan, yorqin karnizlar to'q yashil bo'yoqlar bilan, devorlar, stumlar qizil bo'yoqlar bilan bo'yalgan. Xonalar esa oq va tim qora marmarlar bilan qoplanganligi uchun ham ko'k osmon ostida juda ham go'zal ko'rindi. Uylarni bezashda sariq, qizil, yashil bo'yoqlarning tanlanishi nafaqat binolarning ulug'vorligini ko'rsatadi va shu bilan birga ko'zni ham qamashtiradi. Uy-joy qurilishlarini taqqoslaganda, Xitoyning janubidagi uylar juda ham oddiy. Uylar qora-ko'kimtir cherepitsalar bilan bo'yalgan, yog'och xorkorlar esa qoramtilr, jigarrang bo'yoqlar bilan qoplangan. Uy atroflarida bambuk va banan daraxtlari o'stililadi. Shu singari qurilishlar hozirgi davrda ham Xitoyning Anxuey, Chjetsyan, Fuzian provinsiyalarida uchraydi.

Qadimgi davrga mansub Buyuk Xitoy devori ko'chmanchi halqlarning hujumidan himoyalanish uchun er. avv. 4-3 ming yilliklarda yaratildi. U Shimoliy Xitoy chegaralarini avvaliga 750 km ni o'rabi olgan

bo‘lib, so‘ngra uzunligi 3000 km keladigan, balandligi 5 metrdan 10 metrgacha, kengligi esa 5-8 metr bo‘lgan ko‘plab qurilishlarni o‘z ichiga oldi.

XV–XVII asrlar Xitoy me’morchiligi gullab yashnagan davrdir. Bu davrda saroy ibodatxonalar qurildi. Pekin va Nanxin shaharlari qurilishi davom etadi. XV–XVII asrlarda qurilgan eng ko‘zga ko‘ringan ansambl Pekin markazidagi Imperator saroyidir. Saroy yirik darvoza va devorlar bilan o‘ralgan. Pekin ibodatxonalar ham katta komplekslardan iborat bo‘lgan. Ulug‘vor Osmon ibodatxonasi (XV–XIX asrlarda qayta qurilgan) bir necha binolardan tashkil topgan.

Qadimiy Xitoy me’morchiligiga xos bo‘lgan bo‘shliqning beqiyosligi XV–XVI asrlarda Min sulolasi (1368–1644) davridagi podsholar qabristoni ansamblida ko‘rinadi. Qabristonga 800 metrli katta alleya orqali boriladi. Bu alleyaning ikki tomoni odamlar va hayvonlarning ulkan figuralari bilan o‘ralgan. XV–XVI asrlar me’morchiligidagi ulug‘vorligi bilan ko‘zga tashlanadi. XVIII–XIX asrlar me’morchiligidagi boshqa san’at turlaridagi kabi bezakdorlik, serhashamlik kuchayadi. Ba’zan, dekorativ naqsh, yog‘och o‘ymakorligidagi ortiqcha serhashamlik namoyon bo‘ladi.

### Yaponiya me’morchiligi

Yapon me’morchiligining o‘ziga xos uslublaridan biri – yog‘och qurilmalardir (ya’ni ustunlarni yog‘ochdan tayyorlash uslubi). Bularni Paleneziyada ham ko‘rish mumkin. U hozirgi paytda ham sintoit ibodatxonalar qurilmalarida, dehqon uylari qurilmalarida va bir qism shahar uy-joy qurilishlarida ham saqlanib qolgan. Qadimiy qurilish namunalari o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lib, yengil qurilmadagi ustunlarga yengilgina devorlar bilan biriktirilgan va xohishga qarab almashtirib turish hamda uy qurilishlarini o‘zgartirib turish mumkin. Qurilishlarning tashqi ko‘rinishlari tabiat mutanosibligiga qaraganda katta ahamiyatga ega. Qadimiy Yapon me’morchiligi namunalarini Itzumo va Ise sintoit ibodatxonalarida ko‘rishimiz mumkin. Xitoy namunalaridagi ko‘rinishlar qurilishning tashqi ko‘rinishlaridan kelib chiqadi. Qurilishdagisi aniq o‘lchamlar va simvolik to‘ldirishlar qurilishlarni to‘g‘ri va chiroyli yaratish, qurilish maydonlari va tabiiy landshaftlardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Bunday me’morchilik namunalariga Kiyotodagi Reyyan ibodatxonasi misol bo‘ladi<sup>286</sup>.

<sup>286</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P.207 (Japanese architecture has traditionally been

Zamonaviy Yapon me'morchiligidagi an'anaviy va zamonaviy G'arb qurilish makteblarining tahlil muammolari asosiy rol o'ynaydi. Hozirgi yapon me'morchiligi dunyoga kelajak konsepsiyasini taqdim qiladi. Misol tariqasida, buyuk davr olimpiada qurilishlari III asrdan VI asrlarning boshlarigacha yapon tarixchilari "Kofun", ya'ni qo'rg'on ma'nosini ifodalagan. Qo'rg'onlar ajdodlar madaniyati bilan bog'liq bo'lgan. Qo'rg'onlar atrofi paxsa devorlar bilan o'rafgan. Bular shahar tashqarisidagi xondaqlardan keyin joylashgan. Ular 2 ta asosiy himoya vazifasini o'tagan, paxsa devorlari "xaniva" deb atalgan. Ular o'ziga xos uslubiga ega. Haykaltaroshlik odamlarni har xil mashg'ulotlar: chorva, uy ishlari va dala ishlari bilan shug'ullanishga majbur qilgan. Qadimgi davning eng muhim yodgorliklaridan Isedagi sintoist ibodatxonasi me'moriy kompleksi hisoblanadi, qaysiki yangi eraning 1 asrida yaratilgan. Utog'li hududda joylashgan va 2 ta ibodatxonadan iborat. "Nayka" ichkisi Ameterasu xudosiga bag'ishlangan. "Geka" tashqisi Toyonke hosilot xudosiga bag'ishlangan. Ularni har biri ishlov berilgan bo'yoqsiz yog'ochlardan tayyorlangan, xilma-xil qurilishlardan iborat. Binolar yerdan stumlar (ustunlar) bilan ko'tarilgan va 4 ta qator to'siqlar bilan qoplangan. Ularning me'morchilik formalari donlar saqlanadigan qadimiy omborlardan iborat bo'lgan.

VI asrga kelib buddaviylik dinining qabul qilinishi Yaponiya tarixida muhim rol o'ynadi. Buddha ta'limoti bilan mamlakat markazi, janubi-sharqiy va sharqiy Osiyoda o'zining boy, ko'p asrlik an'analari bilan hissa qo'shami va shu bilan birga, yangi rivojlanish cho'qqisiga chiqdi. Yaponiyaga Buddizmning Koreya orqali Xitoydan kirib kelishi yangi san'at shakllarini yaratishda asosiy rol o'ynadi. Xitoy va Koreya ustalarini ilk budda masjidlari va monastirlarini qurdilar. Hozirgi davrimizgacha 1-chi yetti yuz yillikda yaratilgan, ya'ni Xitoy kanonlari uslubida qurilgan Xoryuzdi ibodatxona ansamblini hozirgacha saqlanib qolgan. Umumiy

---

typified by wooden structures, elevated slightly off the ground, with tiled or thatched roofs. Sliding doors (*fusuma*) were used in place of walls, allowing the internal configuration of a space to be customized for different occasions. People usually sat on cushions or otherwise on the floor, traditionally; chairs and high tables were not widely used until the 20th century. Since the 19th century, however, Japan has incorporated much of Western, modern, and post-modern architecture into construction and design, and is today a leader in cutting-edge architectural design and technology. The earliest Japanese architecture was seen in prehistoric times in simple pit-houses and stores that were not adapted to a **hunter-gatherer** population. Influence from **Han Dynasty** China via **Korea** saw the introduction of more complex grain stores and ceremonial burial chambers. The introduction of **Buddhism** in **Japan** during the sixth century was a catalyst for large-scale **temple** buildings using complicated techniques in wood. Influence from the Chinese Tang and Sui Dynasties led to the foundation of the first permanent capital in **Nara**. Its checkerboard street layout used the Chinese capital of **Chang'an** as a template for its design. A gradual increase in the size of buildings led to standard units of measurement as well as refinements in layout and garden design. The introduction of the **tea ceremony** emphasised simplicity and modest design as a counterpoint to the excesses of the aristocracy.)

kompleks markazi to‘g‘ri burchakli, hovli janub tomonidan bo‘lib yopiq galereyali darvozalar bilan o‘ralgan va shimal tomonidan sajda qilishlari uchun zalda, ya’ni yo‘lakdan iborat. Hovli ichkarisida bosh oltin zal (Kondo) joylashgan va 32 m dan iborat 5 yarusli yengil qurilishdan iborat bo‘lib, budda ta‘limotining ramzini ko‘rsatadi. Mehrob haykaltarosh kompozitsiyasi masjid interyerining bosh qadamjosi va uning markazi hisoblangan. U o‘ziga xos sahma ko‘rinishida qurilgan. Mehrob cho‘q-qisida ma’lum bir tartib asosida haykalchalar joylashgan. Panteondagi xudolar joyi ko‘rinishida markaziy qismida budda joylashtirilgan. Uning atrofida xudosifat haykalchalar joylashgan. Mehrob atrofida ishonch himoyachilar turganlar. Xoryudridagi oltin zalning mehrob markazida Siaka triadasi turadi (Shakiamuna budda strayidsasi) ilk Yaponiya budda haykaltaroshligining namunasi hisoblanadi. Oltin zal va yengil qurilishlar atrofini o‘rab turuvchi boshqa komplekslar qismi yumedana 8 burchakli bino (orzular, umidlar zali) markazida joylashgan. Bu yerda Siaka triadasiga yaqin bo‘lgan Gyudze kanon xaykalchasi joylashgan. XIV-XV asrlardagi me’morchilik, original asarlari bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ular orasida Kin Kakudze yoki oltin Pavelion 1394-yilda qurilgan va Ginka Kudze yoki kumush Pavelion 1489-yilda qurilgan. Asekaga Yosemasa villasi singari va keyinchalik budda ibodatxonasi bo‘lib qolgan. Bu kabi asarlarning mohiyati, ularning mazmuni tabiat bilan uyg‘unlashib ketadi, me’morchilik va tabiat badiiy obrazlarining xilmashil qismlari sirasida ko‘rinadi. Lekin tabiat bilan uyg‘unlikka kira olmaydi. U bog‘ning ustalari tomonidan yagona prinsiplar asosida badiiy ifodalanadi, bog‘ bu me’morchilikning asosiy qismini tashkil etgan.

Shuning uchun ham bu yerda aloqa g‘oyalari ichki va tashqi muhitning chambarchasligi muhimdir. XIV–XVI yuz yilliklar o‘rtalarda davrining muhim qismlaridan bo‘lgan yapon bog‘lari san’atining eng gullagan davri hisoblanadi. XVI asrda o‘zining ramziy nuqtai nazari bilan bog‘larning har bir muhim elementlarini ishlab chiqish amalga oshirildi. Simvolik bog‘larning g‘oyasi xitoyliklar tomonidan qabul qilingan, ammo yapon ustalari tomonidan juda ham muhim ifoda kasb etdi. Tosh va qumdan yaratilgan bog‘ – bu "quruq manzarani anglatadi, quruq manzara Kare Sansuy deb yuritiladi". Toshlarni terish san’ati eng muhim hisoblangan, qaysiki u bog‘ g‘oyasini uning obraziga taalluqli bo‘lgan. Bu kabi go‘zal bog‘larni Kiyotada, ya’ni Dayto Kudze monastirdagi Daysenin bog‘ida va Yoadzi bog‘ida ko‘rish mumkin. XV1-XVP asrlarda Buddha haykallari ibodatxonalar uchun mo‘ljallangan.

## Koreya me'morchiligi

An'anaviy Koreya me'morchiligidagi xarakterli 2 ta asosiy uslublar: kuchli Xitoy kanonlari ta'siridagi hovlili masjidli va halqona madaniy uslubdagi, ya'ni xilma-xil mahalliy ko'rinishdagi oddiy odamlarning uy qurilishlaridan iborat. Qadimgi me'morlar hovli va masjidlarni qurishda Xitoy ustunlari va sinchlari uslubidan foydalanishgan. Oddiy halqning qurilishlari – tomlarni xashaklar bilan yopish, pollarni andol uslubida tayyorlash bilan xarakterlanadi. Boylar esa ulug'vor, chiroyli, go'zal ko'rinishdagi cherepitsalar bilan yopilgan uylar qurishadi. Me'morchilikdagi asosiy muhim tomonlardan biri, tabiiy landshaftdan foydalanilgan. Ko'pchilik budda monastirlari butun mamlakat bo'ylab yoyilgan, ularni tog'li hududlarda ham ko'rish mumkin. Qurilishlar uchun joylar, tog'lar va dengizlarni yaqqol ko'rsatib turadigan joylar tanlangan. G'arb me'morchiligi bilan esa tanishish, XIX asr oxiriga kelib taqaladi. Yaponiyaning siyosiy ta'sirining kuchayib borishi bilan cherkovlar, xorijiy missiyalar uchun binolar qurish boshlangan va bu yerda yaponlarning qurilish uslublari asosiy rol o'ynagan. 30-yillardagi eng muhim me'morchiliklardan biri Koreya universitetining bosh binosini yaratgan Pok Tondjin hisoblanadi. Janubiy Koreyada hozirgi vaqtida me'morlardan Kim Djunov va Kim Sigunlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Koreya davlatining poytaxtlari – Seul va Pixenyan o'zlarining boy zaronnaviy me'morchilik yo'nalish va uslublarini namoyish qilish bilan tez-tez o'rganib turiladi. Bular orasida Seuldagi me'moriy qurilishlar Olimpiya stadioni (muallifi Kim Sigun), madaniy markaz Sech Jon nomidagi madaniy markaz (muallifi Amdoxman) va Seul san'at markazi (muallifi Kim Sochkhol)lar ajralib turadi. Zamonaviy Shimoliy Koreya me'morchiligi namunalardan biri Mansude teatri, Milliy o'quv saroyi, Mansude serdlar saroyi, Pionerlar va o'quvchilar saroyi, Koreya qo'zg'oloni (revolyusiya) muzeyi va Pixenyandagi 105 qavatlari Ryugon mehmonxonasi hisoblanadi.

*Dayanta pagodasi.* IV asrdan boshlab, budizmning Xitoyga kirib kelishi bilan o'z xarakteri va mazmuni jihatdan hind stupalariga o'xshash pagoda (ibodatxona), g'orlarga monastirlar qurish keng yoyila boshladi. Shunday qurilmalardan mashxuri g'ishtdan qurilgan Dayanta pagodasidir. Pagodaning umumiy balandligi 60 m, tag asosi esa kvadrat shaklida bo'lib, uning tomonlari 25 m dan. U tepaga tomon torayib boradi. Pagoda yetti yarusga ajratilib, uning uch tomoni kichik stupa bilan tugallanadi. Har bir yarus g'isht karnizlar bilan ajratilib, devor yuzasi plyastrlar bilan bo'lib chiqilgan. Yuqoriga qarab kichrayib boruvchi yetti

darcha binoning ko‘rinishini yanada monumental, mustahkam va yuqoriga intiluvchi qilib ko‘rsatadi.

*Temir pagoda.* Sun davrida qurilgan pagodalar faqat yog‘och, g‘isht yoki toshdangina emas, balki temirdan ham qurilib, ularning shakllari ham o‘zgardi. Endilikda pagodalar ko‘proq olti, sakkiz qirrali qilib qurila boshlandi. Bundan tashqari, mayda detallarga e’tibor berish, haykal, naqsh va relyeflar bilan bezatishga etibor ortdi. Ular endilikda memorlik kompozitsiyasidan ko‘ra, ko‘proq xaykaltaroshlik yodgorligiga o‘xshab bordi. Tan asri pagodalariga xos vazminlik, soddalik va ulug‘vorlik yo‘qola bordi.

*Pekindagi imperator saroyi.* Pekindagi imperator saroyi Berk shahar Xitoy memorlik sanatining muhim nodir yodgorligi xisoblanadi. Qator me’morlik komplekslaridan tashkil topgan bu saroy katta maydonni egallagan. Zinalar, yo‘llar, suxbat qurish uchun mo‘ljallab qurilgan shiy-ponlar maysa va daraxtlarga boy tabiat qo‘ynida uning ajralmas qismiga aylangan. Binolar bo‘rtma, o‘yma va rang naqshlari bilan bezatilgan.

*Ise ibodatxonasi.* Yaponiyada feodal munosabatlar shakllanishining ilk bosqichida, asosan, sinto dini xukmron edi. Sintoizm qadimgi yapon diniy-mifologik konsepsiysi bo‘lib, uning tub mohiyatini tabnat kuchlari va avlodlar shaxsiga sajda qilish tashkil etar edi. Feodalizmning dastlabki bosqichida (IV-VII asrlar) shu din bilan borliq bo‘lgan yogochedan yasalgan sintoizm ibodatxonalarining shakllari yuzaga kelgan. Sintoizm ibodatxonalarining xarakteri va tuzilishi to‘grisida keyingi davrlarda qurilgan va rekonstruksiya qilingan Ise ibodatxonasi tasavvur beradi. Odatga ko‘ra, Ise ibodatxonasi har 20 yilda qayta qurilgan va har safar uning aynan shakli, o‘lchami va xarakteri saqlab qolingga. Ise ansamblı bir qator yorochdan qurilgan binolardan iborat bo‘lib, uning markazida asosiy ibodatxona mavjud bo‘lgan. Ibodatxona uchun tanlangan sariq rangdagi yapon kiparis daraxtining yog‘ochi esa uning ko‘rkam bo‘lishini taminlagan. VI asrdan boshlab, Yaponiyada budda dini tarqa boshladи va tezda sintoizm bilan aralashib ketdi. Yaponiyaga buddizmning yoyilishida uning Koreya va ayniqsa, Xitoy bilan yaqin aloqada bo‘lishi muhim o‘rinni egalladi. Yaponianing birinchi poytaxti Nara (VIII asr boshlarida shahar qurilishi tugallangan) shahridda qurilgan dastlabki monastir va buddizm bilan bogliq bo‘lgan ko‘pgina binolar, bevosita Xitoy me’morlik san’atini ta’sirida shakllangan bo‘lsa ham yapon san’atiga xos hislatlar ham sezildi.

*Xorudzi ibodatxonasi.* Ilk buddizm ibodatxona ansamblidan dastlabkisi Xorudzi ibodatxonasıdır. Bino tosh asos ustiga qurilgan, devorlari qizil lak bilan bo'yalgan, tomining chekka tomonlari esa biroz qayrilgan. Bu majmua o'z prototiplaridan dastlab planirovkasining erkinligi, mashtabining ixchamligi va jiddiyligi bilan xarakterlanadi<sup>287</sup>.

XII asr so'nggidan Yaponiya me'morligida sodda, intim xarakterdagı binolar yuzaga keldi, devorlarda tokchalar paydo bo'ldi, kitob joyonlari devor sathi ko'rinishini o'zgartirdi. Shahardan tashqarida saroy, rezidensiya va ibodatxonalar ko'plab qurildi.

*Sun'iy bog'lar.* Yapon san'atining o'ziga xos tomonlardan yana biri park – bog'larni bezash va tashkil etishda ko'rindi. Yapon park – bog'lari tabiat ko'rinishini qaytaradi. Sun'iy ravishda sharshara, ariq, ko'l, orol, tepaliklar barpo etilar edi. Shuningdek, muqaddas tabiat burchaklari, kichik hajmdagi bog'lar ham yaratilar edi. Quruq bog'lar faqat yirik va mayda toshlardan tashkil topgan bo'lib, ular ko'p orollarga ega bo'lgan cheksiz okeanning ramzi vazifasini o'tashi lozim edi.

*Kiotodagi Katsura ansamblı.* XVI-XVIII asrlarda saroylarda park-bog ansambları yaratıldı. Ular erkin, assimetrik planda qurilgan. Shunday saroy park-bog ansamblı ichida eng mashhuri Kiotodagi Katsura ansamblidir.

*Pikkodagi ansamblı.* XVII asr feodal me'morligi rivojining so'nggi bosqichi nihoyatda jimjimador ibodatxonalar qurilishi bilan xarakterlanadi. Bu o'rinda, so'zsiz, Pikkodagi ansambl diqqatga sazovordir.

Janubi-Sharqiy Osiyoda yashovchi halq va elatlar ham o'ziga xos sanat yaratib qoldirdilar. Bizgacha saqlanib qolgan madaniy-badiiy yodgorliklar shu yerdagi xalqlarning boy o'tmishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu davlatlar Hindiston, Eron, Uzoq Sharq mamlakatlari bilan yaqin aloqada bo'lib, ular san'atidan ilhom oldilar, shu bilan birga, ularning sanati va madaniyati xarakteriga ham o'z ta'sirlarini o'tkazdilar.

<sup>287</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P.207 (Hōryū-ji , Temple of the Flourishing Law) is a Buddhist temple that was once one of the powerful Seven Great Temples, in Ikaruga, Nara Prefecture, Japan. Its full name is Hōryū Gakumonji , or Learning Temple of the Flourishing Law, the complex serving as both a seminary and monastery. The temple's pagoda is widely acknowledged to be one of the oldest wooden buildings existing in the world, underscoring Hōryū-ji's place as one of the most celebrated temples in Japan. In 1993, Hōryū-ji was inscribed together with Hokki-ji as a UNESCO World Heritage Site under the name *Buddhist Monuments in the Hōryū-ji Area*. The Japanese government lists several of its structures, sculptures and artifacts as National Treasures. A study of its shinbashira, the central wooden column almost suspended inside the To in 2001 led to a conclusion about the structure being older than previously thought by a century.)

*Borobudur*. Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlari san'ati va madaniyatida dastlabki davrlarda Hindistonning tasiri sezilarli bo'ldi. Hind badiiy prinsiplari bu yerda o'zining yangi hayotini boshladi. Bu prinsiplar Janubiy-Markaziy Osiyodagi mamlakatlarning xarakteri, tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bogliq holda rivojlandi, o'ziga xos ko'rinish va mazmun kasb etdi. Nihoyat o'z prototipidan butunlay farqlanadigan milliy, o'ziga xos fazilat kashf etgan sanat namunalari yuzaga keldi. Bu xususiyat VI-VIII asrlar Indoneziya, Kampuchiya, Vyetnam, Birma san'atida yaqqol sezila boshladi. Janubi-Sharqiy Osiyo sotsial tarixining muhim tomonlaridan biri, quldarlik formatsiyasining bu yerdalarda rivojlanmaganligidadir. Feodal munosabatlarning shakllanishi so'ngi ibtidoiy tuzumning yemirilishi bilan bir vaqtida sodir bo'ldi. Bu so'zsiz, o'rta asr madaniyati xarakterida o'z ifodasini topdi, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi mamlakatlar san'ati dastlabki bosqichida yog'och memorchiligi yetakchi o'rinni egalladi. Bu binolarni qurish prinsiplari qadimgi davr ananalariga tayanadi<sup>288</sup>.

*Angkor Vat*. Toshdan qurilgan dastlabki me'morlik yodgorliklari VI-VII asrlarga to'g'ri keladi va ular yog'och me'morligi prototipini qaytaradi. Bu binolar o'z xarakteri jihatidan Hindistondagi qoyaga ishlangan ibodatxonalarga yaqinlashib ketadi. Keyinchalik bu mamlakatlarda minorasimon ibodatxonalarining turli variantlari keng o'rinni egallay boshladi. Indoneziyadagi Borobudur, Kambodjodagi Angkor Vat va Bayon me'morlik ansamblı jahon me'morligining qaytarilmas, tengi yo'q yodgorligi hisoblanadi.

<sup>288</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003.P 80-82 (Borobudur, or Barabudur, is a 9th-century Mahayana Buddhist Temple in Magelang, Central Java, Indonesia. The monument consists of nine stacked platforms, six square and three circular, topped by a central dome. The temple is decorated with 2,672 relief panels and 504 Buddha statues. The central dome is surrounded by 72 Buddha statues, each seated inside a perforated stupa. It is the world's largest Buddhist temple, as well as one of the greatest Buddhist monuments in the world. Built in the 9th century during the reign of the Sailendra Dynasty, the temple was designed in Javanese Buddhist architecture, which blends the Indonesian indigenous cult of ancestor worship and the Buddhist concept of attaining Nirvana. The temple also demonstrates the influences of Gupta art that reflects India's influence on the region, yet there are enough indigenous scenes and elements incorporated to make Borobudur uniquely Indonesian. The monument is both a shrine to the Lord Buddha and a place for Buddhist pilgrimage. The journey for pilgrims begins at the base of the monument and follows a path around the monument and ascends to the top through three levels symbolic of Buddhist cosmology: Kamadhatu (the world of desire), Rupadhatu (the world of forms) and Arupadhatu (the world of formlessness). The monument guides pilgrims through an extensive system of stairways and corridors with 1,460 narrative relief panels on the walls and the balustrades. Borobudur has the largest and most complete ensemble of Buddhist reliefs in the world. Evidence suggests Borobudur was constructed in the 9th century and abandoned following the 14th-century decline of Hindu kingdoms in Java and the Javanese conversion to Islam. Worldwide knowledge of its existence was sparked in 1814 by Sir Thomas Stamford Raffles, then the British ruler of Java, who was advised of its location by native Indonesians. Borobudur has since been preserved through several restorations.)

## Seminar savollari

1. Buddizm dini va uning me'morchilik san'atiga ta'siri qanday bo'lgan?
2. Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziya me'morchiligining asosiy xususiyatlari.
3. Yaponiya, Xitoy, Koreya me'morchiligidagi diniy inshootlar qurilishi qanday rivojlangan?
4. Shu hududlarga xos asosiy me'moriy inshootlarni tahlil qilib bering.

## Glossary

**An** – Xitoydagi ruhoniy ayollar binosi<sup>289</sup>.

**Ang** – An'anaviy xitoy me'morchiligidagi burchak bezagi<sup>290</sup>.

**Byodin** – Yaponiyaning Kyoto shahrida 1052-yili Fujivara Michinaga uchun qurilgan dala hovli. Asosiy zali Humo zali nomi bilan mashhur. Yaponiyaning eng go'zal obidalaridan biri<sup>291</sup>.

**Cha** – O'rta hajmli xitoy ibodatxonasi. Atrofi o'ralgan bo'lgan<sup>292</sup>.

**Chaytang** – Xitoy diniy inshootlarida vegetarianlar taklif etiladigan maxsus xona<sup>293</sup>.

**Chayyuan** – An'anaviy Xitoy sud zali<sup>294</sup>.

**Chang tang** – Xitoy arxitekturasida buddizmga taalluqli xona<sup>295</sup>.

**Chashitsu** – Yaponiyada choy marosimini o'tkazish uchun qurilgan kichik xona.<sup>296</sup>

**Chen-xuan** – Xitoy memorchiligidagi uchburchak ark.<sup>297</sup>

**Chialiang** Ananaviy xitoy yog'och to'sinli tomi.<sup>298</sup>

**Chiao** – Xitoyda binoni mustahkamlashda ishlataligancha metall yoki yog'och buyum.<sup>299</sup>

<sup>289</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.14

<sup>290</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.16

<sup>291</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.78

<sup>292</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.103

<sup>293</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.104

<sup>294</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.104

<sup>295</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.106

<sup>296</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.107

<sup>297</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.109

<sup>298</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.109

<sup>299</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.109

**Shinto ibodatxonasi** – tomining ikki yuqori burchagiga o‘rnatiluvchi X shaklli yog‘ochlar.<sup>300</sup>

**Xitoy me’morchiligi** – Binolari simmetrik, to‘rtburchak, bazan past-roq qilib qurilgan. Har bir imperator sulolasi davrining o‘z me’morchilik uslubi va har bir hududning o‘z qurilish yo‘sini bor. Saroy va maqbaralar, qo‘rg‘on va ko‘priklar bizgacha yetib kelgan. Qurilishda tosh va yog‘och ko‘p ishlatalgan. Ayniqsa, to‘sin terib yopilgan tomlari dunyoga mashhur.<sup>301</sup>

**Chin kan chyang** – 1. Xitoy tosh ko‘priklari . 2. Har qanday yuk ko‘taruvchi devor.<sup>302</sup>

**Chin tiyen** – xitoy shoxlar qabristonida imperator tobuti qo‘yiladigan joy.<sup>303</sup>

**Chumon** – Yaponiyada budda ibodatxonasiga kiraverishdagi ketma-  
ket keladigan uch darvozaning o‘rtadagisi.<sup>304</sup>

**Chung lou** – turgan joy, ko‘shk yoki minora. Ibodatxonaga  
kiraverishda o‘ng tomonda joylashgan. Saroy yoki shaharga kirish  
qismida ham shunday bo‘lgan.<sup>305</sup>

**Dodai** – poyustun. Yaponiyada binoning yog‘och asosi.<sup>306</sup> Yaponiya  
me’morchiligidida uyning tosh poydevori.<sup>307</sup>

**Yengava** – An‘anaviy yapon binolarida balkonga o‘xhash joy.  
Barcha tomonlari yog‘ochdan qurilgan.<sup>308</sup>

**Fang** – xitoy me’morchiligidida mustahkam qurilma. Asosan yog‘och-  
dan bazan toshdan suv bo‘yida xordiq olish joyi sifatida bunyod etiladi.<sup>309</sup>

**Gegiyo** – Ananaviy yapon me’morchiligidida shift uchidan pastga  
osiltirib ishlangan bezak<sup>310</sup>.

**Gosho** – Yaponianing Kioto shahrida joylashgan imperator saroyi.  
19-asrda qayta tamirlangan. Asosiy tuzilmalari Shishinden zali,  
Siyery–oden imperator qarorgohi, Kogosho shoirlar saroyi va malikaning  
Higyosha nomli saroyi<sup>311</sup>.

<sup>300</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.110

<sup>301</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.112

<sup>302</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.112

<sup>303</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.112

<sup>304</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.115

<sup>305</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.115

<sup>306</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.156

<sup>307</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.156

<sup>308</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.197

<sup>309</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.209

<sup>310</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.248

<sup>311</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.254

**Buyuk xitoy devori** – 2400 km.ga cho‘zilgan, oraliq masofalarida minoralariga ega dunyodagi eng uzun va eng mashhur devor. U mo‘ng‘uliston hududiga ham o‘tgan. Miloddan avvalgi 3-asrda qurilgan bu ulug‘ devor ko‘chmanchilarning shimoldan bo‘ladigan doimiy hujumlaridan himoyalanish uchun qurilgan<sup>312</sup>.

**Hayden** – Ibodat zali. Yaponiyada shinto ibodatxonasida joylashgan<sup>313</sup>.

**Hisashi** – Yapon uylari tomining qo‘srimcha soyabonli qismi. U tominning parallel davomi bo‘lib, bino oldi yo‘lkasini yog‘ingarchilikdan pana qiladi<sup>314</sup>.

**Xoruyji** – Yaponiyada joylashgan ibodatxona. Dunyodagi eng qadimgi yog‘och qurilmali bino hisoblanadi. Ko‘p qismi 670–yili yonib ketgan. 693–yili qayta qurilgan<sup>315</sup>.

**Isu jungu** – Yaponiyada quyosh mabudiga atab qurilgan eng muqaddas ibodatxona. Har 20 yilda Shimmey uslubida tamirlab turiladi. Mire prefekturasida joylashgan<sup>316</sup>.

**Yaponiya me’morchiligi** – Xitoy madaniyati tasirida 5–asrdan boshlab, yaponiyada yog‘ochli uylar qurilishi takomillasha borgan. Taxtali devorlari suvalmagan. Nozik rekali eshiklari yon tomonga surilib ochilishi bilan farq qiladi. Uy qandillari oq qog‘ozdan yasalgan. Tomlari sopol parchinlar bilan qoplangan. Yaponlar toshni faqat poydevor uchun va mudofaa devorlari uchun ishlatalidi<sup>317</sup>.

**Kan** – xitoy me’morchiligidida qo‘lyozmalar saqlanadigan tokcha. Keyinroq haykal qo‘yish uchun qurilgan. Uning yonlariga ustunchalar o‘matilib, atrofi bezatilgan<sup>318</sup>.

**Kang** – Xitoy va Koreyadagi saroy yoki turar joy. Bino poliga sopol quvur o‘matilib, issiq havo orqali uy isitilgan<sup>319</sup>.

**Katsuogi** – Shin ibodatxonasida tom uchiga terilgan kalta dumaloq yog‘ochlar. Ular o‘ntadan bo‘ladi<sup>320</sup>.

**Katsura Rikoin** – Kyotoda Yaponiya shaxzodalari uchun qurilgan saroy. Saroya choy ichish va choy marosimlarini o‘tkazish uchun

<sup>312</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.266

<sup>313</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.276

<sup>314</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.288

<sup>315</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.291

<sup>316</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.306

<sup>317</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.311

<sup>318</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.315

<sup>319</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.315

<sup>320</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.316

alohida muhtasham xonasi bor. Xonalari yoritkichlar bilan jihozlangan. Atrofida go'zal bog'lari mavjud<sup>321</sup>

**Kinkauji** – Yaponiyada Muromachi sulolesi vakili Ashikaga Yoshimitsu qurdirgan dala hovli. Kyoto shahrida joylashgan bu bino egasining vafotidan so'ng, Zen ibodatxonasiga aylantirilgan. Kinkaku so'zi oltin ko'shk deb tarjima qilinadi. Bu joy Rokuonji deb ham ataladi<sup>322</sup>.

**Kirizumayani** – Yaponlarning nishabli tomi. Nishablar bo'linishi tomming o'rta qismidan boshlanadi<sup>323</sup>.

**Kumimono** – Shift osti va ustun tepasiga o'matiladigan, yuk ko'tarishga mo'ljallangan qurilma. Yapon me'morchiligidagi ishlataligani.<sup>324</sup>

**Konfusiy ibodatxonasi** – Ibodatxona ichida ta'lim berish uchun zal bor. Xitoyning barcha katta shaharlarda shunday ibodatxonalar mavjud.<sup>325</sup>

**Xoli saroy** – Xitoy imperatorining shahar tashqarisidagi saroyi. Doimiy qarorgohi issiq yoki sovuq bo'lganda ikkinchisiga kochib otligan. Ovga chiqilgan kunlarda ham shu saroyda xordiq chiqarilgan<sup>326</sup>

**Xonaqox** – Xitoy imperatori maqbarasining xonalari<sup>327</sup>

**Mado** – Yapon binolarida deraza nomi<sup>328</sup>.

**Minka** – Yapon fermalaridagi uylar. Har bir hududda o'ziga xos bo'lgan<sup>329</sup>

**Mizuya** – Yaponlarning choy damlash uchun qurgan alohida xonasi<sup>330</sup>.

**Moya** – Yapon yog'ochli binolarining markaziy o'zagi. Atrofidagi xonalardan ustunlar bilan ajratiladi. Shuningdek surib ochiladigan cshiklar va osma yog'och to'siklar ham bog'laydi<sup>331</sup>

**Mu** – Xitoy tilida kabr ma'nosidagi soz<sup>332</sup>.

**Mun** – Xitoy tomalarining burchagi<sup>333</sup>.

<sup>321</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.316

<sup>322</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.317

<sup>323</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.318

<sup>324</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.323

<sup>325</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.323

<sup>326</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.331

<sup>327</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.332

<sup>328</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.344

<sup>329</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.355

<sup>330</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.357

<sup>331</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.365

<sup>332</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.365

<sup>333</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.366

**Nagara uslubi** – Yapon ibodatxonalarining eng mashhur uslubi. Uning tomi botik yuzali bo’lib, old nishab orka nishabdani uzunroq bo’ladi<sup>334</sup>

**Nagaya** – An’anaviy yapon me’morchiligidagi kichik xonalarga bog’langan uzun uy.

**Paylov** – Xitoycha yog‘och darvoza bo’lib, kirish yo’llari bitta, uchta yoki beshta bo’lgan. Saroy va ibodatxonalar hududiga kirish qismida.

**Shimmey uslubi** – Yaponiyada Buddizm ta’sirida paydo bo’lgan me’moriy uslub. Hech qanday bo‘yoksiz kichik to’rburchak binolari yerdan balandrokda buniyod etilgan. Binoni yog‘och ustunlar oyoq kabi ko’tarib turadi. Ustunlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri yerga qoqladi. Ostida tosh bo’lmaydi. Tomda ikki tarafga qaragan bo’sh yog‘ochlar yaqqol ko‘rinib turadi. Bino atrofida, pol balandligida ochik supa joylashgan bo’ladi<sup>335</sup>.

**Shinden uslubi** – Yaponiyada urf bo’lgan me’morchilikdagi yetakchi uslub. Ko‘pgina xonalar uzun yo‘lak atrofida birlashadi. Bino bir qavatli bo’lib, shaklan to’rburchakdir. Atrofida xovuz yoki ko‘l joylashgan. Bir qismdan ikkinchi qismga o’tish uchun ko‘prik qurilgan<sup>336</sup>.

**Shin kabe** – Yaponiyada suvoq uslubi bo’lib, devor yuzasida ba’zi qurilish qismlari aks etib qolavergan<sup>337</sup>.

**Shitomido** – Uzoq Sharq mamlakatlaridagi Shinden uslubida eshik turi. U ikki qismga bo‘linadi. Tepasi vertikaliga shift tomonga ko‘tariladi va ilib qo‘yiladi. Pastki qismi esa vaqtincha olib qo‘yilishi yoki peshtaxta sifatida ishlatalishi mumkin<sup>338</sup>.

**Shoro** – Yapon ibodatxonalarida qo‘ng‘iroqli qurilma<sup>339</sup>.

**To** – Yapon pagodasi turi. U ikki qavatli (taxo-to), uch (sanju-no-to), besh (goju-no-to), va yetti qavatli (nana-ju-no-to) turlarga bo‘lingan. Har qavatning o‘z tomi mavjud bo’lib, xuddi kattarok uy ustiga kichikrok uyni qo‘ndirib qo‘yganga o‘xshaydi. Ikki kavatli pagoda dumalok shaklda, qolgan barchasi to’rburchak shaklda qurilgan<sup>340</sup>.

**Todaiji** – Kadimiy, juda katta diniy inshootlar kompleksi. Eng mashxur binolari Shosoin, Tegaimon, Xokkeda, Kaisando, Nandaimon, Shoro, va Daibutsuden sanaladi<sup>341</sup>.

<sup>334</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.371

<sup>335</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.491

<sup>336</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.492

<sup>337</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.492

<sup>338</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.492

<sup>339</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.493

<sup>340</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.535

<sup>341</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.536

**Yao – Xitoy shimoli tog‘laridagi g‘or ichi turar joylari. Ular uch turli bo‘ladi: 1. Qoya ichini o‘yib ishlanganlari. 2. Qoya ichini o‘yib qoplama bilan o‘ralganlari. 3. Qoya ichida gumbazli qilib ishlangan xona<sup>342</sup>.**

### **Foydalilaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar**

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario,Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me’morchilik asoslari. Darslik. – T.: «O‘qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me’mor olami. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi»,1998.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O‘qituvchi», 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В.Очерки истории архитектурных стилей. М, 2001.
4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Кильде Т.Л Основы архитектуры.- М.; Высшая школа, 1999.
6. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.; Высшая школа, 1998.
7. Сербинович П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.; Высшая школа, 2000.

<sup>342</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.579

## ILK O'RTA ASRLAR VA VIZANTIYA ME'MORCHILIGI

### Reja

1. Ilk o'rta asrlar davri tarixi va xristian dini
2. Ilk Vizantiya davri me'morchiлиgi
3. O'rta Vizantiya davri me'morchiлиgi
4. So'nggi Vizantiya davri me'morchiлиgi

Yer yuzida feodalizm formatsiyasining paydo bo'lishidan tortib, uning rivojlanishi va nihoyat, uning inqirozidan keyingi formatsiyaga o'rnini bo'shatib bergungacha bo'lgan davrdagi arxitekturani, odatda, o'rta asrlar arxitekturasi deyiladi.

Bu arxitektura turli mamlakatlarda turli vaqtda boshlangan va davom etgan. Jumladan, Yevropada u Buyuk Konstantin podsholik qilgan davrdan (IV asr) boshlanadi. Uning dastlabki inqirozi esa XIII-XIV asrlardagi Italiyada shahar-davlatlarning vujudga kelishi bilan tezlashdi.

Yevropadagi ayrim mamlakatlarda feodalizm VII-VIII asrlar va undan kech ham boshlanib, XVII asrning so'ngigacha davom etgan (masalan Vizantiya, qadimgi Rus). Aksincha, sharq mamlakatlarda (Xitoy, Hindistonda) o'rta asrchiлик bir muncha erta boshlangan. Lekin uning inqirozi cho'zilib ketib, XIX asrgacha va undan keyinroq ham davom etgan. O'rta asrlar insoniyat kamolotining muhim davrini ifodalaydi.

Bu davr keyingi jahon halqlari iqtisodiy va milliy madaniyatining rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Uning taraqqiyotini tezlashtirishda o'zining kuchli hissasini qo'shdi. O'rta asr arxitekturasi o'z xarakteri jihatidan ommaviy arxitektura bo'lib, uning yaratuvchisi esa halqdir. Gap shundaki, o'rta asrlarda arxitektura keng halq ommasiga qaratilgan.

Quldarlik davrida jamiyatning ma'naviy fuqorolik huquqlaridan mahrum bo'lgan qul o'rta asrlarda huquqsiz xo'jayinga qaram bo'lib qolgani holda jamiyat a'zosi deb tan olindi. Natijada o'rta asr dehqonlari yagona jamoa, shaharlarda esa shahar kommunasi atrofida birlashib, feodallarga qarshi chiqa boshladilar. Feodalizmning paydo bo'lishi u bilan bog'liq bo'lgan mahalliy ishlab chiqarish kuchlarining yuzaga kelishini, yirik shahar va qishloqlardan uzoqdagi joylarga ham

madaniyat yutuqlarining kirib kelishi ta'minlandi. Mamlakatning keng omma orasiga sing'ish davri boshlandi. Omma ham shu madaniyatni yaratuvchi kuchiga aylandi. Shu davrdan boshlab, milliy, o'ziga xos arxitektura shakllana bordi. Ikkinchisi tomonidan, o'rta asrlarda din feodallar ustidan hukumron va shu bilan birga, ularning ximoyachisi bo'lib qoldi.

Ommani hukmron sinfga tobe qiluvchi qurolga aylandi. Shu maqsadda din tarqibotchilar arxitektura imkoniyatlaridan o'z faoliyatlarida foydalanadilar va davrning asosiy buyurtmachisiga aylanib, uning o'ziga xos tomonini belgilashda muhim rol o'ynadilar.

Buni xristian dini tarqalgan yerlarda cherkovlar, islom dini mamlakatlarda masjidlar, buddizm mavjud bo'lgan joylarda budda va uning hayoti bilan bog'liq ziyyoratgohlar, ibodatxonalar paydo bo'lishi, uning konstruktiv to'zilishi, xarakteri, badiiy bezatilishida ko'rish mumkin. O'rta asrlarda me'morchilik yetakchi o'rinni egallaydi. Bizgacha o'rta asrlar me'morlik san'atining juda ko'p nodir yodgorliklari saqlanib qolgan. Bu yodgorliklar, ayniqsa, monumental me'morlik san'ati o'rta asrlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim o'rinni egallaydi. Ular davrning diniy, falsafiy kurashlarini aks ettiribgina qolmay, inson aql-zakovatining qudratini ulug'laydi.

Bu davrda qurilgan Yevropadagi ibodatxonalar, musilmon sharqidagi xashamatli masjidlar, buddizm yodgorliklari o'rta asr tafakkuring mahsuli, insoniyat tarixining xaykali sifatida xanuzgacha kishilar qalbini to'lqinlantiradi. Buyuk inson aql-zakovati qudratiga ta'zim etishga da'vat etadi.

O'rta asrning muhim madaniyat o'choqlaridan biri Vizantiya davlatidir. Sharqiyl Rim imperiyasida 395-yili vujudga kelgan bu davlat 1453-yilgacha yashadi. Varvarlar xujumidan bir munkha chetda bo'lgan bu davlat uzoq vaqt antik hayoti va madaniyati an'analarini saqlagan holda, asta sekinlik bilan yangi farmatsiyaga-feodalizmga o'ta boshladi.

Bu yerda antik arxitektura an'analarini e'zozlandi va davom ettirildi. Shu bilan birga, bu an'analar mustahkamlanib borayotgan feodalizm qoyalari, xristian dini idealogiyasi bilan boyitildi. Vizantiya arxitekturasida ideal obrazga ega bo'lgan munosabat o'z kiymatini saqlab qoldi. Vizantiya

me'morchiliginining o'ziga xos tomonlarini IV asrda uning maydoniga xristian dinining kirib kela boshlagan davridan shakllana boshladi<sup>343</sup>.

Bu xususiyat Vizantianing dastlabki gullagan davri VI-VII asrlarda yaqqol namoyon bo'ldi. Konstantinopol bu davrda, buyuk Vizantiya imperiyasining faqat siyosiy markazi emas, balki madaniy o'chog'iga ham aylandi. «Ikkinci Rim» deb nom olgan bu shaharda monumental qurilish san'ati rivojlandi.

Bu yerda xashamatli monastir va ibodatxonalar ansambilini yaratish yetakchi o'rinni egallaydi. Bu ansambl tiplari rang-barang. Ayniqsa, Vizantiya uchun antik ijtimoiy ma'muriy binolarni qurish san'ati an'analari asosida qurilgan markaziy gumbazli va cho'ziq bazelika tipidagi ibodatxonalar qurilishi xarakterlidir.

Bu binolarda ichki interyerning fazoviy kengligi xristian ibodati talabi asosida yechilgandir. Bu binolar tashqi ko'rinishidan sodda, vazmin, lekin ichki kenglik nihoyatda nafis va serxashamdir. Shu maqsadda me'mor interyer uchun yorqin, serjilo marmar, oltin va shunga o'xshash qimmatbaho materiallardan keng foydalangan. Nur va soyaning xona ichidagi mosligi unga alohida sirli va sehrli kuch baxsh etgan.

Ilk Vizantiya ibodatxonasining namunasi - Ravennadagi uch nefli Sant Apollinare Nuovo bazelikasida shu xususiyat o'z ifodasini topgan. CHo'ziq bazelika tipida ishlangan bu ibodatxonaning markaziy keng nefi tepadagi darchalardan tushayotgan nurlar hisobiga yanada tantanavorlik kashf etadi. O'ng neflar ustunlarning ritmini yanada oshiradi. Asosiy diqqatni diniy marosimlar o'tadigan maydonga yunaltirilgan.

Ravennadagi markaziy qubbali San Vitale cherkovi (521-547) ning ichki qismi devor va pollari rangga boy mozayika bilan bezatilgan, rangli marmar bilan pardozlangan. Vizantiya me'morligi uslubi grek va rim me'morligi traditsiyalarining mahalliy traditsiyalar bilan uyg'unlashishi dan vujudga keldi<sup>344</sup>.

Jumladan, Konstantinopoldagi Sofiya ibodatxonasi o'z konstruktiv tuzilishi jihatidan Panteon ibodatxonasi konstruksiyasiga o'xshab ketadi,

<sup>343</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003.P131 (Byzantine architecture is the architecture of the Byzantine Empire, also known as the Later Roman or Eastern Roman Empire. This terminology is used by modern historians to designate the medieval Roman Empire as it evolved as a distinct artistic and cultural entity centered on the new capital of Constantinople rather than the city of Rome and environs.)

<sup>344</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. (The "Basilica of San Vitale" is a church in Ravenna, Italy, and one of the most important examples of early Christian Byzantine art and architecture in Europe. The building is styled an "ecclesiastical basilica" in the Roman Catholic Church, though it is not of architectural basilica form.)

lekin bu o‘xshashlik bir muncha yashiringan holda talqin etilishi bilan xarakterlanadi<sup>345</sup>.


Vizantiyaliklar grek-rim ark-gumbaz sistemasidan ham o‘z maqsadlarini ifodalash uchun foydalanganlar. Vizantiya me’morligida xona kengligiga alohida e’tibor berilishini ta’kidlash lozim. Interyer fazoviy bo’shilg‘i aktiv, ta’sirchan, xayajonli. Xona ichining kengligi, cheksiz va ulug‘vor bo‘lib tuyulishi, serhashamliligi bilan kishiga psihologik ta’sir o‘tkazishga qaratilgan. Vizantiya me’morligi va madaniyati jahon halqlari me’morligi san’atini madaniyatini rivojlanishiga katta ta’sir o‘tkazdi. Jumladan, bu madaniyat janubiy slavyanlarga o‘z ta’sirini ko’rsatdi. Qadimgi Rus arxitekturasi va madaniyati taraqqiyotida muhimrol o‘ynadi.

### *Peshtoqsiz cherkovlar*

*Markaziy mehrobbli cherkovlar* — Vizantiya imperiyasida xristianlik davrining dastlabki asrlarida markaziy mehrobbli cherkovlar plani ma’lum ma’noda umumiydir.

Yevseviy Antioxiyadagi Konstantin cherkovi haqida yozma ma’lumatlar qoldirgan; bu sakkizburchakli binolar bo‘lgan.

Avliyo Grigoriyning otasi Nazianzin ham o‘z shahrida sakkizburchakli plan asosida cherkov qurgan<sup>346</sup>.



1-rasm



2-rasm

<sup>345</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA. UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. (Hagia Sophia (from the Greek: Ἁγία Σοφία, "Holy Wisdom"; Latin: Sancta Sophia or Sancta Sapientia; Turkish: Ayasofya) is a former Greek Orthodox Christian patriarchal basilica (church), later an imperial mosque, and now a museum (Ayasofya Müzesi) in Istanbul, Turkey. From the date of its construction in 537 until 1453, it served as an Orthodox cathedral and seat of the Patriarch of Constantinople, except between 1204 and 1261, when it was converted to a Roman Catholic cathedral under the Latin Empire. The building was a mosque from 29 May 1453 until 1931. It was then secularized and opened as a museum on 1 February 1935)

<sup>346</sup>Auguste Choisy. The World History of Architecture. London. 2009.P-321(The church was conceived as a single unique space, interrupted only by two rows of six columns, in which the interior light would be filtered through scarlet-toned opalescent glass, in memory of the night of Jesus’ agony. The mosaics decorating the apses were inspired by the events that took place at Gethsemane: the agony, the arrest with the kiss of Judas, and Ego Sum. The decorations

Ziyoratchilarning xotiralari asosida biz yuqoridagi cherkovlar sirasiga Gefsiman tepaligidagi va X asrda vayron qilingan Konstantin bazilikasi o‘rniga qurilgan cherkovni kiritish mumkin

Ko‘rsatilgan rasmda rotonda ikki qavatli galereya bilan o‘ralgan to‘rtburchak zal bilan almashtirilgan. Bu Adrianopoldagi xristianlik davrining dastlabki asrlariga oid cherkovlardan birining plani bo‘lib, taxminan XII asrda gumbazli cherkovga aylantirilgan.

*Yog ‘och to ‘sinli baziliklar* — Bazilika uslubidagi sharqiy cherkovlarga o‘tamiz. Konstantin tomonidan uning yangi poytaxtida qurilgan cherkovlar uzaytirilgan nefli bo‘lib, ularning tez vayron bo‘lishi ular konstuksiyasining mustahkam emasligidan dalolat beradi. Hozirgi Avliyo Sofiya cherkovi o‘rnida uzoq vaqt oddiy bazilika turgan.

Rasmda ikkita g‘arbiy bazilik bilan birga Konstantin davridagi Vifleyemdagagi bazilik plani ko‘rsatilgan. Uning o‘ziga xosligi uchta absidadir.

Kareda (Afon) bazilik plani ajratib turuvchi nefli arkadalar yordamida emas, balki bir-biriga ulangan yagona arkadalar yordamida qurilgan.

*Dastlabki arkali cherkovlar*. Sharqning varvarlar bosqinidan uzoqda bo‘lganligi sababli u yerda mustahkam binolar barpo qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Arkali cherkovlar umumiylar xarakteri uchun arkalar sistemasini tanlash ham muhim hisoblangan. Rim arkalarini Vizantiya planlariga moslashtirish harakatlari ham bo‘lgan. Kichik Osiyoda Iyerapolis xristian bazilikining dastlabki alohida namunasi bo‘lgan. Arkalar bu yerda yo‘nilgan toshdan silindr shaklidida ishlangan. Sardada — bazilik xoch shaklidagi arkaldan iborat, u betonning gorizotal uslulda yotqizilishning oxirgi qo‘llanilishi edi. Efesdagi antik davrning bor hashamatli bilan qurilgan Uchlik (Trotsa) cherkovi, fikrimizcha gumbaz marказidan chiqqan savat shaklidagi arkaldan iborat bo‘lgan<sup>347</sup>. Starda-dagi Avliyo Georgiy cherkovida sfera shaklidagi gumbaz qo‘llanilgan, nef yarim sirkulli parusli, rim arkalari kabi mahobatli g‘isht va toshllar


on the vaults and small domes bring to mind the olives in the garden and the starry night, while the golden dome above the presbytery alludes to the heavenly mystery. Everything is conducive to meditation and prayer, with the focal point being the bare rock visible near the altar, testifying to Jesus' suffering prayer in Gethsemane. An innovation was the decision to reproduce the original floor mosaics and to mark the location of the perimeter of the walls of the original church with its drainage channels, cistern and tombs in the atrium. The exterior follows the lines of classical architecture, with a solemn pronaos (inner area of the portico) supported by columns and surmounted by a tympanum; the architect's stylistic choices were a conscious attempt to resist the nationalistic tendencies of the time which led many countries to build their own churches in the Holy Land.)

<sup>347</sup> Диоклетиана ва бомкаларига кабрларидаги шарқ санъатининг таъсири яккот намоён бўлган. Антик давр шарқ санъатининг Солумидаги Рим ва Византия мезъморчилигига оид биноларнинг кўнгина кисми Кичик Осиёда жойлашган.

bilan yopilgan. Yarim sfera shaklidagi gumbaz mehrobni yopib turadi. Xuddi shuningdek, qadimgi Filadelfiyaning Ala-Sher bazilikida Rim imperiyasi arxitekturasi qayta gavdalangandek bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

### *Yustinian davri va Vizantiya arkali cherkovlarining yakunlovchi tiplari*

Vizantiya arxitektura maktabining arkali binolarini uch guruhga bo'lish mumkin bo'lib, gumbazni doira, sakkizburchak, to'rtburchak shaklidagi plan yopib turganligi bilan farqlanadi.



*Doira asosli gumbazli cherkov* — Bunday binolar xronologik jihatdan Vizantiya va Rim san'ati chegaralarini o'z ichiga oladi. Bu davrga oid binolar Rim Panteoni binolariga yaqin. Ularning hammasi katta tokchalar bilan yengillashtirilgan aylana shaklidagi barabanga ega. Spalatodagi Diokletian maqbarasi gumbazi va avliyo Georgiy cherkovi gumbazi aylana shaklidagi baraban uzra turganligini ko'rish mumkin. Pergamda bazilikka tegib turgan ikkala rotonda, gumbaz bilan yopilgan. Avliyo Petr cherkovi va Avliyo Yelena hamda avliyo Konstansiya maqbaralarini ham xuddi shu tipga mansubdir<sup>348</sup>.

*Sakkizburchakli asosli gumbaz* — Sakkizburchakli asosli gumbaz Garizma tog'idiagi Yustinian cherkovi konstruksiyasidan kelib chiqgan. Bunday gumbazlar bizgacha Yustinian qurdirgan ikkita binoda yetib kelgan: Konstantinopoldagi avliyo Sergiy va Ravennadagi avliyo Vitaliy cherkovlari.

<sup>348</sup> The World History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009. P321 (Saint Anne Byzantine Catholic Church is a Catholic Christian parish of the Byzantine Rutherenian Tradition located in the City of San Luis Obispo, California. It was founded in 1986. It is a parish of the Holy Protection of Mary Byzantine Catholic Eparchy of Phoenix.)

Avliyo Sergiy (*A*) cherkovidagi gumbazningsakkiz burchakli barabani to'rt tomondan tayanch tokchalar, qolgan to'rt tomondan arkalar bilan ushlab turiladi.

Avliyo Vitaliy cherkovi (*V*) gumbazi bir-biriga qo'yilgan quvurlardan iborat bo'lib, gumbaz sakkizburchakli barabani bilan paruslar bilan bog'langan. Barabanga tayanch vazifasini o'tovchi 8 ta tokcha qurilgan<sup>349</sup>. Yon tomondagi neflar Avliyo Sergiy cherkovidagi kabi ikki qavatli. Avliyo Vitaliy cherkovi—Vizantianing peshtoqlari tom bilan yopilgan kamyob binolaridan biridir.





*To'rtburchak asosli gumbaz*.— binoning markazi bo'lgan gumbaz kompozitsiyaga umumiylilik bag'ishlaydi. Rasmida Salonikada taxminan VI asrda qurilgan avliyo Sofiya cherkovi berilgan bo'lib, to'rtburchak asosli gumbaz yaqqol ko'rinishidir. Uning gumbazi sferik uchburchak shaklidagi to'rtta katta parusga o'rnatilgan, butun kompozitsiyaga gumbazga bo'ysundirilgan. Konstantinopoldagi Avliyo Sofiya cherkovi gumbazi juda katta paruslarga ega, uning ikki tomonini absid shaklidagi arkalar ushlab turadi, qolgan ikkitasini konrforsli mahobatli arkalar ushlab turadi<sup>350</sup>.

<sup>349</sup> The History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009. P-323. (The "Basilica of San Vitale" is a church in Ravenna, Italy, and one of the most important examples of early Christian Byzantine art and architecture in Europe. The building is styled an "ecclesiastical basilica" in the Roman Catholic Church, though it is not of architectural basilica form. The construction of the church was sponsored by Julius Argentarius, a Roman banker and architect, of whom very little is known, except that he also sponsored the construction of the Basilica of Sant'Apollinare in Classe at around the same time. (A donor portrait of the Julius Argentarius may appear among the courtiers on the Justinian mosaic.) The final cost amounted to 26,000 solidi (gold pieces).

<sup>350</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY.1998 SEVENTH EDITION. P.76. (The two lateral arches under the dome are filled by clearstory walls pierced by twelve windows, and resting on arcades in two stories carried by magnificent columns taken from ancient ruins)

Katta tirkakli absidlarning bitti kirish oldida, ikkinchisi diniy maromot o'tkaziladigan joyda joylashgan. O'ng va chapda ikki qavatlari yon neflar joylashgan.

Avliyo Sofiya cherkovi 530-yilda Yustinian davrida, Miletlik arxitektor Isidor va Trallik Anfimiym tomonidan qurilgan<sup>351</sup>.




Konfrorsi mustahkam bo'lmaganligi, yon tomonidan gumbaz tayanchlari yetarli emasdi. Konfrorsni mustahkamlash zarur edi. Buning uchun uning dekorativ tokchalarini to'ldirish va u yerdagiga zinapoyalarni yo'qotish kerak bo'ldi. Yon tomon neflarning arkadalari mustahkamlandi. Keyinchalik zilzilalar natijasida gumbaz rekonstruksiya qilindi.

Bino bizgacha mustahkamlangan, to'g'rilangan holda utib kelgan. 11-12 asr davomida turdi. Arxitektura yodgorligi sifatida bu bino – she-devr. Arxitektura effektlari, kontrastlardan foydalanish, dekorativ bezaklar bu yerda eng yuqori cho'qqiga ko'tarilgan.

Yustinian davrida Konstantinopolda apostollar uchun beshgumbazli cherkov qurilgan. Bu cherkov saqlanib qolmagan bo'lib, u haqida Prokopiylar ma'lumot bergen. Lekin bu binoning XII asrda qurilgan nusshalari saqlangan. Bu bizgacha o'zining bor sharqona go'zalligi bilan yetib kelgan Venetsiyadagi avliyo Mark, Perigdag'i hashamatli avliyo Front cherkovlaridir. Amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan arkadalarni ko'rsatish mumkin. Ular neflar yonida ketgan bo'lib, yon neflari ikki qavatlari bo'lgan namunaлarni takrorlaydi. Rasmida avliyo Mark<sup>352</sup> va solishtirish uchun avliyo Fronta cherkovlari berilgan.

<sup>351</sup> 558 йилда вайрон бўлган гумбаз Исидор томонидан 562 йилда кайта курилган ва контрфорсларга эга бўлан.

<sup>352</sup> History of Architecture A.D F Hainlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture. COLUMBIA. UNIVERSIRY.1998 SEVENTH EDITION P.77. (The Patriarchal Cathedral Basilica of Saint



## Vizantiya cherkovlarining so‘nggi tiplari

Beshgumbazli planlar faqat juda katta binolar uchun to‘g’ri kelar edi. Vizantiya san’atining so‘nggi davrlaridagi cherkovlar hajmining juda kichikligi bilan ajradib turar edi. Oddiyroq bo‘lgan tipdagi cherkovlarga ehtiyoj bo‘lgan va Afon monastirlarida ana shunday tipdagi binolar paydo bo‘lgan. *Gumbazli cherkovlar* — Suriya arxitektursi bazilik va arkadalardan voz kechmagan holda V asrdan boshlab gumbazlar qura boshlaydi, lekin kamdan-kam hollarda ular kvadrat planda quriladi. Evrdagi avliyo Georgiy cherkovi — suriya gumbazli cherkovi namunasidir<sup>353</sup>. Gumbaz sakkizburchakli asosda va burchakli toshlar bilan mustahkamlangan. Suriyaliklar ikkita kesishgan neflarni gumbaz bilan bog‘lamaslik uchun yopmagan hollari ham bo‘lgan.

---

Mark (officially known in Italian as the **Basilica Cattedrale Patriarcale di San Marco** and commonly known as **Saint Mark’s Basilica**) is the cathedral church of the **Roman Catholic Archdiocese of Venice**, northern **Italy**. It is the most famous of the city’s churches and one of the best known examples of **Italo-Byzantine architecture**. It lies at the eastern end of the **Piazza San Marco**, adjacent and connected to the **Doge’s Palace**. Originally it was the chapel of the Doge, and has only been the city’s cathedral since 1807, when it became the seat of the **Patriarch of Venice**, archbishop of the **Roman Catholic Archdiocese of Venice**, formerly at **San Pietro di Castello**. The basic structure of the building has not been much altered)

<sup>353</sup> The World History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009 P-328. (St George’s Church is in Everton, Liverpool, Merseyside, England. It is recorded in the National Heritage List for England as a designated Grade I listed building, and is the earliest of three churches in Liverpool built by John Cragg, who used many components in cast iron which were made at his Mersey Iron Foundry. The outer shell of the church is built in stone while the interior is in cast iron. Its plan consists of a west tower, a seven-bay nave with aisles, and a short chancel. Porches flank the tower and chancel. The tower has diagonal buttresses, an arched west door with a three-light window above. The next stage has a clock on three faces and above this are three-light bell-openings which are partly glazed and partly louvred. On the summit is an embattled parapet with pinnacles at the corners. All the windows have cast iron tracery. Internally the nave has arcades of cast iron and the aisles have galleries. The roof is of cast iron. The architectural style of the church is Perpendicular.)

## Glossariy

**Antiparabema** – Vizantiya cherkovida ikki asosiy zalning birinchi<sup>354</sup>.

**Savatli kallak** – Vizantiya me'morchiligidagi qo'llanilgan to'rtburchak savat shaklidagi ustunning yuqori qismi<sup>355</sup>.

**Vizantiya me'morchiligi** – Sharqiy Rim imperiyasi bo'lган Vizantiya me'morchiligi. IX asrda xristian va Rim an'analarini asosida gullab yashnagan. 1453-yil Turklar Konstantinopolni egallaguncha Vizantiya mavjud bo'lган. Ulkan gumbazlari, yarim dumaloq arklari va nafis ustunlari, rang hamda bezak boyligi bilan ajralib turadi<sup>356</sup>.

**Ilk xristian me'morchiligi** – Bu so'nggi Rim me'morchiligi davri hisoblanadi. Uning namunalarini asosan cherkovlar misolida ko'ramiz. Mazkur arxitektura Vizantiya me'morchiligiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan<sup>357</sup>.

**Gotik uslubdagagi me'morchilik** – Bu G'arbiy Yevropada o'rta asrlarda mashhur bo'lgan. Dastlab Fransiyada XII asrda Yangi Rim va Vizantiya me'morchilik usullaridan kelib chiqib joriy etilgan. Tik ishlangan arklar, qovurg'ali gumbazlar, burj, devorlarning yupqa ishlangani va bezaklarining boyligi bilan ajralib turadi. Bu uslub XIV asrgacha davom etdi. Undan keyin Uyg'onish davri boshlandi. Fransiya va Germaniyada Gotik uslub Ilk, Oliy va So'nggi davrlarga bo'linadi. Angliyada esa Dastlabki Ingliz, Bezakli hamda Perpendikulyar davrlarga ajralgan. Fransuzchada Rayonnant va Flamboyant deb ham atalgan<sup>358</sup>.

**Avliyo Sofiya** – Muqaddas SofiY. Vizantiya me'morchiligining eng mashhur namunasi deb hisoblangan bu obida Turkiyaning Istanbul shahrida joylashkan. 360-yili Imperator Konstantin tomonidan cherkov sifatida qurilgan va 537-yili, keyinroq 563- yili qayta ta'mir qilingan. 1453-yili Usmoniyalar shaharni zabit etkanidan so'ng uni masjidga aylantirishdi. Uning 32.6 diametrli ulkan gumbazi poldan 56 metr yuqorida joylashkan. Ikki yonida ikkita yarim gumbazlar mavjud. Binoning ichki qismi bezaklarga boy qilib ishlangan<sup>359</sup>. Ilk o'rta asrlar

<sup>354</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.24

<sup>355</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.57

<sup>356</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.88

<sup>357</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.196

<sup>358</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.276

<sup>359</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.294

me'morchiligi 9-12 asrlar orasidagi Yevropa me'morchiligi. Bunda Vizantiya, Roman va Gotik usullar nazarda tutiladi<sup>360</sup>.

**Templon** – Vizantiya cherkovida altar qismi oldida o'matilgan ustunlar qatori.<sup>361</sup>

**Truma** – Ilk o'rta asrlarda qurilgan binolar kirish ostonasida joylashkan markaziy tayanch qurilma<sup>362</sup>.

### Foydalanimadigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario,Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me'morchilik asoslari. Darslik. – T.: «O'qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me'mor olami. O'quv qo'llanma. – T.: «O'qituvchi»,1998.

### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O'qituvchi», 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В. Очерки истории архитектурных стилей. М, 2001.
4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Кильде Т.Л Основы архитектуры.- М.; Высшая школа, 1999.
6. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.; Высшая школа, 1998.

<sup>360</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.377

<sup>361</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.527

<sup>362</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.553

7. Сербинович П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.; Высшая школа, 2000.

## ROMAN DAVRI ARXITEKTURASI

### Reja:

1. Roman davri diniy inshootlarning qurilishi
2. Fuqaro turar joylar qurilishi
3. Fransiya, Germaniya, Angliya va Italiya me'morchilik mabkablari
4. Roman davrining asosiy xususiyatlari va qurilish texnikasi

Buyuk Karl imperiyasi uzoqqa cho'zilmadi. Uning inqirozi imperator hayot vaqtida boshlandi. Vafotidan so'ng uning o'g'il va nabiralari orasidagi nizoning kuchayishi mamlakat osoyishtaligini buzdi. Atrofdan kuchmanchilar hujumi ham halq boshiga oqir kulfatlar keltirdi. Bu davrdan boshlab san'at taraqqiyoti ham susaydi. Ilgari qurilgan binolar xarobaga aylana bordi. Nodir arxitektura yodgorliklari talandi yoki yo'q bo'lib ketdi. Faqat X asr oxirlaridan boshlab, Yevropada hayot iziga tusha boshladи. Ko'pkina yerlarda feodal munosabatlar shakillanib bo'ldi.

San'at arxitektura taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarila boshladи. X-XII asrlarni o'z ichiga olgan bu taraqqiyot bosqichi Roman asri me'morligi deb yuritiladi. Bu davr «Roman arxitekturasi» termini ilmiy manbalarda 1825-yili fransuz arxeologi Arniss Komon tomonidan qarb Yevropa me'morchiliginini bildiruvchi omil sifatida qo'llanildi. Bu davr Yevropa ijtimoiy hayotida cherkovning roli katta edi. Ayniqsa, Fransiya, Angliya, Germaniya, Ispaniyada yirik qurilish va u bilan hoqliq bo'lgan san'at turlari cherkov buyurtmasi bilan yaratildi. Roman davrida me'morchilik o'rmini egallaydi.

Roman uslubidagi bino birmuncha, past ko'rinishi jiddiy va oqir. Uning devorlari ham qalin va mustahkam, eshik, deraza va darvozalari ensiz. Funksional va dekorativ maqsadda qo'llanilgan ustunlar ham dag'al va yo'g'on bo'lgan. Roman me'morchiligiga mos bo'lgan bu xususiyatlар o'ziga xos ko'rinishga, xarakteri va kishiga beradigan psixologik ta'sirini belgilaydi.

Roman davri me'morchiliginining yana bir xususiyati uning ichki devorlarida tekis yuzaning serobligidir. Bu xususiyat esa monumental rang-tasvirning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. XI asrda bu davr o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi<sup>363</sup>.

Vitraj ham me'morchilikning ajralmas qismiga aylandi. Bu davrda xaykaltoroshlik me'morlik bilan boqliq holda rivojlandi. Binoning peshtoq, ustun va kapitellari, devordagi maxsus tokchalar xaykaltoroshlik san'ati bilan bezatilgan. Miniatyura va mayda xaykaltoroshlik ham me'morchilik ta'sirida bo'ldi. Roman me'morchiligi uslubining fuqoro qurilishiga ta'siri katta bo'ldi.

«Roman» iborasi shartli bo'lib, lotincha «rimniki» degan so'zdan olingan, bu davr me'morchiligidagi rim me'morchiligidagi keng qo'llanilgan shakllar ishlatilganligini bildiradi deb taxmin qilinadi. Roman me'morchiligi Korolinglar davri yutuqlariga tayangan holda rivojdangan bo'lsa ham lekin uning ko'rinishiga mahalliy sharoit o'rniga qarab antika, Vizantiya hamda arab mamlakatlari me'morchiliginining ta'siri bo'ldi.

Feodal tarqoqlik esa roman me'morchiligidagi juda ko'p mahalliy maktablarning yuzaga kelishi va musobaqasiga sabab bo'ldi. Bu maktablar kanchalik rang-barang bo'lmasin, ularning asosida yagona prinsiplpr borligini inkor etib bo'lmaydi. Bu hol plan va konstruksiyada dekorativ shakllar xarakterida ko'rindi. Bu davr binolari toshdan yaratilgan bo'lib, qurilishda bazilika tipi asosiy o'rinni egallaydi. Lekin Bazilika avvalgi davrdagidan fark qilib, ko'proq ikki transeptli hamda binoning cherkov xizmatkorlari, ruhoniylar uchun ajratilgan sharqiy qismi (xor) kengaytirlgan, qo'shimcha xona va yertulalar qurilgandir.

Roman me'morchiliginining o'ziga xos tomoni tomonning egri rovoq gumbaz tarzida yopilishi va darchalarning joylashtirilishidadir. Bu

<sup>363</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P.88( Romanesque architecture was pre-eminently ecclesiastical. Civilization and culture emanated from the Church. Romanesque architecture is an architectural style of medieval Europe characterized by semi-circular arches. There is no consensus for the beginning date of the Romanesque style, with proposals ranging from the 6th to the late 10th century, this later date being the most commonly held. It developed in the 12th century into the Gothic style, marked by pointed arches. Examples of Romanesque architecture can be found across the continent, making it the first pan-European architectural style since Imperial Roman architecture. The Romanesque style in England is traditionally referred to as Norman architecture. Combining features of ancient Roman and Byzantine buildings and other local traditions, Romanesque architecture is known by its massive quality, thick walls, round arches, sturdy pillars, groin vaults, large towers and decorative arcading. Each building has clearly defined forms, frequently of very regular, symmetrical plan; the overall appearance is one of simplicity when compared with the Gothic buildings that were to follow. The style can be identified right across Europe, despite regional characteristics and different materials. Many castles were built during this period, but they are greatly outnumbered by churches. The most significant are the great abbey churches, many of which are still standing, more or less complete and frequently in use. )

qurilish texnikasi mukammalashib borishi bilan keng o'rinni egallaydi. Me'morchilikda qo'llanilgan ustunlar va uning kapitellari har xil. Roman arxitekturasining rivojlangan davrida esa kapitel va ustunlar o'ziga xos xaykaltoroshlik ko'rinishiga o'xshab bordi.

Bu asrga kelib, feodal turadigan alohida o'ziga xos uy tipi kasr paydo bo'ldi. Odatda kasrning katta xovlisi, uning o'rta qismida pishiq va baland minorasimon bino qurilgan bo'lib, u bir necha qavatli, feodal yashaydigan ko'p xonalardan tashkil topgan.

Usha davr shahar qurilishi ham feodal qo'rqonga o'xhash bo'lgan. Shahar atrofi kalin devor bilan o'rab chiqilgan. Kurilgan binolar kam va sodda bo'lgan. Roman tas'viri san'ati ham o'ziga xos va konkretdir. Bu davr san'atida yetakchi o'rinni xaykaltoroshlik birinchi navbatda burtma tasvirlar egallaydi. U bevosita me'morchilik elementlari sifatida qaralgan holda tomashabinga katta mazmun yetkazadi.

Ilk roman davrida X asr xaykallar me'morchilik formalariga qo'shib ishlandilar. Masala kapitel ustun va h. q. XII asrga qilib esa, u mustaqillik kashf eta bordi, hamda me'morchilik ansamblı bezagining ma'lum sistemasiga aylandi.

**FRANSIY.** Mamlakatda feodalizmning klassik vatanidir. O'rta asr san'atining gullagan davrida uning san'ati g'arbiy Yevropada yetakchi o'rinni egallaydi. Fransuz me'morchiligidagi roman udubining o'ziga xos tomonlari yaqqol namoyon bo'ladi. O'zining dekorativ bezatilishi va konstruktiv to'zilishi jihatdan rang-barang bo'lgan fransuz me'morligi Yevropa qurilishi san'atida muhim o'rinni egallaydi.

Bu yerda yaratilgan me'morchilik tiplari Yevropaning ko'pgina sha-xarqlarida tahlid uchun namuna bo'lib qoldi.

Puatyedagi Notr dam la Grant XI-XII asr ibodatxonasi roman stiliga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Ko'rinishi jihatdan birmuncha past, tosh devorlari qalin va salobatli qilib ishlangan<sup>364</sup>. Shu davrlarda qoldirilgan kichiq tor darchalar bu devorlar qalinligini yanada burttirib, uning vazminligini oshiradi. Bu ibodatxona uch nefdan iborat o'rtadagi nef ikki yon tomondagi nefdan biroz baland u yerdagi kichiq

<sup>364</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture. COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P.92(The Basilica of Notre-Dame du Port is a Romanesque basilica, formerly a collegiate church, in the Port quarter of Clermont-Ferrand, between Place Delille and the cathedral. From the 10th century to the French Revolution it was served by a community of canons regular until the 13th century, and thereafter secular. According to tradition, the church was founded by the bishop of Clermont, Saint Avitus, in the 6th century and was rebuilt in the 11th or 12th centuries after being burned down by the Normans. The establishment here of a community of canons took place no earlier than the middle of the 10th century, under bishop Etienne II of Clermont. The church was formally declared a basilica minor on 3 May 1886.)

darchalardan ichkariga kun tushib turadi. Bino devorlari xay-kalitoroshlik asarlari to'rimi arxitektura dekorativ elementlari bilan bezatilgan, binoning pastki yarusi tepadagiga nisbatan katta bo'lib, asosan, o'sha naqsh va burtma tasvirlar bilan bezatilgan.

Ikkinchchi va uchinchi yarusdagi tokchalar bo'lib, uning ichiga xay-kallar o'rnatilgan qo'llanilgan yarim qolonna, yarim aylana shaklidagi ark va hokazolar binoning jiddiy ko'rinishiga latofat kiritgan.

Me'morchilik yodgorligi shu davr siyosiy vaziyatini aks ettiradi.

Burgundiyada qurilgan ibodatxonalarda formalarini o'zgartirishga intilish seziladi. Bu xususiyat ayniqsa, Klyuniydag'i cherkovda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu cherkov XI asr oxirlarida bunyod etilgan. O'sha davrda Yevropadagi eng katta ibodatxonalardan biri bo'lgan. XIX asr boshlarida bo'zilib ketgan bu bino prinsiplari ko'pgina cherkovlar uchun assos qilib olinadi. Besh nefli bu ibodatxona tashqi elementlari ning ritmikasi hajmlarining tugal ko'rinishi hamda mayda bo'lakla-rinning yaxlit yuzaga chiqkanligi va uyg'unligi bilan xarakterlanadi.


**GERMANIYA.** Mamlakatda qurilgan roman uslubidagi binolar o'zining kubsimon aniq shakllari hamda ko'rinishining ulug'verligi bilan xarakterlanadi. Oqir minoralarning serobligi esa uning dinamik ko'rinishini ta'minlaydi. Tekis devor yuzasidagi linzalar bino dinamik ko'rinishiga xizmat qiladi, bu xususda Vermosdagi sobor xarakterlidir.

**ITALIYA.** Bu mamlakatda me'morchiligidagi stilistik birlik yo'q. Bunga sabab uning tarqoqligidadir. Shuning uchun uning ayrim oblastlarida Vizantiyaning ta'siri bo'lsa, boshqa birida roman arxitektura an'analari seziladi. Ilqor Toskana va Lombardiya maktablarida mahalliy antika an'analari ta'siri borligi ko'rinadi<sup>365</sup>.

Pizadagi me'morchilik ansamblı bu xususda diqqatga sazovorlir. Ansamblidagi har bir bin mustaqil ahamiyatga ega. Ularning tashqi devorlari nafis arqadalar bilan qator yaruslarga ajratilgan. Bu hol bino ko'rinishiga yengillik va nafis o'ziga xos latofat kiritgan. Natijada ko'rinish jihatdan juda katta Piza sobori ham yengil va jozibali bo'lib

Barcha binolarda neflar seksiyalarga bo'linadi, keyigilari esa anfilada bo'lib ketma-ketlikka yuz tutadi. Bu vaqtda Vizantiya yodgorliklari kabi ularning alohida qismi markaziy gumbazlar atrofiga guruhlanadi. Gotika cherkovlari roman kabi qator seksiyalarga: seksiya – bu asosiy element: uni barcha ansamblidan fikran ajratib olish mumkin.

Birinchi navbatda kombinatsiyalar bular arkbutandan foydalanuvchi uni egalovchi ko'rinishlarni mustahkamlovchi yagona tayanch hisoblanadi.

### Seminar savollar

1. Gotika uslubidagi binolar nimalari bilan boshqa davr me'morchiligidan keskin ajralib turadi?
2. Fransiya gotika davri me'morligining necha davrlari mavjud? Ular o'zaro qanday farqlanadilar?
3. Fransiyada qaysi soborlar gotika davrlari me'morligini xarakterlab beradi?
4. Gotik dunyoviy inshoatlar to'g'risida nima bilasiz?
5. Nemis gotikasining qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?
6. Anliyada qanday soborlari gotika davrlari me'morligini aks etdiradi?
7. Italiyaning protorenessans arxitekturasi qanday sifatlari bilan ajralib turadi?

### Glossariy

**Apsida zali** – Yarim aylana oldidagi ibodat qiluvchilar joyi. Fransuz Gotik usulida ko'p qo'llangan<sup>387</sup>.

**To'rpanjara** – Gulxoqi. Gotik uslubida tosh parchalari bilan bezatilgan deraza panjarasi<sup>388</sup>.

**Bog'lamlı ustun** – Yuzasi to'lqinsimon qiyshiq yoki siniq ko'rinishda bo'lgan **Gotik ustun** – Bu kabi ustunlar qirg'oq maydonchasi ostida, ko'prik ostida va deraza arki ostida tayanch qilib ishlatilgan<sup>389</sup>.

**Bezakli uslub** – Ingliz Gotik me'morchiligi uch davrining ikkinchisi. (1280-1350) Bejirim bezaklarga boyligi, qovurg'alarining ko'pligi, hamda ichki aylanali arklari bilan ajralib turadi. Dastlabki rivojlanish davri **Geometric**, keyinchalik **Curvilinear** deb atalgan<sup>390</sup>.

**Ilk ingliz uslubi** – Ingliz Gotik me'morchiligining uch uslubidan biri bo'lib, 1180-1280-yillarda Normand va Fransuz me'morlari

<sup>387</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.24

<sup>388</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.48

<sup>389</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.77

<sup>390</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.158

tomonidan joriy qilingan. Uning asosiy farqi panjarasiz (gul-toqisiz) va bezaksiz ishlangan uzun ingichka derazalari<sup>391</sup>.

**Fleur-de-lys, fleur-de-lis** Gulsapsar. So'nggi Gotik me'morchilik davrida qo'llanilgan gulsapsar shaklli bezak<sup>392</sup>.

**Gul-toqi** – Gotik uslubda qurilgan deraza bezagi. Unda boshidan oxirigacha burchakli uzun bezaklar bo'ladi<sup>393</sup>.

**Gumbaz burji** – Gotik uslubga xos cherkov binosining bir qism devori. U ikkinchi qavat balandligiga to'g'ri kelib, tik tom yoki gumbazni ko'tarib turuvchi toshli tirkak qurilma hisoblanadi<sup>394</sup>.

Gotik uslubdagi me'morchilik - Bu G'arbiy Yevropada o'rta asrlarda mashhur bo'lgan. Dastlab Fransiyada 13 asrda Yangi Rim va Vizantiya me'morchilik usullaridan kelib chiqib joriy etilgan. Tik ishlangan arklar, qovurg'ali gumbazlar, burj, devorlarning yupqa ishlangani va bezaklarining boyligi bilan ajralib turadi. Bu uslub 13 asrgacha davom etdi. Undan keyin Uyg'onish davri boshlandi. Fransiya va Germaniyada Gotik uslub Ilk, Oliy va So'nggi davrlarga bo'linadi. Angliyada esa Dastlabki Ingliz, Bezakli hamda Perpendikulyar davrlarga ajralgan. Fransuzchada Rayonnant va Flamboyant deb ham atalgan<sup>395</sup>.

**To'sinli uy** – Ostki qismi toshdan, usti esa yo'gochdan qurilgan uy. Bunday binolar markaziy Yevropa shaharlarda Gotik uslubida qurilgan<sup>396</sup>.

**Gul-toqi** – Deraza bezagi. Gotik derazalar yuzasida tosh yoki yog'och qislardan ishlangan nozik bezak. U derazaning ustki qismida bo'lib, panjaraga ham o'xshab ketadi.<sup>397</sup>

**Tyudor guli** – Gotik uslubdagi binolar bezagida qo'llangan uch foyilli gul shakli.<sup>398</sup>

### Foydalilaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.

<sup>391</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.181

<sup>392</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.217

<sup>393</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.219

<sup>394</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.220

<sup>395</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.254

<sup>396</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.535

<sup>397</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.545

<sup>398</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.554

2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario,Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me'morchilik asoslari. Darslik. – T.: «O'qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me'mor olami. O'quv qo'llanma. – T.: «O'qituvchi»,1998.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O'qituvchi», 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В.Очерки истории архитектурных стилей. М, 2001.
4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Кильде Т.Л Основы архитектуры.- М.; Высшая школа, 1999.
6. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.; Высшая школа, 1998.
7. Сербинович П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.; Высшая школа, 2000.

## UYG'ONISH DAVRI ME'MORCHILIGI

Reja:

1. Uyg'onish davri san'atiga ta'rif
2. Uyg'onish davrining asosiy taraqqiyot bosqichlari
3. Uyg'onish davrida rivojlangan uslublar va qurilish konstruksiyalari
4. Shu davrga xos yirik me'morlar ijodi va ular tomonidan loyihalashtirilgan binolar tahlili

Uyg'onish davri me'morchiligi o'z taraqqiyotini XV–XVI asrlar boshidan kechirgan, yangi madaniyat tarixida «Uyg'onish» deb nom oldi. Bu iborani italiyalik rassom va san'atshunos Jorjo Vazari Italiyada uzoq o'rta asrdan so'ng yana qaytadan uyg'onganligi sababli ishlatgan va asosan Jotto ijodiga nisbatan qo'llanilgan edi. Keyinchalik esa keng mazmunni kasb etib Italiyada, so'ngra Yevropaning boshqa mam-lakatlarda vujudga kelgan, o'rta asrlar davridan farq qiladigan san'atni ta'riflash uchun qo'llanila boshlangan. Uyg'onish davri me'morligi qadimgi an'analarni o'zlashtirib, uni yangi mazmun bilan boyitdi, yangi me'moriy qurilmalar vujudga keldi, ko'p qavatli uylar, yangi qiyofadagi jamoat binolari qad ko'tardi. Binoni tashqi va ichki tomonlarini bezash, kenglikni tashkil etish borasida ham muayyan yutuqlarga erishildi. Bu o'zgarishlar Italiyaning Florensiya, Piza, Siyena, Genuya, Milan, ayniqsa, Venetsiya shaharlarida juda sezilarli bo'ldi<sup>399</sup>. Ulkan binolar, goyat katta gumbazli va bir nechta ustunli saroy va ibodatxonalar qurildi, ayniqsa, florensiyalik me'morlar antik me'morlik an'analari va order tizimidan unumli foydalandi. Bu an'analarni o'rta asr Italiya me'morlik texnikasi yutuqlari, mahalliy kurilish xom ashylari va konstruksiyalari bilan uyg'unlashtirib,

<sup>399</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture. COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P.146(Renaissance architecture is the architecture of the period between the early 15th and early 17th centuries in different regions of Europe, demonstrating a conscious revival and development of certain elements of ancient Greek and Roman thought and material culture. Stylistically, Renaissance architecture followed Gothic architecture and was succeeded by Baroque architecture. Developed first in Florence, with Filippo Brunelleschi as one of its innovators, the Renaissance style quickly spread to other Italian cities. The style was carried to France, Germany, England, Russia and other parts of Europe at different dates and with varying degrees of impact. Renaissance style places emphasis on symmetry, proportion, geometry and the regularity of parts as they are demonstrated in the architecture of classical antiquity and in particular ancient Roman architecture, of which many examples remained. Orderly arrangements of columns, pilasters and lintels, as well as the use of semicircular arches, hemispherical domes, niches and aedicules replaced the more complex proportional systems and irregular profiles of medieval buildings)

renessans me'morligi uslubini yaratdilar. Devor sathi tekisligining yaxlitligiga e'tibor kuchaydi, me'morlik mujassamotining chiziqli ritmi va mutanosibligiga, xonaning kengligiga, uning yaxlit va ko'r kamligiga ahamiyat berila boshlandi; turar joy va ibodatxonalar qurilishi ham yangilandi. Shaharning ijtimoiy ma'muriy markazi tarhi va tuzilishi bilan boglik bo'lgan yangi tipi paydo bo'ldi. Florensiyada shakllangan yuksak Uygonish davrining mumtoz uslubi Rimada, keyinroq Venetsiyada monumental yodgorliklar (monumental san'at) yaratilishiga sabab bo'ldi. Yirik me'moriy ansamblar vujudga keldi, «ideal» shaharlarning loyihalari yaratildi. Uyg'onish davri arxitekturasi va san'ati o'z harakatini Italiyada to'liq namoyon etib, qator taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

1. Uyg'onish arafasi davri – protorenessans (XIII – XIV asrlar).
2. Ilk uyg'onish davri – kvatrachento (XV asr). Uyg'onish davri haqidagi adabiyotlarda asrlarning italyancha atamasи: XIII asr – duchento, XIV asr – trachento, XV asr – kvatrachento, XVI asr – chinkvachento ishlatalidi.
3. Yuqori uyg'onish davri (XV asrning 90 yillari – XVI asrning 20-30 yillari).
4. So'nggi uyg'onish davri (XVI asrning ikkinchi yarmi). Uyg'onish davri taraqqiyoti hamma mamlakatlarda bir xil bo'lmaydi. Masalan, Germaniyada so'nggi uyg'onish davri, Niderlandiyada esa yuqori uyg'onish davri taraqqiyotini boshidan kechirmagan. Uyg'onish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim bosqich edi. Bu insoniyat shu davrgacha o'z boshidan kechirgan hamma o'zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o'zgarish edi.

XIV asrning oxiridan boshlab Florensiya Italiyadagi siyosiy va madaniy markazlardan biriga aylana boshladи va butun Italiya badiiy madaniyati hamda san'atning keng ko'lamma qayta yangilanishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. XV asrda Florensiyada yashab ijod etgan buyuk san'atkorlar Mazachcho, Donatello, Brunellesko va ularning izdoshlari o'z ijodlarida uyg'onish davri san'ati prinsiplarini namoyon etdilar. Bu san'atkorlarning asarlari gumanizm g'oyalari bilan sug'o-nig'an bo'lib, ular o'z asarlari markaziga inson obrazini qo'ydilar. Ilk uyg'onish davri san'atkorlari protorenessans san'ati yutuqlarini davom ettirgan holda, uni ilmiy jihatdan boyitdilar, realistik san'atning yangi qirralarini ochdilar. Ilk uyg'onish davrida antik san'atga qiziqish yana-da ortdi. Hayotni chuqur o'rganish asosida san'atkorlar fikr doirasini

yanada kengaytirdilar. Bu davrda ulkan binolar, g‘oyat katta gumbazli va qator ustunli sobor, saroy va ibodatxonalar qurildi. Florensiyalik me’morlar antik me’morlik an’analari hamda order sistemasidan unumli foydalandilar va bu an’analarni o’rtalashtirib, renessans me’morligi uslubini yaratdilar. Bu uslub rivojiga gotika hamda Vizantiya me’morligi uslubi ham samarali ta’sir qildi.

XIV asr oxiri XV asr boshlari Italiya me’morligida paydo bo‘lgan yangi tendensiyalar davrining buyuk me’mori Filippo Brunellesko (1377-1446) ijodida o‘z ifodasini topdi. Brunellesko Florensiyada notarius oilasida dunyoga keldi, shu yerda gumanitar fanlardan chuqur bilim oldi, lekin uning san’atga bo‘lgan qiziqishi dastlab zargarlik asoslarini egallahsga, so‘ng badiiy ijodiyotning boshqa turlarini ham qiziqish bilan o‘rganishga da’vat etdi. U 1401-yili Florensiyadagi baptisteriya bronza eshiklari uchun konkursga qatnashib, relyef ishlaydi va hay’at a’zolarining olqishiga sazovor bo‘ldi. Uning relyefi yaxshi baholandi, lekin amalda konkurs qatnashchisi Lorenzo Gibertining ishi qabul qilindi. Shundan keyin Brunellesko o‘z faoliyatini me’mor-chilikka bag‘ishladi. U me’morlar asosida birinchi bo‘lib katta gumbazli bino qurish muammosini hal qildi. Uning ilk asari Florensiyadagi Mariya del Fiore sobori tepasiga ishlangan diametri 42 m bo‘lgan 8 qirrali gumbaz bo‘ldi<sup>400</sup>. Brunellesko karkas uslubidan foydalaniib, o’sha davrda eng katta bo‘lgan gumbazni qurishga erishdi. Soborning ulug‘vor aniq ko‘rinishini ifodalagan bu gumbazning qirralari, eng tepasiga o‘rnatilgan me’morlik bezagi binoga alohida salobat va fayz baxsh etib, o‘zida uyg‘onish davri madaniyatining xarakterli tomonini aks ettirdi hamda inson aql-zakovati tantanasining xaykali sifatida namoyon bo‘ldi. Davrning gumanistik intilishlarini ko‘z-ko‘z qiladi. Bu gumbaz Italiya va Yevropa me’morligi taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Muhim asarlaridan yana biri Florensiyadagi 1419-yilda qurila boshlagan tarbiya uyi binosidir.

<sup>400</sup> The World History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009. P. 595(Онон Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО. 2009 kitobning rus tilidagi talqinidan foydalilanigan)(The Cattedrale di Santa Maria del Fiore (Italian pronunciation: [skatte’ dra:le di ‘santa ma’ria del ‘fio:re]; in English "Cathedral of Saint Mary of the Flowers") is the main church of Florence, Italy. Il Duomo di Firenze, as it is ordinarily called, was begun in 1296 in the Gothic style with the design of Arnolfo di Cambio and completed structurally in 1436 with the dome engineered by Filippo Brunelleschi. The exterior of the basilica is faced with polychrome marble panels in various shades of green and pink bordered by white and has an elaborate 19th-century Gothic Revival facade by Emilio De Fabris. The cathedral complex, located in Piazza del Duomo, includes the Baptistry and Giotto's Campanile. The basilica is one of Italy's largest churches, and until development of new structural materials in the modern era, the dome was the largest in the world. It remains the largest brick dome ever constructed. The cathedral is the mother church of the Roman Catholic Archdiocese of Florence, whose archbishop is currently Giuseppe Betori.)

Uyg'onish davri me'morchiligining yuksalgan davri Ilk uyg'onish davri o'zining umrini tugatib, yuqori uyg'onish davriga asos yarata boshladi. Bu davr Florensiyaning hukmdori «Ajoyib-g'aroyib Lorenso» deb nom chiqargan Lorenzo Medichi qo'zg'olon va noroziliklarni qattiqqa'llik bilan bostirib, o'z hukmronligini saqlab qoldi. U o'z davlatini tinch va osoyishta ko'rsatish maqsadida mashhur san'atkorlarni to'pladi, ularning ijodidan o'z davlatining obro'sini oshirishda foydalandi. Lekin bu davrda tashqi tomonidan farovon va osoyishta ko'ringan Florensiyada pessimist, ertangi kunga umidsizlik bilan qarash kayfiyati hukm surar edi. XV asrning ikkinchi yarmida Venetsiyada ham uyg'onish san'ati prinsiplari rivojlana boshladi. Italiya ilk uyg'onish davrining yuqori uyg'onish davriga o'tish chegarasini belgiladi. Vizantiya G'arbiy Yevropa davlatlari bilan yaqin aloqada bo'lgan boy savdogarlar respublikasi bo'lgan Venetsiya san'atkorlari Sharqning boy, serjilo va erkin san'ati hamda gotika an'analarini o'zlashtirgan holda, o'ziga xos jozibador san'at maktabini yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Venetsiyaning yuqori uyg'onish davri san'ati o'z prinsiplarini shakllantirishda keyingi Venetsiyaning buyuk koloristlari uchun zamin yaratdi. Yuqori uyg'onish davri nisbatan qisqa, ya'ni XV asrning 90-yillaridan XVI asrning 30-yillariga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Lekin mazmunan bu davr juda ulug' va Italiya san'ati taraqqiyotining «Oltin asri» hisoblanadi.

Shu davrda yashab ijod etgan buyuk titanlar Leonardo da Vinci, Rafael Santi, Mikelanjelo, Titsianlar har tomonlama o'tkir va bilimdonliklari bilan ham o'z davrlarining ideal kishilari timsoliga aylandilar.

Yuqori uyg'onish davri me'morligining asosiy prinsiplari Rimda shakllandi va rivojlandi. Leonardo da Vinci (1452–1529) notarius oilasida dunyoga keldi. Leonardo 17 yoshlik vaqtida otasi Florensiyaga ko'chib o'tadi. Shu yerda Leonardo Andrea o'z ustozи Verokkioga yordamlashib, uning «Isoni cho'qintirish» asarining chap tomonidagi farishta rasmini ishlaydi va ustozidan ham mohirligini ko'rsatadi. Yuqori uyg'onish davri uslubining asoschisi va tipik vakili Leonardo da Vinci san'atning ko'pgina turlarida o'z kuchini sinab ko'rди, matematika, mexanika, fizika sohasida ilg'or fikrlarni ilgari surdi. Leonardo uchun san'at hayotni bilish bo'ldi. Leonardo Milanda yashagan kezlari 1482–1499-yillari u o'zini olim, rassom, injener sifatida namoyon etish imkoniyatiga erishdi. Me'mor sifatida Leonardo Milanda bir qator surat va proyektlar ishladi.

«G‘ordagi madonna» (1483-1499), «Sirli oqshom» (1495-1497) kabi mashhur asarlarini yaratdi. Milandagi Santa-Mariya de la Gratsiya monastiri uchun ishlangan mashhur «Sirli oqshom» devoriy surati Leonardo da Vinchini novator rassom darajasiga ko‘tardi. U Injildan olingan an‘anaviy syujetni erkin va asosan, obrazlarning his-tuyg‘u va kechinmalarini ishonarli talqin etish hisobiga ochadi.

Leonardo da Vinci umrining oxirida ilm, kuzatish va ularni sistemalashtirish ustida ish olib bordi. Uning chiziq, rang, perspektiva, rangshunoslik haqida yozib qoldirgan fikrlari hanuzgacha o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

Rafael Santi (1483-1520) Uyg‘onish davrining titanlaridan biri bo‘lib, bu davr Rafael Santi ijodida o‘zining tugal talqinini topdi. XVI asr boshlariga kelib, Rim Italiyaning muhim siyosiy va madaniy markaziga aylandi. Uning mavqeini orttirish maqsadida Rim papalari yetuk san‘atkorlarni shaharga taklif eta boshladilar. Shu davrda Mikelanjelo, Bramantelar qatori Rafael ham papalar diqqatini o‘ziga tortdi va 1508-yili ularning taklifiga binoan Rimga keldi. Shu paytdan Rafael ijodining eng gullagan davri boshlandi, shu yerda u o‘zining eng yetuk asarlarini yaratdi. Dastlab unga Vatikandagi papalar shaxsiy xonalarining devorlarini bezash ishlari topshirildi. Rafael bu suratlar ustida 1511-yilgacha mehnat qilib, uni muvaffaqiyatli bajardi. Bundan xursand bo‘lgan papalar unga yana xonalarni bezash va ularga devoriy suratlar ishlashni davom ettirishni topshirishdi. Rafael me’mor sifatida ham ijod qildi. U Bramante vafotidan keyin Avliyo Pyotr soborini qurish ishlariga rahbarlik qildi, villa hamda cherkovlar uchun karton va chizmalar ishladi, qalamda suratlar chizdi. Rafael 37 yoshida vafot etdi<sup>401</sup>.

Mikelanjelo Buonarotti (1475-1564) 1475-yili 6-martda Florensiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga keldi, 13 yoshida u Florensiyalik Domeniko Girlyandayo ustaxonasiga o‘qishga kirdi. Uni Medichilar saroyi qoshidagi badiiy maktabga o‘qishga qabul qilishdi. Bu yerda u o‘z bilim va mahoratini oshirdi.

<sup>401</sup> The World History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009. P.596(Оюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО. 2009 kitobning rus tilidagi talqinidan foydalananligan)(The Papal Basilica of St. Peter in the Vatican, or simply St. Peter's Basilica[Latin: *Basilica Sancti Petri*; Italian: *Basilica Papale di San Pietro in Vaticano*], is an Italian Renaissance church in Vatican City, the papal enclave within the city of Rome. Designed principally by Donato Bramante, Michelangelo, Carlo Maderno and Gian Lorenzo Bernini. St. Peter's is the most renowned work of Renaissance architecture and one of the largest churches in the world. While it is neither the mother church of the Catholic Church nor the cathedral of the Diocese of Rome, St. Peter's is regarded as one of the holiest Catholic shrines. It has been described as "holding a unique position in the Christian world and as "the greatest of all churches of Christendom")

Mikelanjeloning yirik me'morlik asarlari – Florensiyadagi San Lorenzo cherkoviga qo'shimcha qilib qurilgan Medichilar kapellasi, unga ishlangan qabr toshi va xaykallardir. Kapellaning uncha katta bo'limgan kvadrat shaklidagi xonasining oq devorlari to'q kul rang bo'lib, marmardan ishlangan pilyastrlar bilan ajratilgan. Ijodkorning me'morlik iste'dodi Rimda bir muncha rivojlandi. Bu yerda u Avliyo Pyotr soborini qurishda shahar ansambllarini rekonstruksiyasida qatnashdi.

XV asr o'rtalarida Venetsiya yuqori uyg'onish davriga qadam qo'ydi. Konstantinopolni turklar tomonidan bosib olinishi Italiya shaharlarida avvalgi savdo-sotiq ishlarining kamayishiga olib keldi. Lekin o'z qo'lida juda ko'p boylik to'plab olishga ulgurgan Venetsiya aristokratiyasi uzoq vaqt o'z mustaqilligini saqlab qola olish imkoniyatiga tuyassar bo'ldi. San'at va madaniyatda yuqori uyg'onish davri prinsiplari o'z ifodasini topdi. Bu yerda yetuk me'mor, xaykaltarosh hamda rassomlar ijod qilib, Italiya obro'sini dunyoga tarqatdilar.

XVI asr o'rtalarida mamlakatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan zaiflashishi so'nggi uyg'onish davri me'morligida ham o'z ifodasini topdi. Palatsso villasi qurilishi sohasida ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Bir qator ilmiy asarlar yaratildi. XVI asr o'rtalaridan boshlab Italiya shaharlarida paydo bo'la boshlagan maxsus o'quv yurtlari, akademiyalarning paydo bo'lishi va ularda me'morlikka oid ta'limlarning o'tilishi muhim voqeа bo'ldi. Bularning hammasi keyingi Yevropa me'morligi taraqqiyotida o'zining ta'sirini ko'rsatdi.

Andrea Palladio (1518-1580) ham so'nggi uyg'onish davri yirik me'mori va nazariyotchisi hisoblanadi. Uning 1571-yilda nashr etilgan «Me'morlik to'g'risida 4 risola» kitobida antik me'morlik va order sistemasi haqida to'xtalib, ularni o'zgartirib bo'lmaydi deb hisoblaydi<sup>402</sup>. U o'z idealini antik me'morlikda ko'rdi va shu idealni o'z ijodida qaytarishga harakat qildi. Me'mor bino uchun yaxlit klassik

<sup>402</sup> The World History of Architecture. Auguste Choisy. London. 2009. P.597(Огюст Шуази. Всеобщая история архитектуры. ООО Издательство ЭКСМО. 2009 kitobning rus tilidagi talqinidan foydalananligan)(Первый опыт в архитектуре получил в родном городе, с 1521 года став учеником резчика по камню в мастерской скульптора Берточчо Каваци из Соссано, печально известной скверными условиями работы. Дважды пытался оттуда сбежать — вторая попытка, в 1524 году, была удачной, и Палладио перебрался в Виченцу. В Виченце Палладио начал работать в камнерезной и скульптурной мастерской Сан-Бьяджо в квартале Педемуро, считавшейся ведущим предприятием подобного рода. Её владельцы, Джованни ди Джакомо из Поррецци и Джироламо Питтони из Луминьяно, были знаменитыми в Виченце скульпторами. Андреа делал работу, обычно поручаемую подмастерьям: капители, рельефы, фризы. По протекции ди Джакомо была принят в гильдию каменщиков)

normadagi shakklardan qat'iy simmetriyadan foydalangan holda ulardan dekorativ effekt topadi. U feodal saroylarni shahar uylariga aylantiradi. Uning qurgan binolari shahar ansamblining ajralmas elementiga, ko'chalarning ajralmas qismiga aylandi.

**Dojlar (rahbar) saroyi.** Saroy Venetsianing Italiya gotika arxitekturasi buyuk yodgorligi bo'lib, shaharning sayyoohlarni etiboridagi maskandir. U Avliyo Mark maydonida shu nomdag'i ibodatxonalar yonida joylashgan. Dojlar (rahbar) qasri IX asrda qad ko'targan bo'lishiga karamay, uning hozirgi ko'rinishi taxminan 1309 – 1424-yillarda arxitektor Filippo Kalendario boshchiligidagi qurilgan. Qasrning bir qismi 1577-yildagi yong'inda yo'q bo'lib ketgan, uning qayta qurilishini Rialto ko'prigi arxitektori Antonio de Ponti amalgalashigan. Venetsianing bu bosh binosi respublika dojlari (yetakchi) ning rezidensiyasi bo'lgan. Saroyda Katta Kengash, Oliy sud va maxfiy politsiya faoliyat olib borgan, shuningdek, saroyning birinchi qavatida yuristlar idorasи, devonxona, senzurachilar va dengiz idoralari joylashgan. Qasrning balkoni tantanalar minbari vazifasini o'tagan, undan doj, yani yetakchi halqqa ko'rinish bergan. Ajablanarlisi Pyatsetti maydoni tomonidan qayiqlarda kelgan mehmonlar shu yo'sinda Respublika rahbari idorasidan yaqqol ko'ringan. Aytish mumkinki, Avliyo Mark ibodatxonasi, San-Marko kutubxonasi va boshqa binolar bilan birgalikda dojlar saroyi shaharning bosh arxitektura ansamblini tashkil qilgan. Saroyning bunday nomlanishiga sabab u Venetsiya Respublikasi boshligi, dojlarning rezidensiyasi bo'lganligidir. Avliyo Mark ibodatxonasi singari dojlar saroyi ham asrlar davomida kurilgan, qayta ta'mirlangan va bezatilgan. Saroyning 810-yilda qurilgan birinchi binosi hamma tomonidan suv bilan o'ralgan qala devorlari va minoralaridan iborat bo'lgan. 976-yili ayonlarning bir qismi va oddiy halq o'sha paytdagi respublika rahbari P. Kandiani IVra qarshi qo'zg'olon ko'targan va uning rezidensiyasini yoqib yuborgan. Saroyning o'rniga venetsiyaliklar yangi qala qurishgan, lekin u ham 1106-yili yonib ketgan. XII asrda venetsiyalik ustalar yangi saroy barpo etishgan, bu vaqtga kelib saroyni qala sifatida qurishga ehtiyoj bo'limgan. XII asrda Venetsiyada o'rtalas Yevropasiga xos bo'lgan mustahkam saroy va qala devorlari qurilishi to'xtagan, shaharda dengiz himoya vazifasini o'taganligi sabab kala vazifasini endilikda respublikaning kuchli dengiz floti bajargan. Shuning uchun bu vaqtga kelib qala devorlari va minoralar qurilmagan, saqlanib qolgan xandak

va chuqurlar ko‘mib tashlangan. Saroyning hozirgi binosi taxminan 1301 – 1424-yillarda arxitektorlar Filippo Kalendario, Pyetro Bazeyo va usta Enriko tomonidan qurilgan. 1400-1404-yillar saroyning ko‘rfazga qaragan qismi, 1424-yilda Avliyo Mark maydoniga qaragan fasadi qurilishi yakunlangan. Qurilishini tugallashga Florensiya va lombardiyalik ustalar ham jalg qilingan bo‘lishiga qaramay binoning katta qismining gotika uslubidagi bezaklarini venetsiyalik marmarga ishlov beruvchi mutaxassis ustalarga oilasiga mansub bo‘lgan Boni oilasi azolari bajarishgan. Saroy 1577-yil 20-sentyabrdagi yong‘inda katta talofat ko‘rgan. Saroyni qayta ta’mirlash jarayonida o‘sha davrning zamonaviy bezaklaridan foydalanilmay, o‘zining avvalgi ko‘rinishi, yani gotika uslubida qayta tiklashgan. O‘sha davrda saroy rahbarlar rezidensiyasi vazifasini o‘tashi bilan birga unda Respublikaning siyosiy kuchlarining idoralari ham joylashgan. Bu holat shahar Napaleon armiyasi tomonidan bosib olinguncha davom etgan. Hozirda saroy muzeysiga aylantirilgan. Arxitekturaning barcha qonunlariga qasdma-qasd Rahbarlar saroyining yuqori massiv qismi yengil, nafis arkalardan iboratdek ko‘rinadi. Bino poydevorini tepaga yoki pastga aylantirib qaragandagi ko‘rinishi bir qarashda uning fasad tuzilishi hech qanaqangi mantiqqa to‘g‘ri kelmaydigandek ko‘rinadi, yani pastga qaragan ikkita kuchsiz tayanch lenta va balandga o‘rlagan devordan iboratga o‘xshaydi. 1577-yilgi yongin saroyning bir qismini shikastlagan. Yongindan keyin Rialto ko‘prigi arxitektori Antonio de Ponti binoni ilk ko‘rinishini qayta tiklaydi.

Bir qarashda saroy fasadida qo‘llanilgan arxitektura uslubi bir-biri bilan mantiqsiz, kutilmaganda yoki tasodifiy bog‘langanga o‘xshaydigandek taassurot uyg‘otadi. Sinchiklab nazar tashlansa saroy judayam jozibador, g‘aroyib, yorug, quvonch va hayotga boy, badiiy boyitilgan, oxir oqibat chuqur bilim bilan qurilganligi ko‘zga tashlanadi. Saroy birinchi qavatining ochiq ark galereyalari qurilishi badiiy injiqlik emas, balki janub quyoshidan saqlaydigan g‘aroyib to‘sqliar ekanligi ko‘zga tashlanadi. Bu yer har qanday kishi uchun yoqimli dam oladigan maskan bo‘lishi bilan birga dunyo arxitekturasining eng go‘zal hamda tabiat peyzajining go‘zalligidan bahramand bo‘ladigan joydir. Ikkinchisi qavat galereyasini bu hashamador balkonlar bo‘lib, ular asosiy xonalarga janub va g‘arb tomonlardan soya berib turadi. Dojlar saroyining nafis galereyalar uyg‘unligi va silliq devorlari binoning fasadini yanada boyitib ko‘rsatishi bilan birga, uning jozibador tuzilishi, baland tashqi

ko'rinish Pyatsetta arxitektura ansambl va Venetsiya ko'rfazi kengliklarini yanada mahobatlari ko'rsatadi. Saroy fasadining oxirgi ko'rinishi XV asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida qayta qurilgan, shuningdek, uning oldindi ananaviy gotika uslubidagi ko'rinishi venetsiyaliklarning yangi urfga kirayotgan anchayin jozibador Renessans shakllariga intilishi natijasida o'zgarib bordi. Venetsiyaliklarning gotika uslubidan voz kechishining asosiy sababi, ularning arxitekturaning yumshoq aylana shakllari, marmarning xilma-xil navlarining betakror jilvalanishiga intilishidan kelib chiqkan. Shunga qaramay dojlar saroyining Psetti maydoniga qaragan qismi anchayin qayg'uli detallardan tuzilganga o'xshaydi. Binoning ikkinchi yarusdagi 9-chi va 10-ustunlar marmarning to'q kulrang va qizg'ish tuslardan ishlangan bo'lib, kishida ular orasida xuddi dahshatli jazo hukmi o'qilgandek taassurot o'yg'otadi. Saroyning markaziy fasadi balkonlari Sansovino o'quvchilari tomonidan 1536-yilda qurilgan. Balkonda yoysimon deraza va Venetsiya timsoli oldidagi doj (rahbar) Andrea Grittining xaykali o'rnatilgan. Shuningdek, balkon ustida xaykaltarosh Allessandro Vittoria tomonidan Adolatli sud xaykali (yodgorligi) qad roslagan. Aynan mana shu balkondan 1865-yili Venetsiya va Italiya qirolligining birlashganligi elon qilingandi. Avliyo Mark maydoniga qaragan bino fasadining chap qismidan «Porta della Karta», ya'ni «Qog'oz eshik» nomli dojlar saroyi hovlisiga yo'l ochiladi. Bu saroy Jovanni va Bartolomeo Bon tomonidan barpo etilgan. Saroyning yoysimon arkalari ustki qismi gotika uslubidagi dekoratsiya elementlari bilan bezatilgan, past qismida doj Franchesko Foskari xaykali oldida Venetsiya timsoli bo'lgan qanotli sher xaykali o'rnatilgan. Arkaning ustki qismida esa Adolat sudi xaykali o'rnatilgan.

Saroyning «Qogoz eshik» deb nomlanishini olimlar ikki xilda talqin kilishadi. Birinchi talqin bu uncha uzoqda joylashmagan arxiv hujjatlar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi variant bu yerda qachonlardir hattotlar (mirzalar) o'tirishgan bo'lib, ular halqqa shikoyatlar, arizalar va boshqa hujjatlarni yozishda yordamlashgan. «Qog'oz eshik» orkali Foskari arkalari galereyasiga, undan esa ikki qavatli marmar arkalar bilan o'ralgan va 8ta qadimgi grek haykaltaroshlari uslubida ishlangan haykallar bilan bezatilgan Dojlar saroyining hovlisiga o'tish mumkin. Bu yerda kishining diqqatini asosan general M. della Roveri, yani gersog Urbinskiy sharafiga o'rnatilgan haykal kishi diqqatini o'ziga tortadi (xaykaltarosh D. Bandini yasagan). Hovlining o'rtasida

hozirgacha saqlanib qołgan ikkita bronzadan yasalgan suv saqlashga mo'ijallangan quduq - hovuzga duch kelinadi. Ularga Venetsianing turli joylaridan eng yaxshi va mazali suvlar keltirilgan. Ko'plab suv sotuvchilar ularni har kuni yangi suv bilan to'ldirishgan, keyinchalik esa shu yerdan o'zlarining muzday va mazali suvlarini Venetsiya shahrining uzoq dahalarigacha yetkazib berishgan. Binoning sharqiy qismiga qaragan fasadiga XV asr oxirlarida Antonio Ritsso ishlov bergen bo'lsa, uning janubiy va sharqiy tomonlari XVII asrda Bartalameo Monopole tomonidan ishlab chikarilgan qizil g'ishtlardan qurilgan. Foskari galereyasining shimoliy qismi fasadi ustida soat millari o'rnatilgan. Bu fasadda ikki qavatli arkalar joylashgan. Ular yarim aylana va yoysimon shakldagi peshayvonlardan iborat. Arkalar galereyasida restavratsiya qilingan qadimgi haykallar ko'zga tashlanadi. Bu fasadga ham Monopole tomonidan ishlov berilgan. Hovlining o'ng tomondagi baland supaga 1587-yili xaykaltarosh Jovanni Bandini tomonidan ishlangan urbinskiy gersogi Franchesko Mariya della Rovere haykali o'rnatilgan. Hovlining ichki tomonidan karrar marmardan ishlangan «Ulkan kishilar zinapoyasi» orqali saroya kirib boriladi. 1554-yili zinapoyaning ustki maydonida haykaltarosh Yakopo Sansovining Venetsianing ma'joziy ma'nodagi harbiy va dengiz himoya-chilarii hisoblangan Mars va Neptun sharafiga ulkan marmardan ishlangan xaykallar o'rnatilgan. Shu sababli zinapoya hozirgi nomiga ega bo'lган. Bu yerda Venetsiya Respublikasining barcha tantanali marosimlari o'tkazilgan. Ularning eng asosiyлари qatoriga dojning yani rahbarning nikoh yoki toj kiyish marosimlarini qo'shish mumkin. Bu marosimda zinapoya ulkan taxtga aylangan. Kengashning eng yoshi ulug azosi yangi rahbarga, yani doj boshiga kimmataaho bosh kiyimini (toj) kiyigizgan - bu dojlar hokimiyatining timsoli hisoblangan. Zinapoya orqali saroy ikkinchi qavatning yopiq galereyasiga chiqilgan. Galereya bo'ylab va saroyning ichki qismida sherlarning ogzi katta ochilgan xaykallari joylashtirilgan. Ularning katta ochiq og'ziga o'sha paytda ish olib borgan har xil maxfiy idoralarning chaquv xatlari va shunga o'xshash boshqa nomalar qo'yib ketilgan. Saroyning tantanalar zallariga «Oltin zinapoya» orqali borilgan. Zinapoya Yakopo Sansovino tomonidan loyihalangan va boshlangan, u 1559-yili Skarpanino tomonidan tugallangan<sup>403</sup>. Mazkur oltin suvi bilan ishlangan

<sup>403</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin, A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture. COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P.151 (The Doge's Palace (Italian: Palazzo Ducale) is

zinapoyalar o'sha davda asosan hurmatli mehnimonlar va katta amal-dorlarga mo'ljallangan. Keyinchalik ularning nomi «Oltin kitob»ga yozib qo'yilgan. Bu kitob Venetsiyada 1315-yildan yuritilgan bo'lib, unga 200ga yaqin oila azolarining nomlari kiritilgan. Keyinchalik kitobga nomlari kiritilgan shaxslar Venetsiya Respublikasi tugatilgunga qadar davlatning etiborga molik vamuhim lavozimlarini egallashlari mumkin bo'lgan. «Oltin kitob» Respublikaning 1180-yilgi rahbari Sebastyano Dzianni tomonidan «Oltin zinapoya»ning tagida qurilgan maxsus xonada saqlangan. «Oltin zinapoya» orqali Katta Kengash zaliga chiqilgan. Bu zal o'sha davrda nafaqat Venetsiyada balki butun Italiyaning eng katta zali bo'lgan. Uning uzunligi 54 metr, eni 25 metr, balandligi esa 15 metr bo'lgan. Katta Kengash zali saroyning butun janubiy qismini egallagan. Zal Titsian, Veroneze, Tintoretto va boshqa buyuk rassomlarning noyob asarlari bilan bezatilgan, biroq ular 1577-yilgi yonginda yo'q bo'lib ketgan. Keyinchalik zal Antonio de Pontining loyihasi asosida qayta tamirlangan. Katta Kengash zalining sharkiy devori oldidagi supada Rahbar taxti va kengashning 6 azosining yumshoq o'rindiqlari (kreslo) o'matilgan. Ularning ortidagi devorning butun qismini 1590-yilda Yakopo Tintoretto va uning o'gli Domeniko tomonidan chizilgan dunyodagi eng kata rasmlardan biri «Ray» ya'ni «Jannat» rasmi bezab turgan. Shiftdan Paola Veroneze tomonidan chizilgan «Venetsiyaning g'alabasi» nomli rasmi o'rin olgan. Zalning derazalaridan keng o'tloqlar ko'zga tashlanadi. Shuningdek, zalning ulkan tekis potoloklari oltin suvi yuritilgan ko'plab noyob rasmlar bilan bezatilgan. Katta Kengashzali orqali «Saylovlar zali»ga yoki «Taqdirlar zali» o'tiladi. Zalning bunday nomlanishiga sabab Respublika davrida amaldor shaxslar omma oldida kengashga o'z nomzodlarini qo'yishgan

---

a palace built in Venetian Gothic style, and one of the main landmarks of the city of Venice in northern Italy. The palace was the residence of the Doge of Venice, the suprem<sup>e</sup> authority of the former Republic of Venice, opening as a museum in 1923. Today, it is one of the 11 museums run by the Fondazione Musei Civici di Venezia. In 1438–1442, Giovanni Bon and Bartolomeo Bon built and adorned the Porta della Carta, which served as the ceremonial entrance to the building. The name of the gateway probably derives either from the fact that this was the area where public scribes set up their desks, or from the nearby location of the *caritabum*, the archives of state documents. Flanked by Gothic pinnacles, with two figures of the *Cardinal Virtues* per side, the gateway is crowned by a bust of St. Mark over which rises a statue of *Justice* with her traditional symbols of sword and scales. In the space above the cornice, there is a sculptural portrait of the Doge Francesco Foscari kneeling before the St. Mark's Lion. The north side of the courtyard is closed by the junction between the palace and St. Mark's Basilica, which used to be the Doge's chapel. At the center of the courtyard stand two well-heads dating from the mid-16th century. In 1485, the Great Council decided that a ceremonial staircase should be built within the courtyard. The design envisaged a straight axis with the rounded Foscari Arch, with alternate bands of Istrian stone and red Verona marble, linking the staircase to the Porta della Carta, and thus producing one single monumental approach from the Piazza into the heart of the building. Since 1567, the Giants' Staircase is guarded by Sangiovino's two colossal statues of *Mars* and *Neptune*, which represents Venice's power by land and by sea, and therefore the reason for its name. Members of the Senate gathered before government meetings in the Senator's Courtyard, to the right of the Giants' Staircase.

bo'lsa, ayrim paytlar ularni xuddi shu zalda omma oldida sud qilishgan. Shu joyning o'zida ularga nisbatan jazo qo'llanilgan, lekin hech kim zalga quroq bilan kiritilmagan. Potolokning ko'p qismiga tilla suvi yuritilgan ganch solingan, bundan tashqari, unga oval shaklida uchta katta rasm ishlangan. Shuningdek, potolokdagi ikkita kvadrat va o'n ikkita noto'gri uchburchaklar rassom Padovanino tomonidan ishlangan allegoriya syujetli rasmlar bilan bezatilgan.

«Kompas zali» binoning «O'nlik Kengashi» zalining oldingi kismida joylashgan. U bir vaqtning o'zida «inkvizitsiya» zali hisoblangan. Bu yerda hibsga olinganlar titrok va qo'rquv bilan o'zlariga chiqariladigan jazoni kutishgan. Shuningdek, zalda barchaga mashhur «Sher og'zi» haykali ham joylashgan bo'lib, unga xabarlar va chakuv xatlari tashlab ketilgan. Kompas zalining potologi uchta katta oval shaklidagi va o'n ikkita to'rtburchakli hovuzlardan iborat bo'lib, ular zalning burchaklarini to'ldirib turgan. Katta oval shakllarning biriga rassom Paolo Veroneze tomonidan «Triumf Venetsiya» rasmi ishlangan, unda Xudoning bulutlarda parvoz qilayotgan ko'rinishi, uning atrofida esa Shuhurat, Kuch va Boylikni ifoda etuvchi har xil shakllar tasvirlangan. Hozirgi kunda esa oval shakllarning biri bo'sh turibdi. Ilgari unda «Avliyo Mark - avliyolar orasida» rasmi joylashgan. 1797-yili bu rasm Parijga olib ketilgan va Luvr muzeyidan joy olgan. «O'nlik Kengashi» zalida tribunal ish olib borilgan va ular davlatga qarshi jinoyat sodir etgan siyosiy jinoyatchilar ustidan tergov olib borgan. Tribunalni Rahbar boshqargan uning tarkibiga Katta «Yomonliklarning chaqmoq bilan mahv etayotgan Zevs» rasmi joylashgan. Rasm 1797-yili Parijga olib ketilgan, hozirda rasm Luvr muzeyidan joy olgan. Hozirda rasmning o'mida Yakopo di Andreya tomonidan chizilgan nushasi o'rinni olgan. Bugungi kunda Unlik Kengashi zalida Venetsiya Respublikasini barcha davrlarda boshqargan rahbarlarining portretlari joylashtirilgan. Biroq, doj yani rahbar Marino Falyero portreti osilishi kerak bo'lgan joyda oval shakldagi bo'sh portret ramkasi osigilq turibdi, uning ostida shunday yozuvlar bor «Bu joy sotqinligi uchun qatl qilingan Marino Falyeroniki». Bulardan tashqari, zaldan maxsus yashirin zina orqali saroyning ustki qismida joylashgan «Qo'rgoshin pol», «Qo'rgoshin tomli», «Qo'rgoshinli» yoki sodda qilib aytganda «Pyombami» qamoqxonasiga o'tilgan. Zalning quyuq biridan-biriga o'tiladigan xonalar devorlarida g'aroyib san'at asarlari va go'zallik namunalari, rassomlarning o'zgacha fantaziyalari asosida

ishlangan rasmlar joy olgan. Shuncha ulug'vorlik bilan birga plafonlar ustidagi mis xonalarda asrlarning mungli ingrashlari eshitilib turgan. Tor koridorlar devorlarida hozir ham o'n yoshli bolakay engashsa bazo'r sig'adigan yo'laklar qorayib ko'rinish turadi. Qalin temir to'siqlar va panjaralar ancha ilgari olib tashlangan, lekin devorlarda yog'ochdan ishlangan, qamoqdagilarni zaxdan himoya qilishga mo'ljallangan taxta o'rinalarning kuygan joylari hozir ham ko'zga tashlanib turadi. «Skarlatti zali»da to'q qizil rangli halatlar(rido)ga o'rangan diniy amaldorlar yigilishib navbatdagi rasmiy tantanani o'tkazish uchun Rahbarni kutishgan. Juda hashamador ushbu zal Pyetro Lombardo boshchiligidagi ta'mirlangan va jihozlangan. Qimmatbaho yog'och potolok XVI asr boshlarida ishlangan. Nozik qilib ishlangan marmar kamin ustiga Rahbar (doj) Agostino Barbarigoning gerbi o'rnatilgan.

«Xaritalar zali» ning bunday nomlanishiga uning geografik xaritasi sabab bo'lgan. 1540 yili Jovanni Battista Ramusio tomonidan devorga chizilgan va keyinchalik, Franchesko Grisellini va Justino Menneskardi tomonidan 1762-yili qayta ta'mirlangan xarita devorga o'zgacha bezak berib turadi. Zalning markazida XVII asrda ishlangan ikkita katta globus joylashgan.

Zalda Rahbar, olti maslahatchi, oqsoqollar, O'nlik Kengashi boshlig'i va Oliy Kanslerdan iborat kollegiya yig'ilgan. Bu yerda Respublika hukumatining muhim qarorlari qabul qilingan. Zal 1574-yili Antonio Ponti tomonidan barpo etilgan. G'aroyib oltin suvi yuritilgan naqshinkor yog'och shiftlarga Francesko Bellotomonidan ishlov berilgan, bu o'z navbatida Veroneze ishlagan polotnoning allegoriyasini hisoblanadi. Ularning orasida «Venetsiya taxtda» polotnosti alohida ajralib turadi.

Bu zal ham Antonio de Ponte tomonidan qayta tamirlangan. Yog'och shiftdagi g'aroyib rasmlar Kristoforo Sorte tomonidan ishlangan. Zaldagi panno va rasmlar turli rassomlar, xususan Tintoretto tomonidan ishlangan.

Saroyning Qonunlar va Jinoyat ishlari boshqarmalari joylashgan zaldan koridor(yo'lak)ga o'tilgan. Yo'lak o'z navbatida saroy bo'ylab o'tgan kanalga qurilgan «Mungli ko'prik» orqali Antonio de Ponte tomonidan loyihalashtirilgan yangi qamoqhonaga olib borgan. Ko'prik orqali ikkita yo'lak o'tgan, yuqoridagi olib borsa, pastkisi rahbarlar saroyining birinchi qavatiga olib chikqan. Bu yerdagi «Qo'rg'oshin xonalar» yoki Pyombi qamoqxonasi eski qamoqhonalarga hamda

Potssi qamoqhonasiqa qarashli bo'lgan. Chunki saroyning qo'rgoshin tomlari kanalning suv sathi bilan teng qilib qurilgan. Ularda eng xavfli jinoyatchilar saqlangan. Potssi qamoqhonasining kameralariga taxta bilan ishlov berilgan.

Proporsiya va me'moriy unsurlar Italiya me'morchiligi bilan taqqoslaganda ancha o'zgargan. Antik shakllarni berishdagi ko'chir-makashlik holatlari XVI asr Niderlandiyaning boshqa binolarida ko'p uchraydi. Bundan shuni anglash mumkinki, Niderland me'morchiligi antik obrazlar bilan aloqada bo'limgan, ular faqat gravirovkalangan tasvirlar va amaliy san'atdagi tugallanmagan chizgilar bilan ma'lum bo'lgan.

Italiya, Fransiya, Niderlandiya me'morchiligi milliy o'ziga xos qurilishlardan darak beradi. Shu bilan birga me'morchilikda bir qator belgililar - bino qurilishining umum kompozitsion simmetriyasi, kavatlarda fasadlarning tyagalar bilan bo'linishi, antik me'moriy motivlarning ishlatalishi va asosiysi binolarda orderlarning qo'llanilishidir. Bu belgilarning barchasi Yevropa me'morchiligidagi bu davrlarda yagona uslub- Uyg'onish uslubini aniqlab beradi.

### Seminar savollari

1. Uyg'onish davri san'atiga ta'rif bering.
2. Uyg'onish davrining asosiy taraqqiyot bosqichlari qanday bo'lgan?
3. Uyg'onish davrida rivojlangan uslublar va qurilish konstruksiylarini aytib bering.
4. Shu davrga xos yirik me'morlar ijodi va ular tomonidan loyihalashtirilgan binolarni tahlil qilib bering.

### Glossary

**Qatlamli ustun** – Renessans davri arxitekturasida bezaklar va naqsh-larga boy bo'lgan ustun. Bu ustun boshdan oyoq bir tekis bo'lmaydi. Diametrik keng va tor bo'lgan toshlar navbatma-navbat o'rnataladi<sup>404</sup>.

**Yelizaveta davri me'morchiligi** – Angliyada gotik uslubdan uyg'onish davriga o'tishdagi me'morchilik. Qirolicha Yelizaveta

<sup>404</sup> M.Curi. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.43

sharafiga shunday nomlangan (1558-1603). Bu uslub binolari derazalarida panjarasimon bezaklar ko‘p bo‘lgan<sup>405</sup>.

**Renesans me’morchiligi** – XV asrda rivoj topib, XVI asrda butun Yevropaga tarqalgan. Undan oldin Gotik uslubi ustuvor bo‘lgan. Renesansdan keyin Barokko va klassitsizm paydo bo‘lgan. Uyg‘onish davri deganda Rim va Gretsiyada bir vaqtlan bo‘lganidek yana yuzaga chiqqan madaniy yuksalish nazarda tutilgan<sup>406</sup>.

**Uyg‘onishning Richard uslubi** – Genri Richard nomi bilan atalgan XIX asrdagi AQShning mashhur uslubi. Bino kalin bo‘lsa ham mustahkamlikka e’tibor berishgan<sup>407</sup>.

**Balkon** – Italiya uyg‘onish davri balkoni. U shahar markaziy binosining katta balkoni bo‘lib, qator va e’lonlar shu yerda halqqa ma’lum qilinib, nutq so‘zlashgan<sup>408</sup>.

**Ronbogen usuli** – Germaniyada XIX asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan usul. Unda roman va uyg‘onish davri unsurlari asosan aylana ravvoqli arkada-arklar ko‘p uchraydi<sup>409</sup>.

**Styuart me’morchiligi** – Angliyada so‘nggi uyg‘onish davri me’morchiligi. (1603-1688)<sup>410</sup>.

**Tempetto** – kichik ibodatxona. Ular ko‘pincha shahar tashqarisida, uyg‘onish davrida qurilgan<sup>411</sup>.

**Uchhurchak gumbaz** – Uyg‘onish davrida qurilgan bunday gumbaz tomida yaxlit o‘zi joylashmagan. U asosiy gumbaz atrofida chetki qismi sifatida qurilgan<sup>412</sup>.

### Foydalanimadigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003.

<sup>405</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.119

<sup>406</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.450

<sup>407</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.458

<sup>408</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.458

<sup>409</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.474

<sup>410</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.512

<sup>411</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.523

<sup>412</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.551

3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me'morchilik asoslari. Darslik. – T.: «O'qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me'mor olami. O'quv qo'llanma. – T.: «O'qituvchi»,1998.

### **Qe'shimcha adabiyotlar**

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O'qituvchi», 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В.Очерки истории архитектурных стилей. М, 2001.
4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Килпе Т.Л Основы архитектуры.- М.; Высшая школа, 1999.
6. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.; Высшая школа, 1998.
7. Сербинович П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.; Высшая школа, 2000.

### **BAROKKO VA ROKKOKO USLUBI ME'MORCHILIGI**

**Reja:**

1. Barokkoning uslubiy jihatlari
2. Shaharsozlik me'morchiligidagi yangiliklar
3. Barokko davrining asosiy xususiyatlari va qurilish texnikasi
4. F.Borromini, K.Moderna, L.Bernini ijodi

XVII asr XIX asrning birinchi choragida Yevropa mamlakatlarida uch asosiy uslub yuzaga keldi. Ular Renessans, Borokko, klassitsizm uslublaridir. Bizga ma'lumki uygonish arxitekturasi XVI asrдан XVII asrning birinchi yarmigacha g'arbiy Yevropa mamlakatlarining

kuttagina qismini qamrab oldi, yani o‘rtas asr me’morchilik an’analari usosida rivojlandi va o‘ziga xos milliy uslub yuzaga keltirdi. Shu bilan bir qatorda bu vaqtida Italiyada yangi g‘oya Rim maktabi asosida XVII nsr Barokko uslubi rivojlandi. Barokko so‘zining etimologiyasi aniq emas. Dastlabki tushuncha mantiqan normadan aniqlik va to‘grilikdan chetga chiqish ma’nolarini anglatadi. Bizga ma’lumki XVI asr o‘rtalarida iqtisodiy va siyosiy krizislardan jarayonida Rim papasining obro‘sisi ortib brogan va natijada bu davr katolik cherkovi oldingi qatordan o‘rin oldi. Shu tufayli bu davrda paydo bo‘lgan barokko uslubi mafkuraviy kurashning quroli sifatida xizmat qilgan. XVII asrning I yarmi XVIII asrda Yevropa arxitekturasi barokko usulida rivojlandi<sup>413</sup>. Yevropa davlatlaridan Italiya, Fransiyada iqtisodiy va siyosiy munosabatlardan arxitekturaning stilistik o‘zgarishga qisman sabab bo‘ldi. Barokkoning asosiy belgisi: buklangan, murakkab shakllar, fasad qurilmalari, binoning ichki va tashqi tomonidan bezakdor dekoratsiya motivlari bilan ishlangan, yuqori-emotsional arxitektura effekti berib ishlangan dinamik arxitektura shakllaridan iboratdir. Ko‘pgina cherkov fasadlari ko‘p hollarda ichki va tashqi qurilishlari o‘zaro to‘g‘ri kelmasdi. Italian va rim cherkovlari mahobatli gumbazlari bilan ajralib turardi. Barokko inshoati o‘zining ulug‘vor me’moriy ko‘rinishi, chiroyli xaykaltaroshlik bezakdorligi bilan ajralib turadi. Renessans arxitekturasida devor va shiftlardagi plafonlar unga ko‘rk berib boyitib turadi. Xaykaltaroshlikda ham shunday o‘rin egallaydi. Qo‘ylgan plafon kompozitsiyalari go‘yo shiftni fazoviy bo‘shlig‘ini ta’minlaganday tuyulardi. Tomoshabin boshi tepasida ko‘m-ko‘k osmonni, rangli polixromli marmar, oq marmar, tilla rang bronza va boshqa yorqin rangdagi ko‘rinishlar ajoyib manzara kashf etardi. Barokko arxitektorlari tomoshabinni lol qoldirish bilan birga ko‘pqiraligi bilan ajralib turardi. Ayniqsa, bu uslub italyan arxitekturasida rivojlandi. Aniq, vazmindor, uyg‘unlashgan renessans uslubi me’morligi o‘rniga bezakdor, jimjimador ko‘rinishga ega

<sup>413</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P 159 (Baroque architecture is the building style of the Baroque era, begun in late 16th-century Italy, that took the Renaissance vocabulary of Renaissance architecture and used it in a new rhetorical and theatrical fashion, often to express the triumph of the Catholic Church and the absolutist state. It was characterized by new explorations of form, light and shadow, and dramatic intensity. Whereas the Renaissance drew on the wealth and power of the Italian courts and was a blend of secular and religious forces, the Baroque was, initially at least, directly linked to the Counter-Reformation, a movement within the Catholic Church to reform itself in response to the Protestant Reformation. Baroque architecture and its embellishments were on the one hand more accessible to the emotions and on the other hand, a visible statement of the wealth and power of the Church. The new style manifested itself in particular in the context of the new religious orders, like the Theatines and the Jesuits who aimed to improve popular piety.)

bo'lgan, Barokko uslubi yuzaga keldi. Barokko uslubi konspektiv aniqlikni, orderlar sitsemasining tektonikasini inkor etadi. Yani order sistemasi monumental dekorativ bezak sifatida haykaltaroshlik bino me'morligini bezash kerak holos degan g'oyani keltirib chiqardi. Italiya XVII-XVIII asrlarda boshqa Yevropa davlatlar qatorida ichki siyosiy va tashqi iqtisodiy ahvoli juda qiyin, mamlakatda me'morchilik sohasi og'ir ahvolda edi. Xarakterli qurilmalardan biri San Karlo cherkovi Rimda XVII asr o'rtasida qurilgan.

Me'mor Borromini avvalo, inshoatning bir-biriga funksional jihatdan to'g'ri kelmasligini ifodalaydi, ichki tomonda fasad, tashqi tomonda esa cherkov. Qurilma burchakda qad ko'targan bo'lib o'zining asosi bilan murakkablashgan, ikki tomondan deformatsiyaga uchrab, ajralish natijasida binoning ichki tomoni "bo'shliqqa" aylangan. Cherkovning asosiy fasadi ochiq "dekoratsiya" holatida bo'lib, devorlarga applikatsiyalar yopishtirilgan edi.

Italyan arxitekturasida barokko tez-tez qo'llaniladi. Undan tashqari kollonalar yon qismi bukilgan forma kashf etib, markaziy tomoni chiqib qolgan bo'lib katta oval shakli paydo bo'lgan. Kolonnalar o'rtasida dekorativ felenkalar, xaykalchalar, hamda oval shaklidagi oynalar mavjud. Umuman fasad chiroyli ulug'verlik va oddiylik kashf etgan. Ilk davr arxitektura kompozitsiyalari ko'rк berib turibdi. Fasad sxemasi barokko cherkovlari uchun Italiya, Fransiya, Ispaniya, Belgiya kabi davlatlar uchun xarakterli. Barokkoning vatani Italiya bo'lib, bu mamlakatda nafaqat uslub paydo bo'ldi, balki uning yorqin ifodasi nomoyon bo'ldi. Biz agar shu davr g'arbiy Yevropadagi me'morchilikni rivojlanish jarayoniga e'tibor bersak, injener qurilish fani shiddatli rivojlanganligini guvohi bo'lamiz. Yangi nazariy va amaliy mexanika qonuniyatlari asosida zamонавиј hisob-kitob yo'li bilan bu usuldagи binolar qurila boshladи. Texnikaviy taraqqiyotning omili fizika va matematika faning rivojlanishi bilan ham bogliq. Leybenets, Nyuton diffrensial va integral hisoblashning muhim qiziq holatlarini kashf etgan bo'lsa, Bernuli va Eymer tabiatning tabiiy muvozanati orqali binolarning tom yopmasi usullarini yuzaga chiqardilar, yani ularning "qiyshiq, qayishuvchanlik" asarlarida materiallar qarshiligi tom yopmasida bu usul qanday amalgalashishi lozimligini ochib berdilar. Shu va shunga o'xshash yangiliklar asosida yuzaga kelgan barokko uslubidagi jimjimador bezaklar, fasaddagi

to‘lqinsimon chiziqlar, usunlarning mukammaligi, muqaddas shahs-larning uylari va bino arxitekturasining hayajonli obrazlari faqat bitta maqsadga, g‘oyaga xizmat etishi kerak, ya’ni odamlarni hayratga solishi, ajablantirishi tomoshabinni o‘zini diniy, falsafiy ko‘rinishi bilan o‘yga solishi kerak edi. Bu kabi binolarni tahlil qiladigan bo‘lsak, me’morlik kompozitsiyalaridagi mutanosiblikni bir oz yo‘qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Garmonik chizgilar muvozanati yo‘qoldi. Markazlashgan simmetriya o‘zgardi. Aylana, elips, kvadrat kabi ritmik holat bino tektonikasindagi aniq va ravshan, vazmin ko‘rinishlarini inkor etdi. Bu uslubdagi dastlabki bino sifatida 1575 – yilda Rimda qurilgan “Il Jezu“ (Iesus ) cherkovini olish mumkin. Bu bino me’mori Vineola loyihasi asosida Jakomo de Porto tomonidan qurilgan<sup>414</sup>.

Cherkov ichki bo‘shligi bosh fasadga o‘xshamaydi. Bosh fasaddagi markaziy orderlar shaklini qo‘lash orqali yorug soya qarama – qarshiligi hosil qilinadi. Yon fasadlar bezaklardan biroz chetda qolgan, lekin shunga qaramay cherkov o‘zining tantanavor ko‘rinishiga ega. Barokkoning yorqin misoli sifatida 4 fantonli San Karlo cherkovini ham aytish mumkin. U 1538 – 1640-yillarda qurilgan. Bu bino yana bir me’mor Fransisko Borromini tomonidan amalga oshirilgan. Uning hashamatli, serjilva bosh plani fasadi kuchli egilgan, yani to‘lqinsimon yuzali bo‘lib, 2 yarusli orderlar o‘zining markazlashgan asosida o‘tkir ta’sirchanlikni hosil qiladi.

XVII asr Rimda birinchi bor uch nurli ko‘cha sistemasi vujudga keldi. Bu ko‘chalar Del Popolo maydonidan tarqalar edi. Rimga kirib keluvchi Flaminiya ko‘chasi shu uch Ripetta, Karso, del Babuino ko‘chalariga bo‘linadi. Bu uch ko‘chning nuqtasi Fontano tomonidan o‘rnatalgan obelisk mavjud.

<sup>414</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P 159-160 The Church of the Gesù (Italian: Chiesa del Gesù; Italian pronunciation: [‘kje:za del dze zu]) is the mother church of the Society of Jesus (Jesuits), a Catholic religious order. Officially named Chiesa del Santissimo Nome di Gesù all’Argentina (English: Church of the Most Holy Name of Jesus at the "Argentina"), its facade is "the first truly baroque façade", introducing the baroque style into architecture. The church served as model for innumerable Jesuit churches all over the world, especially in the Americas. The Church of the Gesù is located in the Piazza del Gesù in Rome. First conceived in 1551 by Saint Ignatius of Loyola, the founder of the Jesuits Society of Jesus, and active during the Protestant Reformation and the subsequent Catholic Reformation, the Gesù was also the home of the Superior General of the Society of Jesus until the suppression of the order in 1773. The church having been subsequently regained by the Jesuits, the adjacent palazzo is now a residence for Jesuit scholars from around the world studying at the Gregorian University in preparation for ordination to the priesthood. The main architects involved in the construction were Giacomo Barozzi da Vignola, architect of the Farnese family, and Giacomo della Porta. The church was built on the same spot as the previous church Santa Maria della Strada, where Saint Ignatius of Loyola had once prayed before an image of the Holy Virgin. This image, now adorned with gems, can be seen in the church in the chapel of Ignatius on the right side of the altar.)

Me'morlar ushbu markaziy o'q yo'nalishi bo'ylab ikki gumbazli cherkov qurdilar. Bu bilan uch o'qli ko'cha belgilandi. Maydon esa shaharga oriyentatsiya qilindi. Uchta maydondan boshlanib, Porto del Popolo shahar darvozasigacha davom etgan. Rimga keluvchilarni asosiy shoh ko'chalarga taqsimlab, shimoliy uchta asosiy yo'nalish shaharning turli hududlariga olib boradi.

Barokko davrida inshoatlarda badiiy bezakga katta ahamiyat berila boshlandi. O'sha davrdagi Rim saroylari ulugvor, tantanavor ko'rinishi barokko davri me'morlarining goyalari yaratgan buyurtmachilarning boyligini, ulugligini aks etirishga bag'ishlangan. Lekin saroy kompozitsiyalari ancha xarakterga ega.

JOVANI LORENZO BERNINI (1598. – 1680). Barokko san'atining yirik vakili me'mor haykaltarosh Bernini Neopol shahrida tug'ilgan. Shu yerda otasidan san'at sirlarini o'rgandi. 9 yoshida marmardan odam boshi xaykalini ishlab, ko'pchilikni xayratlantirdi. 25 yoshda esa Rimning mahobatli binosi – Avliyo Pyotr ibodatxonasining bosh me'mori darajasiga ko'tarildi. U ko'plab me'morlik va xaykaltaroshlik asarlarini yaratdi.

Bernini ijodida asosiy o'rinni egallagan av. Pyotr saborining gumbaz osti bo'shlig'iga gigant bronza, baldaxin, spiral ko'rinishidagi kalonna, mehrob osti yoki apsidada effektli xaykaltaroshlik asarlarini bilan bezatib, ibodatxona markazi, yani interyerni qoq o'rtasidan bo'lib aniqlik kiritdi. Cherkovga kirgan tomoshabinni shu vaqtning o'zida gumbaz osti bo'shlig'iga olib boruvchi intiluvchan harakatni his qiladi. Uning eng yirik asarlaridan SKALAREDJA hisoblanadi. U 1663 – 1666-yillarda qurilgan. Vatikan qasri bilan av. Pyotr soborini tutashtirib turuvchi zinapoya hisoblanadi. Bernini sun'iy perspektiva qo'llash usulidan foydalandi. Sekin qisqarib boruvchi zinapoya undagi kolonnalar ham o'z o'mida yuqoriga qarab kichrayib boradi. Zinapoya har xil kattalikda, bu esa uning uzundan – uzoq va ulkan masshtabga ega ekandek taassurot qoldiradi.

DOMENIKO FONTANO (1543 – 1607 ). Yirik me'morlardan biri. Uning ishlaridan Rimdagi Lotarenskiy saroyi ahamiyatga molikdir. Me'mor unga fontan va kvadrat shakdagisi hovli qismlarini qo'shgan. 1580 – yil Rim shahrini qayta qurilishida papa tomonidan Fontanoga uni loyihalash va badiiyash yuklatildi., chunki Rim katolitsizmi dun-yoviy markaziga aylangan edi. Fontano mavjud bo'lgan eski shaharni alohida bo'lak inshoatlarini yashirib ixcham bir holatga keltirib, bir –

biri bilan bog‘ladi. Bir shahar qurilishida uch o‘qli sistemasini amalga oshirdi. Dela Porto maydoni bo‘lgan poytaxt markazi va uning asosiy ansamblari markaz bilan bog‘lanib turadi. Ko‘chalariga keng, ko‘rkam ko‘rinishi uchun unga o‘q chizig‘i belgilab, o‘ng tomonga qarab yo‘naltirib, obelisk va fontan bilan yakunlandi. Fontanoning shahar loyihasi butun Yevropada amalga oshirila boshlandi<sup>415</sup>.

**Rokoko uslubi.** Rokoko so‘zi fransuzcha *rocaille* so‘zidan olingan bo‘lib, taroshlangan tosh, chig‘anoq, bezakli chig‘anoq degan ma’nolarni bildiradi. San’atda uslub sifatida ilk bora Fransiyada XVIII asrning birinchi yarmida vujudga kela boshlaydi. Dastavval Rokayl deb atalgan bu uslub XIX asr o‘rtalaridan boshlab rokoko deb yuritila boshlanadi. Uning xarakterli xususiyatlari nafislik, interyer va kompozitsiyaning bezakka boyligi, naqshlar ritmining latifligi va mifologiyaga murojatning ko‘pligida seziladi. Yaxshilab nazar solinsa barokko va rokoko butunlay bir biridan farq qiladi. Bu uslub asosan zodagonlar qatlamiga xizmat qilgan<sup>416</sup>.

Barokkoda maxobatli xasham dorlikka qiziqish kuchli bo‘lgan bo‘lsa, rokokoda asosan yengillik va nafislikka intalishgan. Barokko dan farqli o‘laroq rokokoda och, yorqin ranglar. Masalan, pushti, moviy ranglar qo‘llanilgan. To‘g‘ri liniyalar egiluvchan naqshlar bilan yopib yuborilgan. Ornamentida esa asosan chig‘anoq va gullar o‘rin olgan. Meemorchilikda karniz texnikasi keng yoyilgan. Me’moriy yechimda esa rokoko o‘zining burchakda joylashgan yarimaylana, kichikkina xonular bilan xarakterlidir. Devorlar qator joylashgan pannolarga bo‘linadi, kolonnalar bir tekisda bo‘lmaydi, goh yo‘g‘on, goh ingichka.

<sup>415</sup> <sup>416</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P 160(Domenico Fontana (1543 – 28 June 1607) was an Italian architect of the late Renaissance, born in today's Ticino. He worked primarily in Italy, at Rome and Naples. Among profane buildings his strong restrained style, with its suggestion from Jacopo Barozzi da Vignola, is best exemplified in the Lateran Palace (begun in 1586), in which the vigorous application of sound structural principles and a power of co-ordination are undeniable, but also the utter lack of imagination and barren monotony of style. It was characteristic of him to remain satisfied with a single solution to an architectural problem, as shown in the fact that he reapplied the motif of the Lateran Palace in the later part of the Vatican containing the present papal residence, and in the additions to the Quirinal Palace. Fontana also designed the transverse arms separating the courts of the Vatican)

<sup>416</sup> THE VISUAL ARTS: A HISTORY Hugh Honour, John Fleming. In memory of John Calmann Copyright ©1982, 1991, 1995, 2000 Fleming – Honor Ltd.Prentice Hall Inc.ADivision of Person EducationUpper Saddle River, New Jersey 07458p-199-200. P 624( Rococo, less commonly roccoco, or "Late Baroque", is an 18th-century artistic movement and style, affecting many aspects of the arts including painting, sculpture, architecture, interior design, decoration, literature, music, and theatre. It developed in the early 18th century in Paris, France as a reaction against the grandeur, symmetry, and strict regulations of the Baroque, especially of the Palace of Versailles. Rococo artists and architects used a more jocular, florid, and graceful approach to the Baroque. Their style was ornate and used light colours, asymmetrical designs, curves, and gold. Unlike the political Baroque, the Rococo had playful and witty themes. The interior decoration of Rococo rooms was designed as a total work of art with elegant and ornate furniture, small sculptures, ornamental mirrors, and tapestry complementing architecture, reliefs, and wall paintings.)

Ko‘p hollarda kolonna va pilyastrlar o‘rniga lenta o‘rimini eslatuvchi ganchkor bezak ishlatalilgan. Kapitel qismida esa gajakdor relyeflar, niqoblar, qalqon tasviri, girlyand va festondan foydalanilgan. Darvoqe, mitti gajakdor o‘rimlar rokokoning asosiy elementi hisoblangan. Rokoko uslubinig etaloni sifatida Charlottenburg saroyini, Kichik Trianonni va Nansi shahridagi uch maydon ansamblini keltirib o‘tish mumkin<sup>417</sup>.

### Seminar savollari

1. Barokkoning uslubiy jihatlarini ta’riflab bering.
2. Shaharsozlik me’morchiligida qanday yangiliklar yuzaga kelgan?
3. Barokko davrining asosiy xususiyatlari va qurilish texnikasi qanday bo‘lgan?
4. F.Borromini, K.Moderna, L.Bernini ijodi haqida nimalarni bilasiz?
5. Rokkoko uslubini asosiy ko‘rinishlari.

### Glossariy

**Barokko** – XVII asrda Yevropa me’morchiligida taraqqiy topgan Barokko usuli. Uyg‘onish davrining oxirida Germaniya, Avstriya va Italiyada cherkov, monastir va saroylar qurishda shu usulga ko‘p murojaat etilgan. Unda tuxumsimon yuzalar, burama yuzalar, hamda bezak, xaykal, shuningdek, ranglarning keng ishlatalishi o‘ziga xos xususiyatdir. Bu usul keyinroq Rokoko deb atalgan<sup>418</sup>.

<sup>417</sup> THE VISUAL ARTS: A HISTORY Hugh Honour, John Fleming. In memory of John Calmann Copyright ©1982, 1991, 1995, 2000 Fleming – Honour Ltd.Prentice Hall Inc.ADivision of Person EducationUpper Saddle River, New Jersey 07458p-199-200. P 624 (Charlottenburg Palace (*German: Schloss Charlottenburg*) is the largest palace in Berlin, *Germany*. It is located in the *Charlottenburg* district of the *Charlottenburg-Wilmersdorf* borough. The palace was built at the end of the 17th century and was greatly expanded during the 18th century. It includes much exotic internal decoration in *baroque* and *rococo* styles. A large formal garden surrounded by woodland was added behind the palace, including a belvedere, a mausoleum, a theatre and a pavilion. During the *Second World War*, the palace was badly damaged but has since been reconstructed. The palace with its gardens are a major tourist attraction. The original palace was commissioned by Sophie Charlotte, the wife of Friedrich III, Elector of Brandenburg in what was then the village of Lietzow. Originally named *Lietzenburg*, the palace was designed by Johann Arnold Nering in baroque style. It consisted of one wing and was built in 2 ½ storeys with a central *cupola*. The façade was decorated with *Corinthian pilasters*. On the top was a *cornice* on which were statues. At the rear in the centre of the palace were two oval halls, the upper one being a ceremonial hall and the lower giving access to the gardens. Nering died during the construction of the palace and the work was completed by Martin Grünberg and Andreas Schlüter. The inauguration of the palace was celebrated on 11 July 1699, Frederick’s 42nd birthday.)

<sup>418</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.52

**Churrigar me'morchiligi** – XVIII asrda Ispaniyada Barokko yo'nalishi bezagi. Me'mor Jose Churriquera sharafiga nomlangan. Janubiy Amerika qit'asida ham bu usul tarqalgan edi<sup>419</sup>.

**Mumtoz madaniyat** – Grek ellen madaniyati va Rim Imperiyasi madaniyati. Bular asosida Barokko va uyg'onish davri madaniyati shakllangan<sup>420</sup>.

**Mumtozlikka qaytish** – XIV asrda AQSH va Angliyada qayta urf bo'lgan sof mumtoz me'moriy madaniyat. Rim va Grek me'morchiliqning yana yuzaga chiqishi. Biz ularni Rokoko va Barokko usullarida ko'ramiz. Faqat bunda Yunon va Rim me'morchiligi ajralib turgan<sup>421</sup>.

**Jorj me'morchiligi**. XVIII asrda Buyuk Britaniya va Shimoliy Amerika koloniylarida amalda bo'lgan Jorj I, Jorj II va Jorj III nomlari bilan atalgan me'moriy uslub. Unda Klassik, Uyg'onish va Barokko belgilarini ko'ramiz<sup>422</sup>.

**Kvadratur** – Barokko binolari ichki qismida hosil qilingan uch o'lchamli bezaklar: uzunlik, balandlik va kenglikka ega shakli. Ular ranglar bilan bo'yalgan<sup>423</sup>.

**Rokoko uslubi** – XVIII Fransiyada vujudga kelgan Barokko usulining davomi. Bezaklar yengil, och ranglarda ishlangan. Tasvirlarda ko'p tushunchalar mavhum qolgan<sup>424</sup>.

### Foydalilaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me'morchilik asoslari. Darslik. – T.: «O'qituvchi», 2007.

<sup>419</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.127

<sup>420</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.131

<sup>421</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.131

<sup>422</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.270

<sup>423</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.476

<sup>424</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.496

6. Zohidov P.SH. Me'mor olami. O'quv qo'llanma. – T.: «O'qituvchi», 1998.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: «O'qituvchi», 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В. Очерки истории архитектурных стилей. М., 2001.
4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Килпе Т.Л. Основы архитектуры.- М.; Высшая школа, 1999.
6. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.; Высшая школа, 1998.
7. Сербинович П.П, Орловский Б.Й. Архитектура.- М.; Высшая школа, 2000.

## **KLASSITSIZM, AMPIR USLUBI ME'MORCHILIGI**

### **Reja**

1. Klassitsizm me'morchiligi haqida ma'lumot.
2. Angliyada klassitsizm davrining me'morchilikda namoyon bo'lish.
3. Klassitsizmning Germaniya davlatida yetakchi o'rinni egallashi.
4. Fransiyada klassitsizm davrining rivojlanishi. Versal va Luvr saroylari tahlili.
5. Ampir uslubi.

XVII asrga xos yirik badiiy uslub – klassitsizm uslubidir. Klassitsizm so'zi lotinchadan olingan bo'lib, «klassikus», ya'ni «namuna» ma'nosini bildirib, dastlab Fransiyaning yagona monarxiya davrida, XVI asrda paydo bo'ldi va shakllandi. Klassitsizmning o'ziga xos jihatlari dastlab XVII asrning ikkinchi yarmida me'morlar Vinyola va Palladio ijodida sezila boshlandi. Klassitsizmga xos xususiyatlar me'morlikdagi shakllarning geometrik aniqligi va ritmi, mantiqiy

rejalarshirilishi va keng ko'lamda antik me'morlik shakllaridan foydalananishda namoyon bo'ldi. Klassitsizm uslubida ishlangan me'morlik kompozitsiyalarida order tizimi muhim rol o'ynaydi. Me'mor ko'pincha order va ularning nisbati hamda shakllarini antik davrdagiga xos ifodalashga harakat qiladi. Bu usul asosan qirol saroylarida talab va didlarini qondirish uchun xizmat qildi. U o'zida ilg'or realistik qarashlarni mujassamlashtirdi. Bino fasadlarida simmetrik holda joylashtirilgan. Bu bino me'morchiligidagi qat'iylik va salobatlilikni beradi. Bunda interyer ham xarakterli bo'lib, unda ham yaxlitlik va ulug'vor tantanavorlik mavjud bo'lishi kerak. Ustunlar qatori va devor yuzasi tekisliklari ritmi bu yaxlitlik va tantanavorlik ko'rinishiga halaqit bermasligi lozim. Mahobatli rangtasvir esa me'morlik yechimining yetakchiligiga halaqit bermasligi, mayin va nafis ranglar gammasi xonaning ulug'vor va bahavo ko'rinishiga xizmat qilishi lozim. Klassitsizm shahar qurilish san'atida ko'proq ko'rinadi<sup>425</sup>. Renessans va barokko uslubi tamoyillarini ijodiy o'zlashtirgan tarzda ko'rindi va rivojlandi. Tabiat ko'rinislari me'morlik kompozitsiyalarida, majmualarida hisobga olinib, klassitsizmning talablari assosida o'zlashtirildi. XVIII asrda yunon va Rim tarixi bo'yicha qilingan kashfiyotlar, Pompey, Gerkulanum kabi qadimiy shaharlarning ochilishi, nemis olimi va san'atshunoslari Gyote va Vinkelmanlarning ilmiy nazariy faoliyatları klassitsizm uslubi rivojlanishiga turtki bo'ldi. Antik san'atga qiziqish yanada ortdi. XVIII asr oxiri XIX asrda esa bu uslub jahon san'atida yetakchi badiiy uslublardan biriga aylandi. Nafaqat Yevropa, balki Osiyo, Amerika qit'alarida ham shu uslubda asarlar yaratildi. Albatta, yukoridagi badiiy-uslub yo'nalish o'z-o'zicha emas, balki boshqalari bilan uzviy munosabatda bo'ldi. Birining ta'siri boshqa birida o'z aksini topdi. Bu o'zgarish va ta'sirlar, eng avvalo, u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tuzum, tarixiy sharoit bilan uzviy bog'liq bo'ldi. XVII asrda Italiya, Ispaniya, Flamandiya, Gollandiya va Fransiyada milliy badiiy maktablar mavjud edi,

<sup>425</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P.182(Classicism in architecture developed during the Italian Renaissance, notably in the writings and designs of Leon Battista Alberti and the work of Filippo Brunelleschi. It places emphasis on symmetry, proportion, geometry and the regularity of parts as they are demonstrated in the architecture of Classical antiquity and in particular, the architecture of Ancient Rome, of which many examples remained. Orderly arrangements of columns, pilasters and lintels, as well as the use of semicircular arches, hemispherical domes, nicches and aedicules replaced the more complex proportional systems and irregular profiles of medieval buildings. This style quickly spread to other Italian cities and then to France, Germany, England, Russia and elsewhere. In the 16th century, Sebastiano Serlio helped codify the classical orders and Palladio's legacy evolved into the long tradition of Palladian architecture. Building off of these influences, the 17th-century architects Inigo Jones and Christopher Wren firmly established classicism in England.)

Skadinaviya mamlakatlari, Angliya, Germaniya, Avstriyada esa hali yuzaga kelmagan edi. Bu mamlakatlardagi notinchlik, turli urushlar (30 yillik urush) bunga asosiy sabab bo‘ldi. XVIII asrga kelib vaziyat birmuncha o‘zgarib, yangi munosabatlar yuzaga kela boshladи. Me’morlilik iqtisodiy hayotning dolzarb muammolari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlana boshladи. Shu asrda milliy maktablar ham ko‘paya boshladи. Ular orasida Fransiya badiiy maktabi Yevropa san’atida yetakchi o‘ringa chiqdi. Angliyada san’at rivojlandi. Italiyada Venetsiya badiiy maktabi, Germaniyada o‘ziga xos nemis san’ati ravnaq topib, ular jahon madaniyati taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Angliya san’ati taraqqiyotidagi yangi bosqich XVII asr ikkinchi yarmidan me’morlikda namoyon bo‘la boshladи. Me’mor Inigo Jons (1573-1620) mumtoz me’morlikni dastlab A.Palladio ijodini targ‘ib etishdan boshladи va bu bilan ingliz klassitsizmi prinsiplar shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Bu xususiyat binoning funksional tomoni qulayligi hamda uning badiiy bezatilishini uyg‘unlashtirib yuborishga, klassik shakllarni aniq va erkin ishlatishga intilishda namoyon bo‘ldi. Jons boshlagan ishni keyin mashhur me’mor Kristofer Ren (1632-1723) davom ettirdi. U mumtoz shakllarga milliy, o‘ziga xoslik kiritishga harakat qildi. Uning mashhur va yirik asarlaridan biri Londondagi ulug‘vor va tantanali Avliyo Pavel ibodatxonasi binosidir<sup>426</sup>. Uning interyerlari, kompozitsiyasi o‘rtalashtirilgan yaqin. U lotin butiga o‘xshaydi. Lekin bino konstruksiysi va ayniqsa, undagi orderlar, katta gumbaz ishlanishi jihatdan mumtoz me’morlik tamoyillarini eslatadi va ingliz klassitsizmining o‘ziga xos xususiyatini namoyon qiladi. Klassitsizm XVIII asr Angliya me’morligida yetakchi o‘rinni egalladi. U shahar va uning chekkasida qurilgan shaxsiy imoratlarda ham o‘z ifodasini topdi. Klassitsizmning ratsionalistik qat’iy uslublarda chekkaga chiqishga intilish dastlab ingliz bog‘-park yaratish, past-baland joylar, soy va jarliklarda erkin rejalashtirilgan parklar yaratishga harakat qildilar. Bu so‘qmoq yo‘llar, daraxtlardan

<sup>426</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P. 183 (The task of designing a replacement structure was officially assigned to Sir Christopher Wren on 30 July 1669. He had previously been put in charge of the rebuilding of churches to replace those lost in the Great Fire. More than 50 City churches are attributable to Wren. Concurrent with designing St Paul’s, Wren was engaged in the production of his five *Treats* on Architecture. Wren had begun advising on the repair of the Old St Paul’s in 1661, five years before the Fire in 1666. The proposed work included renovations to interior and exterior to complement the Classical facade designed by Inigo Jones in 1630. Wren planned to replace the dilapidated tower with a dome, using the existing structure as a scaffold. He produced a drawing of the proposed dome which shows his idea that it should span nave and aisles at the crossing. After the Fire, it was at first thought possible to retain a substantial part of the old cathedral, but ultimately the entire structure was demolished in the early 1670s.)

foydalandilar. Ana shunday parkning yuksak namunasini Uilyam Kent (1684-1748) yaratdi. XVIII asr o'rtalaridan esa park ko'rinishiga romantik notalar kiritila boshlandi. Parklarda qadimiy me'morlik yodgorliklarini eslatuvchi, turli kompozitsiyalar, masalan, ustunli ibodatxona, kolonnalar, maqbaralar, pagoda va boshqalar qurila boshlandi.

XVIII asr I yarmida barokko, II yarmida esa klassitsizm uslubi ustuvor bo'ldi. XVIII asr ikkinchi yarmida klassitsizm Germaniya me'morligida yetakchi o'ringa chiqash boshladidi. Berlindagi Brandenburg darvozasi (me'mor K.Langgans) o'zining jiddiy ko'rinishi va tantanavorligi bilan keyinchalik nemis me'morligining o'ziga xos uslubiy ko'rinishini belgilashda muhim o'rinn egalladi<sup>427</sup>.

XVII asrda bo'lgan 30 yillik urush (1618-1648) Germaniyani yanada tarqoqlashtirib, uning iqtisodiy zaiflashuviga olib keldi. Ana shu ijtimoiy-tarixiy sharoitda yangicha san'at o'ziga yo'l ochib bordi. Bu dastlab adabiyot va musiqada o'zini namoyish etdi. Me'morlik va tasviriy san'atdagi jonlanish yuz berdi.

XVII asrga kelib, monarxiya tuzumi mustahkamlandi. Viloyatlar markazga bo'ysundirildi. Absolyutizm o'zining mumtoz ko'rinishini namoyon etdi. Bu mamlakatda burjua munosabalarining rivojlanishi, uning iqtisodiy mustahkamlanishini ta'minlab, Fransiyani Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylantirdi. Bu davr "buyuk asr" (Volter) nomi bilan tarixga kirdi. Monarxiya dvoryan va burjua guruhlariga tayangan holda shakllanib kelayotgan burjua jamiyatinint feodalizm bilan kurashishida kuchli qurol vazifasini o'tadi. Milliy madaniyatda ko'tarilish yuz berdi. Dekart, Gassend kabi ijodkorlar yetishib chiqdi. Karnel, Rasin, Molyer kabi yozuvchilar Fransiyani dunyoga tanitishdi. Musiqa, tasviriy san'at, me'morchilik borasidagi yutuqlar keyinchalik

<sup>427</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P.183 (The Brandenburg Gate (German: Brandenburger Tor) is an 18th-century neoclassical triumphal arch in Berlin, and one of the best-known landmarks of Germany. It is built on the site of a former city gate that marked the start of the road from Berlin to the town of Brandenburg an der Havel. It is located in the western part of the city centre of Berlin within Mitte, at the junction of Unter den Linden and Ebertstraße, immediately west of the Pariser Platz. One block to the north stands the Reichstag building that houses the German parliament (Bundestag). The gate is the monumental entry to Unter den Linden, the renowned boulevard of linden trees, which led directly to the royal City Palace of the Prussian monarchs. It was commissioned by King Frederick William II of Prussia as a sign of peace and built by architect Carl Gotthard Langhans from 1788 to 1791. Having suffered considerable damage in World War II, the Brandenburg Gate was fully restored from 2000 to 2002 by the Stiftung Denkmalschutz Berlin (Berlin Monument Conservation Foundation). During the post-war Partition of Germany, the gate was isolated and inaccessible immediately next to the Berlin Wall. The area around the gate was featured most prominently in the media coverage of the tearing down of the wall in 1989, and the subsequent German reunification in 1990. Throughout its existence, the Brandenburg Gate was often a site for major historical events and is today considered a symbol of the tumultuous history of Europe and Germany, but also of European unity and peace.)

Yevropa san'ati rivojida muhim rol o'ynadi. 1648-yili Rassomlik va xaykaltaroshlik qirol akademiyasi, 1671-yilda esa Me'morchilik akademiyasining tashkil etilishi san'at ravnaqida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Klassitsizmning rasmiy badiiy-adabiy uslub sifatida e'tirof etilishi san'atning ravnaq topishida muhim rol o'ynadi. Bu uslub rivojlanishiga Dekart falsafasi, Gassend qarashlari tasir etdi. XVII asr shahar va shahardan tashqarida qurilgan me'morlik majmualari, qirol va zodagonlarning qarorgoh va saroylari, burjua boylarining uylari klassitsizm uslubining rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Mashhur Luvr saroyining sharqiy tomoni ko'rinishi, Versal saroy-bog' majmuasi, ko'plab tantanavor arklar, ko'priklar hamda jamoat binolari qurildi.

XVII asr fransuz me'morchiligining nafis yodgorligi Versal saroyi majmuasi (1603-1689) Lyudovik XIV ning qarorgoxi edi. Lui Levo (1604-1670) xiyobon-bog' san'ati ustasi Andre Lenotr (1613-1700) tomonidan boshlangan va me'mor Jyul Andruen Mansar (1646-1708) tomonidan tugallangan bu majmua absolyutizm g'oyalari – qirol hokimiyatining abadiyligini aks ettiradi<sup>428</sup>. Bu g'oya majmua kompozitsiyasining yechimida namoyon bo'ladi. Ansambl markazida qirol qarorgohi-saroyi joylashgan bo'lib, u tevarak atrofdagi maydonni o'ziga bo'ysundiradi va yaxlitlashtiradi. Uning atrofidagi tabiat aniq simmetrik reja asosida tashkil etilgan. Saroyning old tomoni serjilo va sodda, binolari esa tantanavor va sipo qilib ishlangan. Saroyning markaziy binosida qabulxona va bal o'tkazishga mo'ljallab qurilgan xonalar dekorativ bezakka boy. Saroyning markaziy xonasi – qirolning yotoqxonasi bo'lib, unga boradigan zallarga nihoyatda jozibali bezaklar bilan ishlov berilgan. Bezatilishiga alohida e'tibor berilgan. Xiyobon – bog' rejaga muvofiq qatiy yagona o'q atrofiga qurilgan, uning asosiy xiyoboni atrofiga favvora va xaykallar simmetrik asosida

<sup>428</sup> History of Architecture A.D.F.Hanolin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P.184. (The Palace of Versailles, or simply Versailles, is a royal château in Versailles in the Ile-de-France region of France. It is also known as the Château de Versailles. When the château was built, Versailles was a country village; today, however, it is a wealthy suburb of Paris, some 20 kilometres (12 miles) southwest of the French capital. The court of Versailles was the centre of political power in France from 1682, when Louis XIV moved from Paris, until the royal family was forced to return to the capital in October 1789 after the beginning of the French Revolution. Versailles is therefore famous not only as a building, but as a symbol of the system of absolute monarchy of the Ancien Régime. Begun by Louis XIII in 1623, the château began as a hunting lodge in brick and stone. It was enlarged into a royal palace by Louis XIV. The first phase of the expansion (c. 1661–1678) was designed and supervised by the architect Louis Le Vau. It culminated in the addition of three new wings of stone (the enveloppe), which surrounded Louis XIII's original building on the north, south, and west (the garden side). After Le Vau's death in 1670, the work was taken over and completed by his assistant, François d'Orbay. Charles Le Brun designed and supervised the elaborate interior decoration, and André Le Nôtre landscaped the extensive Gardens of Versailles. Le Brun and Le Nôtre collaborated on the numerous fountains, and Le Brun supervised the design and installation of countless statues)

joylashtirilgan. Markazdag'i katta hovuz esa unga tugallik bergan. Bronza va marmardan ishlangan haykaltaroshlik asarlari xiyobonga ko'tarinki ruh kiritgan. Bu haykallar dekorativ maqsadda ishlangan.

Me'morchilik san'ati bir necha yillar, asrlardan buyon turli yo'nalish va usullarni boshdan kechirib kelmoqda. Bu narsa me'moriy qurilmalarning qurilishida katta ta'sir ko'rsatadi. Yevropa mamlakatlarda XVII-XVIII asrlarda vujudga kelib, rivoj topgan Klassitsizm uslubi ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadı. Bu uslub asosan Fransiyada vujudga kelgan bo'lib, o'zida antik an'analarni mujassamlash tirgan. Ya'ni qadimgi Gretsiyada mil.avv.V-IV asrlarda paydo bo'lgan Klassika uslubi an'analarni yangi yo'nalishda o'zlashtirgan. Bu borada ayniqsa, Klassika orderlarini Klassitsizm uslubida yaqqol uchratishimiz mumkin. Shunday ekan, Klassitsizm lotincha "namuna" ma'nosini bildirishi bejiz emas. Antik an'analarga tayangan holda vujudga kelgan ushbu uslub Barokko uslubi an'analarni butkul rad etar edi. Klassitsizm binolarining tashqi ko'rinishi qanchalik bahaybat va jiddiy bo'lsa, interyeri shunchalik jimjimador va bezakdor bo'lgan. Klassitsizm binolariga Versal qasri va Luvr saroyi yaqqol namuna bo'lishi mumkin.

**Versal qasri.** Klassitsizm uslubining yorqin namunasi sifatida Versal qiroq qarorgohi asosiy o'rin egallaydi. Unda me'mor Lui Levo Sharl Lebren va Andre Lenotr bilan hamjihatlikda ish olib borishdi. Bu yerda katta park, shahar, qasr ansamblı me'moriy qiymatga va ulug'vorlikka ega. Volter Versal haqida shunday yozgan edi: "Agar Lyudovik XIV Parijga Versal kabi e'tibor berganda edi, bu shahar dunyodagi eng go'zal shaharlardan biri bo'lar edi". Erkin va katta kompleks poytaxti shahar qurilish ishi muhim va ustun bo'lgan. Lyudovik XIII kichik qasrini qayta qurishni kardinal Mazarin hamda arxitektor Levoga topshirgan va u 1668-yil qurilgan. Levo Lyudovik XIII ning qasrini 3 tomonidan yangi korpuslar bilan to'ldirdi. Marmarli hovli yonida qurilgan bino P ko'rinishini tashkil etadi. Bu narsa Versalda yana bir ikkinchi hovlini tashkil etib, qasr bir necha martaga kattalashdi. Qasrning park tomonidagi fasadida Levo Klassitsizmning asosiy omili bo'lmish kolonnadalarni qo'lllagan. Ioniq ustunlari va pilyastr (devorning silliq to'g'ri burchakli bo'rtiq chiqqan joyi. Kolonna, kapitel va baza bilan bezatilgan)lar binoning ikkinchi bayramona qavatining fasadida joylashtirilgan. Birinchi qavat devori fransuz rusti (devorni katta to'rt burchak toshlar bilan bezatish) bilan bezatilib, yonida orderlarni ko'tarib turadigan poydevori bezak sifatida

joylashtirilgan. Levo uchinchi qavatni esa shu orderlarni to'ldirib turish maqsadida antik ko'rinishni qo'llagan. Fransiya binolariga uncha xos bo'limgan bu bino fasadi armaturali parapet (uncha baland bo'limgan devor. Tomni chegaralash uchun ishlataladi) bilan tugatilgan. Fransiya binolari baland bo'lgan, bu bino esa past bo'lib parapet ortiga berkingan. Tashqi fasadida Klassitsizm tendensiyalari yaqqol seziladi. Fransiya mahobatlari binolaring eksteryeri, ya'ni tashqi ko'rinishidan farqli o'laroq, interyeri jumjimador, bayramona va o'ta did bilan bezatilgan. Bu borada Versalning park tomonga qaratilgan fasadining burchaklarida joylashgan Urush va Tinchlik zallari e'tiborlidir. Klassitsizm eksteryeri va interyerlar bu davr Fransiya me'morchiligidagi bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Janubiy va Shimoliy fasad ikkita jozibador formaga ega bo'lgan korpuslar hisobiga uzunlashgan. Shimoliy qismida Elchilar zinasi, Janubiy qismida Qirolicha zinasi mavjud. Levo old qism bezagini tugallamasdan olamdan o'tdi. Uning ishini Fransua d'Orbe davom ettirib, binoning Sharqiy yon tomondan chiziq bo'yicha ikkita pavilyonli panjaralarini to'g'ri chiziq bo'ylab joylashtirdi. Shunday qilib, Qirol qasri vujudga keldi<sup>429</sup>.

Mazarinning o'limidan so'ng, Versal o'z qiyamatini yo'qota boshladi. Versalni qayta tiklash maqsadida 1678-yili mashhur me'morlardan biri Jyuli Ardu Mansarni (1646-1708) taklif etishdi. Bu Versal qasri qurilishi va o'zgartirilishining keyingi bosqichi edi. J.Arduen-Mansar park fasadini butkul o'zgartirib yubordi. Ikkinci qavatidagi terrasani buzdirib, o'rniga qasrning markaziy zali qilib Oynali galereyani qurdirdi. Bu galereya Urush va Tinchlik zallarini tutashtirib turadi. Svod bilan yopilgan galereyaning tepe qismi mifologik, fransuz monarxiyasining va qirolning qanchalik buyukligini

<sup>429</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P.184-185. (As a result of Le Vau's enveloppe of Louis XIII's château, the king and the queen had new apartments in the new addition, known at the time as the château neuf. The grands appartements (Grand Apartments, also referred to as the State Apartments!) are known respectively as the grand appartement du roi and the grand appartement de la reine. They occupied the main or principal floor of the château neuf, with three rooms in each apartment facing the garden to the west, and four facing the garden patios to the north and south, respectively. Le Vau's design for the state apartments closely followed Italian models of the day, as evidenced by the placement of the apartments on the next floor up from the ground level—the piano nobile—a convention the architect borrowed from 16th- and 17th-century Italian palace design. The king's apartment consisted of an enfilade of seven rooms, each dedicated to one of the then known planets and their associated titular Roman deity. The queen's apartment formed a parallel enfilade with that of the grand appartement du roi. It served as the residence of three queens of France—Marie-Thérèse d'Autriche, wife of Louis XIV, Marie Leczinska, wife of Louis XV, and Marie-Antoinette, wife of Louis XVI. Additionally, Louis XIV's granddaughter-in-law, Princess Marie-Adélaïde of Savoy, as duchesse de Bourgogne, occupied these rooms from 1697 (the year of her marriage) to her death in 1712. After the addition of the Hall of Mirrors (1678–1684) the king's appartement was reduced to five rooms (until the reign of Louis XV, when two more rooms were added) and the queen's to four.)

bildiradigan mavzulardagi tasvirlar mavjud. Pilyastr va relyeflar oltin va bronzadan yasalgan. Urush va Tinchlik zallaridan keyin bir-biri bilan eshiklar orqali ularadigan, bir o'qda joylashgan xonalar boshlanadi.

Park tomonidagi arkali derazalarga ro'para bo'lgan katta derazalar monand qilingan. Galereya devorlari pilyastr bilan bezatilgan bo'lib, ularda ko'kish-pushti rangli marmorlar qo'llangan. Galereya mahobatli ko'rinish kasb etadi.

Mansarning Versaldagi e'tiborli me'moriy islohotlaridan biri, u asosiy binoga qo'shimcha ravishda ikkita Shimoliy va Janubiy qanotni qo'shadi. Ikkala bino fasadlari ham markaziy fasad kabi bezatildi. Endi bino uch barobariga yiriklashdi.

Park tomondan qaralsa binoning umumiy ko'rinishi go'yo katta karnizga o'xshaydi. Uning fasadlari och sariq rangli ohaktoshda bo'yalgan. Fasad tuzilishi va bezagi jihatidan bitta mavzu, ya'ni orderlar sistemasi mavzusiga bo'ysungan holda bajarilgan. Devorni ishlab chiqish jarayonida plastik detallar – relyef va ornamentlar, parapetdag'i armatur – bularning hammasi binoning jiddiy va bahaybatligini to'ldirib turadi. Versal kompozitsiyasi qirol hukumatining fikrlariga ma'qul kelar edi: markazda qirol rezidensiyasi butun atrofdagi landshaftni o'ziga bo'ysundirgan qasr.

**VERSAL PARKI.** Versal qasri yonida katta hajmdagi park bo'lib, uning rejasiga qasrga qarama-qarshi holatda, bir chiziqda joylashgan. Latona hovuziga olib tushadigan zinapoya mayjud. Qasr ro'parasida ikkita favvora mavjud. Latona hovuzidan sal nariroqda esa "yashil gilamcha" deb nomlangan o'rtasida gazonlar bo'lgan markaziy alleya bo'lib, u Apollon hovuziga olib boradi. Hovuz yonida aravada onasi Latonani kutib olish uchun chiqayotgani tasvirlangan. Hovuz ortida esa xoch shaklida bo'lgan Katta kanal boshlanadi. Xuddi shu yerda Katta Trianon pavil'onli Trianon rayoni J.Arduen-Mansar tomonidan joylashtirilgan. Quyosh ham Katta kanal ortiga botgan. Shunday ekan, Versal joylashuvni tabiat bilan bog'liq. Versal qasrida quyoshga e'tibor berilishi tabiiy. Sababi qirolni quyosh deb nomlashgan. Quyosh xudosi Apollonga bag'ishlab qurilgan basseyn parkning markazida joylashtirilgan.

Alleyalar atrofida kesib, chiroyli qilib qo'yilgan o'tlar ekilgan. Park planirovkasida "yulduz" usuli ham e'tiborlidir, ya'ni radional yo'nalishida joylashtirilgan yo'laklar. Parkda ko'pgina marmor va bronzadan ishlangan haykaltaroshlik namunalari joylashtirilgan. Ular kesilgan o'tlar fonida joylashtirilgan. Versal qasrinining xaykaltaroshlik

asarlari plastik va kompozitsion jihatdan barochnmy va ular geometrik abrislar bilan uyg'unlashgan.

Versal parki bir chiziqda joylashishi, markazlashganligi, terrasa va alleyalari, geometrik shaklda kesilgan o'tlari, xaykaltaroshlik namunalari va fontanlarning joylashuvi bilan Yevropaning XVI – XVIII asrdagi boshqa parklarga namuna bo'ldi.

**LUVR SAROYI.** Lui Levo 1661-yil Luvrni tugatishga kirishib, 1664 yil Luvrning "to'rtburchagi"ni qurib bitkazgan. G'arbiy Lesko va Lemersiya fasadlarining ko'rinishida Levo 3ta yangi qasr fasadlarida ham takrorlagan. Luvrning ko'chaga qaragan (sharqiy) fasadi uchun, shu qasr ro'parasida joylashgan Sen-Jermen-Lokserrua cherkov fasadini namuna qilib olgan. Levoning proyekti mukammal deb topilmagan va Kalber Italiya arxitektorlariga murojaat qilib, konkursda qatnashishlarini taklif qilgan. Bernininining loyihasidan tashqari boshqa arxitektolarning loyihalari qatnashib, Klod Perro loyihasi g'olib deb topilgan. Ko'pchilik izlanuvchilar Luvrning arxitektori deb Dorbeni hisoblashadi. Albatta bu haqiqatdan yiroq. Perro fasadi (sharqiy) masshtab jihatdan kattaligi, ulkan va sokinligi, qismlarning bir-biri bilan uyg'unligi va kompozitsiyasining bayramona va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Luvrning xuddi shu sharqiy bahaybat qasri ansamblning asosiy qismiga aylangan. XVII asrning 2-yarmidagi fransuz klassizimida yetuk, mukammal, boy va ko'zga ko'ringan, plastik jihatdan tugatilgan qurilmalarni uchratish qiyin. XVIII asrning 2-yarmida klassitsizm aql va idrokka tayangan sobitqadam bo'lib, XVII asrning ikkinchi yarmida qurilgan binolarga qaraganda sovuqroqdir. Perro o'z fasadini yaratayotganda Levoning qurilmalariga bo'ysunmagan. Perroning fasadi haqiqiy binodan 15 m baland qurilgan. Bu narsa Janubiy front tomonida yangi, aniq dekorativ fasadli devorning qurilishiga sabab bo'ldi. Lekin bu devor shirma kabi Sena tomonidan Levoning fasad qurilmasini to'sib qo'ygan. Bu barokko usuliga mos keladi va XVII asr klassitsizmi va barokkoning uyg'unligidan dalolat beradi. Bu usulni Levo ham To'rt millat nomli kollejda qo'llagan. Ko'pincha Luvr kolonnadasi deb nomlanadigan asos, ya'ni sharqiy fasadni klassitsizm prinsiplari asosida qurilgan. Ulkan korinfli portik, 2

yarusli peshayvon bilan chegaralangan rizament bilan markazlash-tirilgan va franton bilan tugatilgan. Luvr fasadida Versal fasadiga qaraganda ko'proq orderlarga e'tibor berilgan<sup>430</sup>.

Ampir uslubi XVIII-XIX asr oxirlarida Napoleon xukmronligi davrida, Fransiya revolyutsiyasidan so'ng yuzaga kela boshladı. Ampir so'zi fransuzcha "empire" so'zidan olib. Bu uslubning asosiy vazifasi imperator oilasiga, kiborlar davrasiga, harbiy tantanalarga xizmat qilish bulgan. Napoleonning buyukligi va g'alabalari arxitekturada, jumladan zafar arkalarida, kolonna va kapitellarda namoyon bulgan. San'at tarixchisi va rassom Igor Grabarning ta'kidlashicha, "Fransiyada klassitsizmning yoyilishini ampirning sovuq diktaturasi uzib quyadi". Ampir uslubi san'atga tubdan burulish olib kirmaydi, shunchaki klassik uslub an'analarini biroz o'zgargan holda davom ettiradi. Bu ko'prok badiy uslubdan ko'ra dekoratsiyani eslatgan. Ushbu uslub san'atning barcha sohalarida bo'Igan kabi, me'morchilikda ham yorqin namoyon bo'Igan. Ampir uslubini yorkin misollarini fransuz rassomi Jak Lui David o'z asarlarida boshlab bergen. Uning Napoleon portretlarida maxsus imperator va uning oilasi uchun ishlangan mebellarni, dekorlarni kurish mumkin. Ampir uslubida Kadimgi Rim va Misr an'analarini ko'rish mumkin. Bu ikki buyuk davlat an'analarini birgalikda uygunlik kasb etgan. Buni biz bino va inshootlar dekoridagi antik davrga xos kolonnalarda, uning kapitelidagi ramziy bezaklar va grifonlarda, mebellarning oyoklaridagi hayvon panjasini eslatuvchi elementlarda ko'rishimiz mumkin. Ampir uslubida kurilgan binolar jiddiy, siimmetrik formaga ega. Me'morchilik va maxobatli

<sup>430</sup> History of Architecture A.D.F.Hamiin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY, 1998 SEVENTH EDITION. P.165(the Louvre Palace, which houses the museum, was begun as a fortress by Philip II in the 12th century, with remnants of this building still visible in the crypt. Whether this was the first building on that spot is not known; it is possible that Philip modified an existing tower<sup>151</sup> According to the authoritative Grand Larousse encyclopédique, it derives from an association with wolf hunting den (via Latin: *lupus*, lower Empire: *lupara*). In the 7th century, St. Fare, an abbess in Meaux, left part of her "Villa called Louvre situated in the region of Paris" to a monastery, this territory probably did not correspond exactly to the modern site, however. The present-day Louvre Palace is a vast complex of wings and pavilions on four main levels which, although it looks to be unified, is the result of many phases of building, modification, destruction and restoration. The Palace is situated in the right-bank of the River Seine between Rue de Rivoli to the north and the Quai François Mitterrand to the south. To the west is the Jardin des Tuilleries and, to the east, the Rue de l'Amiral de Coligny(its most architecturally famous façade, created by Claude Perrault) and the Place du Louvre. The complex occupies about 40 hectares and forms two main quadrilaterals which enclose two large courtyards: the Cour Carrée ("Square Courtyard"), completed under Napoleon I, and the larger Cour Napoléon ("Napoleon Courtyard") with the Cour du Carrousel to its west, built under Napoleon III. The Cour Napoléon and Cour du Carrousel are separated by the street known as the Place du Carrousel. The Louvre complex may be divided into the "Old Louvre": the medieval and Renaissance pavilions and wings surrounding the Cour Carrée, as well as the Grande Galerie extending west along the bank of the Seine; and the "New Louvre": those 19th-century pavilions and wings extending along the north and south sides of the Cour Napoléon along with their extensions to the west (north and south of the Cour du Carrousel) which were originally part of the Palais des Tuilleries (Tuilleries Palace), burned during the Paris Commune in 1871.)

xaykaltaroshlik uyg‘unlashgan. Dekorida antik dunyo harbiy ramzlari hisoblangan xanjarlar, ikki boshli burgut yoki bo‘lmasam dafna yaprog‘idan yasalgan gulchambarlar o‘rin olgan. Bunga sabab, g‘alaba ruxi inshootlarga ko‘chadi. Umuman olganda, ampir uslubi xuddi klassitsizm uslubi kabi orderlar sistemasini birinchi o‘ringa chikaradi va dekorida Kadimgi Misr simvolikasidan foydalanadi. Ampir uslubi xaybatli portiklar, baryelefli frontonlar bilan xarakterlidir. Ushbu uslubning asosiy elementlari relyeflardagi burgut, sher, qalqon, bolta, gulchambar, sfinks kabilardir.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ampir uslubi Napoleon saroyida vujudga kelgan. Ushbu uslubning bosh me’morlari Sharl Persye (Percier, Charles. 1764–1838) va Pyer Fonten (Fontaine, Pierre. 1762–1853) kabilar hisoblanishgan. Ular imperator Napoleon saroyida xizmat qilishgan. Bu me’morlar tomonidan Parijdan 20 km uzoqda joylashgan Napoleon Bonapart va Jozefina Bogarnening shaxsiy qarorgohi **Malmezon** qasri qurilgan. Ushbu qasr 1610-yilda qurilgan. Bu uslubning yana bir muhim jihatni unda “Zafar arklari” ga alohida e’tibor qaratilganidir. Ushbu arkalar ma’lum bir jangdagisi g‘alaba va zafarlar sharafiga qurilgan. Arkning kapitel va pilyastrlarida Qadimgi Rim va Misr an’analariga xos elementlarni ko‘ramiz. Bu kabi arkalarning eng yuqori qismida ko‘pincha Qadimgi Rimning afsonaviy qahramonlari xaykallarini uchratish mumkin.

Napoleon Bonapart bu uslubni o‘zi bosib olgan yurtlarga ham tadbiq qilishga harakat qilgan. Ammo bu harakatlar unchalik natija bermagan. Fakatgina birgina ulkan imperiya – Rossiya imperiyasi ampir uslubidan keng miqyosda foydalangan. Bu davrda Rossiyada ko‘plab bino va inshootlar qurilgan. Ampir uslubi shu qadar keng yoyilganki, hattoki tarixga “Rus ampiri” termini kirib kelgan. Ushbu davr va uslubga xos eng mashhur inshootlardan biri me’mor Andrey Voronixin tomonidan qurilgan Kazan soboridir. Sobor Neva prospektiga qaratib qurilgan. Undagi maxobatli ustunlar dunyoni lol qoldirgan. Xullas, ampir uslubi uzok davom etmagan bo‘lsada, ammo san’at asariga teng ishlar qilindi va ular bugungi kungacha dunyo sayyoхlarini lol qoldirib kelmoqda<sup>431</sup>.

<sup>431</sup> History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION. P.185(The Arc de Triomphe honours those who fought and died for France in the French Revolutionary and the Napoleonic Wars, with the names of all French victories and generals inscribed on its inner and outer surfaces. Beneath its vault lies the Tomb of the Unknown Soldier from World War I. The Arc de Triomphe is the linchpin of the Axe historique (historic axis) – a sequence of monuments and grand thoroughfares on a route which runs from the courtyard of the Louvre to the Grande Arche de la Défense. The

## Seminar savollari

1. Klassitsizm me'morchiligi haqida ma'lumot bering.
2. Angliyada klassitsizm davrining me'morchilik qanday namoyon bo'ldi?
3. Klassitsizmning Germaniya davlatida qanday o'rinnegallaydi?
4. Fransiyada klassitsizm uslubi qanday rivojlangan? Versal va Lvvr saroylarini tahlil qilib bering.
5. Ampir uslubining asosiy xarakterli jihatlarini sanab o'ting.

## Glossary

**Klassitsizm** – memorchilikda Rim va Yunon an'analari bilan birga Italiya uyg'onish davri unsurlarini ham qo'llovchi yo'nalish.<sup>432</sup>

**Kompozit order** – Klassik usullarning bittasi. Unda ayiqtovon bargi bezaklari Korinf va Iona usuli detallarini uchratamiz.<sup>433</sup>

**Ampir uslubi** – Birinchi Fransuz imperiyasi davrining neoklassik me'morchiilik uslubi (1804-1815). Napoleon davri arxitekturasi.<sup>434</sup>

**Jorj memorchiligi** – XVIII asrda Buyuk Britaniya va shimoliy Amerika koloniylarida amalda bolgan Jorj I, Jorj II, Jorj III nomlari bilan atalgan memoriy uslub. Unda Klassik Uygonish va Barokko belgilarini ko'ramiz<sup>435</sup>.

**Luis XV uslubi** – Bu Klassik va Rokoko uslubi bo'lib 1715-1774 yillarda Fransiyada qirol bo'lgan Luis XV nomi bilan atalgan. Hattoki mebellar rangi va shakl-shamoili binoga moslashtirilgan<sup>436</sup>.

**Manerizm** – XVI asrda Italiyada mavjud bo'lgan noan'anaviy uslub. U klassik unsurlarni o'zida aks ettirgan<sup>437</sup>.

**Neoloklassitsizm** – Yevropa mumtoz memorchiligining oxirgi davri: XVIII-XIX asrlar. Uslublarga qatiy amal qilib xotiralarni singdirishga ye'tibor qaratilgan unsurlarini ham qo'llovchi yo'nalish<sup>438</sup>.

---

monument was designed by Jean Chalgrin in 1806 and its iconographic program pits heroically nude French youths against bearded Germanic warriors in chain mail. It set the tone for public monuments with triumphant patriotic messages.)

<sup>432</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.119

<sup>433</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.130

<sup>434</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.195

<sup>435</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.250

<sup>436</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.338

<sup>437</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.346

<sup>438</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.373

**Noiblik uslubi** - Rangli neoklassik uslub bo‘lib Angliyada qiroq Jorj IV davrida mashhur bo‘lgan<sup>439</sup>.

**Venetian window, Palladian window, Diocletian window** Venetsiya derazasi . Neoklassik usulga xos katta rom . Romlar oralarida ustunlar shiftga tayanch bo‘ladi. O‘rtada joylashgan deraza ikki chetidagiga nisbatan kattaroq bo‘lib bazan arkli ishlangan<sup>440</sup>..

### **Foydalanimadigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar**

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario,Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me’morchilik asoslari. Darslik. – T.: «O‘qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me’mor olami. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi»,1998.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Ubaydullayev X.M. Turar joy va jamoat binolarini loyihalashtirish tipologik asoslari. T.: O‘qituvchi, 2009.
2. Бартенев И.А. Форма и конструкции в архитектуре. Л., 1998.
3. Бартенев И.А., Батажкова В.Очерки истории архитектурных стилей. М., 2001.
4. Бунин А.В., Саваренская Т.Ф. История градостроительного искусства. -М., 1999.
5. Кильде Т.Л Основы архитектуры.- М.; Высшая школа, 1999.
6. Тосунова М.И. Архитектурное проектирование.- М.; Высшая школа, 1998.

<sup>439</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.449

<sup>440</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.564

## EKLEKTIZM. MODERN. KONSTRUKTIVIZM. POSTMODERNIZM USLUBI ME'MORCHILIGI

### Reja:

1. Eklektizm. Modern. Konstruktivizm. Postmodernizm atamalariga ta’rif.
2. Yangi tipdagi binolarning funksionalligi va konstruktiv mustahkamligi.
3. Me’morchilikda qo’llanilgan yangi xom ashyolar.
4. Bu uslubiy yo‘nalishlarga xos maktablar va me’morlar ijodi.

Eklektika me’morchilikdagi bir yo‘nalish bo‘lib, Rossiya va Yevropada 1830-1890-yillar oralig‘ida hukmronlik qilgan. Eklektika uslubi o‘z ichiga bir nechta uslublarni jamlaydi. Misol uchun neorenessans, neobarokko, neorokoko, neogotika, neorus uslubi, neovizantiya uslubi, indo-saratsin uslubi, neomavritan uslubi kabilar shular jumlasidandir<sup>441</sup>. Eklektika orderlarni o‘zida saqlab qoladi, ammo ulardagи an‘anaviylik o‘zgaradi. Birgina binoda ko‘plab me’moriy maktab uslublari baravar qo’llaniladi va uyg‘unlashtiriladi. Eklektika nafaqat me’morchilikda, balki dizayn va modada ham keng qo’llaniladigan uslub. Eklektika termini ba’zi mamlakatlar terminologiyasida “romantizm” tarzida ham uchraydi. Sababi aynan romantik an‘analar ushbu uslubga asos qilib olingan. Alohida mustaqil oqim sifatida eklektika XIX asrda shakllandi. Bunga asosiy sabab ko‘plab tarixiy uslublarning mavjudligi va yangilarini paydo bo‘lishi edi. Dastlabki eklektika me’moriy inshootlari salbiy qabul qilingan va ular uslub va an‘analarni rad qilgan. XX asrga kelib eklektika uslubi mashhur bo‘la boshladi. Eklektikaga alohida e’tibor bilan qarala boshlandi, u me’morchilikdagi tipiklik va bir xilikka nuqta qo‘ydi. Rossiya bu uslubning tarafдорлари ko‘p bo‘lgan. Ular qatoriga

<sup>441</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003. P.177 (Eclecticism is a nineteenth and twentieth-century architectural style in which a single piece of work incorporates a mixture of elements from previous historical styles to create something that is new and original. In architecture and interior design, these elements may include structural features, furniture, decorative motives, distinct historical ornament, traditional cultural motifs or styles from other countries, with the mixture usually chosen based on its suitability to the project and overall aesthetic value.)

Shtakenshneyder A.I., Bikovskiy M.D., Ton K. A., Kaminskiy A. S., Kleyn R. I., Parland A. A., Pomeransev A. N., Chichagov D. N., Shreter V.A kabilarni kiritish mumkin. Bugungi kunga kelib eklektikada uslublar kombinatsiyasiga cheklov yo'k. Orderlar va elementlarning qo'llanilishi ularning ma'lum bir funksiyasidan kelib chiqqan holda qo'llanilaveradi. Shunday ekan, umuman qarama - qarshi uslublarni kombinatsiyasini ham uchratish mumkin. Eklektika paydo bo'lishi bilan, orderlar sistemasi asosiy me'moriy mezon sifatida mavqe'ini yo'qtodi. Eklektikaning eng yaxshi afzalligi – ijod erkinligiga keng yo'l ochib bergenligidadir. Eklektikaga Rossiya misolida qaraydigan bo'lsak, bu uslubda etalon hisoblangan Garnye opera binosi qurilgan. Bino nafaqat tashqi ko'rinishi bilan, balki ichki interyeri bilan ham kishini xayratda koldiradi. Muxtasham arkalar, pilyastrilar, katta gumbaz va interyeridagi oltindek tovlanuvchi zinalar ajoyib ko'rinish kasb etgan. Yana bir me'moriy obyekt Berlindagi Reyxstag binosidir. Tashqi tomondan klassik ko'rinishga ega bo'lgan binoning gumbazi shishadan bo'lib, uning ichki qismida tomosha yo'lakchalari mavjud. Skandinavaiyada ham eklektikaga yorkin misol bo'la oladigan binolar bor. Bunga misol qilib Oslodagi opera teatri binosini keltirib o'tishimiz mumkin. Dengiz bo'ylab joylashgan bu bino o'zgacha ko'rinishga ega. Ayniqsa uning tom qismi nixoyatda g'ayritabiiy. Amerikada esa eklektikaning eng ajoyib namunasi sifatida Nyu Yorkdagi "Vulvort" binosini aytib o'tish joiz<sup>442</sup>. Bino vertikal seksiyalarga bo'lingan bo'lib, yaruslarga ajratilgan. Yuqori qismi esa minoradan iborat. Bino XX asrda qurilgan bo'lishiga qaramay, hozirgacha Nyu Yorkning ramzi hisoblanadi. Rossiyadagi K.A.Ton tomonidan qurilgan Rus-vizantiya uslubidagi Xaloskor Iso ibodatxonasi eklektikaning yorqin misolidir.

<sup>442</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Faris, Lawrence Wodehouse. London . 2003. P177-178 (The Woolworth Building, at 233 Broadway, Manhattan, New York City, designed by architect Cass Gilbert and completed in 1913, is an early US skyscraper). The original site for the building was purchased by F. W. Woolworth and his real estate agent Edward J. Hogan by April 15, 1910, from the Tenor Luther Park Estate and other owners for \$1.65 million. By January 18, 1911, Woolworth and Hogan had acquired the final site for the project, totaling \$4.5 million. More than a century after the start of its construction, it remains, at 241.4 meters (792 ft), one of the 100 tallest buildings in the United States as well as one of the 30 tallest buildings in New York City. It has been a National Historic Landmark since 1966, and a New York City landmark since 1983. The Woolworth Building was designed in the neo-Gothic style by the architect Cass Gilbert, whom Frank Woolworth commissioned in 1910 to design a 20-story office building as the F. W. Woolworth Company's new corporate headquarters on Broadway, between Park Place and Barclay Street in Lower Manhattan, opposite City Hall. Originally designed to be 420 feet (130 m) high, the building was eventually elevated to 792 feet (241 m). At its opening, the Woolworth Building was 60 stories tall and had over 5,000 windows. The construction cost was US\$13.5 million. With Irving National Exchange Bank Woolworth set up the Broadway-Park Place Company to finance the building, but by May 1914, had purchased all of the shares from the bank, thus owning the building outright. On completion, the Woolworth building topped the record set by the Metropolitan Life Insurance Company Tower as the world's tallest building).

Ibodatxonada 36 ta ichki kolonna, 20 ta arka, 60 ta deraza va 12 ta tashqi eshiklari bor. Yuqoriga intiluvchan tillarang gumbazlari esa sakkiz qirrali. Fransiyada bu uslubni “ikkinchchi ampir” deb atashdi. Eklektika qiroq Lui Filipp davrida keng yoyildi. Tillarang dekorlar o‘rnini og‘ir baxmal va duxoba matolari egallay boshladи. Buyuk Britaniyada bu jarayon 1840-1900-yillarga to‘g‘ri keladi. Asosan rokoko, gotika, ingliz uslubi, afrika uslubi, hind uslubi motivlari bilan uyg‘unlashadi. Neogotika va barokko elementlari qo‘shilmasidan tashkil topgan yana bir eklektika uslubidagi bino Qrimdagи Qaldирг‘och ini qo‘rg‘onidir. Eklektika uslubidagi interyeriga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning o‘ziga yarasha qonun qoidalari mavjud. Misol uchun ranglar kontrast bulishi, dekorativ elementlarning takrorlanib turishi, geometriklik va liniyalarning aniqligi bu uslubga xosdir. Bu uslubda xonani jihozlash alohida san‘at hisoblanadi. Mebellar shunday joylashtirilishi kerakki, ular noan‘anaviy bo‘lgani holda, betartiblik ham olib kelmasligi kerak.

Eklektizm me’morchilikda kelajakdagi rivoji uchun oxiri berk yulga boshladи. Shu bilan birga XIX asr kuriшish materiallari va konstruksiyalarini qurilish ishlarida foydalanishda asosiy texnik jarayon bo‘lib nom olgan. Bularning hammasi me’morlarni yangi kompozitsion va badiiy jihatlarini izlashga majbur qilgan. Ularning oldidagi vazifasi yengil emas edi. O’sha davr me’morlarning me’morchilikdagi haqqoniy tashqi va dekorativ tushunchasi ularning yechimini murakkablashtirgan.

1890-yillarda Yevropa me’morchilikda alohida bir oqim shakllana boshlaydi va “modern uslubi” deb nom oladi. 1910-yillargacha mavjud me’moriy amaliyatga ta’sir qilib sekin-asta rivojlangan, ammo me’morchilikda u umumiy eklektik yo‘nalishni o‘zgartira olmagan.

“Modernist” -me’morlar yangi zamonaviy uslub ishlab chiqishga harakat qiladilar. Binolarni haqiqatan funksional, qulay joylashtirish istagi ularni o‘z o‘rnida asimetrik hajmli kompozitsion rejalar asosida shunday binolar yaralishiga turtki bo‘ldi. Modern me’morlari deraza va eshiklarning joylashishida rang baranglikka intildilar. Ular fasadlar shishalarini ustki qismini qayta ishlab, yangi yirik umumiy va ishlab chiqarish binolarda yangi aktiv qurilish va yuza qismlar uchun mo‘ljallangan materiallardan foydalanishgan. Devorlar tekisligi ichki va tashqi tomondan har xil turdagи “bezaklar” - yengil bukilgan chiziqlar kabi ko‘rinishlarga ega bo‘lgan. Ornamentlarda dengiz o’simliklari, sochlari yoyilgan holdagi ayollar bosh qismi, turli

geometrik shakllarni ko‘rish mumkin bo‘lgan. Motivlarning paydo bo‘lishi, shu bilan birga o‘simlik va boshqalar ham Uzoq Sharq va Yaponiya davlatlarining modern uslubidan foydalanishining natijasi edi. Bu o‘rinda oxirgi bo‘lib Yevropa san‘atiga ta’sir etadi<sup>443</sup>.

Sip-silliq shakllar modern me’morchiligi va amaliy san‘atida asosiy omil bo‘lmagan. Mana shu belgilar binolarning gumbazlarida, karnizlarida, turar joy binolarinig burchaklarida ko‘rish mumkin bo‘lgan.

Modernda foydalilaniladigan yuza qismlar uchun mo‘ljallangan materiallar orasida – glazurlangan g‘isht, oq, yashil, ko‘k va boshqa turli ranglar, mozaika va smal’talar quyma keramikalar ana shunday nomlanar edi.

Me’morchilikda modern uslubidagi asosiy bino Vitebs va Leningraddagi Kshesinsk binolari misol bo‘lgan. Bu ikkala bino ham 1900-yillarning boshlarida qurilgan. Vitebs vokzalida modern uslubining asosiy belgilarini aniq shakllarda ko‘rish mumkin, bular – simmetrik bo‘lmagan umumiy kompozitsiyasi, katta vitraj oynalar ornamentlarni tashkil qilgan .

Kshesinsk qasrida ham xuddi shu belgilarni ko‘rish mumkin, ular assimetriya va boshqalar. Ayniqsa, burchaklari sip –silliq metall qoplamali katta shishalangan erker katta ahamiyatga ega.

Modern uslubida yangi qurilish materialari qatorida beton va temirbeton keng qo‘llanilgan. Bularda estetik ma’no berishga intilganlar. Shu bilan birga bu yerda ham modern vitrajlarning metall qoplamasi, metall konstruksiyalardek bezaklardan va boshqa binolar uslublashtirilgan modern ornamentlarga ega bo‘lgan .

<sup>443</sup> THE VISUAL ARTS: A HISTORY Hugh Honour, John Fleming. In memory of John Calmann Copyright ©1982, 1991, 1995, 2000 Fleming – Honour Ltd.Prentice Hall Inc.ADivision of Person EducationUpper Saddle River, New Jersey 07458 p.199-200. P.857(Modern architecture or modernist architecture is a term applied to an overarching movement, with its exact definition and scope varying widely. The term is often applied to modernist movements at the turn of the 20th century, with efforts to reconcile the principles underlying architectural design with rapid technological advancement and the modernization of society. It would take the form of numerous movements, schools of design, and architectural styles, some in tension with one another, and often equally defying such classification. The term *Modern architecture* may be used to differentiate from Classical architecture following Vitruvian ideals, while it is also applied to various contemporary architecture styles such as Postmodern, High-tech or even New Classical, depending on the context. In art history, e revolutionary and neoclassical styles that evolved around 1800 are also called *modern*. The concept of modernism is a central theme in the efforts of 20th century modern architecture. Gaining global popularity especially after the Second World War, architectural modernism was adopted by many architects and architectural educators, and continued as a dominant architectural style for institutional and corporate buildings into the 21st century. Modernism eventually generated reactions, most notably Postmodernism which sought to preserve pre-modern elements, while "Neo-modernism" has emerged as a reaction to Post-modernism. Notable architects important to the history and development of the modernist movement include Ludwig Mies van der Rohe, Le Corbusier, Walter Gropius, Erich Mendelsohn, Frank Lloyd Wright, Joseph Eichler, Richard Neutra, Louis Sullivan, Gerrit Rietveld, Bruno Taut, Gunnar Asplund, Anre Jacobsen, Oscar Niemeyer and Alyar Aalto.)

Modern amaliy san'atga katta ta'sir o'tkazgan. Modernistik shakllar mebellar, metall buyumlar va farfor buyumlarda ko'rish mumkin bo'lgan.

Rus me'morchilikida modern turli xil eklektik uslublar, ayniqsa, barokko, murakkab dekorativ shakllar bilan har doim ham chiqisha olmagan. Moderning mazkur ko'rinishini me'morchilikda XX asrning birinchi yillarda qurilgan Leningraddagi Kitoblar uyi misolida ko'rish mumkin.

1890-1900-yillardagi ko'pgina eklektik binolarda modern uslubi yaqqol sezilmaydi, oddiy an'anaviy me'moriy ustalarda modernistik tomonlarini anglash mushkul bo'lgan .

Vaqtlar o'tishi bilan modern murakkab dekorativlilikka qiziq boshlaganlar – bino fasadlari ornamentlardan uzoqlasha boshlagan va me'morchilikning konstruktiv asosi birinchi planga chiqqa boshlagan. Modern o'zining so'nggi, anchagina oddiyroq bo'lgan konstruktivizm bilan chegaralangan ratsionalistik o'rniga o'tib olgan. Bu jarayon har yerda bir xil kechmagan va murakkab bo'lgan, lekin umumiy uslubiy o'zgarishlar shu tariqa kechadi. Venadagi avstriyalik yirik me'mor Otto Wagner tomonidan yaratilgan yashash uyi so'nggi modernga misol bo'la oladi .

1920-yillarda turli davlatlarda qurilgan binolarda endi biz umuman boshqa uslubni ko'ramiz, ya'n'i konstruktivizmga yaqinlasha boshlangan. Konstruktivizm me'moriy konstruksiyalarini aniqlash tomonlariga yaqin bo'lgan .

Konstruktivizmning vujudga kelishi yangi materiallar – beton, temirbeton, yirik qurilish texnikalarining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan. Buning natijasida quruvchi va me'morlar eng murakkab konstruktiv ishlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ular og'ir va katta hajmli konstruksiyalarini nozik va yengil, lekin mustahkam temirbeton kolonnalar bilan almashtirishga muvaffaq bo'lishadi. Taxtali yopish usullarini o'rniga kichik hajmli juda qattiq, mustahkam temirbetonlardan foydalana boshlashgan. Bundan tashqari shu xomashyolar yordamida oldingilari bilan taqqoslaganda ancha katta binolarda ishlatish qulayligi tug'ilgan. Ular bir necha metrgacha yengil konstruksiyada amalga oshirilgan.

Konstruktivizm me'morchilik amaliyotiga binolarning karkas konstruksiyali usulini olib kiradi. Tekis tomlar, shishalangan katta tekis qismlar shular jumlasidandir. Eski me'morchilikda mayjud bo'lgan

binolar pastki qavatlarining devor va ustunlarini yirik shaklda ishlash yuqori qavatlardagiga nisbatan orqada qoladi. Endi birinchi qavatni yengillashtirish yoki umuman eski usuldan voz kechib, yangi usul bilan almashtirishga erishganlar.

Yangi konstruksiyalarda binolar qurilishi anchagina qisqarib, ularning narxi ham sezilarli darajada arzonlashadi .

Shu davrda bino turlari almashinib, ularning hajmlari ham o'sib borgan. Amerikada mahsus sharoitlarda osmono'par baland binolar qurilishiga imkoniyatlar tug'ilgan va ular bir necha o'n qavatdan iborat bo'lgan. Aksariyat hollarda yirik univermaglar, mehmonxonalar, vokzal va aerovokzallar , portlar va boshqa binolar qurila boshlagan. Tabiiyki, endi ularni XIX asr o'tralaridagi binolari kabi kompozitsion yechimini topish mumkin bo'lмаган . 70 -80-100 qavatli binolarni ustunlar, karnizlar bilan bezash umuman kerak bo'lмаган. Bunday ulkan binolardagi turli bezaklar umuman ko'zga tashlanmaydigan sharoitga tushib qolgan.

Bularning barchasi XX asrdagi yaratilgan binolarning yangi shakllarini, yangi zamonaviy me'moriy uslub, konstruktiv -geometrik shakllarni aniqlab bergen .

Konstruktivizm hozirgi davrda ham G'arbda mavjud. Qurilish texnikasi rivojlanishda davom etib, u me'morni yangi me'moriy konstruktiv usullarni qo'llashga olib keladi. Har bir shaxs o'zining sof maqsadiga muvofiq bo'lib, o'z uchastkasida hohlagan bino turini va turli qavatli qilib qurish huquqiga ega bo'lgan. Masalan, Nyu - Yorkdagi yetti - besh qavatli eski tipdag'i uylar qatorida qurilgan yirik zamonaviy osmono'par binolarni ko'rish mumkin<sup>444</sup>.

<sup>444</sup> THE VISUAL ARTS: A HISTORY Hugh Honour, John Fleming. In memory of John Calmann Copyright ©1982, 1991, 1995, 2000 Fleming – Honour Ltd.Prentice Hall Inc.ADivision of Person EducationUpper Saddle River, New Jersey 07458p-199-200. P.858(Constructivist architecture was a form of modern architecture that flourished in the Soviet Union in the 1920s and early 1930s. It combined advanced technology and engineering with an avowedly Communist social purpose. Although it was divided into several competing factions, the movement produced many pioneering projects and finished buildings, before falling out of favour around 1932. It has left marked effects on later developments in architecture. Constructivist architecture emerged from the wider constructivist art movement, which grew out of Russian Futurism. Constructivist art had attempted to apply a three-dimensional cubist vision to wholly abstract non-objective 'constructions' with a kinetic element. After the Russian Revolution of 1917 it turned its attentions to the new social demands and industrial tasks required of the new regime. Two distinct threads emerged, the first was encapsulated in Antoine Pevsner's and Naum Gabo's Realist manifesto which was concerned with space and rhythm, the second represented a struggle within the Commissariat for Enlightenment between those who argued for pure art and the Productivists such as Alexander Rodchenko, Varvara Stepanova and Vladimir Tatlin, a more socially-oriented group who wanted this art to be absorbed in industrial production.)

Keyinchalik rus me'morchiligi rivojlanadi. O'tgan davr bilan taq-qoslaganda boshqa turdag'i me'morchilik paydo bo'ladi. Eklektizm va bu bilan bog'liq oqimlarga ham oxirgi nuqta qo'yiladi. Keng ommaga xizmat qiluvchi yirik massivlar – mehnatkashlar uchun turar joy binolari, madaniyat uy va saroylari, tumankengash binolari, mакtab va mакtab – internatlari, dam olish maskanlari, o'nlab yangi kolxoz va novxoz inshootlari va boshqalar paydo bo'la boshlaydi. Hattoki ilgari qurilgan inshootlar ham o'zgara boshlagan. Turar joylar ilgarigidek katta bezaklarga boy qilib emas, balki shinam holda qurila boshlagan. Teatrlarning tomoshabin uchun zallari yarus sistemasida emas, balki yanayam demokratik asosda – tomoshabinlar uchun spektaklni yaxshi qabul qilishi uchun sharoiti qulay, amfiteatr shaklida qurila boshlagan. Ishlab chiqarish sex inshootlarida madaniy xizmat qilish joylari, ya'ni qizil burchaklar, garderoblar, dushxonalar, oshxona va bufetlar tashkil etilgan.

Rus me'morchiligining yaxshi rivojlanishida shaxslarning yer egalik huquqi katta o'rinn tutgan. Me'morlar yer va turar joy egalarining qiziqishlari bilan eski shaharlar territoriyalarini qayta ishslash, katta maydonlarda yangi shaharlar qurish huquqiga ega bo'lganlar .

Rus me'morchiligi paydo bo'lgan davrdan boshlab u davr kishilar uchun qulay va dam olishga mo'ljallangan inshootlar qurish vazifasini olgan edi. Rus me'morlari har doim qulay, yaxshi va aniq reja asosidagi, mustahkam, zamonaviy konstruktiv ahamiyatga ega tejamkor, maftunkor va chiroqli binolar qurishga harakat qilganlar. Rus me'morchiligining yo'li yengil kechmagan. 1920-yillarda va so'nggi yuqtlarda san'atda turli xil fikrlar bilan to'qnashuvlar vujudga kelgan .

Rus me'morchiligi paydo bo'lgan birinchi yillarda ijodiy izlanishlar inshootlar me'morchiligidagi va kompozitsiyalardagi garmoniya , oddiylikning ko'p uchrashini kuzatish mumkin .

Shu davr me'morchiligining rivojlanish asosiy yo'lini aniqlash, qurilish texnikasi rivoji bilan, tezkor materiallari - har xil turdag'i beton, temirbeton, metall va boshqalarga bog'liq edi.

Hozirgi davrdagi qurilishlar o'tgan davr va horij me'morchilik uslublari, zamonaviy qurilish – konstruktiv asoslari va iqtisodiy talablar, umumiy belgilari ko'pgina shakllari bilan o'xshashdir . Shu bilan birga rus me'morchiligi va kapitalizm me'morchiligi orasida katta farq bo'lgan. G'arb davlatlari me'morchiligi har doim ham turli firmalarning reklama yo'llarida yoki qurilayotgan binolar yoki mavjudlarining buyurtmachilari sifatida xizmat qilmagan. Me'morlar ko'pincha o'ziga

xos kompozitsiyalar, shakliy jihatdan o'tkir, tashqi tomonlari binolarning iqtisodiy talablari jihatdan qarama – qarshiliklarga uchrab turadi.

Lekin shuni anglash kerakki, kapitalistik davlatlarda ko'pgina qiziqarli masalan, Chikagoda turar joy binosi, Braziliya va Mexikodagi davlat inshootlari. Nyu –Yorkdagi OON binolari kabilar yaratilgan. O'ziga xos binolarni qurish ko'pincha me'morchilikning yuqori sifati darajasida bo'lган .

Rus me'morchiligidagi topshiriqlarga real yondashish, oddiylik va shu bilan birga kompozitsiyalarni aniqligi o'ziga xos tomonlarga ega bo'lган. U tashqi effeklardan qochadi. Yangi binolarda rus odamlari o'zini yengil va yaxshi his qilishlari kerak edi .

Zamonaviy qurilish texnikasi me'mor ustalarga katta ijodiy erkinlik beradi. Qurilishda yashash inshootlari yetakchi o'rinda turadi. O'sha davrda yashash joylarni qurilishida ulkan ishlar bajarilgan. 1980-yillargacha 86 million kvartira qurilib, ko'pgina odamlar yangi zamonaviy, qulayliklarga ega bo'lishi kerak edi. Uy-joy qurilishlari yillar davomida yig'ilgan tajribalar asosida olib boriladi. Shu davr me'morchiligi bir vaqtlar mavjud bo'lган "donali qurilish" usulidan voz kechadi. Unda turar joylar kichik hajmda bo'lib, me'moriy jihatdan va reja bo'yicha ham bir-biri bilan umuman yaqin bo'lmagan. O'sha davr qurilishlari kompleks kvartalli uslubda olib borilgan. Asosiy reja birligi va turar joy qurilishlarida asosiy modul, yirik yashash kvartali - mikrorayon bo'lган. Uning hududi 25-30-40 va undan ko'proq gektarni tashkil qiladi. Mikrorayonda hamma binolar bir-biridan kichik yo'lakchalar orqali ajralib turgan. Transport mikrorayon hududiga kirishi, uning funksiyasidan ham bo'ladi. Mikrorayon nafaqat butun me'moriy kompleks, balki funksiyalar asosida birlashadi. Unda halq madaniy-maishiy xizmatlarining asosiy turlari bilan ta'minlanadi. Mikrorayonlar o'zaro va shaharlar bilan aloqa sistemasi – bularning barchasi shahar qurilish teoriya va amaliyotining vazifasiga kiradi. Me'moriy – kompozitsion aloqlarda mikrorayon turli tuman bo'lishi mumkin va eng yaxshi namunalar bularning hammasini tasdiqlaydi. Cheremushekdag'i 9 va 10 kvartallarini misol qilish mumkin. Moskvadagi Xoroshevo – Mnevniyi rayoni, Avtovadagi turar joy kvartallari, Leningraddagi Moloy Oxta va boshqalarni ham misol qilish mumkin.

Mikrorayonlarning me'moriy yechimi uchun uylarning turli qavatlari qurilishi keng qo'llaniladi, besh – yetti – to'qqiz – o'n ikki qavatlar. Ularning turli joylanishi – uchastkaning perimetriga qarab, binolarning

intervali o'zgarishi va bolalar markazlarining qurilishlari, kvartal hovlilari daraxt va turli o'simliklar bilan kvartallar oraliq'ida sport va bolalar o'yinchoqlari, cho'milish havzalari, gazon va gullar – mikrorayon me'morchiligini jonlantiradi.

Hozirgi vaqtida badiiy-kompozitsion qulayliklar me'morlar uchun ko'p marotaba kengaytirilgan. Ilgarilari me'mor yashash joylarini qurib, asosan ornamental detallar bilan binoning tekis devorlariga, ko'chaga qaragan qismlariga lepka bilan ishlov bergen. Ayni vaqtida quruvchi – me'mor ko'p turdag'i shu bilan birga hajmli kompozitsion jihatlardan va tekis, to'g'ri devor yuza qismlarida kontrast bezaklardan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari yangi qurilish materiallari, yorqin ranglarni bino yon tomonlari, balkonlar uchun foydalaniladi. Binolar siluetini turli balandlikda ishlashi mumkin. Me'morning yangilik yarata olishi va ijodiy izlanishlaridan yakuniy natija chiqarish mumkin. Zamonaviy me'morchilik bu borada o'zining qulayliklari jihatidan o'tgan davr me'morchiligidan ustunroqdir. Hech qachon va hech qayerda bunday – turli-tuman, industrial asosda ishlash qulayliklari bo'lmagan.

Shu davr me'morchiligida yashash joylarining interyerlari muhim o'rinn tutgan. Zamonaviy interyerning asosiy shakllari – katta oynali derazalar, devorlarning och rangliligi, yengil rang-barang drapirovkalar, akvarel yoki estamp, turli xil qattiq va yumshoq zamonaviy uslubdag'i kontrast rangli, nozik metall va taxta oyoqchali mebellaridan iborat. Zamonaviy interyerda yuza qismlari uchun, plastmassa, temir, daraxtlarning turli ishlovililar , keramika katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy intnryer narsalar bilan to'lib ketishi kerak emas. Buning uchun kam hajmda mebel turlari, amaliy san'at namunalari va ularni ajoyib qilib joylashtirish muhimdir.

Shu davr turar joy qurilishi o'zi bilan birga shisha buyumlari, farfor, turli metall buyumlari, badiiy ishlab chiqarishni jadallashtiradi. Tabiiyki mebel va boshqa tashkilotlar shu davr me'morchiligi va odamlarining didiga to'g'ri kelishi kerak. Tekstil ishlab chiqarish korxonalari dekorativ matolarning zamonaviy turlarini ishlab chiqarishi shart edi.

Shu davr odamlari poligrafik ishlab chiqarishga ham katta talab qo'yishgan. Bu bilan san'atda yanada katta xarakterga ega bo'lishga intilgan.

Me'morchilikning rivojlanishi "san'at turlari aralashmasi" bilan bog'liq va faqat ajoyib san'at asarlarining yaratilishi qurilish tarkibining o'sishi va odamlarda, hayotda san'atning mavjudligi muhimdir.

G'arb me'morchiligi XIX va XX asrlarning asosiy qismilarida qarama-qarshiliklar yo'lini bosib o'tgan. XIX asrning 30 yillardan boshlab klassitsizm, retrorespektivizm va eklektizm bilan almashinadi. Bezakdor, taqlidiy me'morchilik bilan parallel asrning 2-choragidan boshlab G'arbiy Yevropa me'morchiligidagi boshqa ratsionalistik, progressiv qurilish materiallariga, metall va shisha ishlatishga asoslangan oqim rivojlandi. Bu oqim asosan katta jamoat joylarni qurishga mo'ljallangan edi. Yangi qurilish materiallari, yangi konstruktiv yechimlar me'morlarning yangi g'oyalarini hayotga tadbiq qilishga sabab bo'lgan. Bu esa matematika va mexanika kabi fanlarning rivojlanishini kuchaytirdi, mustahkam qurilish materiallari, konstruksiyalarning aniq hisob-kitobi, qurilmalarning pishiq va mustahkam, yengil bo'lishiga olib keldi.

Me'morchilikdagi birinchi metall karkaslarning keng qo'llanilishi Anri Lyabrust tomonidan 1843-1850-yillarda Parija qurilgan avliyo Jenevyeva nomli kutubxonanining o'quv zali edi. Uning shiftini cho'yan kolonnalarga tayangan yassi gumbazlar tashkil qiladi. Bu konstruksiya yangi bo'lib, lekin an'ana ta'sirida me'mor bir xil elementlarga arxaik forma berdi: yupqa cho'yan kolonnalar korinf kapitelli antik kolonnalar shaklida ishlangan.

Asr o'rtalarida boshqa original g'oya me'moriy konstruktiv munosabatdagi binolar: transport qurilmalari, ko'rgazma va muzey zallari, magazinlar paydo bo'lgan. 1850-1860-yillarda shisha ishtirokidagi metall konstruksiyalar asosidagi Parij va Londonning katta vokzallari qurilgan. Misol bo'lib G.Eyfel va P.Bualo tomonidan 1876-yilda Parija qurilgan «O Bon marshe» magazini, tektonik yechimi asosida – metall konstruksiyalarning, ustunlar va gumbaz karkasining ko'rinishi edi.

Qurilish texnikasi va ko'p progressiv qurilmalar borligiga qaramasdan, retrorespektiv — eklektik oqim me'morchilikda yaqqol edi va qurilmalarning asosiy massasi hali ham me'morchilikning an'anaviy oqimlarining aralash formasida qurilar edi. Texnikaning progressivligi shu vaqtning o'zida san'atda qarama-qarshi reaksiyani tug'dirdi. «Preraphaelitizm» oqimi ingлиз san'atining nazariyotchisi D.Reskin boshchiligidagi asosiy rolni o'ynadi. Uning ta'kidlashicha,

mashina asl go'zallikni yo'q qiladi. D.Reskin oliv san'at yo'nalishidagi kurashning asosiy quroli deb "hunarmanchilikni qaytadan tiklamoqlik" deb bilgan. Uning nazariyalari rassom U.Morris, me'mor D.Uebb va boshqalarning birlashib, guruh tuzishlariga sabab bo'ldi. U.Morris uchun D.Uebb tomonidan qurilgan Qizil uy nomli kottej keyinchalik ko'pgina qurilmalarga namuna bo'lgan. Uning ichki qismiga ishlov berishda ko'pgina yangiliklar bor, ammo u milliy gotik mavzusini qayta ishslashga asoslangan.

XIX asr o'rtalarida qurilishning keyingi texnik progressi kuzatiladi. Metallar yanada ko'proq ishlatiladi. 1840-yildan praktikaga svarkalangan temir kiritiladi. 1856-yili po'latning qurilishda ishlab chiqarish protsessi kashf etildi<sup>445</sup>.

- XIX asrning oxirida 1889-yili Xalqaro ko'rgazma munosabati bilan Gustav Eyfel loyihasi bo'yicha Parijning o'rtaida katta minora qad ko'tardi, keyinchalik u Eyfel nomi bilan ataldi. Uning balandligi 312 metr bo'lib, po'lat elementlardan yasalgan bu qurilma me'morchilikning keyingi rivojlanishini ta'minladi.

Metall karkaslarning ishlatilishi AQShda juda katta va baland binolarni qurishga imkon yaratdi.

Bunday qurilmalarning qurilish sababi, kapitalizm paytida markazdagi yerlarning narxi oshishi edi. Bu esa yerni kam egallab, butun massaning balandlikka bo'y cho'zib, osmon o'par imoratlarning qurilishida ko'rshimiz mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida metalldan tashqari boshqa progressiv materiallar: beton, temir beton dunyo me'morchiliginining keyingi rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. Bunga shart-sharoit bo'lib yangi qattiq material – sementning kashf qilinishi bo'ldi. 1850-yilda Uilkinson va Kuanye temir beton konstruksiyalarini yaratishga harakat qilishgan (bunda beton massasini mustahkamlash uchun unga temir armaturaning kirttilishi bo'ldi). Betonning o'zi katta siqilish nagruzkalariga chidashi mumkin, ammo cho'zilishga yaxshi qarshilik ko'rsata olmaydi. Temir armatura uning bu kamchiligini mustahkamlash uchun ishlab chiqilgan. 1867 yilda Jozef Monye temir beton ashyolar ishlab chiqarishga patent oldi. Bu temir beton asrini ochib bergen. G'ishtdan ko'ra temir beton katta nagruzkalarga chidamli hamda unga har xil shakl berish imkoniyatiga ega edi.

<sup>445</sup> A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003.P.185 (18<sup>th</sup> century industrial production of cast and wrought iron so increased its availability that iron replaced wood in the frame of any building where heavy loads or the danger of fire were of concern. Cast iron was favored for columns while the superior tensile qualities of wrought iron made it recommended material for beams.)

• Temir beton qurilishga asosan 1890-yildan kiritila boshlandi. Temir beton konstruksiyali imoratlar an'anaviy ko'rnishda bo'lib, oldin qurilishda metall qanday qo'llanilgan bo'lsa shu betonda ham qaytarildi. Ammo me'morchilik formalariga o'zining aktiv ta'sirini u 1900-yilda o'tkaza boshladi.

1890-yilda me'morchilikda yangi stil, yangi oqim – modern paydo bo'ladi. Germaniya va Avstriyada u – yugendstil yoki setsession, Fransiyada – ar nuvo deb atalgan. Modern Yevropa me'morchiligidagi egallab olgan eklektizm oqimini yengish vositasi bo'ldi. U zamonaviy, yangi, har tomonlama yuksak stil yaratish maqsadini oldiga qo'ygan edi.

Modernning Yevropa va Amerikada tarqalish payti 1890 va 1900-yilarga to'g'ri keladi.

Modern 1890 yilda paydo bo'lgan bo'lsa, ammo uning kelib chiqishi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Modernistlar o'tgan vaqt me'morchilik formalarning rivojlanmasligini tushunib, unga yangi original me'morchilikni qarshi qo'yishdi. Ularning asosiy diqqatini yangi materiallarga: temir beton, shisha, tashqi tomonidan ishlov berishda keramika ishlatishga qaratildi. Modernning erta paytida hali rivojlanmagan va ko'proq eklektik qurilmalarda dekorativ va ornamental shaklda edi.

• Modern oqimining me'morlari plan va kompozitsiyalar tuzishda, eshik va oynalarni joylashtirishda, hajmlarni guruhlashtirishda assimetrik yechimlarga ko'proq e'tibor berishgan. Uylarning bir xil qismlariga va dekorativ elementlarga dumaloqlashgan shakllarni berishgan. O'simlik mavzusi ko'p ishlatilgan, u asosan uzoq sharq san'atidan, avvalo Yaponiya san'atidan olingan edi.

Modern stilining Yevropada ko'zga ko'ringan me'morlaridan: venalik Otto Vagner va Yozef Olbrix, Belgiyalik Van de Velda, angliyalik Charlz Makintoshdir.

Bu me'morlarning asarlarida qarama-qarshiliklar uchraydi, kompozitsiyadagi ratsionallik va konstruktiv yechimlarning borligiga qaramasdan, ularda yuzaki dekorativlik qirralari uchraydi. TTTu vaqtning o'zida ularning ishlarida hayoliy va murakkab formalardan ko'proq, aniq va sodda tendensiyaga o'tish kuzatiladi. Bu tendensiya Otto Vagner ham yaqqol, uning ilk ishlaridan Vena metropolitenining «Karlplats» stansiyasi dekorativligi bilan xarakterlidir, Venadagi Neyshtift ko'chasidagi uyda esa ko'proq geometrik hajm va chiziqlarga ko'proq ahamiyat berilgan.

Olbrixning mashhur asariga Venadagi Setsession ko'rgazmalar binosi misol bo'ladi. Unda ko'proq modernning erta bosqichidagi dekorativ formalar ishlataligani. Avstriyaning urushdan keyingi ahvoli yomon bo'lgan. Tiklanish ishlari odam ko'p yig'ilgan joyda, ya'ni Venada boshlangan edi. Har xil oqimlarning ta'siri kuchli, ammo me'morlar endi ko'proq estetik taraflariga ahamiyat berishdi.

• XIX asr oxiri XX asr boshlarida Belgiyada ishlab chiqarish va savdo-sotiq ishlari rivojlanib, 1890-yilda Belgiya Yevropa me'morchiligidagi asosiy o'rnlarni egallab, klassitsizm va eklektika (milliy romantizm bilan ham) an'analari bilan kurashuvchi markazga aylandi. Anri van de Velda Yevropa modernining ko'zga ko'ringan me'morlidan. U kanonga va fasadlarning bezakdorligiga qarshi chiqqan, hajmlni kompozitsiyalar va interyeriga yangicha yondashuv uchun kurashgan. Har bir bino individual ko'rinishga ega bo'lishi kerak deb ta'kidlagan.

Jahon urushi paytida qurilish to'xtab, ko'pgina shaharlarda katta vayronagarchiliklar bo'ldi. Urushdan keyingi davrda me'morchilikda katta o'zgarishlar seziladi.

• Me'morlarning diqqati, asosan, kam qavatlari beton binolar qurishga qaratilgan edi. Ammo iqtisodiy taraflar qurilish ishlari hajmini chegaralab qo'ydi. Qurilishning ko'tarilishi 1924-yilda kapitalistik mamlakatlarning iqtisodiy tomonidan barqarorlashi natijasida bo'ldi.

Germaniya me'morchiligining klassik funksionalizm asari Bauxauz imorati hisoblanadi, u Dessauda shu davrning ko'zga ko'ringan me'morlari Valter Gronpius tomonidan qurilgan.

Me'morchilikning tashqi hajmlari va interyerlari formalarning geometrizatsiyasi va devor yuzasining oynalar bilan kontrastligi asosida qurilgan. Germaniyada ijod qilgan me'morlardan Erix Mendilson bo'lib uning Pastamdag'i astronomik observatoriya binosi keyinchalik Eynshteyn minorasi deb atalgan.

Berxauz me'morlari uying funksional rolini ko'rsatib berib, o'zlarining ijodlarida me'moriy estetik ifodaga erishdilar.

Fransiya me'morchiligidagi mashhur bo'lgan Le Korbuzye Perri qo'lida ishlagan. U juda original, o'ziga xos go'zallika ega bo'lgan binolar qurgan. Ammo ularda formalizm elementlari uchrab turadi.

Yangi me'morchilikning zamонавиyy стилини Le Korbuzye beshta tezis yordamida ifodalab bergen:

1. Ustunlar (ustunlarda turgan imorat, ustunlar 1 qavat o'rnida).
2. Yassi tom (uning bog' sifatida ishlatalishi).

3. Planning erkin bezatilishi (shiftgacha bo‘lgan karkas sistema devorlarning kutilmagan joylarda bo‘lishini ta‘minlaydi).

4. Uzunlashgan deraza (karkas konstruksiyalari derazaning butun fasad bo‘ylab joylashtirishga imkon beradi).

5. Fasadning erkin bezatilishi.

Le Korbuzye asosiy diqqatini shaharsozlik muammolariga qaratgan. U o‘zining «Urbanizm» kitobida zamonaviy shaharlardagi ahvolni tanqid qilgan.

XIX asr oxirisida AQSH dunyoda katta sanoat mamlakatiga aylanib, qisqa vaqt ichida qurilayotgan imoratlar Amerika me’morchiligidagi o‘z izini qoldirdi. Chuqur me’morchilik an’analariga ega bo‘lmagan Amerika me’morchiligi, boshqa kapitalistik mamlakatlarga qaraganda binoning savdo-sotiq obyekti deb, tashqi ko‘rinishini esa reklama sifatida qabul qilingan.

L.Salliven zamonaviy Amerika me’morchiligining asoschisi bo‘lgan. Chikago maktabining birinchilardan bo‘lib, u eklektizm bilan kurashgan, sekin-asta Salliven ilk dekorativ modern formalarini yengib, oddiy va aniq oqimni ishlab chiqadi. Uning ishlarida birinchi planda me’morchilikning funksional va konstruktiv tomonlari chiqadi.

XX asr boshida modern sekin-asta o‘zining kechki bosqichiga konstruktivlikka o‘tadi. Binoning fasadidagi dekorativlik ahamiyati pasayadi, asosiy diqqat konstruktiv elementlarning fasad proporsiyalari, deraza, devor, ajralib turgan ustunlarning estetik ifodasiga qaratiladi. Me’morchilik qurilmalarida tejamkorlik va sodda kompozitsion estetik vositalarga intilish yaqqol namoyon bo‘ladi. Qurilayotgan davridan birinchi jahon urushigacha zamonaviy me’morchilik asosiy prinsiplari aniqlangan. Bu davrda fransuz Ogust Perre va Amerikalik Frank Lloyd Rayt ijod qilishgan. Ularning ijodiy faoliyati birinchi jahon urushigacha hamda uning tamom bo‘lishidan keyin davom etgan. Ikkalasi ham ilk modern ta’sirini yengib, zamonaviy texnik vositalarga asoslangan me’morchilikni rivojlanishga intilishgan.

F.L.Rayt Sallivenning davomchisi edi. Dekorativ stilizatsiyadan kechib, Rayt me’morchilikni uch hajmli fazoviy san’at deb hisoblaydi. U tabiat bilan me’morchilik o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni rivojlantirish tarafdoi edi. Uning ilk asarlariga Illinoysdagi Martin uyi misol bo‘ladi. Unda modern me’moriy formalari bilan aloqa seziladi. Aniqlik va ratsionallikka intilgan Rayt shu bilan birga binolarning hajmiy yechimini murakkablashtirgan.

Birinchi va ikkinchi jahon urushlari o'rtalarida F.L.Rayt faoliyat ko'srsatib, 1920-1930-yillarda mashhurlikka erishadi. F.L.Rayt Pensilvaniyadagi Sharshara uy, Nyu-Yorkdagi Gugenxeym muzeyining muallifidir. Katta shaharlarda osmono'par binolarning ko'payishi 1921 yilda bunday binolar o'rtaida musobaqa uyushtirilishiga olib keldi. 1930-yil boshida «Impayr steyt bilding» binosi quriladi. U hamma rekordlarni yengib, Amerikada eng katta va baland bino bo'ldi.

• Ko'p qavatlari binolarning ilk rivojlanish davrida, fasad bezatilishida retrorespektivizm qirralari uchraydi, ammo keyinchalik geometrizatsiya va konstruktivizm qirralari paydo bo'ldi. Ikkinci jahon urishidan keyin shaharlarda qayta tiklash ishlari olib borilib, asosiy qurilish joylari shahar chetlari bo'ldi. Bu davrda qurilish ishlarining konstruktivlik qirrasi ko'proq AQShda namoyon bo'ldi. Osmono'par binolarning yengil karkasli sistemalari ba'zilarida butunlay oynalar bilan ishlangan. Nyu-Yorkdagi OON Sekretariat binosi bunga yaqqol misol bo'ldi (me'mor U.Garrison).

Me'morchilik yo'nalişlaridan «organik stil» oqimi ajralib chiqadi. Organik stil oqimi me'morlari o'zining asosiy prinsiplari deb – murakkab va ko'p burchakli formalni binolarning konstruktiv yechimi deb hisoblashgan. Praktikada «organik me'morchilik» formalizm bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Ikkinci jahon urushidan keyin milliy maktablarda kuchli differensiyasi kuzatiladi. Skandinaviya va Angliyada o'ziga xos oqim – «yangi empirizm» paydo bo'ldi, an'anaviy me'morchiliqdagi g'isht va daraxt materiallarining qo'llanilishida ko'rildi. Bu oqimda ijod qilgan finlyandiyalik me'mor A.Aaltoning Xelsinkidagi katta madaniyat uyi misol bo'ldi. Milliy me'morchilik maktablari orasida asosiy diqqatga Braziliya va Meksika maktablari sazovor. Meksikada monumental yechimlarda an'anaviy bo'lgan qadimgi rangtasvir namunalari, ropsis va mozaika ishlatilishi bilan xarakterli. Bino fasadlarida gilam sifat rangtasvir kompozitsiyalarini ko'rishimiz mumkin.

Braziliyadagi davlat imoratlari Lyusio Kosta va Oskar Nimayerlar loyihasi bo'yicha qurilgan. Bu qurilmalarda tabiiy shart-sharoitlar nazarda tutilib, fasadning ishlovida quyoshdan saqllovchi plastinalar hamda qisman an'anaviy rangtasvir namunalari ishlangan.

Texnikani keyingi rivoji, italiyalik P.Nervining qiziq injenerlik g'oyalarini amaliyotda bajara oldi. U o'zining temir beton konstruksiyalarini minimal darajasigacha qisqartirish sistemasini ishlab

chikdi. 1960-yilda 17-olimpiya o'yinlari munosabati bilan Rimdag'i sport saroyi shu sistema bo'yicha qurilgan.

Zamonaviy G'arb me'morchiligidagi ko'plab o'ziga xos va yuqori sifatli binolar qurilgan. Bu yerda ko'proq assimetrik kontrast kompozitsiyalarning original yechimlariga ahamiyat berilgan. G'arb me'morchiligi o'zining kapitalizm yo'lidagi qarama-qarshiliklarni yengishda shaharsozlikda aniq chora-tadbirlar ko'rinishiga qaramasdan, samarali natija bermadi.

G'arb me'morchiligidagi progressiv oqimlar XIX asr o'rtalarida zamonaviy material va konstruksiyalarning aktiv ishlatalishi, me'morchilik va bino interyeriga ta'sir ko'rsatmadı. 1880-yillargacha interyer tarixiy stillarda ishlanar edi. 1890-yillarda modern stilining rivojlanib kelishi, interyerlardagi eshik, deraza, kamin, mebel va har xil bezatish predmetlari shu stilda ishlanishini talab qilar edi.

Xonalar och, yengil ranglarda ishlangan, bu ranglar bilan mebelning yangi formalari mos bo'lgan. Ba'zilarida interyerda devorlarning pastki qismi mebel qaysi daraxt turidan qilingan bo'lsa, uni panel shaklida dekorirovka qilish, mebelda esa har xil metallardan ornamental shakldagi dekor qo'llanilishi keng tus olgan edi. Keramika, shishadan ishlangan buyumlar juda original bo'lib, interyerda ko'p ishlataladi. Interyerda katta o'rin chinni buyumlarga – vazalar, haykalchalar, o'zining rangli koloriti bilan xona kompozitsiyasini to'ldirib turuvchi predmetlarga berilgan.

1920-yillarda me'morchilik stilining evolyutsiyasi natijasida interyer ham o'zgara boshladi. Bu ko'proq zamonaviy binolarda: kechki konstruktiv modern oqimi xonalarning yangicha tarzda ishlanilishini talab qilgan. Ammo ko'p qavatli uylarning xonalarida haligacha eski mebel va buyumlar bo'lib, yangi narsalar bilan to'ldirish maqsadida kiritilgan.

Ammo keyingi o'n yilliklarda yangi uylardagi interyer ko'proq konstruktiv, zamonaviy, «dizaynerlik», funksional ahamiyatga ega bo'ldi. Bu tendensiya amalda bizning davrimizgacha saqlanib kelinmokda. **Funksionalizm va konstruktivism**. Bu uslubda qurilgan binolar qiyofasi yangicha ko'rinishda bo'lib, konstruktiv hayolparastlik avj oldi, hamda funksionalizm va konstruktivism uslublari paydo bo'ldi. Yevropada inqilobiy uyg'onish, birinchi jahon urushi va Oktabr to'ntarishi natijasida har xil siyosiy, mafkuraviy va badiiy qarama-qarshiliklar paydo bo'ldi. Bular ta'sirida g'arb me'morligida funksionalizm, sobiq rus saltanati o'rnida paydo bo'lган sho'ro

arxitekturasida konstruktivizm uslublari rivojlandi. Kostruktivizm uslublari g'oyasining xarakterli tomonlari shundan iboratki, unda bino konstruksiyasi bino arxitekturasi bilan uyg'unlashib ketishi va bir vaqtning o'zida estetik sifatga ega bo'lishi kerak. Funksionalizm XX asrning 20-30-yillarda keng tarqaladi. Ko'p qavatlari jamoat va savdo binolari qurildi. Bu binolar konstruksiyasi temirbeton sinchlardan va ustunlardan tashkil topgan bo'lib, devorlari silliq bir tekis va har xil shakl va ko'rinishlarda qilingan<sup>446</sup>. Funksionalistik me'morlar an'anaviy order sistemasi tektonikasidan umuman voz kechishib, geometrik shakllarning abstrak formalarini yaratishadi. Bu uslublarning mashhur ustalari Le Korbyuze, V.Gropius va Mis Van der Roelar eklektizmga qarshi kurash jarayonida yangi uslubning ratsional tamoyillarini yaratdilar. Bora-bora funksionalizm va konstruktivizm butun dunyoga moda kabi tez tarqaldi. Natijada quruq korobkadan iborat geometrik hajmga ega bulgan binolar paydo buldi. Bu bir xillikka kurash jarayonida dastlab "organik arxitektura" uslubining variantlari (asoschisi injener F.R.Rayt) keyinroq esa arxaik uslub - neoklassitsizm paydo bo'ldi.

Minimalizm so'zi lotincha *minimus* so'zidan olingan bo'lib, eng kam, eng qisqa degan ma'nolarni bildiradi. Ushbu uslub XX-XXI asrlarda shakllangan. Me'morchilikda bu uslub dekor va xashamlarni rad etadi. Minimalizmnning eng gullagan davri XX asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. Hozirda ham minimalizm eng ommabop uslublardan hisoblanadi. Ideallikka intilish ortiqcha narsalardan voz kechishni talab qiladi. Shu sababli ham minimalizm me'morchilikdan tortib, musiqa sohasigacha eng talab ko'p uslubdir. Minimalizmnning o'ziga xos xususiyatlari:

- Iloji boricha soddalik
- Kompozitsiyaning asosiy qoidalariga rioya etish
- Iloji boricha tabiiy xomashyolardan foydalanish

<sup>446</sup> THE VISUAL ARTS: A HISTORY Hugh Honour, John Fleming. In memory of John Calmann Copyright ©1982, 1991, 1995, 2000 Fleming – Honour Ltd. Prentice Hall Inc. ADivision of Person EducationUpper Saddle River, New Jersey 07458p-199-200. P824. (In architecture, Functionalism is the principle that architects should design a building based on the purpose of that building. This statement is less self-evident than it first appears, and is a matter of confusion and controversy within the profession, particularly in regard to modern architecture. Functionalism had the strongest influence in Germany, Czechoslovakia, the USSR and the Netherlands. The place of functionalism in building can be traced back to the Vitruvian triad, where 'utilitas' (variously translated as 'commodity', 'convenience', or 'utility') stands alongside 'venustas' (beauty) and 'firmitas' (firmness) as one of three classic goals of architecture. Functionalist views were typical of some gothic revival architects. In particular, Augustus Welby Pugin wrote that "*there should be no features about a building which are not necessary for convenience, construction, or propriety*" and "*all ornament should consist of enrichment of the essential construction of the building*". The debate about functionalism and aesthetics is often framed as a mutually exclusive choice, when in fact there are architects, like Will Bruder, James Polshek and Ken Yeang, who attempt to satisfy all three Vitruvian goals.)

- Har bir detalga katta etibor
- Jiddiy liniyalar va geometriya
- Yagona ranglar gammasi
- Nur tushadigan qismlarga katta etibor
- Yorqin tonlardan foydalanish

Minimalizmning bosh g‘oyasi – asosiy elementdan tashqari, qolgan hammasidan voz kechish. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, minimalizm uchun faqat tabiiy xomashyolardan, yani, tosh, yog‘och, shisha, marmardan foydalaniladi. Soddalik, jiddiylik interyerda ham muhim o‘rin tutadi. Mebellar soni ham keragidan ortiq bo‘lmasligi kerak. Rang borasida esa kuli rang va oq ottenkalar maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda minimalistlar kompozitsiyaning yaxlitligini saqlab qolishga harakat qilishadi, ushbu uslub kenglikni xush ko‘radi. Devorlarda ham serbezak naqshlardan ko‘ra, bir xil tonni afzal ko‘rishiadi. Hozirgi zamon dunyo arxitekturasida umumiy yagona me’morlik uslubi haqida gapirish qiyin. Erkin demokratik davlatlar rivojlangan sari muhit, ehtiyoj va talab asosida yangi davr texnika va texnologiyasi mahalliy sharoit va an‘ana ta’sirida yaratilgan me’morlik yodgorliklarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashib bormoqda.

### Seminar savollari

1. Eklektizm. Modern. Konstruktivizm. Postmodernizm atamalariga ta’rif bering.
2. Yangi tipdag‘i binolarning funksionalligi va konstruktiv mustahkamligi nimalardan iborat edi?
3. Me’morchilikda qo‘llanilgan yangi xom ashyolar qanday ijobjiy holatlarni kashf etdi?
4. Bu uslubiy yo‘nalishlarga xos maktablar va me’morlar ijodi haqida ma’lumot bering.

### Glossary

**Sarrov** – 1. Devor g‘ishti yoki toshi terilishi yakunlangandan keyin ustiga yaxlit qilib qo‘yiladigan to‘sin yoki quyma beton. Bu usul so‘nggi neoklassik davrda yevropada ishlatalilgan<sup>447</sup>.

<sup>447</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.43

**Binokorchilik** – 1917-yilda Moskvada paydo bo‘lgan haykaltaroshlik va me’morchilikdagi harakat. Bu davr texnika inqilobi davri bo‘lgani uchun binoda texnik buyumlar shaklidagi bezaklarni ko‘ramiz. Vladimir Tatlin loyihasi bo‘yicha 1920-yili qurilgan Moskvadagi Uchinchi xalqaro monumenti bunga misol bo‘ladi<sup>448</sup>.

**Eklektizm** – XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa va AQSHda me’morchilikda mavjud bo‘lgan turli xil aralash bo‘lgan bezaklar jamlanmasi<sup>449</sup>.

**Funksionalizm** – Omilkorlik. XX asrda paydo bo‘lgan arxitektura dizayni falsafasi. Unga ko‘ra qurilayotkan bino o‘z vazifasiga ko‘ra mustahkam bo‘lishi kerak<sup>450</sup>.

**Modernizm** – Ispaniya va Kataloniyada rivojlangan yangi san’at turi<sup>451</sup>.

**Neoklassitsizm** – Yevropada mumtoz me’morchilikning oxirgi davri: 18-19 asrlar. Uslublarga qat’iy amal qilib, xotiralarni singdirishga e’tibor qaratilgan<sup>452</sup>.

### Foydalanimadigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. 581 r.
2. A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003.
3. History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSIRY,1998 SEVENTH EDITION.
4. A textbook of construction. By Dr. B.C. Punmia. New Delhi. 2005 June.
5. Dostmetova Z. Me’morchilik asoslari. Darslik. – T.: «O‘qituvchi», 2007.
6. Zohidov P.SH. Me’mor olami. O‘quv qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi», 1998.

<sup>448</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.134

<sup>449</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.186

<sup>450</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.239

<sup>451</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.357

<sup>452</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004. P.373

## A

**Aaron's rod** Aron ustuni. Masofalari bir xil oraliqda bo'lgan barg yoki o'rama qog'oz shaklidagi bezaklar va qoplamlalar bilan bezatilgan tik ustun.

**Abaciscus** Abasis. 1. Tessera, mozaika ishlarida qo'llanilgan. **Abaculus** deb ham ataladi. 2. Kichik abaka.

**Abacus** Abaka. Toqya. 1. Ustunning eng yuqori qismi. Asosan tekis to'rtburchak shaklda bo'ladi. Ba'zan unga yanada go'zallashtirib ishlov berilgan. 2. Qadimda binoni salobatliroq qilib ko'rsatish uchun yog'och ustunlarning tepasiga to'rtburchak qatlam o'rnatishkan va u xarini ko'tarib turgan. 3. Rim me'morhiligida tom devorining yakunlovchi qismi sifatida ishlatilgan marmar. Ba'zan marmar rangi sun'iy ravishda o'zgartirilgan.

**Abamurus** Abamur. Devorni mustahkamlash uchun qo'shilgan ikkinchi devor yoki qurilma.

**Abated O'yma**. Naqshni ko'rsatish uchun o'yilgan yuza.

**Abat-jour** Lang. Qiyalatilgan qirrali har qanday darcha. U devor yoki shiftda bo'lib, yorug'lik tushishiga mo'ljallanadi.

**Abaton** Abaton. Oddiy odamlar kirishi man etilgan joy. Ulug'lar ulug'i uchun mo'ljallangan.

**Abat-vent** Chiyo'siq. Tashqi derazalar bo'lib, shamolni to'sib qolgan, lekin yorug'lik va havoni o'tkazgan.

**Abat-voix** Yarim gumbaz. Cherkov mehrobidagi tovushni qaytarib yuborishga mo'ljallangan yarim gumbazli devor.

**Abbey** Abbatlik. Monastir. Cherkov turidagi bino.

**Abreuvoir (abreuveoir)** Chok. Devor toshlari orasidagi bo'shliq, sement va qorishmalar o'rni.

**Abutment** Uvat. Ark, gumbaz va ustunlarni ustidan birlashtirgan katta qatlam.

**Acaina, Akaina** Akaina. Qadimiy grek uzunlik o'Ichov birligi. (3,086 sm)

**Acanthus** Ayiqtovon. Akanta. Korinf va kompozit usulidagi ustunlarning yuqori qismini o'z shakli bilan bezagan, O'rtayer dengizi bo'yida o'suvchi o'simlik. Ularni devor bezaklarida ham ko'rishimiz mumkin.

<sup>453</sup> M.Curil. The illustrated dictionary of architecture. Nyu York. 2004 y. 543 p. (Kiril Manton Harris (1917, 20-iyun – 2011, 04-yanvar) Ingliz tilida "Illustrated dictionary of Historical architecture" nomli Me'morhilikkva doir izohli va tasvirli lug'at muallifi bo'lgan Kiril Harris shu sohada mutaxassis bo'lishi bilan birga aniq fanlarni ham chquur o'zlashtirgan hamda kitoblar ilmiy maqolalar chop etirgari edi. Kiril hamkasbi Vern Oliver bilan birgalikda "Binolarning akustik tuzilmasi" nomli kitob nashr etkan. Undan tashqari "Tovush nazorati bo'yicha qo'llanma", "Zarb va zilzila haqida qo'llanma", "Me'morhilik va qurilishga oid atanalar", shuningdek "Amerika inc'morhiligi: Tasviriy ensiklopediya" singari ilmiy asarlarni omma ehtiyojiga havola etkan. Ulkan bilim va iste'dodga ega Kiril Harris amalda yuzdan ortiq binolar tuzilmasi va bezatilishiha ishtirot etkan. San'at asarlari namoyishi uchun Jon Kennedy markazi, Minesotani Orkestr zali, Metropolitan Opera uyinining Linkoln markazi, Abravanel zali, Benaroya zali, Konrad Prebis Konsert zali va boshqalar shular jumlasidandir. Harris bir qancha ilmiy jamiyatlar faxriy a'zosi bo'lgan. Fanlar akademiyasi, Milliy Muhandislik akademiyasi, Amerika Falsafa jamiyatasi a'zosi bo'lishi bilan bir qatorda "Amerika Akustik jamiyatasi" prezidenti ham bo'lgan 1993-yili Nyu York Fanlar akademiyasi Prezidenti bo'lib ishlagan. Kiril Harris uzoq yillarda samarali mahnafaning uchun davlat tomonidan beshta turli medallar va doktorlik unvonlariiga erishikan edi.) Ilmiy adabiyotdan tarjima va matn L.T.Jabborova tomonidan tayyorlangan.

**Accolade** Ark qoshi, eshik yoki derazalarning yuqorisini ziynatlovchi bezak. Ikki chetdan boshlangan S ko‘rinishli bezak o‘rtada tutashib yakunlanadi. Asosan shohona bezak usuli bo‘lgan.

**Accouplement** Juftlatish. Yarim ustun va ustuniarning juft tarzda yaqin joylashtirilishi.

**Acrolith** Akrotosh. Bosh va qo‘l-oyoqlari toshdan, qolgan joyi asosan yog‘ochdan bo‘lgan haykal.

**Acropodium** Toshsupa. Haykal ostidagi uzun ustun. Haykalni ko‘tarib turgan tosh.

**Acropolis** Akropol. 1. Tepalikda joylashkan yunon qal'a shahri. Ibodatxonasi ham bo‘igan. 2. Afina shahri akropolisi. 3. Shahar tusini beruvchi tepalikdagi binolar.

**Acroterion, acroter, acroterium** Toshsupa. 1. Tom cheti yoki tepasidagi haykal poyi. 2. Haykalsiz bezak uchun o‘rnatilgan tosh.

**Actus Akt.** Qadimiy uzunlik o‘lchov birligi (116,4 ft), (35,49 sm)

**Acuminated Bo‘y cho‘zgan.** Gotik uslubida baland qilib tom yopilganligi.

**Acute arch, lanceet arch** Tiktoq. Bo‘yi enidan uzun bo‘igan, simmetrik, tutashkan qismlari o‘tkir burchakli ark.

**Adam style** Odam uslubi. Robert Adam va ukalarining me’morchilik usuli (1728-1792) Angliyada XVIII asrda mashhur bo‘igan. AQSh, Rossiya va boshqa davlatlarga yoyilgan usul. Shaklining aniqligi, ranglar ishlatalishi, puxta bichimi, ichki dizaynnning uyg‘unligi bilan xarakterlanadi. Asosan Neoklassik, Neogotik, Misr va Etrusk an‘analari seziladi.

**Additus maximus** Katta yo‘lak. Qadimiy Rim amfiteatrlarida asosiy kirish qismi.

**Addorsed, adorsed** O‘girilgan. Jonzotlar va turli shakllarning juft holda bir biriga orqamacha tasvirlashga aytildi.

**Adit Yo‘lak,** kirish qismi.

**Adytum, adyton** Adita. 1. Ruhoniylarning ibodatxonadagi ichki dargohi. 2. Ibodat joyining eng muqaddas qismi.

**Aedes Yeda** 1. Rasman muqaddas deb hisoblanmaydigan kichikroq ibodatxona. 2. Hozirda har qanday kichik ibodatxona.

**Aedicula** Aydikul. 1. Haykal uchun soyabon bo‘lib turgan joy. 2. Chetlari ustunlar bilan bezatilgan, usti esa uchburchak peshtoqli eshik yoki deraza ko‘rinishida. 3. Kichik ibodatxona.

**Aerarium G‘azna.** Qadimgi Rimda jamoat g‘aznasi.

**Aes Bronza.** Qadimgi Rim yoki Gretsiyada mis, qalay, yoki boshqa metall aralashmasi.

**Aethousa Yetuza.** 1. Grek hovilarining quyosh tushadigan tomondagi yozgi shiyponi. 2. Musofirlar tunagan boshanpanali joy.

**Aetoma** Uchburchak peshtoq. Uchtoq.

**Aetos (aetoma)** peshtoq, ark.

**Affronted, affronte** Yuzlangan. Jonzotlar yoki turli shakllarni juft holda bir-biriga yuzlantirib tasvirlanganligi.

**Agalma** Agalma. Qadimiy Yunonistonda tangri uchun bag‘ishlab ishlangan har qanday san‘at asari.

**Agger Ager.** Qadimiy Rimda yer ishlari. Sun'iy tepalik yoki qo'rg'on.

**Agora Agora.** Guzar. Qadimgi Gretsiyada bozor va yig'ilishlar joyi.

**Agrafe, agraffe** Tojdor. Arkning o'rtasidagi bezatib o'matilgan toshi.

**Aguilla Agvila.** Cherkov minorasining uzun cho'qqisi yoki shu ko'rinishdagi balandda o'matilgan haykalning ostki qismi.

**Agyieus Agiya.** Apolonning altari yoki haykali, ko'chalar va jamoat joylari qo'riqchisi sifatida. Asosan Grek uylari darvozasi yonida o'matilgan. Grek teatrlarining markaziy darvozasi yaqinida ham o'matilgan.

**Ahenum Humpech.** Go'lax. Qadimgi Rim hammomlarida issiq suv bilan ta'minlaydigan isitish tizimi. Bunda uchta xumdon issiq o'choq ustiga zinopayadagidek joylanadi. Pastdag'i xumda isigan suv ulangan quvur orqali tepadagi sovuq suv bilan almashadi.

**Aileron Yakkashab** tom. Binoning chetidagi xona tomini yopuvchi bir tomonloma nishabli tom qismi.

**Ailure (alure)**

**Aisle Alis.** 1. Cherkov va auditoriyalardagi zal o'rtasida uzana joylashkan o'tish yo'lagi. 2. Cherkov asosiy zalining ikki yonidagi ustunlar bilan ajratilgan, o'rindiqlarga ega galeriya.

**Aiwan Ayvon.** Markaziy Osiyo xalqlari binolaridagi ochiq yoki yopiq joy.

**Ajaraca Ajarak.** Ispaniya janubidagi binolarda g'ishtli devorlarning bezaklari.

**Ajimez Qo'shrom.** Periney yarim orolidagi binolarga va Islom me'morchiligidagi xos bo'lgan qo'sh deraza. Ustun yoki ingichka devor bilan ajratiladi.

**A jour, ajoure Ochma.** Yog'och yoki toshni teshib bezak hosil qilinganlik.

**Aksaray Oqsaroy.** Shahrisabzda joylashkan hashamatli saroy. Hozirda peshtoq osti va saroyning bir qismigina saqlanib qolgan. U ko'p qavatlari bo'lib, yuqori qavatlarda osma bog'lar, hovuz va ariqchalar, hamda favoralar mavjud bo'lgan. Taxtaqoracha tog'idan erigan suv quvur orqali Oqsaroya yo'naltirilgan. Yoz jaziramasisida o'ta tiniq va muzdek suv saroy zallarini salqinlik bilan ta'minlagan. Oqsaroy Amir Temur qurdirgan yirik inshootlardan hisoblanadi.

**Ala Ola.** Qadimgi Rim binolarida atriumga tutashkan kichik xona.

**Alabaster Ganch.** Oq rangli, maydalangan, suvoqda ishlataluvchi alebaster.

**Alameda Almida.** Usti yopiq qatnov yo'lagi.

**Alatoria, alatorium** Yo'lak. 1. Koridor, atrofi yopiq yo'lak. 2. Binoning yon tomoni.

**Albanega** Islom me'morchiligidagi qo'llanadigan ark atrofidagi to'rtburchak hoshiyali bezak.

**Albani stone** Qoratosh. Rim me'morchiligidagi marmarlardan oldin ishlatalgan qoramtil tosh.

**Albarium Albar.** Suvoqda ishlatalgan kuydirilgan marmar kukuni. Gips kabi modda.

**Albarium opus Rangsiz** oppoq marmar kukunli qoplama.

**Album Peshtaxta.** Qadimgi Rim me'morchiligidagi e'lolar va yozuvlar bitiladigan oq rangda suvalgan devor yuzasi.

**Alcala Qal'a.** Ispaniyadagi musulmon hukmdorlari qal'asi.

**Alcazaba Kazaba.** Ispaniyadagi musulmon hukmdorlari qo'rg'oni.

**Alcazar** Kazar. Ispaniyadagi musulmon hukmdorlari saroyi.

**Alcoran** Minora

**Alcove** Alkava. Katta xona devorining bir qismini ichkariroqqa kirdizib hosil qilingan joy.

**Aleaceria** Qasr, saroy.

**Aleatorium** O'yinxona. Qadimgi Rim binolaridagi o'yin uchun mo'ljallangan xona.

**Alhambra** Al Humro. Ispaniyadagi arablar qurdirgan Al Humro saroyi. Al Humro so'zi arab tilida qizil degani bo'lib, g'ishtlarning rangiga nisbat berilgan. O'z davrida mustahkam bo'lgan minora, devor va darvozalardan hozirda faqat xarobalar qolgan. Qasr zalining shifini muqarnasli gumbaz bezatib turardi. Qasarda ikki hovli mayjud bo'lgan; birida katta hovuz, atrofida kalta ustunli ravoqlar bo'lgan. Ikkinchisi hovlida o'n ikki sher haykali qad rostlab turardi. Saroy ichida ko'plab turar joylar, mehmonxona, masjid, haram, hammom, va boshqa joylar bo'lgan.

**Alicatado** Parchin qoplash, devor va yerga terib bezatish uchun material ishlatalish.

**Aliform** Qanotli. Qanot shaklga yoki kenglikka ega bo'lish.

**Alignment** Chizma. Binolarning nazariy chizmalari.

**Alinda** Ayvon. Hind binolaridagi ochiq ayvon.

**Alipterium, alipteron, aleipterion** Alipteriya. Qadimgi Rimdag'i yuvinuvchilarining muqaddas suv ishlataladigan xonasi.

**Allee** Yo'l. Ikki tomoni daraxtzor bo'lgan keng yo'l.

**Allege** Deraza tokchasi. Deraza ostidagi ingichkarol devor qismi.

**Allegory** Allegoriya. Ramziy ma'nolarga ega shaklli tasvir.

**Alley** Xiyobon

**Allover** Naqsh tizmasi. Butun yuzani qoplagan takrorlanuvchi naqshlar to'plami.

**Almariol** Libosxona. Xristian ruhoniylarining maxsus kiyimlari turadigan xona. (ambyr)

**Almehrabb** Masjid mehrobi.

**Almena** Toshtaxta. Devor bezagida ishlataladigan uzun taxtasimon tosh bo'laklar.

**Almimbar** Minbar, masjiddagi imom so'zlashga chiqadigan balandroq joy.

**Almonry** Langar. Xayriya ulashiladigan joy.

**Almorrefa** Al morrefa. Ispaniya janubida sirli yaltiroq parchindan terib ishlangan to'shamasi.

**Altar** Altar. 1. Qurbonlik keltirish va diniy qissalar o'qish uchun tayyorlangan to'rtburchak yoki dumaloq yuzali tosh kursi. 2. Cherkovda marosim stoli.

**Altar frontal** Altar oldi bezagi.

**Altar of repose** Qo'shimcha altar kursi. Rim katolik cherkovida payshanbadan jumagacha non qo'yiladigan altar.

**Altarpiece** Altar qismi. Altar ortidagi surat yoki haykal.

**Altar rail** Altar panjarasi. Ruhoniyni ziyyoratchilardan ajratib turuvchi altar oldidagi to'siqi.

**Altar screen** Altar to‘sig‘i. Altarni ortidagi joydan ajratib ko‘rsatuvchi tosh, metal yoki yog‘ochdan bo‘lgan bezakli to‘siq.

**Altar slab, altar stone** Altar toshi. Altar ustidagi tosh yoki boshqa material.

**Altar tomb** Altar shaklidagi qabr tosh.

**Ambitus** Tuynuk. 1. Rim va Gretsiyada qabr joylashgan yer ostidagi kichik tuynuk 2. O‘rta asrlarda tobutni kirgizish uchun ochilgan teshik. 3. O‘rta asrlarda cherkov atrofidagi muqaddaslashtirilgan joylar.

**Ambivium** Yo‘l. Qadimgi Rim ko‘chasi. Biror maydonning ichidagi emas atrofidagi yo‘l.

**Ambo, ambon** Minbar. 1. Dastlabki cherkovlarda ma’ruza va diniy qissalar o‘qiladigan minbar 2. Hozirgi Bolqon yoki grek cherkovlarida kitob o‘qiladigan kursi yoki joy.

**Ambry, almary, almery, aumbry** Ombor. 1. Tokcha; idishlar qo‘yish uchun. 2. Ro‘zg‘or buyumlari uchun xona.

**Ambulatory church** Salib cherkov. Markaziy zallning uch tomonida shifti yarim gumbazli maydon qismlari bo‘lgan cherkov. Bu cherkovning umumiy ko‘rinishi yuqorida xochga o‘xshaydi.

**Amortizement** Mortizman. Ustun yoki devor tepasidagi tik nishabli cho‘qqi.

**Amphiprostyle** Uzana uslub. Faqat old va orqa tomonda ustunlar mavjud bo‘lgan bino. Yon tomonlarda bo‘lmaydi.

**Amphistylar** Yondosh uslub. Klassik cherkovlarda faqat ikki yon tomonda ustunlarning mavjud bo‘lishi.

**Amphithalamos** Ayvon. Qadimgi Rim xonadonlarida yotoqxonadan yo‘lak bilan ajratilgan ayvon.

**Amphitheatre, amphitheater** Amfiteatr. 1. Aylana, yarim aylana, tuxumsimon ko‘rinishdagi tomoshagoh; o‘rtasi sahna va atrofidagi tomoshabinlar o‘rindiqlari yuqorilab ketaveradi. 2. Qadimgi Rimda shu ko‘rinishdagi gladiatorlar va yirtqich hayvonlar o‘rtasidagi jang tomoshasi binosi. 3. Grek uslubidagi teatrlar.

**Amphi-antis** Amfi-antis. Peshayvon devori ichida ustunlari bo‘lgan cherkov.

**Amussis** Toshkursi. Nimaningdir yuzasi tekisligini tekshirish uchun mo‘ljallangan tekis Rim marmar kursisi.

**Anabathra Anabatra.** Sirk va teatrлarda bo‘lganidek yuqoriga eltuvchi zina.

**Anacampteria Anakampteriya.** Vaqf yerlaridagi boy va obro‘li odamlarga mo‘ljallangan hashamdar xona va omborxonasi.

**Anaglyph** Bitik. Binoning quyi qismidagi o‘yb ishlangan bezak yoki tasvir.

**Analmaktos Xontaxta.** Qadimgi Gretsiyada meva va tansiq yeguliklar uchun mo‘ljallangan kursi.

**Analemma Qanot. Burj.** 1. Rim va Grek teatrлari binolarining yoniga cho‘zilgan qo‘shimcha devori. 2. Har qanday binoga tirab qurilgan qo‘shimcha devor, tirkak, yoki poydevor.

**Analogion, analogium Analog.** 1. Dars partasi. 2. Sharqiy cherkovlarda xo‘rijrochilarini tinim oladigan o‘rindiq.

**Analoi** Minbar. Rus cherkovlaridagi minbar.

**Anamorphosis** Anamorfos. Biror burchak tomonidan ko‘rsatib tasvirlangan chizma.

**Ancon, ancone Ankon.** 1. Eshik yoki deraza ustidagi soyabonni ko'taruvchi burama bezakli qoplama. 2. Ustun ustidagi shunga o'xhash mustahkamlovchi qism. 3. Toshlarni bir-biriga ulovchi temir.

**Anda Anda.** Hind me'morchiligidagi yarimshar gumbaz.

**Andron, andronitis Andron.** 1. Grek banket zali, erkaklar uchun. 2. Rim uylaridagi yo'lak.

**Ang Ang.** An'anaviy xitoy binokorligida burchak bezagi. (A kung)

**Angel light Farishta chirog'i.** Britaniyada derazalar arklari oraliqlarida joylashkan uchburchak chiroqlar.

**Angiportus** Toshko'cha. Rimda uylar orasida tor ko'cha.

**Angkor Watt Ankor Vat.** Kambodjada Suryavarman II tomonidan 1113-1150 yillarda qurdirilgan ibodatxona. Ilohlashtrilgan shohga maqbara sifatida qurilgan. Angkor Tom poytaxt shahrining janubida joylashkan. Tog'day ibodatxona deb ataluvchi joy dunyodagi eng katta diniy inshoot bo'lgan. Ibodatxonaga kirish qismida afsonaviy mavjudotlar devorlarda tasvirlangan. Atrofi suv bilan o'rالgan. Maxsus ko'priklı o'tish yo'li bor.

**Antepagmentum superius Tepador.** Eshik tepasiga devomi ko'tarish uchun o'matiladigan to'sin.

**Antependium Antependiya.** O'rta asr cherkovlarida altar ustida osilib turadigan qurilma.

**Antepodium Antepodium.** Cherkovdagagi qo'shiqchilar guruhining ortidagi joy. Ruhoniy uchun.

**Anteport Tashqi toq.** Kirish peshtoqi, tashqi darvoza. Go'ri Amir Maqbarasida bo'lganidek.

**Anteportico Toqli yo'lak.** Klassik ibodatxonalar eshigiga eltuvchi usti yopiq yo'lak.

**Anterides Tayanch devor.** Binoning qaysidir qismini mustahkamlashga, ushlab turishga mo'ljallab qurilgan devor.

**Apsidal Apsidali.** Yarim doirali cherkov zaliga ulanganlik yoki zal shaklini bildiradi.

**Apsidiole Apsida zali.** Kichik yarim doirali cherkov zali.

**Apsis Apsiz.** Cherkov va sud zallarida to'rburchak bino ichida yarim doirali auditoriya. Sudda sudyalar o'rindig'i turgan joy va cherkovda haykal o'matilgan joy.

**Apsis gradata** Yepiskoplar o'rindig'i.

**Apteral Apteral.** Ustunsiz bo'lgan dastlabki ibodatxonalar. Lekin ikki tomonida peshayvonlari bo'lgan.

**Apyrol** Apirlor. Qurbonlik qilingan altar.

**Aquaminarium (benitler)**

**Aqueduct Akveduk.** Ko'priko'rinishidagi suv o'tkazuvchi inshoot. Bir yoki bir necha qavatlari bo'lgan. Asosan Rimda.

**Aquila Akvila.** Uchburchak shaklli peshtoqning bezatilgan qismi. Bu joyda Greklar burgutni tasvirlashkan. Etrusklar yengil bo'lishi uchun tosh emas yog'ochdan foydalanishkan.

**Ara Ara.** 1. Rim altari. 2. Xudoga atalgan narsalarni qo'yish uchun mo'ljallangan har qanday joy.

**Arabesque Naqsh.** 1. Musulmon o'lkalarida me'morchilikda turli o'simliklar va geometrik shakllarning go'zal uyg'unlikdagi tasviri. 2. Qushlar, jonzotlar va odamlarning dekorativ tasviri. Rim va uyg'onish davrida. 3. Devorda o'yib, yopishtirib, yoki chizib ishlangan bezak.

**Arabic arch** Arabcha ravoq. Taqa shaklli ark.

**Araeosystyle, areosystyle** Oralig usul. Ustunlar oralig'idagi qurilma usuli. 2-4 diametr bo'jadi.

**Arakabe** Xomaki suvoq. Yaponiya binolari devoridagi birinchi qatlam suvog'i.

**Ara turicrema** Ifor altari. Xushbo'y o'simlik maydalab yoqiladigan altar.

**Arbor Manzara** yoki to'siq hosil qilish uchun buta va daraxtlarni qurilmaga taqab ekib o'stirilgan tuzilmasi.

**Arboretum** Keng bo'g'. Daraxtlari asosan manzara uchun yoki ilmiy maqsadlarda ekiladi.

**Arca custodiae** Qadimgi Rimda mahbuslar xonasi.

**Arcade** Arkada. 1. Ustunli arklardan iborat tuzilma. 2. Shunday tuzilmali yo'l. Yo'lakning bir cheti yoki ikki tomonida. 3. Yonida shunday tuzilma mayjud bo'lgan do'konlar va idoralar tizimi.

**Arcading** Ustunli tizim. Ba'zan tagida o'rindiqlar va saylgohlar bo'lgan.

**Arcae Nov.** Qadimgi Rim me'morchiligida katta binolarning tarov va ariqchalari.

**Arcature Arkatura.** 1. Arcading. 2. Arkalar tizmasidan iborat bino bezagi.

**Arc-boutant Ark,** ravoq.

**Arc de triomphe** G'alaba arki

**Arc doubleau** Gumbaz arki. Gumbazga tayanch bo'lувчи katta ark.

**Arcella** Pishloqxona. O'rta asrlar pishloqxonasi.

**Arc formeret** Devoriy ark. Binoga kirish yo'lagining devoridagi arklar.

**Arch Ark, toq, ravoq, peshtoq.** Devor orasida qoldirilgan bo'shliq. G'isht yoki toshlarning yuqori qismi pastki qismidan kengroq bo'lgani uchun mustahkam turadi. Arklar turli xil bo'ladi. Lekin hammasining o'rta qismi ikki yoniga nisbatan balandroqda bo'ladi.

**Arched corbel table** Rafaqli qator. Dastlabki xristian va roman me'morchiliqi, katta ark ustida hosil qilingan kichik arklar.

**Architectural terra-cotta** Me'moriy parchin. Devor bezaklarida ishlataluvchi qattiq pishirilgan, sirlangan yoki sirlanmagan sopol parchin; tekis yoki bezatilgan, qolipda quyilgan bo'lishi mumkin.

**Architecture** Me'morchilik. Arxitektura. 1. Binolarni estetik didga monand qurish va bezatishdagi ilm, san'at. 2. Mana shu tamoyillar asosida bunyod etilgan inshootlar.

**Architrave** Arxitrav, sarrov, xari. 1. Ustunlar ustidagi devorning eng ostki qismi. Ustunlar ustidagi to'sin. 2. Eshik yoki darcha ustidagi to'sin. U bezatilgan ko'rinishda ham bo'ladi.

**Area** Maydon. Hudud. 1. Qadimgi Rim shaharlarida katta ochiq joy. 2. Rim uylari, ibodatxonalar va idoralari oldidagi ochiq yer. 3. Qabristondagi mayyit yoqiladigan yoki ko'miladigan bo'sh joy.

**Armarium** Qurolxona. 1. Ambry. 2. Aslida qurolxona, keyinchalik buyumlar javoni, keyinroq kiyim, kitob, pul, taqinchoq, va boshqa qimmatbaho narsalar saqlangan joy. 3. Rim kutubxonasi bo'linmasi.

**Armory** 1. Harbiy mashg'ulot o'tkaziladigan joy yoki harbiy aslahalar saqlanadigan joy. 2. Qurol ustaxonasi.

**Arris, aris** 1. Burchak. Ikki yuza kesishmasi. Doriy usulidagi ustunlarning ikki burama yuzasi, yoki Iona, Korinf uslubidagi o'ramasimon bezaklar kesishmasi. 2. G'ishtning o'tkir burchagi.

**Aris gutter** Nov. Tom chetidagi yog'och. V shaklida bo'ladi. Yomg'ir suvi uchun tarnov.

**Arris rail** Uchburchak reka. Uch qirrali uzun yog'och. To'siq mustahkamligi yoki bezak uchun ishlataladi.

**Art Deco** Art Deko. 1925-yili Parij xalqaro ko'rgazmasidan keyin paydo bo'lgan bezak usuli, 30-yillar me'morchiligidagi keng ishlataligan. Unda o'tkir burchakli chiziqlar, zigzaklar bezak asosini tashkil etkan.

**Artemision** Artemida. 1. Artemida ibodatxonasi. 2. Buyuk Aleksandr davrida qurilgan Artemida ibodatxonasi. Grek ibodatxonalar ichida eng hashamдори va mashhuri bo'lgan. Dunyoning yetti mo'jizalaridan biri.

**Art Nouveau** Yangi san'at. XIX asrda Fransiya va Belgiyada rivij topgan me'morchilikdagi amaliy san'at va bezak usuli.

**Arts and Crafts** San'at va hunar. XIX asr ikkinchi yarmida Angliyada noodatiy amaliy san'at yo'nalishi. Hunarmandchilikka katta urg'u berishkan.

**Assyrian architecture** Ossuriya me'morchiligi. Miloddan avvalgi IX-VII asrlarda Mesopotamiya va yondosh yerlarda mavjud bo'lgan Ossur hukmdorlari davlati binokorligi. Saroylari asosan xom g'ishtdan qurilgan. Toshlar faqatgina bezak beriladigan qismlarda va monumental dekorativ ustunlar uchun ishlataligan. Gumbaz qurish katta ahamiyat kasb etkan. Ossur, Kala (Nimrud), Nineva va Dur Sharruk shaharlarida ularning saroy va ibodatxonalar qazib o'rganilgan.

**Astragal** Munchoq. Tumor. 1. Nozik bezaklar yaratish uchun ishlataladigan munchoqlar yoki ingichka chiziq. 2. Quyma xalqali tumor. Uni ustun kallagida uchratamiz. 3. Devordagi bo'shilqlarni yopish uchun ishlataladigan ingichka bezakli material.

**Atebe** Toshto'sham maydon. Musulmon me'morchiligidagi uylar oldidagi tosh terilgan yo'l yoki maydon.

**Atelier** 1. Ustاخона. 2. Usta hunarmandlar ish joyi. 3. San'at asarlari va haykallar yaratish o'rgatiladigan darsxona.

**Athenaeum** Afina. 1. Afinaga bag'ishlangan ibodatxona. 2. Rimda Adrian tomonidan adabiyot va boshqa fanlarni o'rgatish maqsadida qurdirilgan inshoot.

**Atrium Tuscanicum** Tuskan atriumi. Atriumlarning eng eskisi va soddasi. Bu kichik atrium Etrusklar davrida ishlataligan. Shiftida ikkita katta to'sini qolgan mayda to'sinlarni va tommi ko'tarib turgan.

**Atrium Corinthium** Korinf atriumi. Bu zal boshqalaridan hajmining kattaligi va ustunlarining ko'pligi bilan farqlanadi.

**Atrium displuviatum** Benishab atrium. Tomning nishabi tashqariga yo'naltirilgan atrium. Bunda yomg'ir suvi ichkariga emas, tashqaridagi ariqqa tushadi.

**Aztec architectura** Atsteklar me'morchiligi. XIV asrda topib o'rganilgan me'morchilik obidasi. Atsteklar piramidasi. O'zlarining ilohlariga bag'ishlangan ibodatxona. Paraller zinapoyalar bino tepasiga – ibodat joyiga olib chiqadi. Meksikaning Malinalko hududida joylashkan butxonaga ilon og'zi shaklidagi ochiq joydan kirladi. Ichkaridagi aylana qism toshlardan o'yib tozalangan va burgut, qoplon haykallari ijod qilingan. Ispanlar keltingan vayronagarchiliklardan so'ng bir qancha xarobalar saqlanib qolgan. Atsteklar poytaxti Tenoktitlan Yangi Mexiko shahri ostida ko'milib ketkan.

## B

**Bab Eshik.** Arab tilida eshik yoki darvoza.

**Babylonian architecture** Bobil me'morchiligi. Qadimgi Bobilda asosan xom g'ishtdan qurilgan binolar. Devor chiroyli ko'rinishi uchun ustun shakllari qisman bo'rttirib ishlangan. Ba'zan pishkan va sirlangan g'ishtlar ishlatilgan. Tor xonalar qalim to'sinlar va lo'mbozli tomilar bilan yopilgan. Miloddan avvalgi 2000-1600 yillarda qurilgan Bobil saroylari va ibodatxonalar qazib o'rganilgan. Yangi Bobil imperiyasi poytaxti bo'lgan Bobil miloddan avvalgi 605-562 yillarda hukmonrik qilgan Nebuchadnazar II tomonidan bunyod etilgan. Shahar to'rburchak, sakkiz darvozali, ikki qator qo'rg'onli; markazida Marduk ibodatxonasi joylashkan. Ishtar deb atalgan darvozasi devori oltin rangli farizalar, sirlangan ko'k g'ishtlar; sher, buqa va ajdar tasvirlari bilan bezatilgan. Bobilda Semiramida sharafiga bunyod etilgan gumbazli osma bog'lar dunyoning yetti mo'jizalaridan biri hisoblanadi.

**Back** Ort. 1. Bino, buyum yoki obyektning orti. 2. Biror unsurning tayanch qismi. 3. Parchinning yopishtirilgan tomoni. 4. Balanddag'i to'sin yoki tomming tepasi. 5. Tom tagidagi to'sin. 6. Arkning tepe qismi.

**Back arch** Orqa ark. Ichki yuzasi devor yuzasidan farqli bo'lgan ark. Fransuz me'morchiligidagi XVII-XVIII asrlarda ishlatilgan.

**Back choir (retrochoir)**

**Backdrop** Sahna ortidagi bo'z; to'sib turish uchun.

**Back fillet** Qaytkan bezak. Eshik va deraza kesakisining qaytarma bezagi.

**Backfilling, backfill** Qora qoplama. 1. Devor bezaklari ichidagi haqiqiy tayanch toshi. 2. Ark tepasini ko'tarish. 3. To'sinlar orasiga g'isht terish.

**Back gutter** Nov, tom uchidagi oqadigan suv yig'iladigan uzun ariqsimon qurilma.

**Back hearth, inner hearth** O'choq maydonchasi. Xonadagi o'choq oldi joyi.

**Backing** Orqalash. 1. Tom to'sinining orqa yuzasi. 2. Pol qoqishdan oldin tagiga pona qo'yib tekislash. 3. Devorga biriktiradigan narsaning ortini tekislash. 4. Hali qurilishi tugallanmagan devorning ichki yuzasi. 5. Ark ustidagi yo'nib ishlangan tosh. 6. Devor ichidagi bo'shliqqa solib yuboriladigan mayda tosh. 7. **Backing brick.**

**Backing brick** Past sifatli g'isht (devor ichida ishlatib yuboriladigan)

**Backjoint** Mo'rining ichki devoridagi tosh.

**Back to back house** Teskari uylar. Orqama orqa qurilgan ikki uy.

**Bada Bada** Hind ibodatxonasi poydevori.

**Badigeon** Yelim. Tosh va yog'ochlarni yopishtirishda ishlataladigan modda.

**Bagnio** Bagnio. 1. Hammom. 2. Foxishaxona. 3. Turk qamoqxonasi.

**Bahut Bahut** 1. Bino burchagida dumaloq, kengroq qilib qurilgan sahn. 2.

Shiftdan keyin tomgacha qurilgan past devor.

**Baignoire** Xos o'rindiq. Teatr tomosha zalining oldida o'rindiqlarga ega alohida joy. Masalan komissiya uchun.

**Bailey Baylak**. 1. Qo'rg'on ichidagi ochiq hudud. 2. Bir necha devorlar orasidagi bo'sh yer. 3. Feodal qasrining tashqi devori.

**Balanced step, dancing step, dancing winder** Mos zinapoya. Kengligi yonidagi boshqa pog'onalar yuzasi bilan bir xil bo'lgan zinapoya.

**Balaneion** Hammom. Grekcha nomi.

**Balconet** Yolg'onidakam balkon. Bu balkonning yuzasi devordan tashqariga chiqmaydi. Faqat derazaga (eshikka) qapishkan panjarasi bo'ladi. Deraza osti eshik kabi polgacha bo'ladi.

**Balcony** 1. Rafaq. 2. Katta zallar ichidagi balkon. 3. Teatrda devor qavatlaridagi balkonlar.

**Balcony stage** Rafaqli sahna. Elizaveta teatridagi balkonli sahna.

**Baldachin, baldacchino, baldaquin, ciborium** Choyshab. Altar, qabrtosh yoki taxt tepasida tortilgan bezakli chodir.

**Balection molding (bolection molding)**

**Balinea (balnea)**

**Ballistraria** Ola tuynuk. 1. O'rtas asr janglarida kamon o'qi uchib chiqadigan devor og'zi. 2. O'q saqlanadigan joy.

**Balk, baulk** 1. To'rburchak to'sin. 2. Yerdagi pakana chegara tizmasi.

**Balk tie** Sinch. Chordoq pardevorini bino devori bilan biriktirish uchun ishlataladigan to'sin.

**Baliflower** To'pgul. To'p shaklli uchta devoriy bezak; Angliyada mashhur bo'lgan.

**Ballistraria (ballistraria)**

**Balium Hovli**. O'rtas asr qo'rg'oni ichidagi ochiq maydon.

**Balloon Shar, to'p**; ustun va panjara ustiga bezatib qo'yildi.

**Balloon framing, balloon frame** Yog'ochli qurilma. Yog'ochdan quriladigan yuning to'sinlarini vertikal joylashtirish tizimi.

**Balnea (ko'pligi balneum)** Rim jamoat hammomlari.

**Balnearium, balneum** Rimliklarning shaxsiy hammomi.

**Balteus Baltes**. 1. Iona ustunlari tepasidagi aylana bezak; tasmali bezak. 2. Iona ustuni burama bezaklarini birlashtiruvchi qoplama. 3. Rim teatr va amfiteatrлaridagi yuqori va pastki auditoriya qismlarini ajratib turuvchi yo'lka.

**Baluster, banister** Panjara. 1. Bitta panjara. Panjaraning bitta oyog'i. 2.

**Balustrade**. 3. Iona usulidagi ustun tepasining ikki yoni burama bezagi.

**Baluster column** Panjara ustun. 1. Panjara shaklli kalta ustun. 2. Italiyada deraza yoniga o'rnatilgan kalta ustun.

**Baluster shaft. (baluster column)**

**Baluster side** Botiq qism. Ustunning bir bo'rtma joyidan keyingi bo'rtma joyigacha bo'lgan botiq aylanma yuzasi.

**Balustrade** Panjara. To'liq panjara tizimi.

**Balustrum** Chancel screen so'zining lotincha atamasi.

**Bamli Hind** hovlisi - maydoni.

**Band Tasma**. Devorda gorizontal ishlangan uzun naqshlar tizimi. U devorning yuqori va quyi qismini ajratib turadi. Bezak gulli, geometrik shaklli yoki oddiygina tekis bo'lishi mumkin.

**Bandage Tasma**. Qurilma atrofini o'rashda va bezashda ishlatiladigan bog'ich, tasma, zanjir.

**Band course 1. Stringcourse. 2. Band**

**Banded architrave** Sarrov. 1. Devor g'ishti yoki toshi terilishi yakunlangandan keyin ustiga yaxlit qilib qo'yiladigan to'sin yoki quyma beton. Bu usul so'nggi neoklassik davrda yevropada ishlatilgan.

**Banded column, ringed column, rusticated column** Qatlama ustun. Renessans davri arxitekturasida bezaklar va naqshlarga boy bo'lgan ustun. Bu ustun boshdan oyoq bir tekis bo'lmaydi. Diametrik keng va tor bo'lgan toshlar navbatma navbat o'rnatiladi.

**Banded impost** Bo'gin. Arklarning bir ustunda kesishkan joyi. Ustun kengligi bilan ark kengligi, hamda ularning yuzalarini bir xil bo'ladi.

**Banded pilaster** Qatlama pilustun. Banded column kabi ustun qatlamidagi toshlarning biri katta, biri kichik qilib devorda bo'rttirib ishlangan surati.

**Banded rustication** Dag'al. Renessans davrida toshlarning dag'al qilib ishlanganiga aytildi.

**Bandelet** Bandelet. 1. Annulet 2. Kichik tekis qoplama.

**Banderol, banderole, bannerol** Gajak. Tasmaning nafis burama tasvirlangan ko'rinishi.

**Banner vane, banneret** Bayroqdor. Bayroq shaklidagi metall. Antenna kabi o'rnatilib shamol yo'naliishi topiladi.

**Bargeboard, gableboard, vergeboard** Kokil. Tom yoniga qoqiladigan yog'och. Chiroyli bezaklar o'yib tushirilgan bo'ladi.

**Barbican, barbican** Barbikan. Shahar yoki qasrda tashqi mudofaa ishlari. Darvoza yonidagi kuzatuv minorasi.

**Barge couple** Sinch. 1. Uchburchak ko'rinishli simmetrik tomga tayanch qilib o'rnatiluvchi to'sin. 2. Suvoq yoki taxtalar orasida qolib ketadigan mustahkam to'sin.

**Barge course** Qiya tizma. 1. Tom nishabligi bo'yicha terilgan g'isht. 2. Tomda sopol parchinlarning to'sindan chetroqqa tushkan qismi.

**Baroque** Barokko. XVII asrda Yevropa me'morchiligidagi taraqqiy topgan Barokko usuli. Uyg'onish davrining oxirida Germaniya, Avstriya va Italiyada cherkov, monastir va saroylar qurishda shu usulga ko'p murojaat etilgan. Unda tuxumsimon yuzalar, burama yuzalar, hamda bezak, haykal, shuningdek ranglarning keng ishlatilishi o'ziga xos xususiyatdir. Bu usul keyinroq Rokoko deb atalgan.

**Barrel vault, barrel roof, cradle vault, tunnel vault, wagonhead vault, wagon vault** Egma shift. Ikki tomondagi tekis devor ustiga yarim aylana shaklda yopilgan gumbaz. Gumbazning bir tomoni tekis bo'lgani uchun uning uzunligi istalgancha bo'lishi mumkin.

**Barstone Panjara toshi.** O'choq ichidagi tik o'rnatilgan tosh; o'tin turadigan metal panjarani ko'tarib turadi.

**Bartizan Rafaqli minora.** Qal'a burchagidagi balandroq ensiz, kuzatuv tuynuklariga ega bo'lgan minora.

**Bascule Richag.** Rasadxona kvadrantida bo'lganidek, tepadan pastga buralib harakatlanadigan qurilmaga ega bino. Peterburgdag'i ko'pri kabi ko'prikn'i ko'tarib tushiradigan yer osti mexanizmi joylashkan o'r'in.

**Base Poy.** Ul. 1. Poydevor. Eng quiy va eng keng devor qismi. Yarmi yer tagiga kirgan qatlam. 2. Devor pastidagi qalinlashtirilgan qism. 3. Ustunning eng pastki qismi. U asosiy qismdan kengroq bo'ladi.

**Base block** Poyqatlam. 1. Har qanday material bo'lagi; to'g'ri burchakli, kubsimon material. Poydevor ostida va poydevor singari ishlatilgan. Eshik ostonasi vazifasida ham qo'llangan. 2. Ustun asosi bo'lgan to'rburchak tosh.

**Base court, basse cour** Asosiy maydon. 1. Qasning tashqi hovlisi. 2. Fermadagi ish maydoni. 3. Binoning xizmat ko'rsatish joyi.

**Basement** Yerto'la. 1. Qisman yoki butunlay yerdan past bo'lgan bino qavati. 2. Har qanday binoning yer ostidagi devor qismi. 3. Ustunning yerga kirgan qismi.

**Base molding** Poybezak. 1. Poydevorning yerdan tepe qism bezagi. 2. Poydevorga yaqin bo'lgan devor qismida yopishdirilgan bezak.

**Base shoe, base shoe molding, floor molding, shoe molding** Poybezak. Pol ustidagi devor osti bezagi.

**Basilica** Bazilitsa. 1. Rim oliv sudi zali. Odatta yuqorida joylashkan markaziy qism, atrofida pastroq joylashkan yo'lak va o'rindiqlar, sudyalar o'rindig'i bo'ladi. 2. Dastlabki xristian cherkovi shakli, markazida baland supa, atrofida yo'laklar, oxirida yarim doira shaklida joy bo'ladi. Ko'pincha dahlizdan kirlig'an. Atrium ham bo'lgan.

**Bastard ashlar, bastard masonry** Toshparchin. 1. Yupqa tosh bo'laklari; g'ishtli devorni qoplashga ishlatiladi. 2. Tosh konidan ajratib olingan toshlar.

**Bath** Hammom. 1. Vanna, toshtos, yuvinish jihizi. 2. Hammom. 3. Gretsiya va Rimdagi jamoat hammomi. Rimda keyinroq uch xonali hammomlar paydo bo'ldi; tepidarium – terlamaslik uchun iliq havoli xona, caldarium – issiq suvli hovuz joylashkan xona, frigidarium – sovuq suvli hovuz joylashkan xona. Erkak va ayollarga alohida bo'lgan.

**Batons rampus** Kalta va tekis bo'rtma shaklli quyma bo'laklar; Normand va Roman uslubidagi binolar bezagi uchun.

#### **Batoon (batten)**

**Batted work, broad tooled** Tosh yuzasining qo'lda taroshlangani. Har 3-4 santimetр oraliqda parallel chiziqlar tortilgan bo'ladi. Chiziqlar vertikal yoki og'ma bo'lishi mumkin.

**Batten Reka.** 1. Ikki parallel yog‘ochning chetini yopish uchun ishlataladigan ingichka yog‘och. 2. Parallel yog‘ochlarni bir-biriga biriktirish uchun ishlataladigan yog‘och. 3. Uzun ingichka yog‘och.

**Batten door, ledged door, unframed door** Seryog‘och eshik. Ingichka yog‘ochlarni vertikal biriktirib, ularni ikki gorizontal yog‘och bilan qotirib yasalgan eshik.

**Battened column** Birikma ustun. Ikki uzun yog‘ochdan biriktirib ishlangan ustun.

**Battened wall, strapped wall** Birikma devor. Yog‘ochlar biriktirib mustahkamlangan devor.

**Battening** Devorni suvashda ishlataladigan uzun ingichka yog‘och.

**Batten seam** Biriktiruvchi temir. Tomda tunuka va yog‘ochlarni ustini yopib biriktirishda ishlataladigan metall.

**Battered** Vertikal qurib ko‘tarilgan devorga aytildi.

**Battered wall** Eni kalta bo‘lgan tik devor.

**Battlement, embattlement** Istehkom. 1. Mudofaani mustahkamlash uchun qurilgan tik devorlar. 2. Post vazifasidagi tom yoki maydoncha.

**Bauhaus** Bavhas. 1919-yili Germaniyaning Weimar shahrida qurilgan dizayn maktabi. Hozir bu so‘z arxitektura va amaliy san’atda o‘quv uslubi sifatida ishlataladi.

**Bawn** Asosan Irlandiyada bo‘lgan ferma yoki qasrning paxsa yoxud tosh qo‘rg‘oni.

**Bay Bo‘rtiq.** 1. Devor oraliqlarida to‘sin o‘rnatilgan joylar yoki qovurg‘a bo‘lib chiqqan joylar. 2. Devordan tashqariga chiqazib qurilgan deraza. 3. Ikki to‘siq orasidagi bo‘shliq. 4. Bo‘g‘da o‘simliklardan ark qilib hosil qilingan kirish yoki o‘tish yo‘li.

**Bayle** Ikki qator qo‘rg‘on orasidagi bo‘sh joy.

**Bay leaf** Dafna bargli bezak.

**Bayt Uy.** Arab tilida uy, xonodon, bir oila istiqomat joyi.

**Bay window** Burun deraza. 1. Devordan tashqariga turtib chiqqan deraza. 2. Odatda bir yoki ikki qavatga cho‘zilgan deraza o‘rni.

**Bead** 1. Bead molding. 2. Ingichka reka; deraza o‘rtasida yopilish chegarasi bo‘lgan yog‘och. 3. Oyna atrofisidagi uni ushlab turuvchi ramka; metall yoki yog‘ochli. 4. Ustunni bezab turgan ingichka tumor.

**Bead and butt, bead butt, bead butt work** Deraza ramkalari.

**Bead and reel, reel and bead** Yarim shar va disk shaklli bo‘rtma bezak.

**Bead, butt, and square.** Bead and butt kabitdir. Lekin u bo‘rtma yuzaga ega bo‘ladi.

**Beadflush panel, bead and flush panel** Atrofi ramka yoki hoshiya shaklida bo‘rttirib ishlangan parchin.

**Bead house** Cherkov yonida joylashkan kambag‘al dindorlar uchun joy.

**Beading** Bead turidagi parchinlar tayyorlash.

**Bead molding** Yarim dumaloq shaklli ingichka uzun bo‘rtma bezak.

**Beakhead** Soqlolli boshlar. Normandlar me’morchiligidagi bo‘lgan odam ham, hayvon ham bo‘limgan xayoliy maxluqotlarning bo‘rtma tasviri.

**Beak molding** Tumshuq. 1. Qush tumshug'i shaklidagi bezak. 2. Qushlar boshi yoki tumshuqlari tasvirining devordagi ifodasi.

**Beam** To'sin; qavatlar polida va shiftida ishlataladigan uzun baquvvat yog'och.

**Beam anchor, joist anchor, wall anchor** To'sinni devorga biriktirishda ishlataladigan metall.

**Beam ceiling** To'sinli shift. 1. To'sinlari ko'rinish turgan shift. Bu to'sinlar randalangan, loklangan yo bo'yalgan bo'ladi. Toqili shift to'sinlari ham shunga misol bo'ladi. 2. Pol osti qismi. To'sinlari ko'rinaldigan joy.

**Beam fill, beam filling** To'sinlar orasini tosh, g'isht, yoki sement bilan to'lg'izish. Yong'indan himoyalash uchun.

**Beaumontage** Yelim. Yog'ochlar va metallar orasidagi teshik hamda yoriqlarni yopishga ishlataladigan yelim.

**Beaux Arts architecture** Go'zal san'atlar me'morchiligi. XIX asrda Parijda o'qitilgan tarixiy va eklektik dizayn.

**Bed chamber** Yotoqxona, dam olish xonasi.

**Bed molding** Korona va fariza orasida joylashkan qatlam.

**Bed place** Niderlandiya uylaridagi yotog'i devor ichida joylashkan xona; tokcha kabi.

**Beehive tomb, tholos tomb** Uyasimon maqbara. Ko'rinishi asalari uyasiga o'xshaydigan monumental yer osti daxmasi.

**Beggin, begging** 1. Kottejdan kattaroq bo'lgan turar joy. 2. Shimoliy Angliya va Shotlandiyadagi kulba uy.

**Beit hilani** Hilan saroyi. 1. Miloddan avvalgi 1- ming yillikda qurilgan Suriyadagi saroy. Old tomonda ikki katta xonasi, ustunli yo'lak va taxt joylashkan zal bo'lgan. 2. Qadimgi Ossuriyada ustunli binoga kirish yo'li.

**Belfast truss, Bowstring truss.** Belfast to'sini. Tomga tayanch bo'lgan shiftdagи ark shaklidagi to'sin va yog'ochlardan iborat qurilma. To'sin gorizontal yotqiziladi. Osma ko'priko'rinishi kabi tekis to'sin ustiga vertikal va diagonal yog'ochlar panjara ko'rinishida o'matib chiqiladi.

**Belfry** Qo'ng'iroqxona. 1. Minora ustidagi qo'ng'iroq chalinadigan joy. 2. Qo'ng'iroqli minora.

**Bema** Supa. 1. Cherkov asosiy zalidagi bir necha zinapoya balandroq bo'lgan joy. 2. Tavrot o'qiladigan balandroq joy. 3. Grek cherkovidagi altar turgan joy.

**Berliner, palladiana** Toshsuvoq. Mayda marmar tosh parchalarini sementga qorib poygak yoki devorni suvash usuli.

**Berm** Berm. 1. Qo'rg'on devori va xandaq orasidagi gorizontal yuza. 2. Tosh devor oldidagi yo'lka. 3. Uzun tuproq uyumi. Yerga o'matilgan ustunlarni, simyog'ochlarni ushlab turgan.

**Bestiarium** Qafas. Rim amfiteatrlarida saqlangan yirtqich hayvonlar joyi.

**Bestiary** Bestiariy. O'rta asr cherkovlarida o'yilgan yoki chizilgan suratlar to'plami.

**Bethel** Ibodat o'mni.

**Beth-knesset** Ibodat uyi. Yahudiylarning yig'ilish va ibodat binosi.

**Bibikhanum mosque** Bibixonim Jome masjidi. Sohibqiron Amir Temur tomonidan insho ettirilib malika Bibixonimga hadya etilgan. Qurilishda Osiyoning

eng mahoratli ustalari ishtirok etishkan. 403 gumbazi, 480 ustuni, baland minoralari, muqarnas bezaklari, xattotlik san'ati va boshqa ko'pgina sirli parchinlari binoni ulug'vor qilib ko'rsatkan. Samarqandda joylashkan ushbu obida dunyoning eng yirik masjidlaridan biri bo'lib, hozorda fasad qismlari saqlab qolingan. Qur'oni karim uchun marmar lavh mana shu masjidda turadi.

**Binding rafter** Bog'lovchi to'sin. Tom to'sinlarini pastki nishab tomonidan ko'tarib turuvchi gorizontal yog'och to'sin.

**Binding stone** Bezakli tosh parchasi yopishtiriladigan tosh.

**Blank door** Eshik o'mni. 1. Devordagi bo'shliq, kirish o'rni. 2. G'isht terib yopib yuborilgan devordagi eshik o'rni.

**Blank wall, blind wall, dead wall.** Yopiq devor. Ochiq qoldirib qurilmagan devor. Eshik, deraza o'rnatish o'rnlari bo'lmaydi.

**Blank window, blind window, false window** Deraza o'mni. 1. Tashqi devordagi deraza kabi ochiq deraza o'rni. 2. G'isht terib yopib yuborilgan deraza o'rni.

**Blind arcade** Yopiq arkada. Rim binolarida devor yuzasida arklar qatorining bo'rtma tasviri. IX-XII asrlar.

**Blind door 1. (blank door 2) 2. Chiypardali eshik.** Oralari biroz ochiq qoldirib qoqib chiqilgan gorizontal yog'ochlardan iborat eshik. Bunda havo aylanishi hisobga olinadi.

**Blind joint** Yopiq bo'g'in. Materialarning qo'shilgan qismlari ko'rinxaydigan.

**Blind pocket** Quti. Deraza tepasida o'rnatilgan metal tasmali chiypardanining yig'uvchi qutisi.

**Blindstory** Yopiq qavat. 1. Tashqi derazasi bo'limgan qavat. 2. Gotik cherkovida arqli galeriya.

**Blocking course** Bo'rtma qarnas. Devorning eng tepa qismidagi tekis qatlam.

**Block modillion** Qosh, qalamqosh. Devor va shift tutashkan burchak bezagi.

**Blue brick, Staffordshire blue** Pechkada kislorod tanqis olovda pishib ko'karib chiqqan g'isht.

**Blunt arch** Ravoqli ark, yarim aylana bo'limgan uchi burchakli ark. Uning shakli sirkulda chizib chiqarilsa, ikki sirkul markazidan iborat bo'ladi.

**Brattishing, brandishing, bretissement** Panjara va boshqa qurilmalarning yuqori qismidagi bezakni yaratish. Ko'pincha xoch yoki gulli shaklida.

**Bread room** Non xonasi. Non, pishiriqlar, shirinliklar kabi yeguliklar saqlanadigan tokchali xona.

**Breast Izora.** 1. Devorning loyihadagi qismi, masalan mo'ri. 2. Devorning deraza balandligidagi qismi. 3. To'sinning ostki qismi. Panjaraning quysi.

**Breast molding** Izora naqshi. 1. Devor o'rtasidagi quyma naqsh. 2. Deraza ostini qoplaml bilan berkitish.

**Breastwork** 1. Mo'ri atrofidagi toshli bezak. 2. Binoning bosh ko'rinaligan kalta devori. 3. Shu balandlikdagi mudofaa devori.

**Breccia** Yerga bezak berib terilgan marmar.

**Brick Pishiq g'isht.** Kirpich. (*Kirpich asli eski turkiycha so'z*)

**Brick and brick** G'ishtlarni bir biriga bog'lab terish usuli; ikki g'isht ustiga qo'yilgan g'isht ochiq joyni yopib ketadi.

**Brick nogging, brick and stud work, brick nog** Sinch yoki to'sinlar orasiga g'isht terib chiqish.

**Bridgeboard** Yog'och zinaning zinapoyalarini ko'taruvchi uchburchak uzun yog'och.

**Brise soleil** Oyna o'rnida o'rnatilgan, ochiq oralatib qoqilgan, quyosh nuridan qisman yoki to'liq asrovchi material. U qotirilgan yoki ko'tariladigan bo'ladi.

**Broach** 1. Uskuna bilan tosh yuzasini diagonal parallel chiziq tushirib o'yish. 2. To'rburchak minora usti sakkiz burchak bilan davom ettiladigan bo'lsa, ularning moslashuv joyida hosil bo'lgan piramidaning yarim ko'rinishi. 3. Minora. 4. Har qanday tik ishlangan bezak.

**Broached spire** To'rburchak minora ustidagi sakkizburchak minora, ularning birikkan joyi.

**Brob Pona** shaklda bo'lgan o'tkir metall, to'sin qotirishda ishlatiladi.

**Broken arch** Markaziy qismi ulanmay ochiq qoldirilgan ark. Oldidagi monument tanho ko'rinish turishi uchun orqasida hech narsa qurilmaydi. Bunday arklar yuk ko'tarmagani uchun ulanmay qoldirsa bo'laveradi.

**Broken pediment** Uchuq peshtoq. Xuddi **broken arch** kabi bo'ladi. Farqi arch deb aylana gumbazga aytildi, pediment deb uchburchak shaklli, tom kabi nishabli peshtoqqa aytildi. O'rtasi ochiq peshtoq.

**Broken rangework** Devorga terilgan turli o'lcham va balandliklardagi tosh. Sababi toshlar bir necha bo'laklarga ajralib singan bo'lishi mumkin.

**Bronteum** Gretsiya va Rim teatrлarida momaqaldiroq ovozini o'xshatish uchun yasalgan qurilma; tepaga yig'ilgan tosh uyumi maxsus joyga tushirib yuboriladi.

**Brotch** Ingichka uzun daraxt shoxining U shaklida bukilgani. Tom lo'mbozida qamishlarni mustahkamlashda ishlatiladi.

**Brownstone** Jigarrang tosh. 1. AQSHda XIX asrda keng ishlatilgan to'q jigarrang yoki qizil rangli tosh. 2. Shu tosh bilan bezatilgan uy.

**Brutalism, New Brutalism** Beton va devor bezaksiz ochiq va qo'pol qoldirilishi tarafdori bo'lganlarning arxitekturaviy yo'naliishi

**Bucranium Buqa.** Rimning Iona va Korinf usulidagi farizada tasvirlangan buqaning bosh suyagi haykali. Ba'zan gulchambar osilgan holda tasvirlangan.

**Bulla Tutqich.** Rimliklar eshigining nafis bezatilgan metall tutqichi. Eshik qismilarini qotirishda ishlatiladi.

**Bull nosed step** Qayrilma zinapoya. Eng quyisi zina pog'onasi chetining aylanali qayrilma bezagi. Bezak sal kengroq ko'rsatadi.

**Bull's eye** Buqako'z. 1. Xalqa shaklli bezak. 2. Dumaloq yoki tuxumsimon darcha. 3. Shu qurilmaning aylana bezagi. 4. Qabariq shisha disk.

**Bundle pier** Bog'lami ustun. Yuzasi to'lqinsimon qiyshiq yoki siniq ko'rinishda bo'lgan Gotik ustun. Bu kabi ustunlar qirg'oq maydonchasi ostida, ko'priq ostida va deraza arki ostida tayanch qilib ishlatilgan.

**Byodo-in** Yaponiyaning Kyoto shahrida 1052-yili Fujivara Michinaga uchun qurilgan dalahovli. Asosiy zali Humo zali nomi bilan mashhur. Yaponiyaning eng go'zal obidalaridan biri.

**Byzantine architecture** Vizantiya me'morchiligi. Sharqiy Rim imperiyasi bo'lgan Vizantiya me'morchiligi. IV asrda xristian va Rim an'analarini asosida gullab yashnagan. 1453-yil Turklar Konstantinopolni egallaguncha Vizantiya mavjud bo'lgan. Ulkan gumbazlari, yarim dumaloq arklari va nafis ustunlari, rang hamda bezak boyligi bilan ajralib turadi. Misol sifatida mashhur Avliyo Sofiya. (Hagia Sophia) (532-537)

**Byzantine Revival** Vizantiya me'morchilik usullarining XIX asrda qayta qo'llanilishi. Asosan cherkovlarning ko'p gumbazlarida, dumaloq arkli derazalarida uchratiladi.

## C

**Cabinet Kabinet.** 1. Ta'lim olish yoki konferensiya uchun mo'ljallangan shaxsiy xona. 2. Ilmiy tajribalarni ko'rsatish uchun xonalar jamlanmasi.

**Cabinet window** Peshtaxta derazasi. XIX asrda paydo bo'lgan, savdo mollari ko'rsatib qo'yilgan do'kon derazasi.

**Cabinet work** Ajoyib ko'rinishda va yaxlit uyg'unlikda kabinet va tokchalar qurish.

**Cable** Sim. Ustun va devordagi ustun shaklli bezakda, panjarada yuza silliq bo'lmay qovurg'ali bo'ladi. Qovurg'aning bitta naysimon uzun yo'liga cable deyiladi.

**Cabled fluting, ribbed fluting, stopped flute** Qovurg'ali bezak.

**Cabling, cable molding** Sim bezak. 1. Cable bezagi. 2. Burama arqon ko'rinishidagi bezak.

**Caementiciae structurae** Betonli qurilma. Kichik tosh bo'laklarini solib betondan devor qurish.

**Caementum** Shag'al.(ko'pligi caementa) Beton quyishda ishlataladigan mayda tosh bo'laklari.

**Caen stone** Kayen toshi. Normandiyaning Kayen hududi toshi. O'rta asrlarda Angliyada qurilishda ishlataligan.

**Caer-** Wales va Angliyadagi joy nomlari, qo'rg'on, saroy yoki shahar nomlari bilan ishlataladigan prefiks – so'z oldi qo'shimchasi.

**Caernarvon arch (Carnarvon arch)**

**Cage** Qafasli joy. Atrofi yengil yog'och to'siq bilan o'ralgan cherkovdagi ibodat joyi.

**Caher Kahir.** Irlandiyada dala qo'rg'oni sifatida qurilgan inshoot.

**Cairn** Uyum. Ramziy ma'no kasb etuvchi to'plab qo'yilgan tosh uyumi.

**Caisson** Botiq bezak. 1. **Coffer.** 2. Gumbaz ichki bezagida ishlataladigan botiq bezak.

**Calathus Kalafa.** Korinf ushubidagi ustunning qo'ng'iroq yoki savat shakliga o'xshash qismi.

**Calculatorium** Kalkator. Vino omboridagi tosh maydonchali yo'lak. Vino xumdonlari katta bo'lgani uchun uni balandroqdan turib ko'rish imkonini beradi.

**Caldarium** Kaldariy. Garmxona. Rim hammomlaridagi issiq suvli basseyн.

**Calefactory** Monastirdagi oddiy isitiladigan xona.

**Calendar** Kalendar. O'n ikki oyning ramziy tasviri yoki haykali.

**Calf's tongue molding, calves' tongue molding** Til bezak. Ark atrofida joy olgan mol tilini eslatuvchi shaklli bezaklar.

**Caliduct** Kaliduk. Qadimgi Rimda g'isht parchalaridan yoki terrakotadan qurilgan isitish tizimi.

**Calotte** Piyola shaklini eslatuvchi gumbaz.

**Calvary** Kalvariya. 1. Katolik mamlakatlarda Iso payg'ambarning o'limi tasvirlangan haykal. Shaharga kirish yo'lining balandligida, cherkov oldida va boshqa yerlarda bo'ladi. 2. Krest o'matilgan tepalik.

**Calvary cross** Kalvariya xochi. Uch zinapoya balandlikda o'matilgan krest. Ular imon, umid va sahovat zinapoyalari deb tushuniladi.

**Calyon** Kalyona. Bino devori qurishda ishlatilgan chaqmoq tosh.

**Camba** Kamba. Non yopiladigan va pivo tayyorlanadigan joyning lotincha nomi.

**Camber arch** Tekis ark. Tepasi deyarli aylana hosil etmagan tekisroq ark.

**Camber beam** Kamoni to'sin. O'rtasi ozgina tepaga qiyshaygan to'sin.

**Camber piece, camber slip** Qolip. Ark qurilguncha ishlatilgan ark qolipli yog'och tirkak.

**Camber window** Toqli deraza. Tepasi arkli deraza.

**Camboge** Kamboj. Tropik mintaqalarda beton-toshdan bo'lgan darchali devor qismi, havo aylanish darchasi.

**Came** Novdaband. Vitrajli deraza oynalarini biriktirib ushlab turuvchi nozik qo'rg'oshin.

**Camera** Kamera. 1. Qadimgi me'morchilikda arkli tom, shift yoki gumbaz. 2. Shifti arkli yoki gumbazli xona. 3. Kichik xona.

**Camerated** Toqli. Arkli yoki gumbazli ko'rinishga ega bo'lgan.

**Camera vitrea** Parchinli toq. Yuzasi parchinlar bilan bezatilgan gumbazli shift.

**Caminus** Kamin. O'choq. 1. Qadimgi Rimning metall erituvchi jihoz. 2. Uyni isitish uchun yoqiladigan o'choq.

**Campana** Kampana. Korinf ustuni tepasi o'zagi.

**Campaniform** Qo'ng'iroq shaklli.

**Campanile** Qo'ng'iroq minorasi.

**Campanulated** Qo'ng'iroq shaklda qurilgan.

**Camp ceiling** Nishabli shift. 1. Piramida ko'rinishli shift. 2. O'rta tomi tekis, ikki yoni nishabli bo'lgan tom shifti.

**Canalis, canal** Kanal. 1. Iona ustunidagi uzun botiq yo'l. 2. Botiq joy. 3. Eski shaharning tor yo'li. 4. Ariq. 5. Rim forumining noodatiy maydon bezagi.

**Canaliculus** Ariqcha. Qamish shaklida o'yib ishlangan kichik botiq joy.

**Cancelli** Kansella. 1. Dastlabki xristian cherkovlarida ruhoniyni ajratib turuvchi panjaralari to'siq. 2. Rim sirkida yog'och panjaralari darvoza.

**Cape Cod house** Koloniya uyi. To'g'ri burchakli, tomi nishabli uy. Tomida deraza bo'lmaydi. Cape Cod koloniyasida paydo bo'lgan usul. Ular uch xil bo'ladi: half house, three quarter house, full cape house.

**Capitolium vetus** Vetus kapitoliyi. Yupiter, Yunus va Minervaga bag'ishlab bunyod etilgan qadimiy ibodatxonasi.

**Cap molding** Yuqoridagi bezak. 1. Biror qismning tepasidagi bezak. 2. Eshik va derazalar tepasidagi bezak.

**Cappella del coro** Xo'r sahnasi. Cherkovda qo'shiq aytildigan joy.

**Capping** Qalpoq. Binoning har qanday yuzasi tepa qismi.

**Capping piece, cap piece, cap plate** Qalpoqli bo'lak. Har qanday tik o'rnatilgan yog'ochlar yoki boshqa qurilmalarning yuqorisiga o'rnatiluvchi to'sin qismi.

**Capreolus** Tayanch ustun. Qadimgi to'sinli tomrlarda chordoqda o'rnatilgan ustun.

**Caprile** Molxona. Echkilar boqib asralgan joy.

**Capstone** Yakkatosh. Devor tepasida tunuka o'mida joylangan toshning biri. Ikki tomonga nishabli bo'ladi.

**Carolingian architecture** Buyuk Karl davri me'morchiligi. Karl arxitekturasi. VIII-IX asrlarda Germaniya va Fransiyada mavjud bo'lgan. Buyuk Karl (768-814) sharafiga shunday nomlangan. Axen bosh cherkovi mazkur usul namunasidir.

**Carpenter Gothic** Gotik duradgorlik. AQShda XIX asrda yog'ochlar yuzasida Gotik unsurlarining qo'llanilishi.

**Carreau** Ko'z. Olmos yoki to'rtburchak shaklli shisha. Mozaikalarda ishlataladi.

**Carrefour** Karefor 1. K.o'chalar ayrilish qismidagi ochiq maydon. 2. Chorraha yoki kesishuv. 3. Jamoat maydoni.

**Carrel, cubicle** Karel. 1. Kutubxonada holi kitob o'qish uchun alohida kichik bo'linma. 2. Cherkovdag'i kichik joy.

**Carrelage** Poykoshin. Polga bezakli qilib terilgan terrakota.

**Carriage** Kosovur. Yog'och zinapoyalar orasida tayanch bo'lgan to'sin. Odatda devor va tashqi zinapoya orasida.

**Carriage porch** Dalon. Avtomobil panada turishi uchun mo'ljallangan darvoza oldi joyi.

**Cartibulum** Kartibul. Rim binolarida atrium ichida kursi sifatida ishlatalgan to'rtburchak tosh.

**Carton pierre** Karton qoplama. Yelim va bor aralashmasi, yana bir qancha elementlar qo'shib ishlab chiqarilgan material. Suvoq qilinmagan devorlarni qoplashda ishlataladi. U toshdan o'yib ishlangan bezak ko'rinishini berishi mumkin.

**Cartoon** Devoriy tasvir. Devorning to'liq yuzasi bo'ylab ishlangan chizma yoki tasvir.

**Cartouche** Kartush. 1. Bezakli tablo. Chetlari o'rama bezakli bo'ladi. O'rtasiga yozuv va tasvir o'yib ishlanadi.

**Carved work** O'yma ish. 1. Tosh yo'nish. Qo'lda uskuna bilan o'yilgan bezakli qismlar. 2. O'yib bezak tushirilgan g'ishtlar. Bu g'ishtlar odatiy g'ishtlar hajmidan kattaroq bo'ladi.

**Carvel joint** Silliq uloq. Yonma yon qoqilgan taxtalarning o'zaro tekislikda qapishtirilishi. Bu usul ispan kemalari yog'ochini biriktirish nomidan kelib chiqqan.

**Case bay** Sektor. Ikki to'sin orasidagi uzun polli yoki tomlı qismi.

**Cased glass, case glass, overlay glass** Shisha qoplama. Ustma ust qoplangan turli rangli shishalar. Ostki shisha ko'rnishi uchun ustki shishaning oralari ochiq qilib yopishtiriladi.

**Cased in timber (Cased beam)**

**Cased post Kukunlangan ustun**

**Casemate Mudofaalangan uy.** Devorida o'q otish uchun ochiq tuynuklari bo'lgan xona.

**Casemate wall Puch** qo'rg'on. Ikki qavat devordan yaxlit hosil qilingan devor. O'rtasidagi bo'shliqqa kerakli anjomlar joylanadi. Masalan mudofaa aslahalari.

**Casement Darcha.** 1. Derazaning yaxlit ramkali eshikchasi. Butun bo'y-basti bilan ochilib yopiladi. 2. Chuqur botiq yuzalni bezak.

**Casework Javon.** Eshik, tortma va tashqi qoplamadan iborat yaxlit javon. Idora va oshxonalarda buyumlar, hujjatlar qo'yishda foydalilanildi.

**Casing Hoshiya.** 1. Eshik va derazalar atrofini bezagan material. 2. Ustun va to'sinlar yuzasini yopkan qoplama. Mineralka kabi kukun holida bo'ladi.

**Casing bead Munchoqli tizma.** Suvoq chetiga yopishtirilgan munchoqli bezak. U suvoq chegarasini yoki boshqa materialdan alohida ekanligini bildiradi.

**Cassoon Faner.** Shift yoki gumbaz ostidagi qalin faner.

**Castellated Qo'rg'onli.** 1. Qasning himoya devorlari bilan o'ralganligi va unda o'q otadigan joylar mavjudligi. 2. Qo'rg'on devori ko'rinishida bezatilganlik.

**Castellum 1. Castellum aquae.** 2. Qo'rg'onli kichik shaharcha yoki qishloq.

**Castellum aquae, castellum Obgori.** Suv ombori. Akvedukdan yetib kelgan suv shahar chegarasida omborga quyilgan. Shu yerdan aholiga taqsimlangan. Suv omborlari xususiy va jamoatnikiga bo'lingan.

**Catherine-wheel window** Dumaloq deraza. Markazida radiusli qovurg'alarini mavjud bo'lgan g'ildirak ko'rinishili deraza. (**Rose window, Wheel window**)

**Chinese architecture** Xitoy me'morchiligi. Uzoq davrlardan beri hozirgacha saqlanib kelayotkan Xitoy arxitekturasi. Binolari simmetrik, to'rburchak, ba'zan pastroq qilib qurilgan. Har bir imperator sulolasi davrining o'z me'morchilik uslubi va har bir hududning o'z qurilish yo'sini bor. Saroy va maqbaralar, qo'rg'on va ko'priklar bizgacha yetib kelgan. Qurilishda tosh va yog'och ko'p ishlataligan. Ayniqsa to'sin terib yopilgan tomlari dunyoga mashhur.

**Clapboard, bevel siding, lap siding** Taxta. Yog'ochdan quriladigan uylar devorini yopishda ishlataladigan taxta.

**Classical architecture** Mumtoz madaniyat. Grek Ellin madaniyati va Rim Imperiyasi madaniyati. Bular asosida Barokko va uyg'onish davri madaniyati shakllan**Classicism Klassitsizm**. Me'morchilikda Rim va Yunon an'analari bilan birga Italiya uyg'onish davri unsurlarini ham qo'llovchi yo'nalish.

**Classic Revival** Mumtozlikka qaytish. XIX asrda AQSh va Angliyada qayta urf bo'lgan sof mumtoz me'moriy madaniyat. Rim va Grek me'morchiligining yana yuzaga chiqishi. Biz ularni Rokoko va Barokko usullarida ko'ramiz. Faqat bunda Yunon va Rim me'morchiligi ajralib turgan.

**Clausura** Ruhoniylar xonasasi. Monastirda faqat ruhoniylar uchun mo'ljallangan xona. Ibotat qiluvchilar joyidan holi qismi.

**Clavel, clavis** Arkning eng markaziy toshi.

**Clavus Mix.** Qadimgi rim binolarida ishlatilgan mix.

**Conditorium Lahm.** Yer ostida gumbaz ko'rinishida kavlab hosil qilingan joy. U yerga mayyit dafn etilgan. Jasadlarni yoqish urf bo'lgan davrdan oldin shunday qilishkan.

**Confession, confessio** Maqbara. Ulug' ruhoniyalar qabri: odamlar gunohini eshitib aybini kechiradigan ruhoniyalar. Qabr ustiga qurilgan bino ham shu nom bilan atalgan.

**Confessional** Xilvat. Jamoatdan holi bo'lgan joy. Bu yerda ruhoniy va muxlis muloqot yoki maslahat qiladi. Ular uchun alohida o'rindiq va o'rtada to'siq bo'ladi. Kirib chiqish uchun ham alohida eshiklar mavjud.

**Concessus Konsessus.** Cherkovda ruhoniy o'tiradigan mehrobsifat joy.

**Consistorium** Konsistoriya. 1. Rimda kardinallar kolleji zali. 2. Qirol, imperator yoki abbatlarning xufyona majlis joyi.

**Consistory, consistorium** Konsistoriya. 1. Rim imperatorining maxfiy uchrashuv xonasi. 2. Rim kardinallari kollejining yig'ilish joyi. 3. Konsulning uchrashuv xonasi.

**Console** Qosh. Devorga o'rnatilgan haykalga tayanch bo'lgan, yoki eshik va derazalar ustidagi bezakli qatlama tayanch bo'lgan qosh.

**Console table** Devoriy kursi. Polga emas devorga biriktirib ishlangan rafaqli kursi.

**Constructivism** Binokorchilik. 1917-yilda Moskvada paydo bo'lgan haykaltaroshlik va me'morchiilikdagi harakat. Bu davr texnika inqilobi davri bo'lgani uchun binoda texnik buyumlar shaklidagi bezaklarni ko'ramiz. Vladimir Tatlin loyihasi bo'yicha 1920-yili qurilgan Moskvadagi Uchunchi xalqaro monumenti bunga misol bo'ladi.

**Contignation, contignatio** Sinch. Devor ichidagi to'sinli qism.

**Continuous impost** Davomiy ark. Ustunga ulanib polgacha yetkan ark yo'nalishi. Ark va ustun birikkan joy bezak bilan ajratilmaydi; yaxlit manzara kasb etadi.

**Contractura** Sabzi ustun. Pastdan tepaga qarab kengayib boruvchi ustun. (Teskari Entasis)

**Contravallation** Himoya devorlari. Dushman hujumidan himoyalanish uchun bunyod etilgan yelka balandligidagi mudofaa devorlari.

**Contrefort** Qo'rg'on orti. Mudofaa devorlari ortidagi tayanch devor.

**Contre-imbrication** Ustma-ust bezak. Devor yuzasi pastida takrorlangan bezakning tepasida ham takrorlangani.

**Corbel table** Rafaqli qatlam. Bo'rtma poyqatlamlar ustiga qurilgan uzun bezakli qatlam.

**Corbel vault, corbeled vault** Zinapoyali gumbaz. G'ishtlari uchrashguncha bir-biriga tobora yaqinlashtirib borib quriladigan gumbaz. Barcha g'isht gorizontal holda yotqiziladi. Shuning uchun ichidan qaralganda silliq dumaloq emas, zinapoya ko'rinishida burchakli bo'ladi.

**Corbie gable, crow gable, step gable** Zinapoyali cho'qqi. Tom uchida bo'ladigan zinapoya ko'rinishli g'ishtli cho'qqi.

**Corbiestep, catstep, crowstep** Pillapoyali devor. Tom yonlaridagi zinapoyali qurilgan devor nishabi

**Corinthian, Corinthian order** Korinf orderi. Korinf uslubi. Uch yunon uslublarining eng nafisi. Biz unda ayiqtovon bargi, burama bezaklar va boshqa nozik bezaklarni kuzatamiz.

**Corner bead, corner, corner molding** Raxbezak. Har qanday vertikal burchak bezagi. Odatda tekis, uzun yo'lli va munchoq bezakli bo'ladi.

**Corner board** Raxyog'och. Bino devorining tashqi burchagiga qoqladigan yog'och.

**Corner post** Burchak to'sini. To'sinlar o'matishda mixlab qotirish va tayanch bo'lishi uchun o'matiladigan yog'ochli burchak ustuni.

**Cornerstone** Burchaktosh. 1. Devor burchagini hosil etkan tosh. 2. Turli yozma ma'lumotlar bitilgan devor burchagi ostidagi tosh.

**Cornice** Qarnas. Sharafa. Araqi. 1. O'zi biriktilig'an har qanday narsaning quyma bezagi. 2. Farizadan keyingi bezak. Yoki qatlam. 3. Shift ostidagi gir aylana devor bezagi. 4. Tashqi devorda tom bilan devor tutashkan qismi bezagi.

**Cornice return** Qarnas bezaginining turli yo'nalishlarda davom etishi.

**Coro** Tashkiliy xo'r joyi. Ispaniyada alohida binolari bor.

**Corona** Toj. Manglay. Tashqi devorda araqining bir qismi bo'lgan silliq yuza. Asosan yomg'irni devorga yuqishidan saqlaydi. Devor tepasining tornga yaqin qismida joylashadi.

**Corona lucis** Cherkov qandili.

**Coronarium** Manglay hosil qilish uchun suvoq ishlatilishi.

**Coronet** Toqitoj. Deraza, eshik tepasida uchburchak ark bezagi.

**Corps de logis** Qasr yoki dalahovlining markaziy qismi, katta xona.

**Corpse gate (lyeh gate)**

**Corsae** Karzey. Marmarli eshik oldi qismini bezatishda ishlatiladigan qoplamalar.

**Corseria** Yo'lak. Korzeriya. Bir minoradan ikkinchi minoraga o'tish yo'lli. Devor ustidan yoki qasr ichidan bo'lishi mumkin.

**Cortile Hovli**. Saroyning ichki hovlisi. U saroy devorlari yoki binolar bilan o'ralgan bo'ladi.

**Cortinale** Kartinal. Qadimgi Rimning vino saqlangan yerto'lsasi.

**Corycaeum** Mashg'ulot xonasi. Yigitlar qum, un, yoki don to'lg'izilgan qopni osib qo'yib urishkan.

**Cosmoto work** Tosh, shisha yoki tilla halli marmarlardan iborat naqsh. O'rta asrlarda Italiyada ishlatilgan.

**Cot, cote Kichik uy, kottej.**

**Cottage orne, fermee ornee** XVIII-XIX asrlarda bo'lgan kichik qishloq uyi.

**Cottage roof** Katta to'sin ishlatmasdan turib qiya o'matiladigan to'sinlarning o'zidan yopilgan tom.

**Coulisse, cullis** Uzun ariqcha qilib o'yilgan to'sin qismi. Orasiga taxta kirgiziladi.

**Counter apse** Cherkov oxirida bir-biriga qarama qarshi joylashkan xonalar.

**Counter arch** Bir ark qarshisidagi boshqa bir ark.

**Counterfort** Zilzilaga bardoshli bo‘lishi uchun mustahkam qurilgan devor.

**Counter imbrication (contre imbrication)**

**Counterlight** Bir chiroqqa qarshi joylashkan boshqa bir chiroq.

**Countermure** 1. Mudofaada devor ortidagi yana bir devor. 2. Devor oldida qurilgan ikkinchi devor.

**Counterscarp** 1. Mudofaada xandaq yonidagi quruqlik. 2. Devor bilan xandaq orasidagi quruqlik.

**Course** 1. Devorda terilgan toshlarning bir gorizontal qatori. 2. Biror materialning uzun qatori: parchin, qoplama qatori.

**Court** 1. Atrofi to‘liq yo qisman binolar bilan o‘ralgan maydon, hovli. 2. Sud zali. 3. Hukmadorlar qarorgohi.

**Cove ceiling, coved ceiling** Devor va shift burchagida chorak aylanali bukib ishlangan bezak.

**Cover molding, cover fillet** Fanerlar ulangan joydagi uzun reka. Reka tekis yoki bezakli bo‘lib uloqni yopib ketadi.

**Cover strip** Devor bo‘shlig‘ini yopishda ishlatiladigan ingichka uzun bezak.

**Coving** 1. Coves. 2. Tashqi devor burchagining chorak dumaloq ko‘rinishida ishlanishi. 3. To‘sining shunday ishlov berilgan qismi. 4. O‘choq devorining shunday ishlov berilgan qismi.

**Cradling** Suvoqni tekis chiqarish uchun ishlatiladigan, yoki gumbaz to‘g‘ri shaklda chiqishi uchun vaqtincha ishlatiladigan yog‘och qurilma.

**Creasing** Suv oqib tushib ketishi uchun o‘rtasi ariqchali botiq bo‘lgan sopol parchinlar qatori.

**Crest tile, crease tile, cress tile** 1. Tom uchiga egar kabi o‘rnatiladigan burchakli parchin. 2. Salib shaklli sopol parchin.

**Cross aisle** 1. Cherkovda odamlar o‘rindig‘i orasidagi kesishkan yo‘laklar. 2. Auditoriya o‘rtasidagi kesishkan yo‘lak.

**Crosette, crosette** Tepador. 1. Eshik yoki deraza tepasida boshdan balandroq qilib qurilgan tekis ark. 2. Kichik hajmli tekis terilgan arkning bir bo‘lak toshi.

**Cross springer** 1. Qovurg‘ali gumbazning diagonal arki. 2. Tomning o‘zaro kesishkan qovurg‘alari.

**Cross vault, cross vaulting** Ikki yarim aylanali gumbaz qo‘shib qurilishidan hosil bo‘lgan plus ko‘rinishli gumbaz.

**Crusta** Qadimgi Rim me’morchiligida devoriy qoplama. U yupqa marmar toshdan yoki yog‘ochdan bo‘ladi.

**Crutch, cruck** Tabiiy qiyshiq bo‘lgan yog‘och. Bunday yog‘ochlar ikkitadan ark shaklida o‘rnatilib, tepalari ingichkarorq yog‘ochlar bilan mustahkamlab chiqiladi. Qiyshiq yog‘ochning yarmi devor, yarmi esa tom to‘sini vazifasini bajaradi. Ya’ni uzunligi yerdan tom uchigacha bo‘ladi.

**Crypt波特icus** 1. Qadimgi Rim arxitekturasida ustı va yoni yopiq galeriya; ustı ark shaklida, devorda derazaları bo‘lgan. 2. Rim dalahovilari va qishloq uylariga yondosh qurilgan yopiq galeriya.

**Crystal palace** 1. Londonda 1851-yili katta ko‘rgazma o‘tkazish maqsadida po‘lat va oynalardan bunyod etilgan ko‘rgazma binosi. 2. Shunga o‘xshatib qurilgan boshqa ko‘rgazma zallari.

**Cyrtostyle** Ustunlar bilan bezatilgan yarim aylanali binoga kirish qismi.  
**Cyzicene** Qadimgi Yunoniston uyidagi joy. Bog‘ ko‘rinishida bo‘ladi.

**D**

**Dageba** Buddizm me’morchiligidagi avliyolar va Budda tasvirili monumental qurilmalar.

**Dealbatus** Oq sement yoki alebasterli suvoq. Qo‘pol g‘isht va toshlar yuzasini berkitish uchun.

**Deambulatory** 1. Cherkov zali chetidagi aylana yo‘lak. 2. Cherkovning shunday yo‘lakli joyi.

**Decastyle** O‘ntalik. Bir qatorida o‘nta ustunli bino.

**Decempeda** O‘lchovda ishlatilgan o‘n qadam masofaga teng yog‘och.

**Decor** Uy jihozlari, mebellari, gilam va pardalaridan iborat bezak.

**Decorated style** Bezakli uslub. Ing‘lez Gotik me’morchiligi uch davrining ikkinchisi. (1280-1350) Bejirim bezaklarga boyligi, qovurg‘alarining ko‘pligi, hamda ichki aylanali arklari bilan ajralib turadi. Dastlabki rivojlanish davri Geometric, keyinchalik Curvilinear deb atalgan.

**Design** Bezak. 1. Binoning nafis ko‘rinishli loyihasini tayyorlash. 2. Binoning loyihasi, chizmasi kabi predmetlarni o‘rganuvchi me’morchilikdagi ta’limot. 3. Inson yaratkan san’at asarlarini o‘rganuvchi fan sohasi.

**Destina** Ustun. 1. Binoga tayanch bo‘lgan ustun. 2. Cherkovdagagi mehrobsifat joy.

**Devagosta** Mehrob. Hind me’morchiligidagi mehrob.

**Deversorium** Mehmonxona. Qadimgi Rimda sayohatchilar uchun mehmonxonalar.

**Diathyros** Dahliz. Grek uylari yo‘lagi. Bir eshigi ko‘cha darvozasi, bir eshigi hovli darvozasi bo‘lgan.

**Diatoni** Diaton. Kengligi devor enicha bo‘lgan tosh.

**Diazoma** Diazoma. Grek teatrlerida yuqori va pastki sektorlar orasidagi gorizontal yo‘lak.

**Dictyotheon** Sanama. 1. Qadimgi Gretsiyada shaxmat taxtasi ko‘rinishida terilgan toshlar. 2. Yorug‘lik va havo o‘tishi uchun katak-katak qilib ochiq qoldirilgan joylar.

**Didoron** G‘isht. Rimliklarning qadimiylari g‘ishti. Uzunligi 30.5 sm, kenligi 15.2 sm.

**Die** O‘rta asos. Haykal poyidagi tayanch qismning o‘rtasidagi asosi.

**Dolmen, table stone** Dolmen. Oyoqlı tosh. Qadimgi davrda qabr atrofiga tik toshlarni qo‘yib ustiga katta toshni o‘rnatishkan. U toshning faqat osti tekislangan.

**Dome** Gumbaz. Qubba. Toq. 1. Balandga ko‘tarilgani sari og‘dirib ishlangan shift. Ko‘pgina gumbazlar yarim aylan shaklida bo‘ladi. 2. Ba’zan yarim aylan shaklidan balandroq qilib qurilgan qubba. Shu ko‘rinishli shift.

**Door Eshik.** 1. Kirish qismi. 2. Kirish qismiga o‘rnatalgan to‘sinq. Eshiklar bir-ikki tabaqali, ochilib yopiladigan, quflanadigan bo‘ladi.

**Door rail** Eshik qovurg‘asi. Eshikning yuzasida gorizontal o‘rnataladigan rekalar. Ular faner yoki oynani tutib turadi. Faner rekaning o‘rtasiga, bir tomoniga yoki har ikki tomoniga o‘rnatalishi mumkin.

**Doric order** Doriy uslubi. Yunon Doriylar tomonidan joriy qilingan ustunlar va devor shakkari. Usunning yostiqsimon tepe qismi, farizalar, trigiflar va qarnas bezaklari o'ziga xos uslubda shakklangan.

**Double church** Qo'sh cherkov. Ikki qavat qilib qurilgan cherkov. Tepa qavatdagilar pastni ko'rib, ovozlarni eshitish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun o'rtada ochiq joy qoldirib quriladi.

**Double-cone molding** Qo'shaloq bezak. Chełak ko'rinishili qo'shaloq bezaklar. Keng joy o'zidaka keng joy bilan, tor joy esa tor joyi bilan birikadi.

**Double lancet window** Ikki ravoqli deraza. Bu derazaning o'rtasidagi tayanch qism yuqoriga chiqib ikkiga bo'linadi va ikki alohida derazacha ko'rinishini hosil qiladi.

**Double monastery** Juft monastir. Bir-biriga taqab yoki yaqin masofada qurilgan monastirlar. Har ikkisi yagona boshqaruv ostida bo'ladi.

**Drawbridge** Ko'tarma ko'prik. Qo'rg'onga kirish darvosasi oldidagi ko'prik. Dushman bosqini paytida ko'tarib qo'yilgan.

**Drum** Baraban. 1. Dumaloq ustunning bir bo'lak toshi. 2. Dumaloq gumbaz ostidagi dumaloq devor. Devor atrofida derazalari

**Dungeon** Donjon. 1. Qasrning eng mustahkam minorasi. 2. Qasrning yer osti qorong'i xonasi. 3. Yer ostidagi qorong'i qamoqxonasi.

**Dutch brick** Golland g'ishti. AQShda koloniya davrida ishlatilgan g'isht. (3.8 x 7.6 x 17.8 sm) Keyingi davrda qo'llangan ingliz g'ishtidan kichikroq.

**Dutch door** Golland eshigi. Ikki qavatli eshik: biri yuqorida, biri pastda. Ularni baravar yoki alohida ochish mumkin

**Dutch gable** Golland gabali. Devor tepasida uchburchak ark ustidagi ko'p burmali kokil.

**Dutch lap**. Golland parchini. Tom yopishda ishlatiladigan to'rburchak parchin. Yuqoridagisi pastdagining ustiga teriladi.

**Dutch stoop, dutch stoep** Kichik yog'ochli shiypon. Ikki chetida o'rindiqlari bo'ladi.

**Durbar** Durbar. Hindistonda shahzoda saroyidagi tomoshabinlar zali.

**Dynka** Dinka. Dastlabki rus me'morchiligida mavjud bo'lgan ustun atrofidagi bezakli bog'ich.

## E

**East end** Cherkovning oxiri. O'rtalarda cherkovlarning hammasi bir xil uslubda qurilgan. Ya'ni kirish eshiklari doim g'arbiy devorda va altar o'rnatilgan so'nggi qism sharqiy devorga yaqin joylashkan. Shu sabab sharqiy qism eng oxirgi cherkov o'rnii hisoblangan.

**Eastern crown (Antique crown)**

**Easter sepulcher** Pasxa tokchasi. Ba'zi cherkovlarda payshanbadan Pasxa bayramigacha muqaddas buyumlar joylashtiriladigan tokcha.

**Eastlake style** Istleyk uslubi. Ingliz me'mori Charles Lock Eastlake (1833-1906) nomi bilan ataluvchi o'zining uslubi. Bu usul og'ir g'ishtlar va boy bezaklar bilan ajralib turadi.

**East window** Sharqiy deraza. Cherkovda xor orqasidagi sharqiy devorda joylashkan deraza.

**Eaves** Tom etagi. Nishabli tomming devordan tashqariga chiqqan eng quyi qismi.

**Eaves channel** Sliv, nov. Tomdan oqib tushadigan suvlarni to‘plab quvurga joylab beruvchi moslama.

**Ecclesiology** Ekliziologiya. Aynan cherkov qurish va bezatishga oid me’morchilikning bir sohasi fani.

**Echinus** Ekina. Lagan shaklli ustunning bir qism bezagi. U ko‘pincha Doriy ustunlarining eng yuqori qismidan bitta pastda joylashkan.

**Echinus and astragal** Munchoqbezak. Tuxum va tig‘ shaklli bezaklar.

**Eclecticism** Eklektisizm. XIX asming ikkinchi yarmida Yevropa va AQShda me’morchilikda mavjud bo‘lgan turli xil aralash bo‘lgan bezaklar jamlanmasi.

**Ecphora** Ekfora. Har qanday bezak yuzasi ostida yoki ortida joylashkan bezak.

**Edge shafts** Yondosh ustun. Devor yoniga o‘rnataladigan va arkni ko‘taradigan ustunlar. Asosan Normand me’morchiligidagi.

**Effigy** Odam haykali. Butun bo‘y-basti bilan tasvirlangan odam.

**Ekklesiasterion** Zal. 1. Yunon shaharchalarida faollar zali. 2. Shaharchada konsul xonasi. 3. Diniy yig‘ilishlar joyi.

**Elaeothesium** Elotez. Rim hammomlarida yog‘ saqlanadigan joy. U yerda yuvinuvchilar badaniga moy surtishkan.

**Electrum** Elekrtum. Oltin va kumush aralashmasidan iborat qorishma. Saroy va ibodatxonalar bezaklarida ishlatalgan.

**Elevation** Ko‘tarilish. Bino vertikal qismi chizmasi. U ichki tarafdagisi yoki tashqi tarafdagisi bo‘lishi mumkin.

**Elgin marbles** Elgin marmarları. Afinaning Parfenon binosidan olib kelinan ko‘pgina marmor haykallar. 1816-yildan beri Britaniya muzeysida saqlanadi. Bu haykallar bir vaqtlar Parfenonning tom qismini, devor yuzalarini va boshqa joyalarini bezab turgandi.

**Ell, el** El. Binoning cho‘zilgan qanotli qismi. U asosiy binoga to‘g‘ri burchakda joylashadi.

**Elliptical arch** Elliptik ark. Yarim ellips shaklli ark.

**Elliptical stair** Elliptik zina. Tuxumsimon ko‘rinishli aylana zina.

**El Tajin style** El Tajin uslubi. 200-900 yillarga oid Amerika qit’asida Totonaklar me’morchiligi uslubi. Ingichka qarnaslar, tokchali joylar, ko‘pgina geometrik bezaklar, o‘yib ishlangan haykallar kabi xususiyatlarga ega qurilmalar Totonaklar poytaxtida mavjud bo‘lgan. U shahar hozirda Meksikaning Vera Kruz shtatida joylashkan. Mashhur obidasi 600-yili qurilgan piramidasidir.

**Emarginated** Hoshiyalangan.

**Embattled, embattlemented** Himoyalangan. Qo‘rg‘on tepasiga o‘q otish uchun ochiq oralatib devor qurilganlik.

**Emboss** Bo‘rttirish. Material yuzasining kerakli joylarini o‘yish orqali bo‘rtma tasvirlar hosil qilish.

**Embow** Bukish. Ark va gumbaz shakllarini hosil qilish.

**Embowed** Bukilgan. Yoysimon qurilmaga ega ma’nosida.

**Embrasure** Bo‘shliq. 1. Qal’a devori oralaridagi bo‘sh joy (O‘q otiladigan). 2. Eshik va derazalar o‘rni.

**Emissarium** Zovur. Qadimgi Rim qurilmasi nomi: suvni quritish uchun qazilgan ariq.

**Empire style** Imperiya uslubi. Birinchi Fransuz imperiyasi davrining neoklassik me'morchilik uslubi (1804-1815). Napoleon davri arxitekturasi.

**Emplecton** Emplekton. Greklar va Rimliklar qo'llagan tosh terish usuli. Bu qurilma himoya devori bo'lib tashqi ko'rindigan yuzalar tekis toshlardan qurilgan, ichki qismi esa mayda toshlar bilan to'lg'izilgan.

**Entablature** Yuqori qatlam. 1. Mumtoz me'morchilikda ustun tepasining tomgacha bo'lgan qismi. U arxitrav (sarrov), fariza va qarnas qismlariga (araqi) bo'linadi. 2. Devorning tojdor qismi.

**Epistyle, epistylium** Ustunlar ustiga tushadigan to'sin. Arxitrav deb ham ataladi. ( architrave) Agar to'sin yog' ochdan ishlangan bo'lsa trabes deb ataladi.

**Equilateral arch, equilateral pointed arch, three pointed arch** Ravoqli ark. Ikki sirkul markaziga ega ark. O'rtasi burchak hosil etadi. Sirkul markazlari arkning ikki pastki yoni bo'ladi.

**Escutcheon**. Qalqoncha. 1. Eshikka o'rnatiladigan metall. Unga kalit solinadi yoki xalqa ilinadi. Eshik tutqichlarining eshikka qotiradigan metall qismi ham shunday nomlanadi. 2. Yuzasiga qurol tasviri tushirilgan qalqon.

**Escutcheon pin** Shurup. Materiallarni yog'ochga qotiradigan mixsimon burama moslama.

**Estipite Estipit**. Ispan va Lotin Amerikasi me'morchiligida to'g'ri burchakda kesishkan joylarga o'rnatiladigan ustun.

**Exedra, exhedra** Yarim aylana o'rindiq. 1. Yarim aylana shaklli, usti toqli, o'rindiqlarga ega joy. 2. Cherkovning yarim aylanali qismi. 3. Grek gimnaziyalarida dars o'tilgan yarim aylana o'rindiqli joy. 4. Qadimgi grek uylarida devor atrofi o'rindiqli suhabatlashish xonasi. 5. Ochiq xiyobonlardagi yarim aylana o'rindiq.

**Extradosed arch** Yuzалик ark. Tashqi aylanasi ichki aylana bilan bir xil bo'lgan, devordan ajralib ko'rinishib turgan ark.

## F

**Fabric** O'zak. Suvoqsiz va bezaksiz bo'lgan binoning haqiqiy ko'rinishi.

**Facade** Fasad. Andom. Binoning tashqi ko'rinishi. Bunda bino yakuniy bezatilgan holda tasvirlanadi.

**False front** Qo'shimcha devor. 1. Binoni yanada kengroq ko'rsatish uchun yoniga qurilgan quruq devor. 2. Binoni yanada baland ko'rsatish uchun ustiga qurilgan qo'shimcha devor.

**False window, blind window** Yolg'onidakam deraza. Derazalarni ko'p qilib tasvirlash uchun haqiqiy deraza qatorida soxta deraza chizmalarini yaratish.

**Federal style** Federal uslub. AQShda 1790-1830 yillarda urf bo'lgan mumtoz madaniyatni eslatuvchi uslub.

**Femerell** Ventilator. Tutunni xonadan chiqarib tashlovchi parrakli qurilma. Devor yoki shiftga o'rnatiladi.

**Femur** Femur. Farizanizing uzun uch qator yo'li oralaridagi yuza.

**Fenestella** Fenestal. 1. Daxmada odam tobuti kirgizilgan tuyruk ustidagi darcha. U buyuk shaxslarning suyaklarini ko'rib turish uchun qilinadi. 2. Chanoq

(jom, rakkina) ustidagi mehrobcha. 3. Cherkovda altar ichidagi narsalar ko'rinib turishi uchun qoldirilgan darcha. 4. Kichik deraza.

**Fenestra** Darcha. 1. Mudofaa devorida o'q otiladigan darcha. 2. Derazaning qadimiy nomi.

**Fenestra biforis** Fransuz derazasi (eski nomi).

**Fenestral** Derazacha. 1. Kichik deraza. 2. Shisha oynalar kashf etilguncha bo'z yoki qog'oz yopib ishlangan deraza.

**Fenestration** Derazachilik. Binoga deraza o'rnatish ishlari.

**Feng huo tai** Minora. Buyuk Xitoy devori bo'ylab qurilgan minoralar. U to'rtburchak qurilgan va xavf paytida ogohlantiruvchi gulxan yoqilgan.

**Flemish bond** Flamand usuli. G'isht terish usuli. Bunda g'ishtlarning biri bo'yiga, biri eniga joylashtiriladi. Keyingi qatordagi bo'yiga teriladigan g'isht eniga joylashkan g'ishtning ustiga tushadi. Shunda barcha bo'yiga terilgan g'ishtlar bir vertikal chiziqdagi joylashadi.

**Florentine arch** So'nggi o'rta asrlarda Florensiyada mavjud bo'lgan ark turi. Ark tepasidagi toshlar ark yonidagi toshlarga nisbatan uzunlashib boraveradi.

**Flying buttress** Gumbaz burji. Gotik uslubga xos cherkov binosining bir qism devori. U ikkinchi qavat balandligiga to'g'ri kelib, tik tom yoki gumbazni ko'tarib turuvchi toshli tirkak qurilma hisoblanadi.

**Fons Favvora.** 1. Hovuz. 2. Sun'iy favvora. Uning markazida chiroyli haykallar bo'ladi.

**Footstall** Ustun poyi. 1. Ustunning poy qismi. Bu qism alohida ko'rinishda ajralib turadi. 2. Haykalni ko'tarib turgan ustun.

**Forecourt** Old hovli. Binolarning kirish qismidagi ochiq maydon.

**Fores canceris** Amfiteatr eshigi. Poygachi otlar joyi eshigi. Shu eshik ochilgach otlar poygaga chiqib kelgan.

**Fortress** Qo'rg'on, qal'a. 1. Dushmanidan himoyalanish uchun qurilgan devor va ichidagi binolar. 2. Qochoqlar uchlari boshipana.

**Forum** Forum. Guzar. Monumental binolar bilan o'ralgan Rimliklar jamoat maydoni. Dastlab bu yer bozor vazifasida bo'lgan.

**Foss, fosse** Xandaq. Himoyalanish uchun qazib suv to'lg'izilgan joy. Shahar atrofi bo'ylab qazilgan.

**Fossa** Xandaq. Qo'rg'on atrofida emas, urush joyida qazilgan uzun chuqurlik.

**Fountain** Fontan. Me'moriy favvora.

**Four centered arch** To'rt markazli ark. Ichki qismi to'rt sirkul markazidan hosil bo'lgan ark.

**Foyer** Peshayvon. 1. Tashqaridan binoning ichkarisiga olib kiruvchi yo'l. 2. Tashqi yo'lak bilan auditoriya orasidagi joy. 3. Dahliz.

**Framed overhang** To'rtburchak qurilma. Uyning tepasidagi kichik qism. Pastidagi tomonning ustki vertikal yuzasi.

**Frithstool** Toshkursi. Cherkovda altar yonida bo'ladiqan toshdan yasalgan o'rindiq. Bunga boshipana so'rab kelgan qochoqlarni o'tkazishkan.

## G

**Gable Gabal.** 1. Chordoqli va ikki nishabli tom kokili. Nishabning yon tomonida bezakli ishlangan yog'och. 2. Shunga o'xshash tom. Biroq nishablari ikkiga bo'lib quriladi: tik nishab ustiga yotiq nishab ulanadi.

**Gabled tower Ochiq chordoqli minora.** Uning tomi piramidaga o'xshab to'rt nishabli bo'Imaydi. Ikki tomoni nishabli, ikki tomoni vertikal uchburchak devorli bo'ladi. Ammo yon tomonlarida ham uchburchak tomlar hosil qilish mumkin.

**Gable end Devor yakuni.** 1. Tom chordog'igacha yetkan, uchburchak bo'lib yakunlangan devorning yuqori qismi. 2. **Gable.**

**Gable post Tom ustuni.** Yon tomon tomming bezakli yog'ochlarini ushlab turuvchi kalta yog'och.

**Gaine Gayina.** 1. Haykal ostining bezakli tayanchi. U tepaga qarab kengayib boradi. Uning ustida haykal tasvirlangan. 2. Xuddi shunday qurilma. Faqat ustida oddiy odam byusti tasvirlanadi.

**Galilee Galilei.** 1. Cherkovning g'arb tomonidagi ibodatchilar joyi. 2. Ilk qurilgan cherkovlarga yondosh xona. Ruhoniylar xizmatdan so'ng shu xonaga kelishkan. Obro'li shaxslar shu yerga dafn etilishkan.

**Galilee porch Galilei dahlizi.** Tashqari bilan tutash dahliz. Cherkov zaliga shu yerdan kirilgan.

**Gallery Galeriya.** 1. Binoning ichida yoki tashqarisida bo'lgan uzun usti yopiq yo'lak. 2. Sahni yuqoriroq bo'lgan sozandalar, qo'shiqchilar galeriyasi. 3. Auditoriyada yuqorilatib o'rnatilgan o'rindiqlar joyi. 4. Binolarda balandroq joyli ibodat o'rni. 5. Bino ichida bo'ladigan xizmat ko'rsatish yo'lagi. Yoki bino ostidagi ta'minot joyi. Ba'zi galeriyalar atrofni tomosha qilish uchun quriladi. 6. Maxsus faoliyat turlari uchun uzun va tor xona. 7. San'at asarlari ko'rgazmaga qo'yiladigan xona. 8. San'at bilan bog'liq xizmatlar uchun xona.

**Gambrel roof, gambrel Siniq tom.** 1. Har ikki tomoni ikki xil nishabli tom. Yuqori nishab yotiq, quyisi tik bo'ladi. Britaniyada **Mansard roof** deyiladi. 2. Yuqori kichik qismigina gabal bo'lgan tom. (gable)

**Garden wall cross bond Bog'** devori uslubi. G'isht terish usuli. Bunda uch qator g'ishtlar bo'yiga, bir qatori eniga teriladi.

**Garderobe Garderob,** kiyim javoni, shunday javonlardan iborat xona. 1. **Wardrobe.** 2. Kichik yotoqxona yoki darsxona. 3. Hojatxona so'zining muloyim atamasi.

**Garrison house Garnizon.** 1. Amerikada hindulardan himoyalanish uchun qurilgan joy. 2. Og'ir yog'ochlardan qurilgan kolonial uy. U ikki qavatli bo'lgan.

**Gemel window Juft eshikchali deraza.** Ikki tabaqali deraza.

**Genkan Genkan.** An'anaviy yapon me'morchiligida oyoq kiyim yechib qoldiriladigan dahliz nomi.

**Gentesse Genteza.** Ingliz me'morchiligida binoga kirish qismi arkining ichki aylanalari.

**Geometrical stair Geometrik zina.** O'rtasida tayanch ustuni bo'lman, burilib yuqoriga davom etkan zina.

**Geometric style Geometrik uslub.** Ingliz Gotik me'morchiligida daslabki rivojlangan Bezakli uslub; XIV asr oxiri. Uning derazalarini bezagida geometrik shakllarni ko'p ko'ramiz.

**Geometric tracery** Geometrik deraza bezagi. Aylana va egma shakklardan iborat deraza oynasi ustil bezagi.

**Georgian architecture** Jorj me'morchiligi. XVIII asrda Buyuk Britaniya va shimoliy Amerika koloniyalarda amalda bo'lgan Jorj I, Jorj II va Jorj III nomlari bilan atalgan me'moriy uslub. Unda Klassik, Uyg'onish va Barokko belgilarini ko'ramiz.

**Gesso** Gesso. Gips, yelim va oq rangdan iborat suvoq. U rasm chiziladigan suvoqda ishlataladi.

**Ghanadvara** Ganadvara. Hindu ibodatxonasida iloh haykali o'rnatilgan joyning mustahkam kirish eshigi.

**Ghat Gat**. Hindistonda daryoga olib tushuvchi zinapoya.

**Gibbs surround** Tojdor bezak. Deraza va eshiklarning tepasida suvoqdan keyin paydo bo'ladigan bezak. Ular uch qismidan iborat bo'lib, o'rtasidagi ko'proq bo'rtib chiqadi.

**Gib door, (Jib door)**

**Giglio Giglio**. Fleur-de-lys kabi Florensiya belgisi.

**Gilding** Zarhallash. 1. Oltin barg, oltin kukuni, hallash uchun ishlataladigan manbaa. 2. Tilla halli yuza.

**Golosniki** Ovoz quvurlari. Gretsiya Ortodoks cherkovi, Skandinaviya va Rossiya cherkovlarida, shuningdek Buxorodagi Kalon masjidida o'rnatilgan tovush kuchaytirgichlar. Ular voiz ovozini uzoqroqdagi o'tirganlarga yetkazib beradi.

**Gothic Revival** Gotikka qaytish. XVIII-XIX asrlarda Yevropa va AQSh binolarida Gotik me'morchilik unsurlarining qayta qo'llanilishi.

**Gothic survival** Saqlangan Gotik. Uyg'onishdan keyin XVII asr binolarida ba'zi Gotik unsurlarining ko'zga tashlanishi.

**Gouache** Govacha. 1. Xira bo'yoqlardan foydalanib tasvirlar yaratish usuli. 2. Shunday chizma. 3. Chizmada ishlangan xira rang.

**Government house** Hukumat uyi. 1. Rasmiy davlat ishlari uchun bino. 2. Davlat rahbarining idorasi.

**Great Pyramid** Buyuk Piramida. Uch mashhur piramidalarning eng kattasi Qohiraga yaqin bo'lgan Giza piramidasidir. Piramida - fir'avnlar maqbarasi. Uning asosi to'rburchak bo'lib, tomonlari 230.4 metr, balandligi 146.6 metr. Bu balandlikka 201 pog'onadan ko'tarilib chiqsa bo'ladi. Qurilishda 2500000 granit va ohaktosh ishlataligan. Fir'avn Xufu sharafiga qad ko'targan bu piramida Dunyoning yetti mo'jizasidan biri sanaladi. U hozirda yaxshi saqlanib qolgan yagona eng qadimiy obidadir.

**Great Wall of China** Buyuk Xitoy Devori. 2400 kilometrga cho'zilgan, oraliq masofalarida minoralariga ega dunyodagi eng uzun va eng mashbur devor. U Mo'ng'uliston hududiga ham o'tkan. Miloddan avvalgi III asrda qurilgan bu ulug'vor devor ko'chmanchilarining shimoldan bo'ladigan doimiy hujumlaridan himoyalanish uchun qurilgan. (**Feng huo tai**)

**Groined Tutashkan**. 1. Tutash egma burchaklarga ega. 2. Ikki yarim aylana gumbaz birikishidan paydo bo'lgan egma yo'l.

**Groined rib** Kegay. Burchak qovurg'asi. Tutash gumbazlar hosil etkan burchak ustidagi qovurg'a.

**Groined vault, groin vault** Qo'shgumbaz. Ikki o'zaro kesishkan yarim aylana gumbazlar birikmasi.

**Groining** Qovurg'alash. Oddiy gumbazning ichki qismini qovurg'ali qilib bezatish.

## H

**Habitacle** Xonodon. 1. Turar joy. 2. Haykal uchun devor ichidagi tokcha.

**Half-timbered** Yarmi to'sinli. XVI-XVII asrlar binosiga xos bo'lgan mustahkam yog'ochlardan buniyod etilgan uy. Yog'ochga yopishtirib yonidan g'isht terib chiqilgani uchun bu turdag'i yular yarim to'sinli uylar deyiladi.

**Hall Zal.** 1. Yig'ilish va ziyofat uchun katta xona. 2. Katta koridor yoki dahliz. 3. Shohona qasr, kichikroq uy, universitet yoki jamoat binosi. 4. O'rta asr qarorgohlarining eng asosiy xonasasi.

**Hall church** Zalli cherkov. Markazi katta zalli cherkov.

**Hammer beam** Kesik to'sin. Shiftsiz tom to'sinlari ikki yoqqa ajrab ketmasligi uchun o'rtasidan gorizontal to'sin bog'lab turadi (Tie beam). Agar tie beam – ulovchi to'sinni o'rtasini olib tashlasak, ikki yonida qolgan kalta to'sinlar hammer beam deyiladi. Ular diagonal yog'ochlar bilan mustahkamlanadi. Kesik to'sin Hammer-beam roof Kesik to'sinli tom.

**Hammer brace** Kesik to'sinning diagonal tayanchi.

**Hammer post** Kesik to'sinning vertikal tayanchi.

**Hance Hansa.** 1 Uch yoki to'rt sirkul markazli arkda kaltaroq radiusli egma. 2. Deraza tepasining kichik arki. 3. **Haunch** 1.

**Hance arch (Hanse arch)**

**Hanging buttress** Osma burj. O'z poydevori bo'limgan, devorga biriktirib qurilgan burj – devordan turtib chiqqan tayanch qurilma.

**Hanging Gardens** Osma Bog'lar. Bobilda malika Semiramida sharafiga qurilgan ko'p qavatli bog'. Shiftlari tosh gumbazli bo'lgan. U dunyoning yetti mo'jizasidan biri sanaladi.

**Hanging post, gatepost, hinge post, swinging post** Kesaki. Darvozani ko'tarib turgan vertikal to'sin. Unga oshiq-moshiq o'rnatiladi.

**Helm roof** Tig'simon tom. Bu tomoni nishabli bo'ladi. Lekin pastki nishabning boshlanish qismi tekis gorizontal bo'lmaydi: uchburchakli bo'ladi.

**Hem Hem.** Ustun tepasi bezagini o'ramali qilib ishslash.

**Hemicycle** Yarim aylana. 1. Yarim aylanali arena. 2. Yarim aylanali xona. 3. Yarim aylana ko'rinishli shiypon.

**Hemicyclium** Aylana kulba. Odamlar suhatlashib xordiq chiqaradigan boshpanali joy. Ichida o'rindiqlari mayjud bo'lgan.

**Hemiglyph** Chiziq yarmi, hemiglif. Uch qator bo'lgan bezakli chiziqlardan birining yarim qismi.

**Hemitriglyph** Hemitriglif. Uch qator fariza chiziqlarining bir qismi.

**Heng Tomo'sin, Hoven, (Purlin)**

**Hospitalium** Mehmoxona. 1. Rim uylarida mehmon kutiladigan xona. 2. Drama tomoshalariga begonalar uchun alohida kirish joyi.

**Hospitium** Hospit. Begona shaxslarni qabul qilish xonasasi.

**House (Greek house, Roman house)**

**Hovel** Chodir. 1. Odam, chorva mollari yoki to'plangan hosil ustiga tortiladigan chodir. 2. Faqirona uy.

**Hoyuk** (Tell so'zining turkchasi)

**Hsiao shih ta mu** To'sinli qurilma. An'anaviy xitoy me'morchiligidan har qanday to'sinli qurilma. Bu oddiy uylar qurishda ishlatiladigan uslub.

**Hsi lou** Xitoy tomoshagohi. An'anaviy xitoy usulida qurilgan sahnali, qo'shimcha xonalarga ega teatr.

**Hsing tan Minbar**. Konfutsiy ibodatxonasi minbari.

**Hua chuan** Xua chuan. Tekis va egma terrakota parchinlari terilgan tosh devor.

**Hua piao** Tosh ustun. Xitoy saroylariga kirish qismida o'rnatiladigan tosh ustun. Unda "Xush kelibsiz" so'zlari bo'ladi. Ustunning ramziy ma'nosni ham shunday.

**Hymn board** Madhiya taxtasi. Cherkovda muqaddas qo'shiqlar va madhiyalar bitilgan taxtalar.

**Hypaethral, hypethral** Ochiq. Tepasi osmonga qisman yoki to'liq ochiq bo'lgan bino.

**Hypaethron** Ochiq hovli. Tomsiz bo'lgan bino qismi.

**Hypaethrum** Eshik derazasi. Eshik yuqorisidagi to'siqli deraza.

**Hypermensul** "Quyosh toshi" Keltlarning doira qilib o'rnatkan toshlarining markazda joylashkani.

**Hyperthryum** Fariza va qarnas. Eshik tepe qismi uchun ishlangan bezak.

**Hypobasis** Quyi poydevor. Poydevorning eng mustahkam quyi qismi.

**Hypocaustum** Issiq pol. Markaziy isitish tizimi. Rimda bo'lgan bu qurilma ichidagi bo'shilqlardan issiq gaz harakatlari uyni ilitkan.

**Hypodromus** Gipodrom. Qadimgi rimda osti yopiq yo'lka.

**Hypogeum** Gipogey. Qadimiy me'morchilikda yer osti qabristoni.

**Hypophyge** Gipofiji. Biror qism ostida ishlangan chuqur egma yuza. Masalan qadimiy Doriy ustunlarida.

## I

**Ice house** Muzxona. Devori issiqqlik o'tkazmasligi uchun ikki qavat bo'lgan, hamda orasi qipiqliq bilan to'lg'izilgan kichik bino. Bu yerda muz saqlangan. Erigan muz suvlarini quvur orqali kerakli joyga yetkazilgan.

**Ichnographia** Tarh, ixnografiya. Qog'ozda chizilgan yer loyihasi. U binokorlikda yoki sayohatda ishlatilgan. Xarita kichik yoki katta hududni qamrab olgan.

**Impluvium** Impluviy. Qadimgi Rim turar joylarida xona ichida joylashkan hovuzcha. Tomdag'i yomg'ir suvi shu hovuzga oqib tushkan.

**Impost** Impost. 1. Ark aylanasi ostidagi tosh. U ustun ustida joylashadi va yuqori va pastki qismalarga nisbatan kengroq bo'ladi. 2. Bo'laklarga bo'lib ishlangan deraza oynalarining biri.

**Impost block, dosseret, supercapital** Kosa. Ustun ustiga o'rnatiladigan, arklar yukini ko'taradigan tosh.

**In-and-out bond** Ichkari-tashqari usul. Devor burchagida yirik va mustahkam toshlarni terish usuli: biri ichkarida, biri esa undan tashqariqda bo'ladi.

**In antis** Oraliqda. Peshayvon orasidagi ustunlarga aytildi. Ustunlar soniga qarab ikkilik, to'rtlik, otilik hamda sakkizlik turlari ko'p uchratiladi. Aslida ikki chekkadagi ustun emas devor qismi bo'ladi.

**Inca architecture** Inklar me'morchiligi. Hozirgi Peru hududida XII-XVI asrlarda taraqqiy etkan Inklar me'morchiligi. Katta toshlardan qurilgan mudofaa inshootlari inklarning o'ziga xos yodgorligi hisoblanadi.

**In cavetto** Qolip. Bezakning teskari aksi. Bu usuldagi naqsh devorga o'yib tushirilmaydi. Qotmagan suvoq ustiga qolip bosib bezak yaratiladi.

**Incavo** O'yiq. O'ymakorlik ishining bir qism yuzasi.

**Incertum opus (Opus incertum)**

**Indented molding, indenting** Dandana. Tish ko'rinishida uchburchak qilib ishlangan bezak.

**Indian architecture** Hind me'morchiligi. Hindistonda dastlabki binolar turar joylardan tashqari ibodatxonalar bo'lib, ularni loy va to'sinlardan bunyod etishkan. Lekin ularning hech qaysisi bizgacha yetib kelmagan. Biz ko'rishimiz mumkin bo'lgani keyinroq insho etilgan toshli binolardir. Ularning binolardagi har bir qism ko'p takrorlanadi. Haykaltaroshlik namunalarini ham uchratamiz.

**Intercolumniation** Ustunlar oralig'i. 1. Yonma yon joylashkan ustunlar orasidagi masofa. Masofa ustun poyidan emas, tekis yuzasidan o'chanadi. 2. Ustunlarni oraliq masofalarda o'rnatish tizimi: *piconostyle* - 1½ diametr, *systyle* - 2 diametr, *eustyle* - 2¼ diametr, *diastyle* - 3 diametr, *araeostyle* - 4 diametr.

**Intercupola** Gumbazlar oralig'i. 1. Ikki gumbaz orasidagi masofa. 2. Gumbazning ikki qavat devori orasidagi masofa.

**Interdental** Tishlar oralig'i. Uchburchak bezaklar oralig'i. Oraliq joyi.

**Interdome** Gumbaz ichi. Gumbazning ikki qavat devori orasidagi joy.

**Interfenestration** Derazalar oralig'i. Ikki deraza o'tasidagi devor. Masofasi o'chanqanda derazaning chetki bezaklari deraza kengligiga qo'shiladi.

**Interglyph** Chiziqlar orasidagi silliq qism. O'yib ishlangan bezaklar orasidagi bo'shqliq.

**Interlace, entrelacs** To'rbezak. Bir-birini kesib o'tib naqsh hosil etkan chiziqlardan iborat bezak.

**Interlacing arcade** Yelkadosh arkada. To'qilgan savat kabi bir-birining orasidan o'tkazib ishlangan arklar qatori.

**Italian villa style, Italianate style** Italyancha dala hovli. Angliya va AQShda 1840-1850 yillarda rusumda bo'lgan dala hovli qurish usuli. To'rburchak minora, ayvana arkli deraza kabi xususiyatlari bilan o'ziga xos hisoblanadi.

#### J

**Jack rafter** Kalta to'sin. Kalta tom to'sini. Uzun to'sin kabi bir xil vazifada ishlataladi.

**Jaspe** Dag'al. Toshning tabiiy yuzaga o'xshatib dag'al ishlanganligi.

**Jerkinhead, clipped gable, hipped gable, shreadhead** To'liqsiz tom. Ostidagi derazani yopib qo'ymaslik uchun nishabi oxirigacha tushirilmagan tom.

**Jerusalem cross** Quddus xochi. To'rt tomonida yana kalta qo'llari bo'lgan xoch.

**Jesse window** Iso derazasi. Iso payg‘ambarning shajarasini yozilgan rangli deraza.

**Jesting beam** Bo‘shto‘sini. Hech qanday yuk ko‘tarmaydigan, shunchaki ko‘rinish uchun o‘rnatilgan to‘sini.

**Jetty** Qo‘srimcha loyiha. Balkon, ikkinchi qavat kabi bino loyihalari.

**Jib door, gib door** Sirli eshik. Devor yuzasi bilan bir xil bezakda bo‘lgan eshik. Uning eshikka xos alohida bezaklari bo‘lmaydi. Hattoki shu devorda eshik borligini bir qarashda payqash mushkul bo‘ladi.

**Jikido** Jikido. Qadimgi Budda ibodatxonasida ovqatlanish xonasi.

**Jikugumi** Jikugumi. Yaponlarning an‘anaviy yog‘ochli uyi. Yog‘ochli uy qurilishi.

**Jimmer (Gemel)**

**Jinja, jinsha** Shinto ibodatxonasi.

**Jinsha (Jinja)**

**Joggle Jag‘lamoq.** Xuddi ikki jag‘ tishlari bir-biriga qolipdek tushkani kabi, biriktiriladigan materiallarni tekis yuzalarini bilan emas, kirdi-chiqdi yuzalarini bilan biriktirish. Maqsad sirpanib chiqib ketmaslik. Material yuzasini shunday qolipa chopish yoki kesishga jag‘lash deyiladi.

**Joggle joint** Jag‘li birikma. Bir-biriga qoliplab tushirilgan qurilish materiallari.

**Jngendstil** Yoshlik uslubi. Germaniyada bo‘lgan Art Nouveau uslubi.

**Jut window** Burun deraza. Devor yuzasidan tashqariga chiqqan deraza. Utog‘ri burchakli yoki aylanali bo‘ladi.

## K

**Keeping room** Saqlash xonasi. Amerikada ingliz mustamlakachilarining binosida bo‘igan xona. U yer ovqatlanish, ishslash va dam olish uchun mo‘ljallangan.

**Kentish tracery** Kent bezagi. Bu deraza bezagida yarim aylanali, doirali va tekis chiziqlarni ko‘ramiz.

**Kerkis Kerkez.** Qadimgi grek teatrlaridagi o‘rindiqlar joyi. U markazda bo‘lib, pona shaklini eslatadi.

**Key console** Ark toji. Ark o‘rtasiga o‘rnatiladigan bezakli tosh.

**Key course** Aylana qator. 1. Arkka terilgan g‘isht yoki toshlarning aylana hosil etkan qatori. 2. Uzun aylana ishlangan gumbazning bir aylana qatori.

**Khangah, khanka** Xonaqoh. 1. Musulmon yurtlarida masjid va madrasalar yonida quriladigan idora, qiroatxona, darveshlar uchun vaqtincha boshpana. 2. Masjidning markaziy zali.

**Khirbeh** Xaroba. Buzilib ketkan bino. Musulmon yurtlarida qo‘llaniladi.

**Khory Ochiq zal.** Rus me’morchiligidagi cherkovning ochiq galeriyasi. Xor ijrochilari joyi nomidan olingan.

**Kiblah, keblah, qibla** Qibla. Makka tomon yo‘nalish. Mehroblar va joynamozlar, umuman barcha masjidlar qiblagaga qarab, ya’ni Kabaga yuzlantirib quriladi.

**Kidan** Kidan. Budda ibodatxonasi poydevori. Ular uch turda bo‘ladi: *danjozumi* – yer tagida qolgan to‘rburchak toshlar; *ranzumi* – yer tagida qolgan, lekin silliqlangan toshlar; *kamebara* – yuzasi suvalgan, yerdan yuqoriga chiqqan poydevor.

**Kingbolt** Katta bolt. Katta to'sinlarni biriktirishda ishlatiladigan bolt.

**King-post truss** To'sinlar uchburchagi. Unda ikkita nishabli to'sin, o'rtada bitta tik ustun va ostida uzun gorizontal to'sin bo'ladi.

**King-table Belbog'**. O'rtalashtirishda devorni u yonidan bu yonigacha bo'rttirib ishlangan gorizontal yo'l. Asosan ikki qavatlari binoning qavatlari o'rtasida chegara chizig'i bo'lgan. U ham turli bezaklar bilan ziynatlangan.

**Kinkakuji** Kinkakuji. Yaponiyada Muromachi sulolesi vakili Ashikaga Yoshimitsu qurdirgan dala hovli. Kyoto shahrida joylashkan bu bino egasining vafotidan so'ng Zen ibodatxonasi aylantirilgan. Kinkaku so'zi oltin ko'shk deb tarjima qilinadi. Bu joy Rokuonji deb ham ataladi.

**Kiosk** Kioska. 1. Kichik ko'shk. Bog'larda atrofi ochiq qoldirib qurilgan joy. 2. Shiypon. Usti yopiq, atrofi ochiq bo'lgan o'rindiqli joy.

**Kiot Tokcha**. Ruslarning haykalchalar o'rnatadigan devoriy tokchasi.

**Kirizuma-yane** Kirizuma yane. Yaponlarning nishabli tomi. Nishablar bo'linishi tomming o'rtalashtirishda qismidan boshlanadi.

**Kirk, kirke** Cherkov. Cherkovning shotlandcha nomi.

**Kirnel (Crenel)**

**Kirtimukha** Kirtamux. Hindlar ibodatxonasida tasvirlangan badbashara qiyofa.

**Kiryah** Kirya. Isroildagi qadimiy shahar.

**Kistvaen (Cistvaen)**

**Kliros** Klira. Rus Ortodoks cherkovining xor joylashkan qismi.

**Knee** Tizza. 1. Tirkak qilib ishlatiladigan yog'och bo'lagi. 2. Zina tutqichi ostidagi qo'shimcha yog'och. 3. **Label stop** 2.

**Kneeler, kneestone, skew** Toshtovon. 1. Tagi tekis yoni nishabli bo'lgan uchburchak tosh. To'sin ostini mustahkamlash uchun o'rnatiladi. 2. Ark va gumbazlar og'masi boshlanadigan qismiga o'rnatiluvchi tosh.

**Knob** Tutqich. 1. Ko'pincha qulflab qo'yish va ochish uchun burashda ishlatiladigan tutqich. 2. Yuzadan turtib chiqqan narsa. U ishlatish uchun yoki shunchaki bezak uchun bo'ladi.

**Knocker** Shaqildoq. Xalqa. Darvozaga o'rnatilib, qo'ng'iroq o'mida taqillatilgan. U metalldan ishlangan.

**Knossos** Knos. Krit orolida joylashkan katta saroy. Saroyning birlamchi qurilishi podshoh Minos davrida bo'lgan. Keng ko'lamli qurilish Minoy III davrida (1700-1550, miloddan avvalgi) olib borilgan. U eski xarobasi ustiga bunyod etilgan. Keyin u ham vayron bo'lgan. Barcha Minoy me'morchiligi yodgorliklari bir-biriga o'xshash: markaziy hovli atrofida to'rtburchak xonalar joylashkan. Ochiq maydonda tomoshalar o'tkazilgan. G'arb tomonda podshohning rasmiy qarorgohi, sharq tomonida maishiy xonalar joylashkan. Yo'laklar ustunli be'lGANI uchun havo yaxshi aylangan va yorug'lik tushkan. Ortiqcha namlikni quritish uchun zovur tizimi yo'lga qo'yilgan.

**Knotwork** Gulto'qima. Xuddi gul poyasini to'qib qo'ygandek o'yib bezak ishlangan.

**Knulling, knurling** To'rbezak. Dumaloq bo'rtma bezaklardan iborat yuza. Uni to'r kabi bo'lgan chiziqlar ajratib ko'rsatadi.

**Kodo Kodo.** Budda ruhoniylariga ma'ruza o'tish uchun qurilgan bir qavatlari to'rtburchak bino.

**Koil, kovil Koyil.** Shimoliy Hindistonda joylashkan hind ibodatxonasi.

**Kokera-buki Kokera buki.** An'anaviy yapon binosi tomi. Yog'ochdan bunyod etiladi.

**Kokoshniki Minora arklari.** 1. Rus minoralarida gumbaz ostida ishlangan arkli qism. Ular ikki – uch qavatlari bo'ladi va minora diametri kichrayib boradi. 2. Shunga o'xshab ishlangan minora.

**Kolokolnya Qo'ng'iroqli.** Ruslarning qo'ng'iroqli minorasi.

**Kondo Oltin zal.** Budda ibodatxonasidagi muqaddas zal. Lekin bu eski so'z bo'lib, hozirda hondo, chudo va butsuden so'zlarini ishlataladi.

**Kub, kubovatoye pokrytiye Kubsimon tom.** Rossiyada dastlab yog'och to'sinlardan to'rtburchak qilib tom yopishkan. U xuddi to'rtburchak gumbazning o'zginasi. Kichik chordoqqa ham o'xshaydi.

**Kubba Qubba.** 1. Masjidning gumbazi. 2. Maqbaraning gumbazi.

**Kurgan Gurgan.** Shimoliy Rossiya va Sibirda qabr ustiga bunyod etilgan toshli qurilma. U qabr toshidan katta va maqbaradan kichkina.

**Kyozo Muqaddas kutubxona.** Yaponiya ibodatxonalarida muqaddas bitiklar saqlanuvchi kichik bino.

**Kyptikon Taxt.** Imperator o'rindig'i.

## L

**Label, label molding Peshtoq.** Peshtoq bezagi. Ark tepasida ishlanadigan to'g'ri burchakli bezak. Tepadan ikki yoniga vertikaliga tushib davom etadi.

**Label molding (Label)**

**Label stop Hoshiya yakuni.** 1. Ark chetidagi hoshiyaning yakuniy pastki qismida o'rnatiladigan bezak. Asosan odam boshi tasvirli bo'ladi. 2. Hoshiyaning har qanday bezagi.

**Labyrinth Labirint.** 1. Jumboqli kirish yo'li. 2. Labirint ko'rinishida ishlangan pol; kafelli yoki marmarli. 3. Bog'da labirintli qilib o'stirilgan buta va gullar.

**Laceria Geometrik naqsh.** Musulmon uslubidagi bino bezaklarida ishlanadigan tekis chiziqli, burchakli bezaklar.

**Lacework Tasma bezagi.** Me'morchilikda qo'llanadigan lentali bezak.

**Lacing course Tasmali qator.** Devorda uzun gorizontal qilib o'matilgan bezak. U g'ishtdan yoki sopol parchindan bo'ladi.

**Laconicum Lakonik.** Rim hammomida yarim aylanali qilib joylashtirilgan terlash xonasi.

**Lacunaria Shift.** Cherkov zalidagi yo'lak tepasiga ishlangan shift.

**Lady chapel Maryam ibodatxonasi.** Cherkovning sharqiy tomonida joylashkan Bibi Maryam nomi bilan ataluvchi ibodat joyi.

**Lamassu Lamasu.** Mesopotamiyada darvoza qo'riqchisi deb hisoblangan haykal: odam boshili, qanotli buqa haykali. Saroy va ibodatxonalariga kirish qismida bo'lgan.

**Lamb's tongue Til.** 1. Til shaklli panjara tutqichi uchi. 2. Til ko'rinishli o'yma bezak.

**Lanai Ayvon.** Yopiq yoki ochiq bo'lgan turar joy xonasi.

**Lancet, lancet window** Novcha deraza. 1. Ingliz Gotik me'morchiligidan mavjud bo'lgan ensiz va baland deraza. Uning yuqori qismida uchli ark bo'ladi. 2. Shu deraza shaklida yasalgan chiroq.

**Lancet architecture** Novcha usul me'morchiligi. Dastlabki ingliz Gotik me'morchilik uslubiga tegishli.

**Landing, pace Poysupa.** Zinalarning burilish joyi bo'lgan kichik tekis yuza.

**Landing newel, angle newel** Zina ustuni. Zinalarni tutib turuvchi ustun. U burilish joylarida o'rnatiladi.

**Landmark** Inshoot. 1. Xalq va davlatning madaniyatini o'zida aks ettirgan bino. Davr, makon haqida yetarli belgilarga ega inshoot. 2. Maydon chegarasini bildiruvchi monument.

**bo'lgani sababli olov yorug'i atrofga ko'ringan.** Bunday minoralar Fransiyada ko'p qurilgan.

**Lining Qoplama.** Uy ichi devorini qoplashda ishlataladigan material. Masalan deraza va eshik atrofidagi hoshiyali bezak.

**Lintel Tepador.** Eshik va derazalar, hamda ustunlar tepasiga o'rnatiluvchi to'sin. U yog'ochdan yoki toshdan bo'ladi.

**Loophole Tuynuk.** 1. O'q otiladigan tuynuk. 2. Yorug'lik va havo tushishi uchun ochiq qoldirilgan devor bo'shlig'i.

**Loop window Hujum** derazasi. O'rta asrlarda bostirib kelayotkan dushmaniga o'q otishda foydalilanilgan deraza.

**Lopatka** Ustun. Rus me'morchiligidida devorga biriktirib ishlangan ustun.

**Louis XVI, Louis Seize style** Luis XVI uslubi. Rokokoning keyingi davri va XVIII asr mumtoz davri hisoblanib, Fransiya qiroli Luis XVI nomi bilan atalgan. U 1774-1792 yillarda hukmronlik qilgan.

## M

**Mantel Mantal.** 1. O'choq og'zi tepasidagi tosh to'sin. 2. O'choq atrofini bezatish ishlari. 3. **Mantelshelf.**

**Mastaba** Mastaba. Misr maqbaralariga kirish yo'li. Bu joy qalin devor bilan o'ralib, yuzalari biroz qiya bo'ladi. Ichkariga kirilgandan so'ng uzun yo'lak dahmaga olib boradi.

**Materiato Matiryat.** Rim uylari tomining barcha to'sinli qismi.

**Matroneum** Matroney. Cherkovning o'ng tomonida alohida yopib qurilgan bo'linma. Turmushga chiqmagan ayollar uchun ajratilgan.

**Mausoleum** Maqbara. Sag'ana. 1. Sharafli o'lim topkan qahramonlarga o'rnatilgan yodgorlik. 2. Ichida qabr mavjud bo'lgan bino.

**Medallion** Medalyon. 1. Asosan dumaloq shaklli bezak. Unda odam qiyofasi, jonzotlar yoki gullar tasvirlanib devorga yopishtirilgan. 2. Shiftning markaziy bezagi. Chiroq o'rnii bezagi.

**Meeting house** Uchrashuv uyi. Din yo'lida do'st bo'lib birlashkan Mormonlarning ibodat joyi.

**Megalithic Ulkan** tosh. Katta toshlardan qurilgan.

**Megaron** Megaron 1. Miken saroyining asosiy zali. O'rtasida o'chog'i, atrofida ustunlari bo'lgan. 2. Ko'pgina grek ibodatxonalarida faqat rohibning o'zi kirishi mumkin bo'lgan joy. 3. Gomer davri uylarining katta markaziy zali.

**Mellarium** Mellariya. Asalarixona. Rimda asalarilar parvarishlangan joy.

**Melon dome** Qovun gumbaz. Qovunga o'xshab uzunchoqroq bo'lgan qubba.

**Memorial** Memorial. Biron inson xotirasini yod etish uchun bunyod etilgan yodgorlik yoki yasalgan haykal.

**Memorial arch** Memorial ark. Biron voqeа yoki shaxs xotirasini abadiylashtirgan ark. Rim Imperiyasi davrida, keyin Napoleon zamonida va undan keyingi paytlarda odat tusida bo'lган. U g'alaba arki deb ham ataladi.

**Memorial stone, memorial tablet** Yodgorlik toshi. O'tib ketkan shaxs yoki voqeani xotirlash maqsadida o'rnatilgan tosh. U devor ustida yoki ichida bo'ladi. Yupqa yuzali tosh bo'lishi ham mumkin.

**Memorial window** Yodgorlik derazasi. Qaysidir insonni yoxud oilasini eslab turish uchun rangli qilib tasvirli ishlangan deraza.

**Memphis** Memfis. Nil daryosining quyilish qismi oldida, Qohiradan 19 kilometr shimolda joylashkan qadimiylar shahar. Fir'avnlar zamonida poytaxt bo'lган. Dengizga chiqish qismida porti mavjud bo'lib, qishloq xo'jaligi, savdo, boshqaruв tizimi va diniy markazlar yaxshi rivoj topkan. Hozirgi kunda ba'zi qadimiylar inshootlarining xarobalari saqlanib qolgan.

**Men Men.** Xitoy binolari darvozasi, eshigi.

**Minaret** Minora. Dumaloq yoki burchakli qilib bunyod etilgan baland qurilma. Islom me'morchiligiga xos uslub hisoblanadi. Minora tepasidan har kuni besh mahal azon etilgan. Yuqori shovqindan holi bo'lGANI uchun azon uzoqlargacha eshitilgan. Bazan yo'l topilmagan karvonlarga mayoq bo'lib ham xizmat qilgan. Notinchlik paytlarda esa atrofni kuzatish uchun navbatchilar qo'yilgan. Hozirda masjid manzilini ko'rsatuvchi belgi sifatida, shuningdek me'moriy uslub tariqasida saqlanib qolgan. O'zbek me'morchiligi tarixida, masjid majmuasi tarkibida dastlab bir minora, so'ngra simmetrik bo'lishi uchun ikki minora, keyinroq davlat salohiyatidan kelib chiqqan holda to'rt-sakkizta minoralar bunyod etilgan.

**Mosaic** Mozaika. Qadama. 1. Qotishma ustiga rangli bo'laklar terib hosil qilingan bezak. Bo'laklar shisha, sopol, tosh yoki boshqa narsa bo'lishi mumkin. 2. Mayda yog'ochlar terib yaratilgan tasvir.

## N

**Nagara style, nagare-zukuri** Nagara uslubi. Yapon ibodatxonalarining eng mashhur uslubi. Uning tonni botiq yuzali bo'lib, old nishab orqa nishabdan uzunroq bo'ladi

**Nagaya** Nagaya. An'anaviy yapon me'morchiligidagi kichik xonalarga bo'lingan uzun uy. Boy xonardonlar uchun shunday binolar qurilgan.

**Nageshi Nageshi.** An'anaviy yapon binokorligida ustunlar tepasiga yotqizilgan to'sin.

**Nailhead** Mixboshi. 1. Mix boshiga o'xshagan chiroyli ishlangan bezak. 2. Qalin ishlangan mix boshi.

**Nailhead molding** Mix qoqliganga o'xshab ishlangan bezak. U turli shaklda bo'lishi mumkin.

**Naka-nuri** Ikkinchchi suvoq. So'nngi silliq suvoqdan oldin suvalgan ikkinchi qatlam.

**Nalichnik** Hoshiya. Rossiyada deraza atrofini bezashda qo'llanilgan ustunli, yoki yog'ochli bezak.

**Narthex** Dahliz. Ba'zi xristian cherkovlarida kirish qismi.

**Nashki, naskhi** Nasx. Arabcha yozishning bir uslubi.

**Natte Poxol.** Savat to'qimasi ko'rinishili bezak.

**Naumachia, naumachi** Navmacha. Kema janglari uchun hosil qilingan sun'iy ko'l. Atrofi tomoshabinlar uchun o'rindiqli bo'lgan.

**Navaranga** Navaranga. Hind ibodatxonasining markaziy zali.

**Nave Nef.** 1. Cherkovning o'rtalari zali. 2. Cherkovning ustunlar bilan ajratilgan uchala markaziy zali. 3. Cherkovda fuqarolar uchun mo'ljallangan zal.

**Nave arcade** Cherkov zali arkasi. Zallarni uch qismiga bo'ladi. O'zi markaziy zalning ikki tomonidan joy oladi.

**Neat work** G'isht terish. Poydevor ustiga terish nazarda tutiladi.

**Necessarium** Muqaddas. Eski monastirning muqaddas qismi yoki qasning sirli xonasi.

**Neck Bo'yin.** Ustunning yuqori qismidagi ingichkaroq silliq yuza.

**Necking Bo'yinlash.** 1. Bo'yin hosil qilish. 2. Ustun qismlarini ajratib turgan yuza. 3. Ustun boshi ostidagi har qanday bezak.

**Neck molding (Necking)**

**Necropolis** Go'riston. 1. Katta qabriston. 2. Qadimiylar qabriston.

**Needle spire** Qalpoq. Minora tomining qalin uchki qismi.

**Neoclassicism** Neoklassitsizm. Yevropada mumtoz me'morchilikning oxirgi davri: XVIII-XIX asrlar. Uslublarga qat'iy amal qilib, xotiralarni singdirishga e'tibor qaratilgan.

**Neo-Gothic** Yangi Gotik. XIX-XX asrlarda Gotik uslubning qayta iste'molga kirishi.

**Neo-Grec** Yangi Yunon uslubi. 1840-yillarda Fransiyada Grek an'analarining me'morchilikda qayta qo'llanilishi.

**Neo-Liberty** Yangi Istiqlol. Italiyada 1945-yildan keyin qayta qo'llangan Yangi San'at uslubi.

**Nervure** Gumbaz qovurg'asi.

**Net tracery** To'r bezak. Yirik to'rsimon deraza bezagi.

**Newel Zina** o'qi. 1. Aylana zinaning markaziy tayanch ustuni. 2. **Newel-post.**

**Newel cap** Palmali gumbaz. Zina o'qining yuqorida xalqa gumbazli qismi.

**Newel collar** Ustun yoqasi. Aylana zina o'qida bo'ladigan kengroq qismi.

**Newel drop** Zina o'qining yuqori qismi.

**Newel joint** Panjara boshi. Panjara dastagining boshlang'ich panjara bilan birikkan qismi.

**Newel-post** Bosh panjara. Birinchi qatorda turadigan asosiy panjara.

**Niche** Mehrobi. Devor ichiga kirgan qism bo'lib, ichida ko'pincha haykal joylashadi. G'ayridinlat binokorligiga xos.

**Nuraghe, noraghe** Nuraga. Qadimgi davrlarda toshdan qurilgan dumaloq minora. U qal'a ichida bo'lgan.

**Nymphaeum** Nimfeya. 1. Nimfalar bilan bezatilgan xona (Mitti xayoliy odamsimon mavjudod). 2. Nimfalarga bag'ishlab qurilgan bino. Katta xona ustunlar,

haykallar va suratlar bilan bezatilgan. Markazdagi favvora xonani salqin qilib turgan. Ba'zan odamlar uchun suv havzasi bo'lib xizmat qilgan.

O

**Obelisk Obelisk.** 1. To'rt tomonli monumental tosh ustun. Piramida ko'rinishida lekin tik bo'ladi. 2. Misrda ierogliflar yozilgan shunday tosh.

**Observatory Rasadxona.** 1. Samoviy kuzatishlar olib boriladigan bino. 2. Tepa qavatda atrofni kuzatish mumkin bo'lgan bino.

**Obtuse angle arch** O'tmas burchakli ark. Uchli arkarning biri bo'lib, sirkul markazlari ikkita bo'ladi.

**Octagon house** Sakkiz burchakli uy. Nyu Yorkning Hudson vodiysida joylashkan sakkiz burchakli Viktoriya uyi.

**Octastyle Sakkizlik.** Old yoki orqa tomonida sakkizta ustuni bo'lgan bino.

**Octopartite vault** Sakkizpoy gumbaz. To'rburchak qurilma ustiga dumaloq gumbaz qurilganda, birikish o'rnini moslashtirish uchun hosil qilinadigan sakkiz burchakli devor.

**Oculus Ko'z.** 1. Roundel. 2. Bull's eye. 3. Gumbaz tepasidagi dumaloq ochiq joy.

**Odeum, odeon** Kichik Rim yoki grek teatri. U yerda musiqa san'ati namoyish etilgan. Sozandalar joyining tepasi soyabonli yoki tomli bo'lgan.

**Oecus Corinthius** Korinf atriumiga o'xshash joy. Undan farqli ravishda uning gumbazi, gumbaz asosida ustunlari bo'lgan.

**Oecus Cyzicenus** Eshik va derazalari shishali bo'lgan zall. Ichkarida o'tirib tashqarini tomosha qilish mumkin bo'lgan qadimiylar grek va Rim binosi.

**Ogee** 1. Biri botiq, biri qabariq bo'lgan S shaklidagi qo'sh yuzali bezak. 2. Shu ko'rinishli qoplama.

**Ogee arch** Egilma ark. Tepasi dumaloq bo'limay tepaga yo'nalgan simmetrik ark.

**Ogive** 1. Uchi burchakli, nisbatan tik tomonli ark. 2. Gotik gumbazlarning diagonal qovurg'asi.

**Oillet, oilette** O'rta asr qo'rg'onlarida o'q otiladigan kichik tuynuk.

**O-kabe** An'anaviy yapon me'morchiligidagi taxta yoki suvoq bilan yopilgan devor.

**Okala** Musulmon yurtlarda mehmonxonasi.

**Okhlupen Hovon.** Rus me'morchiligidagi tom to'sini.

**Okonchina** Rus binolari derazalarida oyna ushslash uchun botirib ishlangan joy.

**Ollarium** Ostadon qo'yiladigan joy; yoqilgan jasadlar kuli solingan idish turadigan tokcha. Qadimgi Rimda bo'lgan.

**Onion dome** Piyozgumbaz. Rus Ortadoks cherkovi tomidagi mazkur piyoz shaklli gumbazni ko'ramiz.

P

**Pace Qadam.** 1. Landing. 2. Qabr atrofidagi bir qadam tepalik. 3. Poldan bir qadam tepa bo'lgan supa.

**Padma Padma.** Hindiston me'morchiligidagi haykallar bilan ishlangan bezak.

**Padmam Padmam.** Hindistonda haykal ostidagi poy ustun.

**Padstone, pad** Yaxlit tosh. Ustidagi yukni atrofga taqsimlab yuboruvchi devorning katta toshi.

**Pagoda** Pagoda. Ko‘p qavatli minora. Har qavatida o‘z tomi mavjud. Pagoda buddistlar ibodatxonasi bo‘lib, qurilishda yog‘ochlar keng qo‘llanilgan.

**Pai-Iou** Paylov. Xitoycha yog‘och darvoza bo‘lib, kirish yo‘llari bitta, uchta yoki beshta bo‘lgan. Saroy va ibodatxonalar hududiga kirish qismida o‘rnatalgan.

**Pai ta Payta**. Xitoyda lamaizm dini vakillarining gumbazli ibodatxonasi. Yuan sulolasi davrida VI asrdan paydo bo‘lgan.

**Palaestra** Palestra. 1. Yunoniston va Rimda mashq qilishga mo‘ljallangan bino. U gimnaziyadan kichikroq bo‘lib, uqalash uchun xonalar va hammomlari bo‘lgan. Bino o‘rtasida hovli joylashkan.

**Palazzo** Saroy. Italiyada saroy deb atalsa ham aslida jamoat binosi bo‘lgan.

**Palladianism** Palladio uslubi. Palladianizm. Italiyalik Uyg‘onish davri me’mori Andrea Palladio (1508-1580) usuli.

**Pandokeion** Mehmonxona. Gretsiyada sayohatchilar uchun qurilgan xususiy mehmonxona.

**Panel Qoplam**. Keng va yupqa yuza, taxta. U gips, alebaster, metall yoki fanerdan ham bo‘ladi. Usti bezakli ishlanib devorga yopishtiriladi.

**Panopticon** Markazli qamoqxona. Yo‘laklari bir markazdan tarqagan zindon. U yerdan hamma joyini nazorat qilib o‘tirish mumkin.

**Pantheon** Panteon. 1. Barcha ma‘bdular ibodatxonasi. 2. Rim shahrining Rotunda binosi – xudolar ibodatxonasi, hozirda oddiy cherkov. 3. Parij shahrining Panteon binosi. Hozirda milliy qahramonlar uchun maqbara.

**Pantile** To‘lqinli parchin. S harfi shaklli parchin. Bir tomoni ostda, bir tomoni ustda qoladi.

**Papert** Papert. Rus Ortodoks cherkovi oldidagi ochiq yoki yopiq to‘rburchak xona.

**Papier-mache** Qog‘oz bezak. Bir necha qavat qog‘ozlarni yelimlab yopishtirib, kerakli shaklga keltirib qotirgandan so‘ng binoni bezatish uchun ishlatalidi.

**Papyriform** Papirus shaklli. Papirus gullari shakli bilan bezatilgan Misr ustunlari.

**Parabema** Parabema. Grek cherkovlari binosi yonidagi xona.

**Parabolic arch** Parabolik ark. Ustki aylanasi uch sirkul markazidan iborat bo‘lsa-da, ichki aylanasi parabolik bo‘lgan ark.

**Paradise** Jannat. 1. Cherkov oldidagi atrium zali. 2. Biror muhim binoning bog‘i. 3. Eron shohlari bog‘i.

**Parados** Parados. Mudofaa devori ortidagi qazilgan yer.

**Parapet** Pastdevor. 1. Markaziyo ko‘chalarda to‘sinq uchun quriladigan panjara balandligidagi devor. Yuzasi marmar bilan bezatiladi. 2. Mudofaa devori. 3. Tomning ikki yonidagi tom nishabidan yuqori devor.

**Parapetasma** Parapedazma. Grek ibodatxonalarida panjara bilan o‘ralgan haykal turgan joy.

**Parapet gutter** Pastdevor arig‘i. Ko‘chada bir metrli to‘sinq-devor ortida joylashkan ariq.

**Parekklesion** Ibodat burchagi. Jamoat binolari ichida yoki yaqinida joylashkan ibodat qilinadigan kichik joy.

**Parerga** Ziynat. Grek binolariga qo'shimcha zeb beruvchi bezaklar.

**Paretta** Paretta. Tabiiy yumaloq yuzasi devordan bo'rtib chiqib turgan toshlardan iborat devor.

**Pageiting, pargetting, parget, paregework, parging** Gulsuvoq. 1. Nafis suvoq san'ati. Angliyada Tyudorlar davrida binolar yuzasini bezatish san'ati. 2. Mo'riga o'xshab tutun, gaz va issiqlikni tortib chiqaradigan quruv.

**Paries** Devor. Qadimgi Rim binolari devori nomi.

**Pediment** Uchtoq. 1. Mumtoz me'morchilikda tom shaklida ishlangan, tom ustida, binoning old tomonida joylashkan qurilma, peshtoq. 2. Keyinroq eshik va derazalar ustiga ishlangan shunday bezakli qurilma.

**Pendentive** Bag'al. 1. Bino burchagida gumbazning ostki davomiy qismi. 2. Burchakni gumbaz aylanasiga moslashtirish hamda tayanch bo'lishi uchun ishlangan mustahkam qurilma.

**Pendentive bracketing** Bag'al. Musulmonlar memorchiligiga xos bo'lgan burchakdagi gumbaz osti bezagi.

**Pendentive cradling** Arkli muqarnas. Burchak arklari. Gumbaz ostining burchak bilan tutashkan qismini mustahkamlovchi qurilma.

**Pendent post, pendant post** Kesik ustun. 1. Tom to'siniga tayanch bo'lgan kalta to'sin. U yerga emas devorga qotiriladi. 2. Arkka tayanch bo'lgan kalta to'sin.

**Pentacle** Beshburchak. Gotik derazalarning markazi beshburchak shaklli yulduz bezagi.

**Pentastyle** Beshlik. Beshta ustundan iborat bino oldi.

**Penthouse, pendice, pentice** Chordoqsiz uy. 1. Tom o'mining bir qismini egallagan qurilma. 2. Appentice.

**Pepperbox turret** Minoracha. Tom tepasida qurilgan kichik minoracha. Gumbazli tomi ham bo'ladi.

**Pergola** Ko'shk. 1. Bog'da bunyod etilgan joy. Yog'ochli to'sin bilan yopilgan tomoni ustunlar ko'tarib turadi. Ularga gullar yoki tok noydalarini chirmashib, qurilmaga tabiiy manzara baxsh etadi. 2. Mana shu shiypondagi ustunlar qatori. 3. Bino yoniga qo'shib qurilgan qo'shimcha bino. 4. Qadimgi forum binolari ustiga qurilgan balkonli joy.

**Periaktos** Peryaktos. Grek sahma manzarasini ko'tarib tushiruvchi moslama. Bu orqali yangi voqeа muhitni namoyish etilgan.

**Peribolos, peribolus** Peribola. Cherkov yerlarini o'rabi turuvchi devor.

**Peridrome** Peridrom. Qadimgi ibodatxonalarda bir tomoni devor, bir tomoni ustun bo'lgan yo'lak.

**Peridromos (Peridrome)**

**Periform** Nok shaklli. Nok ko'rinishli tom. Yoki nok shaklli bezak.

**Peripteral** Yakqaqator ustunlar.

**Peripteros, periptyery** Yakqaqator ustunli. Faqat bir qatorida ustunlari bo'lgan bino.

**Peristalith** Toshlar qatori. Masalan qabr atrofiga o'matilgan toshlar.

**Peristasis** Ustun xalqasi

**Peristele** Tik tosh. Toshlar qatorining biri.

**Peristerium** Ikkinchи peshayvon. Ichki qismi.

**Peristyle** Ustunli. 1. Binoning ichini yoki tashqarisini o'ragan ustunlar. 2. Shunday ustunli joy

**Pinnacle** Cho'qqi. 1. Binoning eng yuqori nuqtasi. 2. Gotik me'morchilikda piramida shaklidagi bezak. 3. Bino ustidagi kichik minoracha.

**Pirca** Pirka. And tog'larida topilgan uy. Devorlari qo'pol toshlardan bunyod etilgan.

#### **Pisay (Pise)**

**Piscina** Chanoq. 1. Jom, qo'l yuvishga mo'ljallangan jihoz. 2. Qadimgi rimliklarning kichik hovuzi. 3. Katta cho'milish joyi. Ochiq havo ostida bo'ladi. 4. Rim hammomlari uchun hovuz.

**Piscina limaria** Cho'kindi hovuzi. Rim akveduklarining boshi yoki oxirida bo'ladian hovuz. Unda suvning quyiqalari yig'iladi.

**Pise** Paxsa. 1. Devorlari zichlangan loydan hosil qilingan uy. 2. Devor yoki pol hosil qilish uchun tabiiy manbaa. 3. Somonli loy. Qamishli loy. (Cob)

**Pishtaq** Peshtoq. Musulmon binolarining to'rburchak darvoza qismi. Darvoza atrofini o'tab turgan qurilma.

**Pistrinum** Tegimon. Nonvoylarning don yanchadigan dastgohi.

**Pitched stone** Taroshlangan hoshiyali tosh. Faqat atrofi tekislangan to'rburchak tosh.

**Pitcher house** Sharob yerto'lsi.

**Pitch faced** Hoshiyali. Atrofi tekislangan. Tosh nazarda tutilmoqda.

**Pitha** Poyustun. Hindlarning haykali ostida turadigan asos.

**Pixis, pix** Piks. Cherkovda muqaddas non turadigan tosh idish.

**Plagage** Parchin. Devor uchun yupqa bezakli material.

#### **Placard (Parget)**

**Plafond** Shift. Nafis bezatilgan shift.

#### **Planeer (Plancier)**

**Planche** Pol. 1. Pol taxtasi. 2. Uzun pol taxtasi.

#### **Planching (Flooring)**

**Plancier, planeer, plancer, plancher** Plansir. 1. Birorta bino qismining ostki tarafi. 2. Pol taxtasi.

**Plancier piece** Taxta. Pol uchun ishlataladigan yupqa uzun taxta.

**Plank house** Taxtali uy. Devori tik qoqilgan taxtalardan iborat uy.

**Plano-convex** Guvala. Quyoshda loydan quritilgan, bir tomoni qabariq g'isht.

**Planted molding, applied molding** Tayyor bezak. Yuzada ishlanmasdan, unga yopishtirib, qoqib, yoki yerga yotqizilgan bezakli material.

**Plaque** Taxtacha. Usti yozuvli material bo'lib, devor yuzasiga qotiriladi.

**Plaster cornice** Suvoqli qarnas. Devor va shift burchagidagi suvalgan araqi.

**Platband** Toshtasma. 1. Ingichka, yupqa va uzun material. U devorga gorizontall holda bezak uchun o'rnatiladi. 2. Devorda ark ko'rinishini sun'iy yaratishda hosil qilinadigan uzun ingichka bo'rtma suvoq yoki yopishtirilgan qatlam. 3. Ustunda chiziqlar orasidagi tekis ingichka yo'l.

**Plate** Bog'lovchi to'sin. 1. Yog'ochlar biriktirib chiqilganda ularni mustahkamlash uchun gorizontal qoqladigan to'sin. 2. Yerda, devorda yoki devor tepasida sinch to'sinlarni ushlab turuvchi gorizontal to'sin.

**Platea** Ko'cha. Rimning keng ko'chasi.

**Plated parquet** Yog'ochli parket. Qattiq yog'och bo'laklaridan terib hosil qilingan geometrik shaklli naqsh.

**Plate rail, plaque rail** Tokcha. Devorga mustahkamlangan enli taxta bo'lib, ustiga chiroyli chinni idishlar terib qo'yiladi.

**Plateresque architecture** Zargarlik me'morchiligi. Ispaniyada XVI asrda amalda bo'lgan uslub bo'lib, nafis bezaklarga juda boyligi bilan ajralib turadi. Qirolicha sharafiga Izabella (1474-1504) me'morchiligi deb ham ataladi.

**Plate tracery** Likopchali bezak.

**Pleasance chamber** Oliymaqom xona. Saroylarda yoki hokimiyat binosidagi xona.

**Plethron, pléthrum** Plefron. Qadimgi greklar uzunlik o'Ichov birligi. 30.86 metr. 2. Shu uzunlik bo'yicha maydon birligi.

**Flexiform** To'qimali. Roman va keltlarning to'r yoki to'qima ko'rinishli bezagi.

**Plinth** Lali. Ustun poyi. Plintus. 1. Ustun ostidagi to'rtburchak asos. 2. Biror yodgorlikning asosi. Masalan haykalning poy qismi. 3. Devorning kengroq chiqqan poy qismi.

**Plinth course** Chaspak qatori. 1. Devorning bo'rtib chiqqan uzun poy qismi. 2. Markaziy ko'chalarda bo'ladigan devorli to'siqlarning eng ustki ishlov berilgan va turtib chiqqan yo'li

**Pluteus** Gnom devori. Ustuniar orasini birlashtirib turuvchi juda past devor.

**Pnyx** Pniks. Afinada, Akropolis yaqinida joylashkan jamoat maydoni. Yarim aylanali joy bo'lib, devor bilan o'raladi. Gapiruvchilar minbarga chiqishadi.

**Podium** Podium. Minbar. 1. Olomonga gapirishga mo'ljallangan balandroq minbar. 2. Bino qurish uchun tepalik. 3. Sirkda eng quyi o'rindiq. U markaziy maydondan panjara bilan to'siladi. 4. Devor ostining supali qilib ishlangan keng qismi. Narsalar qo'yish uchun mo'ljallangan. 5. Bino poydevori.

**Podzor** Tomosti. 1. Rus me'morchiligidagi o'yib ishlangan tom osti qismi. 2. Bino uchun ishlangan chiroyli metall panjara.

**Poecile** Poykil. Afina bozorida devorlari suratlari ishlangan tim.

**Pointed arch** O'tkir ark. Yuqori qismi o'tkir burchakli tik ark.

**Pointed architecture** O'tkir me'morchilik. Gotik me'morchilikning eski nomi.

**Pointed ashlar** O'yiq toshlar. Tig' izlari bo'lgan toshlar.

**Pointed work** O'yiq ish. Devorga ishlataladigan toshlar yuzasini tig' bilan o'yish.

**Pointel, pointelle** Poyntel. Diagonal joylashkan katakchaldardan iborat bezak.

**Pointing** To'lg'izish. 1. Qurilishda toshlar orasini sement bilan to'lg'izish. 2. Uloqlari berkitilgan material. 3. Tosh yuzasini o'yiq chiziqlar bilan to'lg'izish.

**Pole piece (Ridgeboard)**

**Pole plate** Oraliq to'sin. Devor bo'ylab yotqizilgan to'sin bo'lib, tom to'sinlarini ko'tarib turadi. U shift to'sinlari joylashadi.

**Polyandron** Polyandron. Davlat tomonidan faqat sanoqli kishilar jasadini ko'mishga ruxsat berilgan qabriston. Bu yerda qo'nim topish sharafli hisoblanib, faqat jangda shahid bo'lgan lashkarboshilar bunga sazovor bo'lishkan.

**Polychromy** Polixrom. Turli bezaklar yordamida me'moriy unsurlar va haykallarni bezatish amaliyoti.

**Polygonal masonry** Ko'pburchakli tosh. Ko'pburchakli toshlardan terilgan devor. Ularning bari bir-biriga moslashtiriladi.

**Pomerium** Pomeriya. 1. Rim shahri qal'a devori ichida yoki tashqarisida joylashkan maydon. U bo'sh qoldirilib, ustunlar bilan o'raladi. Muqaddas hisoblangan mazkur joyda diniy marosimlar o'tkazilgan.

**Pommel**, pomel Dumaloq tom bezagi.

**Pompeii** Pompey. Italiya janubida joylashkan shahar. 63-yili zilzilada vayron bo'lgan va Vezuviy vulqoni otilgan 79-yili shahar tirik mavjudodlari bilan birga kulga aylangan. Halokatga uchraganlar xotirasiga umumiy yodgorlik toshlari qo'yilgan. 1755-yildan arxeologik tadqiqotlar o'tkazila boshlangan.

**Pontifical altar** O'ralgan altar. Rim shahrining avliyo Pyotr cherkovida o'rnatilgan altar bo'lib, tepasi chodir bilan o'ralgan.

**Popina Qovoqxona**. Rimning arzon mayxonasi.

**Poppyhead**, poppy Ko'knor. Cherkov gumbazi uchida, hamda cherkov mebellari yuqorisida o'rnatilgan bezak.

**Porch** Peshayvon. 1. Binoga kirish qismida joylashkan tomli qurilma. Yonlari ko'pincha ochiq bo'lib, asosan yog'ingarchilik va oftobdan himoyalash nazarda tutilgan. 2. **Portico**.

**Porebrik** Araqi. Rus binolarida g'ishtlar qatoridan hosil qilingan qarnas. G'isht devor yuzasiga 45° burchak ostida joylashtiriladi.

**Porta Darvoza**. Qadimgi rim shahri darvozasi. Yoki devorlar oralig'ida ochiq qoldirilgan o'tish joyi.

**Portal** Darvoza, yo'lak. Go'zal bezatilgan kirish qismi.

**Porta pompa** Sirk darvozasi. U yerdan tomosha ustalari chiqib kelishkan.

**Portcullis** Panjaralari darvoza. U yog'och yoki temirdan yasaladi va uni tepaga tortib yo'ini ochishkan.

**Porte cochere** Katta darvoza. 1. Arava yo'lagi. 2. Ot arava sig'adigan eshik.

**Portico** Peshayvon. 1. Bino atrofida ustunli qilib qurilgan tomli qism. 2. Binodan alohida qurilgan ustunli, tomli yo'lka.

**Porticus (Portico)**

**Posada** Mehmonxona. (Ispan tilida)

**Post-and-beam framing** Ustun va to'sinli qurilma. Bunda gorizontal yog'ochlar ustun tepasida joylashadi.

**Post-and-lintel construction** Tayanch ustun va to'sinlar. Deraza ustiga toshli ark emas, tekis qilib to'sin tashlash va uni ustunlar bilan mustahkamlash nazarda tutiladi.

**Post and pane, post and petrail** Sinchli qurilma. Devor qurishda yog'ochlarni o'rnatib, oralarini g'ishtlar bilan to'lg'izib chiqish.

**Postern** Kirish. 1. Kichik kirish qismi. 2. Katta eshik yonidagi kichik eshik. 3. Asosiy darvozadan uzoqroqda bo‘lgan kichik darvoza yoki eshik. 4. Qal’ada tunnelli yo‘lak.

**Postiche** Qo‘sishimcha ish. Qurilish yakunlangandan keyin yana qandaydir qo‘sishimcha qilingan ish.

**Posticum** Dahliz. 1. Qadimiylar ibodatxonalar zali ortidagi ochiq dahliz. 2. Qadimgi Rim uylarining orqa eshigi.

#### **Postique (Postiche)**

**Postis** Yondor. Deraza uchun ochiq qoldirilgan yon devorlar.

**Postscenium, postscenium** Sahna orti. 1. Sahna ortidagi xonalar bo‘lib, aktyorlar kiyinib tayyorlanishkan. 2. Sahna pardasi ortidagi qism.

**Pounced** Teshib bezatilgan.

#### **Poyntel (Pointel)**

**Pozzolan, pozzolona, pozzuolana** Pozzolan. Kvarts va alyuminli material. Tarkibida sement bo‘lishi mumkin. Suv yordamida bo‘laklarga bo‘linadi. Sement surtib, devorga o‘rnatib bezaklar yaratiladi.

**Pozzolian cement** Pozzolan sementi.

**Prachedi, phra-chedi** Muqaddas ibodatxona. Siam me’morchiligidagi gumbaz turi.

**Pradakshina-patha** Aylana yo‘lka. Hind ibodatxonasi gumbazi atrofidagi yo‘l.

**Praecinctio** Oraliq yo‘lak. Rim teatrlarida yuqori va pastki o‘rindiqlar orasidagi yo‘lak.

**Praefurnium** Mo‘ri. Dudburon. Rim o‘chog‘ining og‘zi. Kulolchilik mahsulotlari pishiriladigan pech og‘zi.

#### **Praetorium (Pretorium)**

**Prakaram** Parkaram. 1. Hindlar ibodatxonasini o‘rab turgan devor. 2. Shunday devor bilan o‘ralgan hovli.

**Prang** Prang. Tailandda XIII-XVIII asrlarda qurilgan minora va shiyponli ibodatxona.

**Prasada** Prasada. 1. Buddistlarning jamoat zali. 2. Hindu Dravidlari ibodatxonasi.

**Prasat** Kambodja ibodatxonasi.

**Prastara** Hind me’morchiligidagi devorning yuqori qismi.

**Preaching cross** Qiroat joyi. Ruhoniylar marosim uchun yig‘iladigan joydag‘i xochli belgi.

**Puuc style** Puk uslubi. Yukatan g‘arbidagi Puk tepaligida paydo bo‘lgan Mayya me’morchiliginining bir usuli. 600-950 yillarda mayjud bo‘lgan. Binolarning tepasi va pasti alohida bezaklarda ishlangan. Ohaktoshdan ham foydalanib, bino ostini bezashkan. Mozaikalarida turli ma’bdullar suratlariga duch kelamiz. Puk me’morchiligidagi ham ustunlar, piramidalar va yodgorlik arklari mavjud bo‘lgan.

**Pylon** Hashamdar darvoza. Misr ibodatxonasi darvozasi. Yonlarida ikki baland minora qurilgan. Devorlari tik emas, biroz nishabli qilib qurilgan.

**Pyramid** Piramida. To‘rt qiya tomonli ulkan inshoot. Nishabli tomonlar yuqorida bir nuqtada uchrashadi. Bir yuzasining o‘zi uchburchak ko‘rinishga ega.

Piramidalalar Misrda sag'ana, Amerikaning qadimiy qabilalari uchun ibodatxona maqomida bo'lgan. Ular astronomik kuzatuylar va vaqtini aniqlash vazifalarini ham bajargan. Misr piramidalari burchaklari ba'zi yulduzlar bilan bir vaqtida bir chiqizda joylashadi. Piramida ichiga bir yilda bir martagina quyosh nuri kirib boradi. Bu orqali yil kunlarini sanab chiqishkan.

**Pyramidal hipped roof (Pavilion roof 1)**

**Pyramid city** Piramida shahri. Piramida yonida xizmatchilar uchun qurilgan shaharcha.

**Pyramidion** Kichik piramida. Bino tomi bo'lishi mumkin.

**Q**

**Quadra** To'rt. 1. To'rburchak chegara. 2. To'rburchak sahn. 3. To'rburchak bezak.

**Quadrangle, quad** To'rburchak. 1. To'rburchak hovli. Bino ichi maydoni. Binolar orasidagi to'rburchak maydon. 2. To'rburchak bino.

**Quadratura** Kvadratura. Barokko binolari ichki qismida hosil qilingan uch o'lchamli bezaklar: uzunlik, balandlik va kenglikka ega shakli. Ular ranglar bilan bo'yalgan.

**Quadrel** To'rburchak parchin.

**Quadrifrons** To'rtovlon. 1. To'rt qiyofali haykal. Ular to'rt tomoniga qaraydi. Lekin bir joyda bo'lib, ba'zan ustun, ba'zan oddiy bezak vazifasini bajaradi. 2. **Tetrapylon 2.**

**Quadriga** To'rt otli. Aravalor otlarining soniga tegishli. Triga uch otli, biga ikki otli.

**Quadripartite** To'rt qismli. To'rt qismga bo'lib ishlangan qurilma. Ular yaxlit bo'lsa-da, bezakli chiziqlar ajratib ko'rsatadi.

**Quadripartite vault** To'rt qismli gumbaz. Ichki qovurg'alari to'rttaga bo'lib ko'rsatadi.

**Quadriporticus** To'rt shiyponli. Masalan to'rt tomonida ustunli shiyponlari bo'lgan atrium.

**Quadrivium** To'rt yo'nalish. Ikki ko'cha kesishkan chorraha. Chorraha markazidan to'rt tomoniga yo'l borligi nazarda tutilmoxda.

**Quarrel Parchin.** Shisha yoki sopoldan sirlab yasalgan to'rburchak parchin bo'lib, devorga diagonal joylashtiriladi.

**Quarry-faced** Ma'dan yuzli. Go'yo yaqinda tog'dan kavlab olingan ma'danga o'xshab g'adir-budir yuzali bo'lgan tosh. Faqat ulanadigan to'rt tomonlari tekislanadi.

**Quarterpace, quarterpace landing, quarter-space landing** Tekis zinapoya. Burchaklari 90° bo'lgan zinapoya.

**Quarter round** Chorak aylana. Aylananing to'rtadan birini hosil etkan qabariq bezak.

**Quatrefoil** To'rt foyil. To'rtta ichki burchakli ayanada hosil bo'lgan to'rt ichki aylana.

**Quattrocento architecture** Italiyada XV asrda mavjud bo'lgan Uyg'onish davri me'morchiligi.

**Queen Anne arch** Qirolicha Anna arki. Deraza usti arki hisoblanib, yon tomonlarda qanotlari bo‘lgan. Venetsiya va Pallada uslublariga xos.

**Queen Anne style** Qirolicha Anna uslubi. 1870-1880- yillarda AQSh va Angliyada urf bo‘lgan Eklektik uslub. Aslida u Anna nomi bilan emas Yelizaveta nomi bilan atalishi haqiqatga yaqinroq bo‘lardi. Anna davri me’morchilik davriga mos kelmaydi.

**Queen-post truss, queen truss** Qirolicha tom qurilmasi. Unda bitta gorizontal to‘sini xuddi shift to‘sini kabi yotqiziladi. Lekin u tom qismida bo‘lib, ustida ikki ustuncha tom to‘sinsinariga tirkak bo‘ladi.

**Queen rod, queen bolt** Qirolicha ustuni. Tom qurilmasida o‘rnatalgan metall ustun.

**Quincunx** Chahoryor. Biron narsa atrofida to‘rt narsani simmetrik qilib joylashtirish.

**Quirk Ajratma** bezak. Silliq yuzani bir chiziq bo‘ylab o‘yib, yuzani ikki qismga ajratib alohida hosil qilingan ingichka yo‘lli bezak.

**Quirk bead, bead and quirk, quirked bead** Ajragan bezak. 1. Taxtaning bir tomonida yo‘l hosil qilgan chiziqli bezak. 2. Ikki tomonni o‘yish hisobiga o‘rta qismni bo‘rttirib ko‘rsatib hosil qilingan bezak. 3. Burchakda hosil qilingan ajratma bezak. 4. O‘z yuzasida o‘yma chizig‘i bo‘lgan ajratma bezak.

**Quirk molding, quirked molding** Chuqur bezak. Ingichka va chuqur kesib yoki o‘yib ishlangan bezak. Masalan bezak avval qabariq yuza hosil qilib buraladi va yo‘nalish keskin ichkariga burilib ingichka ichki chiziq hosil etadi.

**Quoin, coign, coin** Burchaktosh. Mustahkam burchak toshi. Devor kichik g‘ishtlardan bunyod etilsa-da, burchaklar uchun ba’zan alohida katta toshlar ishlataladi. Shu ko‘rinishli oddiy suvoq bezagi bo‘lishi ham mumkin.

**Quoin header** Burchakdagi joylashuv. Bunda toshning uzun tomoni devorning bir yuzasida qolib, kalta tomoni ikkinchi yuzasida qoladi.

**Quoining** Burchak materiali. Burchak hosil qilishda ishlataluvchi har qanday material.

## R

**Rabbit, rebate** Ariqcha. Derazaning oyna soladigan ariqchasi. Bir narsani biriktirish uchun kiydiriladigan ariqchasi.

**Radiating chapel** Aylana ibodat xonasi. Loyihasi aylana bo‘ladi.

**Radius brick (Arch brick)**

**Rafter** Hovon. Tomto‘sini. Nishabli o‘rnataladigan to‘sin.

**Rafter plate** Devor usti to‘sini. Tomning qiya to‘sinlari osti tushadigan to‘sin.

**Rag rubble** Toshdevor. Mayda tabiiy yuzalni toshlardan terilgan devor.

**Ragwork** Toshqator. 1. Devorning bir gorizontal qatorida tabiiy yuzalni toshlarni terish. 2. Devor yuzasiga ishlov berilmagan toshlarni terish.

**Rail bead** Yo‘lli bezak. Uzun bir tekis yo‘lli bezak. Masalan deraza cheti. Mebelning yo‘lli bezagi.

**Rail fence** Yo‘l-yo‘l to‘sinq. Bunda gorizontal to‘sinqlar ustunlarga qotiriladi.

**Rainbow roof, whaleback roof** Kamalak tom. Nishabli biroz qabariq bo‘lgan tom.

**Raised panel, fielded panel** Qabariq qoplam. Ikki yoniga nisbatan o'rtaligida qismi qalinroq bo'lgan qoplam.

**Raising piece** Xari. Ko'taruvchi qism. Ustunlar ustiga joylashib, to'sinlarni ko'taruvchi asosiy to'sin.

**Raising plate** Devor to'sini. Sarrov. Devorga o'rnatiladigan to'sin bo'lib, ustiga tom to'sinlari qotiriladi.

**Raking** Pasayuvchi. Qiya.

**Raking arch (Rampant arch)**

**Raking coping** Nishabli qalpoq. Ochiq devor ustiga yopiladigan tomcha.

**Raking cornice** Qiya qarnas. U tomning uchburchak peshtoqida bo'ladi.

**Raking course** Nishabli qator. Devorda mustahkamlik uchun diagonal g'isht qatorini hosil qilish. Diagonal g'isht qatori.

**Raking molding, raked molding** Qiya bezak. 1. Har qanday yotiqligini bezak. 2. Pastga yo'nalgan har qanday bezak.

**Ramada** Ramada. 1. Yog'ochli ko'shk. 2. Shiypon.

**Ramma** Ramma. An'anaviy yapon san'atida uy devoriga osiladigan taxta. Uning yuzasida chiroyli manzara tasvirlangan bo'ladi.

**Rammed earth** Maydalangan tuproq. Tuproq, qum va suvni aralashdirib selgitiladi. U qurilishda ishlataladi.

**Rampant arch, raking arch** Qiyshiq ark. Asosan zina ostini arkli qilganda kuzatiladi.

**Retaining wall** Burj. Ukak. Asosan past-balandoq yerdarda tuproq o'pirilmasligi uchun, yomg'ir suvi loy bo'lib oqmasligi uchun quriladigan devor. Yerning ikki yuzasidagi balandlik farqi qancha bo'lsa, devor balandligi ham yer balandligiga mos bo'ladi.

**Ridge beam** Yuqori to'sin. Tom cho'qqisidagi to'sin. Barcha nishabli to'sinlar uning ustiga tushadi.

**Ridgeboard, ridgepole, ridgepiece, ridgeplate** Yuqori to'sin. Tom cho'qqisidagi to'sin. Barcha nishabli to'sinlar uning ustiga tushadi.

**Ridgecap, ridge capping, ridge covering** Qalpoqli qoplama. Tomning yuqori burchak yo'lini yopishga ishlataladigan qoplama.

**Ridge course** Yuqori qator. Tomning eng yuqori qismi parchinlari.

**Ridge covering (Ridgecap)**

**Ridge crest** Cho'qqi xochi. Tom uchi bezagi.

**Ridge fillet** Chiziqcha. Ikki botiq yo'llar orasidagi chiziqchali bezak.

**Ridgepole (Ridgeboard)**

**Ridge rib** Yuqori qovurg'a. 1. Gumbazning yuqori tojdar qismini belgilab beruvchi gorizontal qovurg'a. 2. Gumbazning cho'qqisidan o'tkan qovurg'a.

**Ridge roll** Tom cho'qqisi yog'ochi. Ikki nishab ushrashkan yuqori burchak bo'ylab o'rnatiladi. Tepasidagi dumaloq rekaga metall yopish mumkin.

**Roman theatre** Rim teatri. Tomsiz tomoshagoh bo'lib, ko'pincha tepalikda qurilgan. Tashqi tomonida ustunli galeriya va gumbazli kirish qismini ko'ramiz. Sahnasi teatr maydoni kabi yarim aylanali bo'lgan. Hozirda saqlanib qolgan qadimiy teatrlar mavjud.

**Roman tile** Rim parchini. Tomda ishlatalgan mazkur parchinlar ikki xil bo‘lib, biri tekis yuzali ostki qism, biri yarim aylanali ustki qism bo‘igan. Tekis parchinining ikki yoni biroz tepaga qayrilib chiqqan.

**Rood beam** Xoch to‘sini. Bu to‘sin xochni ushlab turadi.

**Rood loft** Cherkov galleriyasi. U yerda payg‘ambar surati va xoch bo‘ladi. Ba’zan mana shu yerda ma’ruza qilinadi.

**Rosette** Rozetta. 1. Dumaloq naqsh bo‘lib, ba’zan markazda qiyofa tasvirlangan. Atrofiga gulli bezaklar ishlangan. 2. Devor yuzasi va zina panjarasida ishlatalgan shunday yog‘och. 3. Shunday kichik bezakli mix boshi.

**Rose window**, **Catherine-wheel window**, **marigold window**, **wheel window** Dumaloq deraza. G‘ildirakka o‘xhash bo‘lib, bezakli qilib ishlangan.

**Rostra** Minbar. Rim Forumi minbari. Notiqlar sahni.

**Rostral column** Kemali ustun. Dengiz janglaridagi g‘alaba sharafiga o‘rnatalgan yog‘och ustun.

**Retunda** Rotunda. 1. Shaklan dumaloq uy. 2. Bino ichidagi dumaloq zal. Har ikkisi gumbazli bo‘ladi.

**Rough arch** Qo‘pol ark. To‘rtburchak g‘ishtlardan qurilib, yuqori keng ochiq joylariga mayda jismlar solib sement bilan to‘lg‘izishkan.

**Rough-axed brick (Axed brick)**

**Rough bracket** Devoriy tayanch. Zina ostiga tayanch qilib o‘rnatalgan devorning turtib chiqqan qismi.

**Roundel** Dumaloq. 1. Dumaloq qoplam yoki deraza. 2. Dumaloq shisha. 3. Bead molding, astragal.

**Rowlock, rolok, rollock** Oxirgi g‘isht. 1. Devor burchagida ikki yoni ko‘rinib turgan g‘isht. 2. Ikki qavat arkning bir qavati. (Rowlock arch)

**Rowlock arch** Ikki qavat ark. Har ikkisi alohida qurilib, bir-birining orasiga qo‘shilmaydi.

**Rubbed finish** Tekis. Qumqog‘ozlangan. Egov yoki qumqog‘oz bilan silliqlangan yuzu.

**Rubble Tosh** bo‘lagi. Tekislannagan tabiiy yuzali tosh.

## S

**Sacellum** Zasella. Kichik Rim ibodatxonasi. Ba’zan dafn marosimi o‘tkaziladigan usti yopiq joy ma’nosida qo‘llangan.

**Sakbe** Sakba. Mayya me’morchiligidan katta yo‘l nomi bo‘lib, toshlar yotqizilgan va oralari shag‘al hamda ohak bilan to‘lg‘izib tekislangan.

**Saliens Favvora**. Yuqoridan quvur orqali suv olib kelgingani uchun favvoradan chiqqan suv tepaga otilib turgan.

**Salient Bo‘rtiq**. Tashqariga turtib chiqqan har qanday qism.

**Sally Qiya** kesik. Tom to‘sini ostidagi tekis to‘singa moslab tushirish uchun uning uchi qiya qilib kesiladi.

**Sanmon** Sanmon. Zen ibodatxonasining katta darvozasi. Ikki qavat tomga ega. Yuqorisida ma’budlar haykallari yasalgan.

**Santorin** Santorin. Qurilishda ishlataladigan yengil kulrang qotishma.

**Sarcophagus.** Tobut. Sarkofag. Bunday tobutlar sopol, tosh, yog'och, yoki metalldan faqat mashhur odamlar uchun yasalgan. Yuzasi go'zal bezakli qilib ishlangan.

**Sardaba** Sardoba. Cho'ldan o'tkan yo'llarda bunyod etilgan quduqli inshoot. Usti gumbazli bino bo'lib, suvni yaxlashdan, parlanish va ifloslanishdan saqlaydi. O'zbekiston hududida hozirda 44 ta sardoba saqlanib qolgan.

**Sash, window sash** Deraza romi. U qotirilgan yoki turlicha suriladigan, ochiladigan bo'lishi mumkin.

**Sassanian architecture** Sosoniylar me'morchiligi. III-VII asrlarda Eronda hukmronlik qilgan Sosoniylar qurdirgan obidalar bilan bog'liq me'morchilik. Binolari ochiq ayvonli, gumbazli bo'lgan. Devorlari esa g'isht yoki dag'al toshdan iborat bo'lib, usti suvalgan. Devorlarda birikkan ustunlar ham aks etkan.

**Sepulcher Maqbara.** Sag'ana. 1. Qabr. Qabrtosh. 2. Ashyolar saqlanadigan cherkov qismi. 3. Payshanba kuni non va vino qo'yiladigan arkli tokcha.

**Serdab Sirdob.** 1. Qadimgi Misr me'morchiligidagi haykalli yopiq joy. 2. Mesopotamiya uylarida yerto'la qismi. Yozning issiq kunlarida shu yerda ko'proq vaqt o'tkazishkan.

**Serpent column** Ilon ustun. Toltek me'morchiligidagi ustunning bir turi bo'lib, ochiq og'izli boshi ustun asosi bo'lsa, dumi tomga tayanch bo'ladi.

**Serpentine Serpentin.** Yashil rangli tog' ma'dani. Devor bezagida ishlatiladi.

**Serrated Tig'li.** Arra tishi kabi mayda tig'li qilib ishlangan.

**Setback buttress** Chetki burj. Devor burchagiga yaqin bo'lgan devorning qo'shimcha qismi.

**Seven Wonders of the World** Dunyoning yetti mo'jizasi. Ular qadimiy va yangi-saqlanib qolgan mo'jizalarga bo'linadi. Hammasi 14 ta. Gizadaqgi Piramida, Galikarnas maqbarasi, Artemida ibodatxonasi, Bobil osma bog'lari, Rodos haykali, Zevs haykali va nihoyat Iskandar mayog'i (*Surat shu tartibda*) qadimiy yetti mo'jiza sifatida tan olingen. Ulardan faqat vaqtga bo'ysunmaydigan piramidalar saqlanib qolgan.

**Sine postico** Ustunli ibodatxona. Old va yon tomonlari ustunli ibodatxona. Orqasida mavjud bo'lmaydi.

**Singing gallery** Qo'shiq zali. Qo'shiq kuylaydigan zal.

**Siparium** Sipariya. So'zana. 1. Qadimgi Rim teatrlarida bo'lgan suratlari mato. Sahna orti pardasi sifatida spektakl davomida osig'liq turgan. 2. Suratlari ishlangan yengil sahna to'sig'i.

**Siras** Ustun boshi. Hindlar ustuning yuqori qismi.

**Skeen arch (Diminished arch)**

**Skene (Scaena)**

**Skene arch (Diminished arch)**

**Skenotheke** Grek teatri omborxonasi.

**Skew (Kneeler 1)**

**Skew arch** Qiyishiq ark. Devor yuzasida to'g'ri burchakda joylashmagan ark.

**Skewback Ark** ulog'i. Arkning og'ish burchagiga mos burchakda bo'lgan devorning arkka tayanch uloq qismi.

**Skew corbel, skew putt** Tom uchi toshi. Araqi tosh. U tom devorining uchiga o'rnatiladi. Ustiga qiya o'rnatiladigan toshlar qatori joylashadi. Pastdan qaraganda bu tosh d'vor araqisi kabi ko'rindi.

**Skev fillet** Tom rekasi. Tom devorida suv yo'lini to'sish uchun qotiriladigan uzun reka.

**Skev table** Tom devorining uchki qismi. **Skew corbel** kabi bo'ladi.

**Skirtled brickwork** Qiyshiq g'ishtli devor. Qiyshiq yuza hosil qilgan g'ishtlar terilishi.

**Skirt-roof** Tom etagi. Birinchi qavatning soxta tomi.

**Spina** Poyga markazi. U to'siq bo'lib, poygachilar uni aylanib ot choptirishkan.

**Sport** Tarnov. Yig'ilgan suv oqib tushadigan tarnov. Tomdan bir metrcha chiqarib qo'yiladigan turi.

**Springer, skewback, summer** Birinchi bostirma. 1. Arkka tayanch bo'lgan tosh. 2. Ark toshlarining eng ostidagi birinchisi. 3. Tomda qiya terilgan so'nggi qator toshlarining eng ostidagisi. 4. Gumbaz qovurg'asi.

**Springhouse** Bahor uyi. Bahor kabi tabiiy salqin uy. U yerda meva va sut mahsulotlari saqlangan.

**Springing, spring** Egilish. 1. Ark aylanasi boshlangan joy. 2. Ark burchagi.

**Springing course** Aylana qator. Arkda aylana hosil etkan toshlar qatori.

**Springing line** Arklar chegarasi. Arklar aylanasi boshlangan gorizontal xayoliy ctiziq.

**Springing wall (Buttress)**

**Sprocked eaves** Tomning yog'ochli uchi.

**Sprocket, cocking piece, sprocket piece** Tom uchi rekasi. Bu reka to'sinlarning ustiga o'rnatiladi.

**Sprung molding** Egma bezak.

**Spur** Shpur. 1. Dumaloq ustunning to'rburchak poyida, burchagida ishlanadigan bezak.

**Squint** Darcha. 1. Kichik ochiq qism. Cherkov devorida shunday derazali joy bo'lib, altarni ko'rib turishkan.

**Squint brick, squint quoin** Maxsus g'isht. To'g'ri to'rburchak bo'lmanan devor burchaklarida ishlatishga mos g'isht. Bunday g'isht burchaklari qiya bo'ladi.

**Story, storey (Britain)** Qavat. 1. Bino qavati. Xonalarning gorizontal qatori. Yerto'la ham ba'zi joylarda qavat hisoblanadi. Chordoq esa qavat sanalmaydi. Britaniyada yer bilan barobar uy qavati yer qavati deyiladi. Yer qavati ustidagi qavatni birinchi qavat deyishadi. U bizda ikkinchi qavatga to'g'ri keladi. 2. Shift bilan ajratilmasa ham, bino derazasi ikki qavatlari bo'lsa, qavatlarga ajratiladi. Ikki qavat derazali bino ma'nosida.

**Stoup** Chanoq. Jom. Muqaddas suv uchun idish. U cherkovga kirish qismida joylashadi.

**Stove** O'choq. Isitadigan qurilma. Ovqat pishirish yoki uyni isitish uchun oshxonada yoki xonada o'rnatiladi. Uning temirdan yasalgan va g'ishtdan qurilgan turlari bor. Hattoki askar sovutiga o'xshatib ishlangan.

**Straining arch** Ustun ark. Ikkinchi qavat devoriga taqab, qiya nishabda qurilgan ark. Devorga yoki tomga tayanch bo'ladi.

**Straining beam, straining piece, strutting piece** Kalta tayanch to'sin. To'sinli qurilmada gorizontal o'rnatiladigan kalta to'sin. U ikki nishabli tom to'sini ostiga, ularning har ikkisiga tayanch bo'lish uchun o'matiladi. Kalta bo'lgani uchun yuqorida joylashadi.

**Straining piece** Tayanch to'sin. 1. **Straining beam.** 2. Ikki to'sin orasiga o'rnatilgan tayanch to'sin.

**Straining sill** Kalta tayanch to'sin. U bog'lovchi to'sinning ustki yuzasida joylashadi.

**Strapped wall (Battened wall)**

**Strapwork** Tasmali bezak. U bir-birini kesib o'tkan, o'ralgan va bog'langan tasmali yo'llardan iborat.

**Striatura** Ustun yo'llari. Naysimon yo'llari.

**Striga** Ustunning naysimon yo'li.

**Strigil ornament** Naysimon bezak.

**String** Zina yog'ochi. 1. Zinapoyalarni ko'taruvchi yon tomon yog'ochi. Zina uzunligicha yaxlit bo'ladi. 2. Tomning gorizontal to'sini. 3. **Stringcourse.**

**Stringboard (Face string)**

**Stringcourse, belt course Belbog'**. Devor yuzasidagi uzun bo'rtma qism. U boshqa belbog'li qismlardan ingichkarroq bo'lib, devoriy ustunlarni bog'lab turadi.

**Stringer Yaxlit** to'sin. 1. Zinaning yon tomonlaridagi yog'och. Kosovur. 2. Pol ostida to'sinlarga tayanch bo'lgan qalin va uzun to'sin.

**Strix** Botiq chiziq. Uzun, yarim dumaloq, va ingichka bo'ladi.

**Stroked work Yo'l-yo'lli qilish.** Toshni o'yib botiq yo'lli bezak yaratish.

**Stroll garden Yo'lkali bog'**.

**Struck molding, solid molding, stuck molding** O'yma bezak. O'yib yaratilgan bezak.

**Structura** Qurilma. Qurilishdagi ishlarning umumiy nomi.

**Stuart architecture** Styuart me'morchiligi. Angliyada so'nggi uyg'onish davri me'morchiligi. (1603-1688)

**Stuc** Toshsuvoq. Devorni suvab, go'yo tosh terilgandek qilib ko'rsatish san'ati.

**Stucco** Suvoq. 1. Sement, ohak, qum kabi qorishmalar bilan devorni silliq qilib suvash. 2. Bezak solish uchun ishlangan suvoq.

**Stuck molding (Struck molding).**

**T**

**Ta Ta.** 1. Xitoyning ko'p qavatlari yog'och minorasi – pagoda. U harbiy kuzatuv uchun qurilgan. 2. Diniy maqsadda qurilgan minora. U tosh va to'sindan qurilgan yoki faqat toshdan qurilgan namunalari ham bor.

**Tabby** Tabi. Ohak, chig'anoq, shag'al va tosh aralashmasidan iborat qorishma.

**Taberna Rim do'kon.** Savdo rastasi.

**Tabernacle Mehrobi.** 1. Haykal joylashtirilgan mehrob kabi joy. 2. Protestant jamoasi uchun cherkov.

**Tablet flower** Bezakli Gotik usuli me'morchiligidagi to'p shaklli bezaklarning turfa xili. Ochilgan gul shakli ham bo'ladi.

**Tablet tomb** Tobut devorga kiritilgandan keyin eshik og'zini berkitib qo'yadigan tosh.

**Tablinum** Rim atriumlarida oila a'zolarga tegishli ma'lumotlar yozilgan yoki ularning haykallari o'rnatilgan katta ochiq xona.

**Tachara** Persopoldagi Doro qurdirgan saroy.

**Taenia, tenia** Devor bezagida manglay o'rnidan pastroqda keladigan tekis bezak. Qarnas osti.

**Tai Poydevor** qilmasdan yog'och ustunlar ustiga qurilgan binolar; bir yoki bir necha xonali uylar, saroylar, ibodatxonalar bo'lishi mumkin.

**Tai miao** Xitoyda imperatorlar saroyining sharq tomonida qurilgan o'tkan ajdod imperatorlar maqbarasi.

**Tai no ya** Tarjimasi ro'paradagi bino. Yapon me'morchiligidagi asosiy binoning sharq va g'arb, ba'zan shimal tomoniga qurilgan qo'shimcha binolar.

**Taisha** style Shinto maqbarasining oldingi qiyofasi. Hozirda ularning mashhurlaridan biri Izumo maqbarasidir.

**Tajin** Totonaklar me'morchiligidagi mashhur obida (200-900). Meksikaning Vera Kruz shtatida joylashkan bu bino olti qatlamlari bo'lib, piramida shaklida bunyod etilgan. El Tajin uslubiga xos bino hisoblanadi.

**Telamon** Tanali ustun. Erkak ko'rinishida ishlangan ustun.

**Temple of Solomon** Sulaymon ibodatxonasi. Sulaymon masjidi. Quddus shahrida Sulaymon tomonidan miloddan avvalgi 950 – yilda qurdirilgan va miloddan avvalgi 586 – yili Nebuchadnazar tomonidan buzdirilgan. Inshootni Finikiyaliklar uch qismli qilib qurishkan: tashqi zal (Ulam), asosiy zal (Hekhal), va muqaddaslar muqaddasi (Debir deb atalgan). Asosiy zalni uch qavatlari bino qismi o'rab turgan. Dahliz oldida ikki bronza ustun erkin holda turgan. Qazishmalar davomida oltin bargli bezaklar ham topilgan.

**Templon** Templon. Vizantiya cherkovida altar qismi oldida o'rnatilgan ustunlar qatori.

**Tenjo** Tenjo. Yaponcha shift.

**Tenshu-kaku** Tenshu kaku. Yapon qasrining minorasi.

**Teotihuakan** Qarimiy Amerikaning eng katta va eng muhim diniy markazi. Mexiko shahriga yaqin joylashkan bu inshoot piramida kabi balandlovchi supalardan iborat. Umumiyligi maydon to'rtburchak shaklida. Mazkur qurilma keyinchalik ko'pkina shunga o'xshash joylar qurilishida o'z ta'sirini o'tkazdi.

**Tepe** Tepalik. Turkiychada xaroba tepaligi. O'zbekiston hududida ham qadimiy qo'rg'onlar mavjud. Toshkent shahrida sakkizta ogtepa aniqlangan.

**Tepidarium** Tepidariya. Qadimgi Rim hammomlarida iliq haroratlari xona.

**Terminal figure, terminal statue** Terminal haykal. Ustuncha ustiga o'rnatilgan odam boshi haykali. Uning yelka qismi ham tasvirlangan.

**Theatre** Teatr. Sahnali inshoot bo'lib, unda aktyorlar tomoshabinlarga bevosita drama tomoshalarini namoyish etishadi.

**Tholos** Solos. 1. Greklarning dumaloq binosi. 2. Mikon me'morchiligidagi qurilgan gumbazli maqbara. 3. Gumbazli dumaloq joy.

**Three-centered arch** Uch markazli ark. Bu gumbaz loyihasi uch sirkul markazi ostida tayyorlangan. Shuning uchun gumbaz aylanasi og'ishi bir tekis emas, o'zgargan bo'ladi.

**Three-decker** Minbar. Ma'ruza joyi bo'lib, yuqorida kitob o'qish o'rni, pastda esa ruhoni y o'rindig'i joylashkan bo'ladi.

**Three-hinged arch** Uch bo'lakli ark. Bunday arkning ikki yonida va o'rtasida tayanch uloychi qismlar bo'ladi.

**Todaiji** Todaiji. Qadimiy, juda katta diniy inshootlar kompleksi. "III asrda Yaponiyaning Nara shahrida tashkil etilgan. Eng mashhur binolari Shosoin, Tegaimon, Hokkedo, Kaisando, Nandaimon, Shoro, va Daibutsuden sanaladi.

**Tollbooth** Idora. 1. Xizmat vazifalari bajariladigan, to'lovla: amalga oshiriladigan joy. 2. Shahar qamoqxonasi. Soliq to'lamaganlar, savco-sotiqda firibgarlikka yo'l qo'yanlar vaqtincha jazolab ushlab turilgan joy. 3. Shahir idorasi. 4. Gildiya binosi.

**Tollhouse** Sarbozxona. 1. Bino, ko'pri kabi joylar qo'riqchisining carorgohi. 2. Idora.

**Toltec architecture** Toltek me'morchiligi. Tub amerikaliklardan bii bo'lgan Toltek qabilasi me'morchiligi. Eng mashhur obidalari Tula va Chichen It'a bo'lib, ular Atstek me'morchiligiga ta'sir etkan. Ularning binolarida ustunlar va bezakli kundallarni uchratamiz.

**Tomb** Maqbara. Qabr ustiga, marhum sharafiga qurilgan me'moriy inshoot. Maqbarada birgina odam yoki o'nlab kishilar dafn etilgan bo'ladi. O'zbekstonning o'zida Amir Temur, Imom Buxoriy, Ismoil Somoni, Shayx Zayniddin, Zungi Ota, Shayx Hovandi Tohur, Qaffol Shoshiy, Yunusxon kabi qadimiy sag'analar, shuningdek Shohi Zinda majmuasini misol sifatida aytish mumkin.

**Tracery** Gultoqi. Deraza bezagi. Gotik derazalar yuzasida tosh yoki yog'och qismaldan ishlangan nozik bezak. U derazaning ustki qismida bo'lib, panjaraga ham o'xshab ketadi.

**Trachelium** Tracheliya. Ustunning boshi va ingichka botiq chizig'i rasidagi qismi.

**Trajan's Column** Trayan ustuni. Marmar toshdan 38 metrga bo'y chizib qad rostlagan Rim shahri ustuni. Uni senatorlar imperator g'alabasi sharafiga bunyod ettirishkan. O'sha davrda Ustun tepasida Trayanning haykali bo'lgan. Keinchalik Avliyo Pyotr haykali bilan almashitirilgan. Bu ustun aslida minora bo'lib ichidagi aylanma zinadan yuqorida ko'tarilsa bo'ladi.

**Transenna** Tranzena. 1. Marmar yoki metal yuzasiga ishlangan yo'l-yo'l chiziq. Yo'lli bezak. 2. Kesishkan to'sin.

**Transept** Kesishma zal. Cherkovning uzun zaliga kesishib joylasikan zal. Yuqoridan xoch shaklini paydo qiladi.

**Transept aisle** Kesishma zal yo'lkalari. (**Transept**)

**Transept chapel** Kesishma zal bo'limi.

**Transitional style** O'tish uslubi. XII asrda sodir bo'lgan Roman uslubidan Gotik uslubiga o'tish davri nomi.

**Transom** Transom. 1. Oynaga o'rnatilgan yog'och panjara. 2. Eshikni yuqorisidagi derazani ajratib turuvchi to'siq. 3. Yog'och bilan bo'lingan deraza.

**Treillage** So'ri. Tok o'sishi uchun qurilgan so'ri.

**Trellage (Treillage)**

**Trellis Panjara.** 1. Metall yoki yog‘ochdan ishlangan to‘rsimon panjara. 2. Tok o‘stirish uchun ishlangan so‘ri.

**Trellis molding, trellice molding** Panjaralari bezak. Normandlar me‘morchiligidagi mavjud bo‘lgan siniq chiziqlari, kesishkan, to‘rsimon bezak.

**Tresse** To‘qima bezak. Tekis yoki bo‘rtma yuzaga ishlangan ingichka davomiy bezak. U tasmalar to‘qimasiga o‘xshab ketadi.

**Triapsidal** Uch mehroblari. Cherkovning mehrob shaklidagi katta zal qismi. Shifti yarim gumbazli bo‘ladi. Bu qismlar uch tomonda bo‘ladi.

**Tribelon** Uch ark. Cherkov binosi ichida joylashkan uch arkli arkada.

**Tribunal** Tribunal. 1. Sudyalar o‘rindig‘i joylashkan balandroq sahn. 2. Rim teatrining ikki tarafida joylashkan xos joy. Unda imperator va malika o‘tirgan.

**Tribune** Tribuna. 1. Minbar. 2. Cherkov zalining qo‘srimcha qismi. 3. Taxtga o‘xshash o‘rindiq bo‘lib, sudya yoki yepiskopga tegishli bo‘lgan. 4. Stadionda tomoshabinlar o‘rindig‘i.

**Trichila, trichilum** Chayla. Ochiq tabiat qo‘ynida tashkil etilgan soyali, o‘rindiq va stolli joy. Ovqatlanish gashti uchun mo‘ljallangan. Uning ustida tok o‘sib qo‘srimcha salqinlikni ta‘minlagan va pishkan uzumlar shiftda osilib turgan.

**Triclinium** Ayvon. Qadimgi Rimdagisi xona. Uning ichida uch bo‘lma mavjud.

**Triconch** Uchbo‘lma cherkov. Asosiy zalning uch tomonida turtib chiqqan qo‘srimcha zallari bo‘ladi: to‘g‘rida va ikki yonda.

**Triforium** Triforiy. Cherkov binosi chetida, ikkinchi qavatda joylashkan arkli yo‘lak.

**Triglyph** Triglif. Doriy uslubidagi bezakka xos bo‘lgan uch yo‘lli qoplama. Ular burchakli va bo‘rtma ishlangan.

**Trigonum** Trigon. Uchburchak bo‘laklardan terib ishlangan mozaika.

**Trilith, trilithon** Uch tosh. Uchta yirik toshdan iborat monument.

**Trimmer** Uloq to‘sini. 1. Pol va shift to‘sinaligiga tayanch bo‘lishi uchun o‘matiladigan kalta yog‘och. 2. Polda bir-necha to‘singa ulangan gorizontal yog‘och. 3. Trimmer arch.

**Trimmer arch** Yotiq ark. Aylanasi deyarli tekis bo‘lgan ark.

**Trimming joist** To‘sini. Pol osti to‘sini.

**Trimstone, trim** Bezak toshi. Binoda boshqa materiallar orasida bezak uchun o‘rnatalgan tosh.

**Tringle** Tringel. Kichik to‘rburchak botiq yuza hosil qilgan chiziq.

**Tripartite vault** Uchburchak gumbaz. Uyg‘onish davrida qurilgan bunday gumbaz tomda yaxlit o‘zi joylashmagan. U asosiy gumbaz atrofida chetki qism sifatida qurilgan.

**Triquetra** Uch aylanali. Uch yarim aylanadan tashkil topkan bezak. Ular chetlari bilan birlashkan bo‘ladi.

**U**

**Ubapitam** Hind me‘morchiligidagi moyustun.

**Umbo** Toshkunda. 1. Biroz yuzadan chiqib turgan narsa. 2. Ko‘chada chegarani bildiruvchi yerga qadalgan tosh yoki g‘ishtlar.

**Undercroft** Yer ostida bo‘luvchi maxfiy yo‘lak. **Underpitch groin** Chorraxa kabi kesishkan joy.

**Underpitch vault, Welsh vault** Chorraxa kabi ikki gumbaz kesishmasi.  
**Underthroating** Tashqi devor tepasida yomg'ir suvi tushib ketishi uchun o'yib ishlangan joy.

**Unframed door** Kesakisiz eshik.

**Upana** Hind me'morchiligidga ustun,

**Ustrinum** Rimda jasad yoqlig'an joy.

**Uttira** Hind me'morchiligidga ustun osti, devor usti qatlami.

**Uwa-nuri** An'anaviy yapon me'morchiligidga devor suvog'ining yakuniy qismi.

**Uxmal** Yukatan g'arbining Puuk tepaligidagi joy (Meksika). Mayya me'morchiligidga so'nggi davrlarning eng ajoyib namunasi. Baland maydon ustida qurilgan uylar yaxlit to'rburchak inshootni hosil etadi. 99 metr uzunlikdagi hukmdor saroyi Puuk madaniyatining eng muhtasham binosidir. Hovlisining to'rt tomonida saroylari joylashkan. Mazkur madaniyat haqida gapirganda Ulug'verlik piramidasi, Buyuk piramida, Toshbaqa Saroy hamda Kabutarlar saroyini misol qilib keltirishimiz mumkin.

## V

**Vagina** Haykal yoki byustuni ko'tarib turuvchi ustunning tepe qismi.

**Valance** 1. Deraza tepasida bezaklarga chegara bo'lgan hoshiya. 2. Parda.

**Valetudinarium** Qadimgi Rim shifoxonasi.

**Vallatorium** Binoni loyihalashtirish ma'nosini beruvchi lotincha atama.

**Valley** Tomning ikki nishabi burchakda tutashkanidan hosil bo'lgan ariq.

**Vallum** Rimliklar lagerini o'ragan qo'rg'on.

**Valva** Eshik tabaqasi.

**Vamure, valmure, vauntmure** 1. Asosiy qo'rg'on devori oldidan o'rnatilgan uncha mustahkam bo'lmagan devor. 2. Qo'rg'on tagidagi yo'ika.

**Vane, weathercock, weathervane** Asosan xo'roz shaklida bo'lgan, antenna kabi baland o'rnatiluvchi shamol yo'nalishini ko'rsatadigan qurilma.

**Variegated** Turli ranglar nomutanosib chizilgan material.

**Vaulsura** Lotin tilida gumbaz.

**Vault Gumbaz.** Ark qurish tamoyillariga asoslanib bunyod etilgan gumbaz.

**Vault bay** Ikki arkli qovurg'a orasidagi gumbaz qismi.

**Vaulted** 1. Gumbazli qilib qurilgan. 2. Gumbaz bilan yopilgan.

**Vaulting** 1. Gumbaz qurish. 2. Umumiy gumbazlar.

**Vaulting capital** Gumbaz ostidagi ustunning tepe qismi.

**Vaulting course** Gumbazlar ustiga terilgan toshlarning gorizontal qatori.

**Vaulting shaft** Gumbaz qovurg'asini ko'taruvchi ustun.

**Vault rib** Gumbazga birikib, uni ostidan ko'tarib turuvchi arkli qovurg'a.

**Vedika** Vedika. 1. Hindlar Vedalarini o'qiydigan zal. 2. Muqaddas hududni o'rab turgan qurilma.

**Velarium** Velariya. Rim teatrlarida soya uchun o'rnatilgan chodir.

**Venetian, Venetian mosaic** Venetsiya mozaikasi. Kattaroq marmar bo'laklaridan terilgan mozaika.

**Venetian arch** Venetsiya arki. Bunday arkning yuqori qismi qalin bo‘ladi. Ya‘ni arkning ikki yonida, ark ostidagi tosh ark yuqorisidagi toshdan ingichka bo‘ladi. Toshlarning har biri mos tarzda qalnlashib boradi.

**Venetian dentil** Venetsiyacha kungura. Devor yuzasida mavjud bo‘lgan tish shaklli bezak.

**Venetian door** Venetsiya eshigi. Ikki yonida uzun ingichka derazalari bo‘lgan eshik.

**Venetian window, Palladian window, Diocletian window** Venetsiya derazasi. Neoklassik usulga xos katta rom. Romlar oralarida ustunlar shiftga tayanch bo‘ladi. O‘rtada joylashkan deraza ikki chetidagiga nisbatan kattaroq bo‘lib, ba‘zan arkli ishlangan.

**Veranda, verandah** Yozda o‘tirishga mo‘ljallangan ochiq ayvon.

**Verge 1.** Tom nishabi yonidagi yog‘och. **2.** Ustunning bezakli qismi.

**Vergeboard Kokil.** Tom nishabлari yonini bezatkan yog‘ochli bezak.

**Verge fillet** Tomning yon qismiga qoqilgan taxta.

**Vermiculated** Xuddi ilon izi kabi betartib o‘ramlar ko‘rinishidagi bezak.

**Vermiculated mosaic** Qadimgi Rimning eng nafis mozaikalaridan biri. Biz ularda bukilgan va to‘lqinsimon naqshlarni ko‘ramiz.

**Vermiculated work** Toshli yuzaning bir shakli. To‘lqinsimon uzuq-uzuq o‘yib ishlangan joylari bo‘ladi. **2.** Chuvalchang iziga o‘xshagan bezakli mozaikaning bir turi.

**Vermiculatum opus (vermiculated mozaic)**

**Vernacular architecture** Ota me’morchilik. Mahalliy qurilish materiallari va uslubidan kelib chiqqan holda uy qurish usuli.

**Versurae** Rim teatri sahna binosining yon tomonlari.

**Vesara** Shimoliy va janubiy Hindistonning buniyodkorlik an‘analarini birlashtirgan me’moriy uslub.

**Vestiary** Kiyim javoni yoki kiyimxona.

**Vestibule** Dahliz. Kattaroq xonaga olib kiruvchi dahliz.

**Vestibulum** Darvozasi ichkariroqda joylashkan uyning tashqi yo‘lagi. Bir tomoni darvoza, ikki tomoni bino devorlari bilan o‘ralgan. To‘rtinchi tomoni ko‘chaga ochiq qaratilgan.

**Vestry, re vestry** Cherkovning bir xonasi. U yerda ruhoniy va xo‘r ijrochilarining kiyimlari, shuningdek turli xil buyumlar saqlangan.

**Via Shahar** va qishloqlarda bo‘lgan tosh yotqizilgan ko‘cha. Piyoda va ot aravalari qatnagan. Undan tashqari ikki shaharchani bog‘lovchi yo‘l ham shunday atalgan. Rimning yo‘llari uch qatlamlı bo‘lgan: qum, tosh va qoplama. Qoplamalar sopol va betonli ham bo‘lgan. Yo‘lning ikki chetida piyodalar qatnov yo‘lakchalar bo‘lib, ular qadalgan g‘ishtlar bilan chegaralab chiqilgan.

**Via Appia** Apiya yo‘li. Baland qurilgan birinchi Rim yo‘li. U yo‘l buniyodkori Appius Claudius nomi bilan atilib, miloddan avvalgi IV asr oxirlariga taalluqli. Dastlab Rim shahrini Kapuya bilan bog‘lagan, keyin yana uzaytirilgan.

**Via munita** Tosh yo‘li. Rimning tosh terilgan ko‘chasi.

**Via terrena** Yo‘l. Yer sathi bilan barobar Rim yo‘li.

**Vicarage** Vikar uyi. Angliyada katta ruhoniying uyi.

**Victorian architecture** Viktoriya davri me'morchiligi. Qirolicha Viktoriya (1837-1901) nomi bilan atalgan Britaniyaning bunyodkorlik davri.

**Vicus** Uy. Dastlab bir uy nomi bo'lgan. Keyin bir necha uylar jamlanmasi nomiga aylangan.

**Vignette Panjara.** 1. **Vinette.** 2. Fransuz binolarida polgacha ishlangan derazaning ostki panjarasi.

## W

**Wa An'anaviy Xitoy me'morchiligidagi sopol parchinli tom.**

**Wa goya** An'anaviy yapon me'morchiligidagi tom tuzilmasi. Yevropadagi nishabli to'sinlardan farqli ravishda faqt gorizontal va vertikal yog'ochlar ishlataladi.

**Wainscot** Devorning pastki qismida taxtalarni biriktirib hosil qilingan bezak.

**Wall arcade** Devorda bo'rttirilgan ustunlar qatorining tasviri.

**Wall column** Devoriy ustun. Devor bilan qisman yoki to'liq birikkan ustun.

**Wall garden** Supali bog'. Pastgina tosh devorlar ichiga tuproq to'lg'izib hosil qilingan gulzorlar.

**Wall piece (wall plate2)**

**Wall plate** 1. To'sin ostidagi qattiqroq devor qismi. 2. Devorga vertikal yopishtirib o'rnatilgan taxta.

**Wall rib** Devor qovurg'asi. O'rta asr gumbazlarida mustahkamlik uchun gumbaz bilan biriktirib qurilgan qovurg'a.

**Wall shaft** Gumbaz qovurg'asini ko'targan ustun.

**Wall tower** Burj minora. Qo'rg'oni mustahkamlash maqsadida devorga biriktirib qurilgan minora.

**Ward** Qasrning tashqi mudofaasi.

**Wardrobe, garderoibe** Kiyimlar uchun joy, xona.

**Watching loft** Nazargoh. 1. (excubitorium). 2. Baland bino va minoralar tepasidagi kuzatuv maydoni, atrofni tomosha qilish maydoni.

**Water leaf** 1. Nilufar gulli tasvir. 2. Xuddi nilufar gulli, lekin ikkiga bo'lib tasvirlangan bezak. 3. XII asr oxirlarida nilufar guli tasviri ustun tepe qismi bezagi.

**Water ramp** Sharshara hovuzi. Zinapoyasimon qurilgan hovuzchalar. Suv tepasidan pastiga sharshara bo'lib oqib tushaveradi.

**Wattle** O'zarobog'langan ustunlarni birlashtirgan yaxlit qurilma.

**Wattle and daub, wattle and dab** Qadimgi eng oddiy qurilish usullaridan. Qamishdan to'qilgan bo'yralar devor qilib o'rnatilib keyin ustidan suvalgan.

**Wave molding, ounody molding, swelled chamfer, undulating molding, undy molding** To'lqinsimon uslubiy naqshlarga ega bezak qoplamasи.

**Weatherboarding** AQShga odamlar yangi ko'chib borgan paytda uy qurilishida ishlatkan taxta. U tashqi devor yuzasini qoplagan. Imoratning o'zi yo'gochlardan bunyod etilgan.

**Weathered** 1. Barcha ob-havoda chidashi kerak bo'lgan material yoki yuzanaging sifati. 2. Suv o'tkazmaydigan yuzaga ega bo'lish.

**Weather slating, slate hanging** Suv o'tkazmaslik maqsadida devorga tik o'rnatilgan shifer.

**Weather tiling, tile hanging** Namlanishga qarshi devorga vertikal qoqib yopishsirib chiqilgan sopol parchinlar.

**Weeping cross** Yig'lanadigan joy. Odamlar gunohi haqida so'zlanadigan joy.

**Well curb** Sardoba. Quduq ustini o'rab turgan qurilma.

**Welsh arch** Uels arki. Birgina markaziy toshdan iborat tekis ark. U devorning ikki chetida moslab ishlangan toshga o'rnatiladi.

**Welsh groin** Uelscha gumbaz kesishuvi. Katta va kichik gumbazlar kesishuvi.

**West end** G'arbiy chekka. Cherkovning g'arb tomonida joylashkan oxirgi qismi.

**Wheel tracery** Dumaloq deraza bezagi.

**Wheel window** Dumaloq shakida ishlangan deraza. Bejirim bezaklarga boy bo'ladi.

**Whispering gallery, whispering dome** Aks-sado qaytaruvchi katta gumbaz.

**Wicket** Kattaroq darvoza ichidagi kichikroq eshik.

**Widow's walk** Beva supasi. Inglizlarning Amerikada qurban dastlabki inshootlaridan bo'lib, bino tomidagi tor bo'lgan dengizni kuzatish maydonchasiga aytildi.

**Wigwam** Sharqiy Amerikadagi turar joy. Ko'rinishi dumaloq yoki tuxumsimon. Tomi ham dumaloq bo'lib zinchangan teri bilan yopilgan.

**Wine cellar, wine vault** Sharob ombori. U yerto'la qismi bo'lib, salqin va qorong'i bo'lgan.

**Wing** Qanot. Binoning asosiy qismidan yon tomoniga uzaytirib qurilgan quruq devor.

**Winged bull** Qanotli buqa. Ossuriya saroylarida peshayvon qismida ishlangan qo'riqchi haykal. U odam boshli, burgut qanotli va buqa tanali bo'lgan.

**Withe, wythe** Novda. 1. Mo'rini ikkiga bo'lувчи moslama. 2. Savat to'qishda ishlatiladigan tol novdasi. Katta to'qimalar tom yopishda ishlatiladi.

**Wrought-iron work** Metall issiq yoki sovuq bo'lishidan qat'iy nazar uni bolg'alab bezakli shaklga keltirish ishi.

**Wrought nail** Kallasi bezakli, qo'lda tayyorlangan mix.

## X

**Xenodocheum** Mehmonlarni rasmiy qabul qilishga mo'ljallab qurilgan xona.

**Xyst** Yog'ingarchilik kunlarda panada mashq qilish uchun qurilgan ustunli inshoot.

## Y

**Yacata** Meksikada 1500-yili qurilgan Tzintzuntzan ibodatxonasining dumaloq tepalikli poydevori.

**Yachin and Boas** Sulaymon ibodatxonasi qarshisidagi ikki ochiq ustun.

**Yagura** Yaponianing har qanday minorasi.

**Yane** Yapon me'morchiligidagi tom.

**Yao** Xitoy shimoli tog'laridagi g'or ichi turar joylari. Ular uch turli bo'ladi: 1. Qoya ichini o'yib ishlanganlari. 2. Qoya ichini o'yib qoplama bilan o'ralganlari. 3. Qoya ichida gumbazli qilib ishlangan xona.

**Yasti** Haykal ustunining markaziy qismi.

**Yatzia** Sulaymon ibodatxonasini uch tomondan o'ragan uch qavatli bino.

**Ying pi** Xitoy**ф** hovlilarida nazardan pana bo‘lish uchun qurilgan yolg‘iz devor. Ular shamoldan himoyalash vazifasini ham o‘taydi va hech qaysi devorga biriktirilmaydi. Devorga ba‘zan bezak berilgan.

**Yosemune yane** An’anaviy yapon me’morchiligidagi tik nishabli tom. Umumiy ko‘rinishi to‘rburchak bo‘lsa ham tepadan ikki uchburchak yuzalar birikkanga o‘xshaydi.

## Z

**Zapotec** Meksikadagi Mesoamerika eklektik me’morchiligi. Zapotec Olmec madaniyati ta’sirida shakklangan (700-300). Shuningdek Gvatemala va Teotihuakan madaniyatları ham ta’sir etkan. Ularning eng diqqatga sazovor yodgorligi piramidalardir. Yuqorisiga torayib boruvchi katta zinalardan ko‘tariladi. Tepasida aylana bo‘ylab joylashkan ustunlari bor.

**Zashiki** Yapon usulidagi mehmonxona. Poliga tatami to‘shaladi.

**Zeta** 1. Kichik yopiq xona. 2. Cherkovda hujjatlar saqlangan xona.

**Ziarat** Hindistondagi islomiy ziyyaratgoh - bir avliyo maqbarasi.

**Ziggurat** Zikkurat. Mesopotamiyaning ibodat minorasi. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillik oxirlaridan boshlab bunyod etilgan. Uch qavatdan yetti qavatgacha bo‘lgan. Tepadagi qavatlarning hajmi kichrayib boradi. Ular xom g‘ishtdan bunyod etilgan.

**Zigzag molding, dancette** W shaklli chiziqlar, bezaklar.

**Ziyada Masjid** atrofidagi hovli va ekinli ochiq joylar.

**Zoophoric column** Hayvonlar tasvirli tushirilgan ustun.

**Zoophorus** Iona usulidagi farizalarda hayvonlar tasviriga ega qism.

**Zosaku** An’anaviy yapon me’morchiligidagi shift va polga o‘rnataladigan qo’shimcha materiallari.

**Zotheca** Tokcha, devoriy javon.

**Zulla** Masjiddagi ustunlar tizmasi.

**Zvonnitsa** Ruslarning qo‘ng‘iroqli minorasi.

**Zwinger** 1. Shaharning mudofaa devori. 2. Zamonaliv nemis saroylarining nomi yoki saroyning bir qismi.

**Zystos** Qadimda gimnastika mashqlari uchun mo‘ljallangan joy.

## MUNDARIJA

«Me'morchilik asoslari» faniga kirish. Me'morchilik soha, turlari va uslublari.....	3
Me'morchilikda bino konstruksiyalari.....	16
Ibtidoiy jamoa davri me'morchiligi.....	39
Qadimgi Misr me'morchiligi.....	50
Old Osiyo me'morchiligi. Ikki daryo oralig'i va Mesopatamiy.	
Midiya va Eron ahamoniylari davri me'morchiligi.....	71
Qadimgi Gretsiya me'morchiligi.....	87
Qadimgi Rim me'morchiligi.....	106
Janubiy-Sharqiy Osiyo va Uzoq Sharq me'morchiligi .....	122
Ilk O'rta asrlar va Vizantiya me'morchiligi .....	140
Roman davri arxitekturasi... .....	151
Gotika davri me'morchiligi .....	165
Uyg'onish davri me'morchiligi.....	179
Barokko va rokkoko uslubi me'morchiligi .....	194
Klassitsizm, Ampir uslubi me'morchiligi .....	202
Eklektizm. Modern. Konstruktivizm. Postmodernizm uslubi me'morchiligi.....	215

ISBN 978-9943-11-927-7



A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-11-927-7.

9 789943 119277

